

O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O`RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

B.Ruzmetov, O.Bekturdiev, S.Matqulieva
D.Matkarimov, Q.Yuldasheva

TANNARX KALKULYATSIYASI

Toshkent - 2006



O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O`RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI
O`RTA MAXSUS, KASB-HUNAR TA`LIMI MARKAZI

B.RUZMETOV, O.BEKTURDIEV, Q.YO`LDASHEVA,
S.MATQULIEVA, D.MATKARIMOV

T A N N A R X

K A L K U L A T S I Y A S I

Kasb-hunar kollejlari uchun o`quv qo`llanma

Toshkent – "ILM ZIYO" – 2006

prof.B.Ro`zmetov, dots O.Bekturdiev, k.o`q.S.Matqulieva,
k.o`q.D.Matkarimov, Q.Yuldasheva, Tannarx kalkulyatsiyasi, Toshkent
«_____» 2006 yil 232 bet

Mas'ul muharrir:

iqtisod fanlari nomzodi, dotsent **Salaev S.K.**

Taqrizchilar:

iqtisod fanlari doktori, professor **Do`sjanov T.D.**

iqtisod fanlari nomzodi, dotsent **Masharipov O.A.**

Ushbu qo`llanma Oliy va o`rta maxsus ta'lim davlat standartlari asosida yozilgan bo`lib, iqtisodiyot va qishloq xo`jaligi yo`nalishidagi kasb-hunar kollejlari talabalariga mo`ljallangan. Undan oliy o`quv yurtlari iqtisodiyot yo`nalishidagi talabalari, iqtisodchilar, hisobchilar, moliya va soliq tizimi xodimlari, korxona rahbarlari ham foydalanishlari mumkin.

Qo`llanmada qishloq xo`jalik, sanoat mahsulotlarini hamda xizmat ko`rsatish sohasida mahsulotlar tannarxini kalkulyatsiya qilish va ularni kompyuterlashtirish qoidalari nazariy va amaliy jihatdan ko`rsatib berilgan.

O`quv qo`llanma Urganch Davlat universiteti Ilmiy kengashining 2005 yil 8 iyuldagi № 2-sonli bayonnomasi bilan nashrga tavsiya etilgan

© B.Ruzmetov, A.Bekturdiev, S.I.Matqulieva, D.M.Matkarimov,
Q.Yuldasheva, Toshkent «_____» 2006

KIRISH

O'zbekistonda oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlari bazalarini mustahkamlash, ta'lim-tarbiya sifati va samaradorligini oshirish, iqtisodiyot tarmoqlari uchun zarur mutaxassis kadrlarni jahon talablari darajasida tayyorlash bo'yicha tegishli tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Davlat ta'lim standartlarining tasdiqlanishi va joriy qilinishi bilan ta'limning barcha turlarida sifat jihatidan yangi, zamonaviy o'quv adabiyotlarini yaratish asoslari vujudga keldi. Oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlari uchun yangi standart va talablarga ham tuzilishi jihatdan ham mazmunan mos keladigan zamonaviy o'quv adabiyotlarni yaratish va ularni takomillashtirish kun tartibidagi asosiy vazifalardan biridir.

Kasb-xunar kollejlarning «Buxgalteriya hisobi» mutaxassisliklari uchun tayyorlangan «Tannarx kalkulyatsiyasi» o'quv qo'llanmasi ham ana shu talablar asosida yaratildi.

Qo'llanma «Tannarx kalkulyatsiyasi» fani bo'yicha tasdiqlangan namunaviy dastur asosida ishlab chiqilgan bo'lib, unda fanni o'rganishda uzviylikni ta'minlashga katta e'tibor qaratilgan.

O'quv qo'llanma 14 mavzudan iborat bo'lib unda, fanning predmeti, uslubi va vazifalari, ishlab chiqarish xarajatlarini tarkibi, turkumlash, iqtisodiyot tarmoqlarida tannarxni kalkulyatsiya qilish asoslari, xorijiy tajribasi, kompyuter dasturlaridan foydalanish va boshqa masalalar yoritib berilgan.

Qo'llanmada hozir amaliyotda bo'layotgan barcha hujjatlar, shakllar, jadvallar aniq me'yorlar orqali ko'rsatilgan. Tannarx kalkulyatsiyasida 2310-«YOrdamchi ishlab chiqarishlar», 2510-«Umum ishlab chiqarish xarajatlari» va 9400-«Davr xarajatlari» schetlarining ishlatilishi va ularning yil oxirida yopilishi kabi qoidalar misollar orqali ko'rsatib berilgan. Tugallanmagan ishlab chiqarish xarajatlarini taqsimlanishi ham to'liq va aniq tahlil qilingan.

O'quv qo'llanma shu sohadagi o'zbek tilida chop etilayotgan dastlabki qo'llanmalardan biri bo'lganligi bois ba'zi kamchiliklardan holi bo'lmasligi mumkin. Mualliflar qo'llanma haqida bildirilgan fikr va mulohazalarni bajonidil qabul qiladilar va o'zlarining minnatdorchiligini izhor qiladilar.

I-MAVZU. «TANNARX KALKULYATSIYASI» FANINING PREDMETI, USLUBI VA VAZIFALARI.

- 1.1. «Tannarx kalkulyatsiyasi» fanining predmeti
- 1.2. Fanning uslubi va vazifalari
- 1.3. «Tannarx kalkulyatsiyasi» fanini boshqa fanlar bilan aloqasi

1.1. «Tannarx kalkulyatsiyasi» fanining predmeti

«Tannarx kalkulyatsiyasi» fanining predmeti deganda tannarxni kalkulyatsiya qilish jarayonidagi hodisalarni iqtisodiy qonunlar asosida bog`lab o`rganish tushuniladi. Tannarxni kalkulyatsiya qilish jarayonidagi hodisalarga quyidagilar kiradi:

- ishlab chiqarilayotgan mahsulot tarkibidagi xomashyo, materiallarni ishlab chiqarishga kiritish usullari;
- mahsulot ishlab chiqarish jarayonida qatnashayotgan ishchilarga hisoblanadigan ish haqining turlari;
- asosiy vositalar va nomoddiy aktivlarga amortizatsiya hisoblash usullari va ularni ishlab chiqarishda qatnashishi va boshqalar.

«Tannarx kalkulyatsiyasi» fani qishloq xo`jalik mahsulotlarini, sanoat va yordamchi xo`jalik korxonalarining ishlab chiqarish mahsulotlarini rejali, haqiqiy tannarxini aniqlash yo`llarini o`rganadi. Ayniqsa, qishloq xo`jalik mahsulotlaridan paxta, sabzavot, poliz, makkajo`xori, g`alla, em-xashak ekinlari, go`sht, sut mahsulotlari, ot-ulov, transport xizmatlari, umumiy ovqatlanish korxonalari taomlari tannarxi kalkulyatsiyasi koeffitsent va me'yorlar asosida hisoblab chiqarish yo`llari batafsil ko`rsatiladi.

Tannarxni o`rganishning maqsadi xo`jalik zahiralarini topish va ulardan to`la to`kis foydalanish tadbirlarini ishlab chiqish, mahsulot tannarxini kamaytirish, samaradorlikni oshirish, sotishdan ko`proq foyda olishni ko`zlab tajriba va ilmiy izlanishlar qilishdir.

1.2. Fanning uslubi va vazifalari

Tannarx kalkulyatsiyasi fanining vazifalari quyidagilardan iborat:

- Xo`jalik yurituvchi sub'ektlarda mahsulot ishlab chiqarish va xizmatlar ko`rsatish reja tannarxi ko`rsatkichlarini aniqlash va nazorat qilish;
- Xo`jalik hisobini joriy etish va mustahkamlashga yordam berish, hamda mahsulot bahosini aniqlash;
- Xarajatlar tarkibini aniqlash va ularni tejab sarflash natijasida tannarxni kamaytirish;
- Har bir tarmoq va mahsulotlar bo`yicha ishlab chiqarish xarajatlarini o`z vaqtida aks ettirish, ularning aniq miqdorini hisoblab borish va mahsulotning turlari bo`yicha uning tannarxini aniqlash;
- Korxonalarda xo`jalik hisobining moliyaviy faoliyati yakunlarini tahlil qilish hamda uning iqtisodiy samaradorligini oshirish imkoniyatlarini yaratish;
- Tannarx kalkulyatsiyasini o`z vaqtida rejali tuzish va yuqori tashkilot hisobotlarida aks ettirish;
- Tannarxni kamaytirish omillarini o`rganish;
- Tannarxni kalkulyatsiyalashda davlat standartlari, nizom, koeffitsientlar, me'yorlar, yo`riqnomalarga to`la rioya qilish;
- Tannarx kalkulyatsiyasida turli kompyuter dasturlaridan samarali foydalanish.

Fanning mazmuni – iqtisodiyot tarmoqlarida mahsulot ishlab chiqarishni tashkil etish va uni haqiqiy tannarxini hisoblash to`g`risidagi iqtisodiy fandir. Bu fanning mavzulari sanoat, qishloq xo`jaligi va yordamchi xo`jalik mahsulotlarini tannarxini hisoblash va ularning rivojlantirishdagi iqtisodiy qonuniyatlarini o`rganishdan iborat. Bunda mahsulot birligiga eng kam mehnat va mablag` sarflab, sanoatda, qishloq xo`jaligida ko`proq mahsulot etishtirib, mahsulot tannarxini kamaytirishga e'tibor qaratiladi.

Tannarxni kalkulyatsiya qilish mehnat jamoalari faoliyatining yakuniy natijalarini ko`p jihatdan oldindan belgilab berishga qaratiladi. «Tannarx kalkulyatsiyasi» fani ishlab chiqarishda mahsulot bahosini ob'ektiv ravishda belgilab beradi, foyda va zararni, rentabellik darajasini aniqlashda katta omil hisoblanadi.

Fanning metodi. Fan boshqa fanlar kabi tannarxni kalkulyatsiya qilish jarayonida har xil tadqiqot usullari, jumladan, statistik, iqtisodiy, matematik usullar va kompyuter dasturlaridan foydalanadi.

Tahlil qilish. Bu usulda predmet yoki xodisaning har bir qismini alohida o`rganish, ular orasidagi bog`lanishlarni tadqiq qilish maqsadida

ularni tarkibiy qismlarga ajratib, xarajat moddalari tahlil qilinadi. U albatta, sintez qilish bilan to'ldiriladi. Chuqur taxlil qilmay turib, sintez qilib bo'lmaydi. Shuning uchun, tannarxga ta'sir ko'rsatuvchi omillar tahlil qilinadi.

Monografik usul. Mahsulotlar tannarxini monografik usulda o'rganish uchun ilg'or tajribalardan foydalaniladi. Tadqiqotning ana shu usulini qo'llash ko'pgina tashkiliy, iqtisodiy, ijtimoiy masalalarni to'g'ri hal qilish imkonini beradi.

Matematik usul. Tannarxni kalkulyatsiya qilishda kompyuter dasturlari va axborot texnologiyalaridan foydalanilsa hisoblash ishlari ancha osonlashadi va baholarni to'g'ri belgilash amalga oshiriladi.

Statistik usul. Bu usulda tannarxni guruhlash, unga ta'sir qiluvchi omillar o'rganiladi va solishtirish yo'li bilan tahlil qilinadi.

1.3. «Tannarx kalkulyatsiyasi» fanini boshqa fanlar bilan aloqasi

Bozor iqtisodiyoti sharoitida, mahsulotlarning ishlab chiqarish bahosini belgilash maqsadida sanoat, qishloq xo'jaligi, yordamchi xo'jaliklar, umumiy ovqatlanish korxonalari mahsulotlarini kalkulyatsiyalash amalga oshiriladi.

Tannarx kalkulyatsiyasi xo'jalik hisobini joriy qilishning muhim vositasi bo'lib xizmat qiladi va mulklarni saqlanishini nazorat qiladi. Korxonalarda ishlab chiqarilgan mahsulotning qancha so'mga tushganligini bilish muhim vazifa hisoblanadi. Bu vazifani bajarish uchun buxgalteriya hisoboti qonun va qoidalariga monand mahsulot tannarxi aniqlanadi va hisob - kitob qilinadi.

O'zbekistonda tannarx kalkulyatsiyasi, buxgalteriya hisobi va hisobotini tashkil qilish va yuritish O'zbekiston Respublikasining 1996 yil 30 avgustda qabul qilingan «Buxgalteriya hisobi to'g'risida»gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 5 fevraldagi 54- sonli «Mahsulot (ishlar xizmatlar)ni ishlab chiqarish va sotish xarajatlarining tarkibini, hamda moliyaviy natijalarini shakllantirish tartibi to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash haqida»gi qarori, Buxgalteriya hisobining milliy standartlari (BXMS), jumladan, 21-BHMS «Xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning moliya-xo'jalik faoliyatining buxgalteriya hisobi schetlarining rejasi va uni qo'llash bo'yicha yo'riqnoma» asosida amalga oshiriladi. Ushbu me'yoriy hujjatlar

buxgalteriya hisobini, tannarx kalkulyatsiyasini tashkil qilish va ularni qo`shib olib borishning umumiy tartiblarini belgilaydi.

Buxgalteriya hisobiga, shu jumladan, tannarxga milliy standartlarning joriy etilishi, asosan mahsulot tannarxini kalkulyatsiya etishning eng muhim qoidalari va tamoyillarini izohlab berish, umumlashtirish, asosiy tushunchalarini bayon qilish va uni O`zbekiston Respublikasida mulkchilik shakllarini o`ziga xos xususiyatlarini e'tiborga olgan holda qo'llash zaruriyatidan kelib chiqqandir.

«Tannarx kalkulyatsiyasi» fani iqtisodiy fanlardan buxgalteriya hisobi, statistika, iqtisodiy tahlil, mikroiqtisodiyot, menejment, marketing, korxona iqtisodiyoti, iqtisodiy geografiya kabi fanlar bilan aloqada bo`ladi. Ayniqsa, buxgalteriya hisobi fani bilan uzviy bog`langan bo`lib, rejalashtirish, boshqarish kabi yo`nalishlarda iqtisodiy kategoriyalar asosida faoliyat ko`rsatadi.

Mavzuni o`zlashtirish uchun zarur tayanch tushunchalar:

Fanning predmeti, fanning metodi, fanning vazifalari, tahlil qilish, monografik usul, matematik usul, statistik usul

Mavzuni mustahkamlash uchun nazorat savollari:

1. «Tannarx kalkulyatsiyasi» fani nimani o`rganadi?
2. «Tannarx kalkulyatsiyasi» fanining vazifalari nimalardan iborat?
3. «Tannarx kalkulyatsiyasi» fanini o`rganishning qanday usullarini bilasiz?
4. Matematik usulning mohiyati nimada?
5. «Tannarx kalkulyatsiyasi» fanining boshqa fanlar bilan aloqasi nimalarda namoyon bo`ladi

II-MAVZU. ISHLAB CHIQARISH XARAJATLARI VA MAHSULOT TANNARXI

- 2.1. Ishlab chiqarish xarajatlari to'g'risida tushuncha
- 2.2. Ishlab chiqarish xarajatlari hisobini va mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilishning vazifalari
- 2.3. Xarajatlar guruhi va uning tarkibiy qismi

2.1. Ishlab chiqarish xarajatlari

Inson uchun zarur bo'lgan noz-ne'matlarni ishlab chiqarish va xizmatlarni bajarish maqsadida yuz minglab kichik, o'rta va katta hajmdagi korxonalar, xo'jaliklar qatnashadi, ularda o'n, yuz millionlab kishilar mehnat qiladi. Oqibatda, 25 milliondan ortiq har xil iste'mol qiymatiga ega bo'lgan tovarlar turlari yaratiladi va xizmatlar bajariladi.

Bu boyliklarni yaratmoq uchun xilma xil ishlab chiqarish resurslarini sarflash talab qilinadi.

Mahsulot ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatish uchun sarflangan bu xarajatlarga **ishlab chiqarish xarajatlari** yoki **xarajatlar**, deb ataladi.

Masalan, fermer qishloq xo'jalik mahsulotining bir turini (paxta, kartoshka, bug'doy va h.k.) etishtirish uchun er, suv, mehnat qurollari va mehnat buyumlariga ega bo'lishi kerak. Ushbu ishlab chiqarish vositalari ijaraga olingan yoki bozordan sotib olingan bo'lishi mumkin.

Fermer o'zi va mehnatga yaroqli oila a'zolari yoki yollanma ishchi kuchi yordamida ishlab chiqarish vositalaridan foydalanish natijasida qishloq xo'jaligi mahsulotini etishtiradi. Uning asosiy maqsadi – mahsulot etishtirib foyda olishdir.

Uning oladigan foydasi bevosita qishloq xo'jalik mahsulotini etishtirish bilan bog'liq bo'lgan bevosita va bilvosita xarajatlar ko'lamiga bog'liq. Shuning uchun, u mahsulot etishtirish davomida sarflanadigan xarajatlar ko'lamini bilishi va ularni sotib olish va sarflash ustidan nazorat qilishi kerak. Chunki, 1 so'mlik noo'rin yoki ortiqcha sarflangan xarajat uning oladigan foydasini 1 so'mga kamayishiga sababchi bo'ladi.

Mahsulot ishlab chiqarish jarayoniga qatnashadigan xarajatlar o'z navbatida ijtimoiy va individual xarajatlarga bo'linadi. Ijtimoiy xarajatlar, u yoki bu turdagi ishlab chiqarilgan mahsulotlar jamiyat, davlat, sektor nuqtai nazaridan qanchaga ishlab chiqarilganligini o'zida

ifoda etadi. Masalan, 1 tsentner 1-navli paxta tolasi davlatga qanchaga tushdi? Bu xarajat mamlakatda o`rta hisobda 1 tsentner paxta etishtirish bilan bog`liq bo`lgan xarajat miqdorini o`zida aks ettiradi. Bu esa 1 tsentner 1-navli paxta tolasini jahon bozoridagi bahosi bilan solishtirib, undan keladigan foyda miqdorini aniqlash imkoniyatini beradi.

Individual yoki ayrim fermerning ishlab chiqarish xarajati bu mahsulot fermerga qanchaga tushganligini bildiradi.

Individual ishlab chiqarish xarajati ijtimoiy ishlab chiqarish xarajatidan kam yoki ortiq bo`ladi. Agarda ishlab chiqarish xarajati ijtimoiy xarajatlardan ortiq bo`lsa, ishlab chiqarish egasi sinadi, agarda kam bo`lsa, foyda, oqibatda qo`shimcha foyda olish imkoniyatiga ega bo`ladi.

Ijtimoiy ishlab chiqarish, xarajati, individual ishlab chiqarish xarajatlari darajasiga bog`liqdir. Individual ishlab chiqarish xarajati (mamlakatdagi mavjud bo`lgan tovar ishlab chiqaruvchilar yig`indisi) qancha kam bo`lsa, ijtimoiy ishlab chiqarish xarajati ham shuncha past bo`ladi va aksincha.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida ishlab chiqarish xarajati mahsulot tannarxi ma'nosini anglatadi. Chunki, barcha turdagi individual mahsulot turlari bozorda tovar sifatida sotishda qatnashadi. Bu esa har bir turdagi mahsulotni ishlab chiqarish xarajati miqdorini alohida-alohida aniqlash zaruriyatini keltirib chiqaradi.

Ma'lumki, har qanday tovar qiymati uch qismdan:

- 1) iste'mol qilingan ishlab chiqarish vositalari qiymati (Vq);
- 2) zaruriy mehnat sarfi natijasida yaratilgan zaruriy mehnat sarfi (Zm);
- 3) jamiyat uchun sarflangan mehnat natijasida hosil qilingan mahsulot yoki sof daromad (SD) dan iborat. Tovlar qiymatining dastlabki ikki qismi birgalikda mahsulot tannarxini (Mt) tashkil etadi.

$$Mt = Vq + Zm \quad (2.1.1)$$

Mahsulot tannarxi – bu mahsulotni ishlab chiqarish bilan bog`liq bo`lgan xarajatlarning pulda ifoda etilishidir.

Mahsulot birligi tannarxi (Mbt) – jami ishlab chiqarish xarajatlarini (Ix) yalpi mahsulot (Yam) miqdoriga bo`lish yo`li bilan aniqlanadi.

$$Mbt = Ix / Yam \quad (2.1.2)$$

Mahsulot birligi tannarxi bir birlik mahsulot ishlab chiqarish uchun qancha xarajat sarflanganligini bildiradi. Korxonalarda tannarx

yordamida faqat mahsulotlar ishlab chiqarish uchun sarflangan xarajatlar ko'lamini aniqlash bilan bir vaqtda, ayrim ish turlari (traktor ishi, tonna/km, ozuqa birligi va hokazo) tannarxini ham aniqlashda foydalaniladi.

Xarajatlardan foydalanishni tashkil etish xarajatlar xarakteri jihatidan– **texnologik, ishlab chiqarish, tijorat** (to'la) - tannarxlariga bo'linadi.

Texnologik tannarx - bu mahsulot ishlab chiqarish jarayoni bilan bog'liq bo'lgan xarajatlarga qarab tannarxning tashkil topishidir. Har bir tovar ishlab chiqaruvchi - mahsulot tannarxini texnologik jihatidan yaxshi bilishi kerak. Aks holda, tannarx bilan bog'liq bo'lgan xarajatlarni bir-birlaridan ajrata olishmaydi.

Ishlab chiqarish tannarxi – bu mahsulot ishlab chiqarish bilan bevosita bog'liq bo'lgan xarajatlardan tashkil topadi.

Tijorat yoki to'la tannarx – ishlab chiqarish tannarxi va ishlab chiqarilgan mahsulotlarni sotish bilan bog'liq bo'lgan xarajatlar yig'indisidan tashkil topadi.

Bu uch turdagi mahsulot tannarxini chuqur bilish, har bir tovar ishlab chiqaruvchi, xizmat ko'rsatuvchi uchun zarurdir. Ammo, hozirgi vaqtda mahsulot tannarxini hisoblashda faqat **ishlab chiqarish tannarxi**, deb ataluvchi tannarx amal qilib, uning tarkibi moddiy ishlab chiqarish xarajatlari (mehnat qurollari - mehnat buyumlari – ishlab chiqarishni tashkil etishda qatnashuvchi omillarning oladigan ish haqi, renta, foyda, foiz) dan tashkil topmoqda. Mahsulot ishlab chiqarishda sarflanadigan boshqa xarajatlar – umumxo'jalik, umumishlab chiqarish, mahsulotni realizatsiya qilish bilan bog'liq xarajatlar, soliqlar, bank foizlari, boshqa har xil qarzarlar – olingan foyda hisobiga qoplanmoqda.

Mahsulot tannarxini hisoblashning ikki ko'rinishi: **reja tannarx** – bu biznes rejani tuzishda belgilanadi. Bu tannarx asosan har bir korxonaning o'z faoliyati natijalari asosida yil boshida tuziladi. Bu tannarx – **kutiladigan tannarx**, deb ham ataladi. Bu tannarxni tuzishdan maqsad mahsulot ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish jarayonida tovar ishlab chiqaruvchi tomonidan mahsulot etishtirishda sarflanadigan xarajatlarni taqqoslash uchun foydalaniladi.

Har bir tovar ishlab chiqaruvchi – mahsulotning reja tannarxini belgilashda uning har bir xarajat turlarini sarflashni ilmiy va amaliy jihatdan chuqur o'rganishi va ahamiyat berishi zarur. Chunki, bu kutiladigan tannarx natijasi bevosita ishlab chiqarish natijasiga – foyda miqdoriga ijobiy yoki salbiy ta'sir etadi. Xo'jalikda yil oxirida

mahsulotning erishilgan yoki haqiqiy tannarxini aniqlash imkoniyati paydo bo'ladi.

2.2. Ishlab chiqarish xarajatlari hisobi va mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilish

Xarajatlarni hisobga olishning umumqabul qilingan ta'rifining yoritilishi quyidagicha: «Xarajatlarni hisobga olish bu tegishli xo'jalik yurituvchi sub'ektning faoliyati - ta'minot, ishlab chiqarish va mahsulotlarni sotish, iste'molchiga etkazib berish jarayonlarida sodir bo'lgan voqealarni miqdoriy o'lchash, qayd qilish, guruxlashtirish. tayyor mahsulotlar tannarxining tarkib topishi chegarasi bo'yicha tahlil qilishga qaratilgan va tushunilgan faoliyatdir.

Bu darajada yoritish va tasnif berish sub'ektning faoliyatini boshqarish va moliyaviy natijalarni aniqlash yo'li bilan uning faoliyatini baholash uchun zarur bo'lgan va etarlicha ma'lumotlar bilan ta'minlash imkoniyatini yaratadi.

Mahsulot tannarxi deb, korxona yoki ishlab chiqarish birlashmasi moliya- xo'jalik faoliyatining hamma tomonlarini aks ettiruvchi ko'rsatkichdir. Shuning uchun ishlab chiqarish xarajatlarini hisobga olish va mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilish buxgalteriya hisobining eng asosiy bo'limlaridan biri hisoblanadi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida birlashma va korxona faoliyatini baholashda foyda asosiy iqtisodiy ko'rsatkich qilib belgilangan. Ammo, bu mahsulot tannarxi ko'rsatkichining ahamiyatini kamaytiradi, degan gap emas.

Vazirlik va boshqarmalarga ularning qaramog'idagi korxona va birlashmalar uchun rentabellik ko'rsatkichi o'rniga mahsulot tannarxini kamaytirish bo'yicha reja topshirig'ini tasdiqlash huquqi berilgan. Bu esa, o'z navbatida mahsulot tannarxi ko'rsatkichining muhimligini yana bir bor tasdiqlaydi.

Mahsulot tannarxini kamaytirishdek muhim vazifani hal qilishda ishlab chiqarish resurslarini to'g'ri sarflash, belgilangan sarflash normativlariga rioya qilish, iqtisod qilish tartibini amalda keng qo'llash lozim. Shuning uchun, hozirgi sharoitida ishlab chiqarish xarajatlarini hisobga olish va mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilishni to'g'ri tashkil qilishga katta ahamiyat berilmoqda.

Ishlab chiqarish xarajatlarini hisobga olish va mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilish vazifalari quyidagilardan iborat:

- Mahsulot ishlab chiqarish va uni sotish bilan bog`liq haqiqiy xarajatlarni o`z vaqtida, to`liq hisobda aks ettirish;
- Mahsulot ishlab chiqarish jarayonida moddiy pul va mehnat resurslaridan to`g`ri foydalanish ustidan nazorat olib borishni ta'minlash;
- Hajmi, sifati, assortimenti bo`yicha mahsulot ishlab chiqarish rejasining bajarilishini nazorat qilish;
- Mahsulot ayrim turlarining haqiqiy tannarxini hisoblash.
- Tannarx bo`yicha reja topshirig`i bajarilishini nazorat qilish;
- Ishlab chiqarishda foydalanilmagan imkoniyatlarni aniqlash, xo`jasizlikka, yaraqsiz mahsulotga, nobudgarchiliklar va boshqa ishlab chiqarishdagi unumsiz xarajatlarning bo`lishiga qarshi kurash olib borish;
- Ishlab chiqarish – xo`jalik hisobi faoliyati natijalarini aniqlash;

Ishlab chiqarish xarajatlarni hisobga olish va mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilish orasidagi o`zaro bog`liqlik quyidagilarda ifodalanadi:

- Ishlab chiqarish xarajatlarini hisobga olish va mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilish oldiga bir xil vazifa qo`yiladi, ya'ni, mahsulot ishlab chiqarish bilan bog`liq xarajatlarni o`z vaqtida va to`liq hisobda aks ettirish, ishlab chiqarishda material hamda boshqa tovar-moddiy boyliklarining sarflanishi ustidan nazorat olib borish va hokazo.
- Rejalashtirish, xarajatlarni hisobga olish va mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilishda kalkulyatsiya moddalarining bir xil guruhlanishidan foydalaniladi.
- Xarajatlarni hisobga olish ma'lumotlari asosida kalkulyatsiya tuziladi va tannarx aniqlanadi.
- Ishlab chiqarish xarajatlarini hisobga olish va tannarxni kalkulyatsiya qilishda xarajatlar hisobi va kalkulyatsiya qilishning bir necha xil, ya'ni, oddiy, normativ, buyurtmali, bo`limli va boshqa usullari qo`llaniladi.

Yuqorida keltirilgan o`xshashliklar xarajatlar hisobi va mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilishni bir-biri bilan o`zaro bog`langan holda yoritishni taqozo etadi.

Ishlab chiqarish hisobi va mahsulot tannarxini to'g'ri kalkulyatsiya qilishni tashkil qilmasdan turib sanoat korxonalari ishlab chiqarish – xo'jalik faoliyatini muvaffaqiyatli boshqarib bo'lmaydi.

Har bir korxona yoki birlashmada ishlab chiqarish hisobi va tannarxni to'g'ri tashkil qilishning imkoniyatlari quyidagilardan iborat: ishlab chiqilgan va tasdiqlangan texnologiya rejasining mavjudligi, zamonaviy ishlab chiqarish talablariga javob bera oladigan ishlab chiqarish xarajatlari me'yorining mavjudligi, ombor xo'jaligining to'g'ri tashkil qilinganligi va ishlab chiqarish uchun zarur o'lchov asboblari va moslamalar bilan ta'minlanganligi, ishlab chiqarish xarajatlarining analitik hisobi, kalkulyatsiya moddolari, kompleks xarajatlar moddalarini kalkulyatsiya ob'ektlari o'rtasida taqsimlash usulini mavjudligi va hokazolar.

Sanoat korxonalarida ishlab chiqarish hisobi va mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilish «Xarajatlar tarkibi to'g'risidagi Nizom»ga¹ muvofiq olib boriladi. Mazkur Nizom amaldagi qonun-qoidalar hisobga olingan holda, xo'jalik ob'ektlarida, ya'ni o'zining faoliyatini amalga oshiruvchi yuridik va jismoniy shaxslar ishlab chiqargan mahsulot (ish, xizmat) tannarxiga qo'shiladigan xarajatlar bir xilligini ta'minlash maqsadida ishlab chiqilgan. Nizom buxgalteriya hisobi va soliqqa tortish maqsadlari uchun harajatlarni hisoblash o'rtasidagi farqni hisobga oladi.

Soliqqa tortiladigan foyda buxgalteriya foydasidan farq qiladi, korxona xarajatlarining bir qismi amaldagi soliq siyosatiga ko'ra soliqqa tortiladigan bazaga qo'shilmaydi,

Nizomda xarajatlarni turkumlash va moliyaviy natijalarning tarkib topishining asosiy qoidalari bayon qilingan.

Mahsulot (ish, xizmat) ishlab chiqarish tannarxi deb, mahsulot (ish, xizmat) ni ishlab chiqarish yoki qayta ishlash jarayonida ishlatiladigan tabiat resurslari, xomashyo, materiallar, yoqilg'i, energiya, asosiy fondlar mehnat resurslari hamda ishlab chiqarish bilan bog'liq xarajatlarning puldagi ifodasidir.

Nizomga muvofiq mahsulot ishlab chiqarish tannarxiga, mahsulot ishlab chiqarish va ishlab chiqarishni tashkil qilish bilan to'g'ridan-to'g'ri bog'liq bo'lgan xarajatlar qo'shiladi. Ularga quyidagilar kiradi:

¹ Vazirlar mahkamasining 1999 yil 5 fevraldagi 54-sonli qarori «Mahsulot (ish, xizmat)larni ishlab chiqarish hamda sotish xarajatlarining tarkibi va moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risida Nizom»

bevosita va bilvosita moddiy xarajatlar, bevosita va bilvosita mehnat xarajatlari, ishlab chiqarish bilan bog`liq ustama xarajatlar qo`shilgan holda boshqa bevosita va bilvosita xarajatlar.

Demak, mahsulot ishlab chiqarish tannarxini tashkil qiladigan xarajatlar iqtisodiy mazmuniga ko`ra quyidagi xarajat elementlariga bo`linadi:

a) ishlab chiqarish material xarajatlari (qaytariladigan chiqindilar qiymati chiqarib tashlangan holda);

b) ishlab chiqarish xarajatlaridagi mehnatga haq to`lash xarajatlari;

v) ishlab chiqarishga taalluqli ijtimoiy sug`urta ajratmalari;

g) ishlab chiqarish ahamiyatidagi asosiy fondlar va nomoddiy aktivlar amortizatsiyasi;

d) ishlab chiqarish bilan bog`liq boshqa xarajatlar.

2.3. Xarajatlar guruhi va uning tarkibiy qismi

Mahsulot tannarxi tarkibiga kiruvchi hamma ishlab chiqarish xarajatlari o`zlarining har xil belgilariga qarab guruhlarga bo`linadi.

Ular o`zlarining ishlab chiqarish jarayonidagi rolga ko`ra: **asosiy va ustama xarajatlarga** bo`linadi.

Asosiy xarajatlar bu mahsulot ishlab chiqarishda ustunlik qiluvchi xarajatlardir. Masalan, ish haqi, oзуqа qiymati, asosiy vositalardan foydalanish bilan bog`liq bo`lgan xarajatlar va boshqalar.

Ustama xarajatlarga esa ishlab chiqarishni tashkil etish va korxonani boshqarish bilan bog`liq bo`lgan xarajatlardir.

Xarajatlarni mahsulot tannarxiga kiritish jihatidan ular bevosita va bilvosita xarajatlarga bo`linadi.

Xarajatlar tarkibiy tuzilishiga qarab **oddiy** va **kompleks** xarajatlarga bo`linadi.

Oddiy xarajatlarga mahsulot ishlab chiqarish jarayonida bir element holida (urug` qiymati, ish haqi va boshqa) foydalaniladigan hamda mahsulot tannarxiga to`g`ridan-to`g`ri qo`shiladigan xarajatlar kiradi.

Kompleks xarajatlarga mahsulot ishlab chiqarish jarayonida bir qancha oddiy xarajatlarning birgalikda sarflanib, mahsulot tannarxiga qo`shilishi kiradi. Masalan, ot boqish xarajatlari ot boquvchiga to`langan ish haqi, otga berilgan oзуqа, otxonaning amortizatsiyasi va boshqa xarajatlardan tashkil topadi.

Ishlab chiqarish hajmiga nisbatan xarajatlar **shartli o`zgaruvchan** va **shartli o`zgarmas** xarajatlarga bo`linadi.

Ishlab chiqarish hajmining ortishi natijasida shunga bog'liq holda boshqa xarajatlarning ham orta borishi – **shartli o'zgaruvchan** xarajatlar, deb yuritiladi.

Agarda ishlab chiqarish hajmi o'zgargan holda xarajatlar hajmi o'zgarmay qolsa – bunday xarajatlar **shartli o'zgarmas** xarajatlar, deb aytiladi. Masalan, ma'muriy boshqaruv xodimlari foydalanadigan binolar eskirishi va boshqalar.

Ishlab chiqarish jarayonida qatnashish muddatiga qarab xarajatlar – **joriy va kelgusi yil xarajatlariga** bo'linadi.

Agarda xarajatlar faqat joriy yil uchun tegishli bo'lsa, bunday xarajatlar **joriy yil xarajatlari**, deb ataladi.

Agarda xarajatni kelgusi yilda sarflash nazarda tutilsa yoki joriy yildan kelgusi yilga o'tib ketsa, bunday xarajatlarga **kelgusi yili xarajati** deb aytiladi.

Mahsulot ishlab chiqarishga sarflanadigan xarajatlar o'z xarakteri va sarflanish holatiga qarab quyidagi xarajat guruhlariga bo'linadi:

1. Ish haqi (yagona ijtimoiy ta'minotga ajratiladigan mablag' bilan birgalikda).

2. Moddiy xarajatlar (mahsulot ishlab chiqarish uchun sarflanadigan mehnat qurollari va mehnat buyumlari sarfi).

3. Asosiy vositalar amortizatsiyasi (har bir mahsulot turi bo'yicha sarflangan).

4. Sug'urta to'lovlari.

5. Har xil xarajatlar (er haqi to'lovi, har xil xizmat safari xarajatlari, soliq va to'lovlar, xizmat xaqi, ratsionalizatorlik takliflarini rag'batlantirish xarajatlari, o't o'chiruvchi va har xil saqlash xizmatlari xarajatlari, kadrlar tayyorlash xarajatlari va boshqalar),

Misol. Dehqonchilik va chorvachilik xarajat guruhlarini quyidagicha bo'ladi (2.3.1-jadvalga qarang):

2.3.1-jadval. Dehqonchilik va chorvachilik xarajat guruhlarini

<i>Dehqonchilik</i>	<i>Chorvachilik</i>
1. YOllanma mehnatga to'lanadigan ish haqi	1. YOllanma mehnatga to'lanadigan ish haqi
2. Urug' va ko'chat materiallari	2. Ozuqa
3. Ug'it	3. Hayvonlarni himoya qilish vositalari
4. O'simliklarni himoya qilish vositalari	4. Mehnatlar va xizmatlar
5. Mehnatlar va xizmatlar	5. Asosiy vositalarni saqlash xarajatlari

6. Asosiy vositalarni saqlash xarajatlari	6. Asosiy vositalarni ijaraga olish xarajatlari
7. Erni ijaraga olish xarajatlari	7. Soliq va to'lovlar
8. Soliq va to'lovlar	

Boshqaruv xarajatlari:

- Korxona apparatini saqlash xarajatlari;
- Ijtimoiy sug'urta ajratmalari;
- Sug'urta to'lovlari;
- Ijtimoiy zaruriyatlarga olingan dotatsiya *;
- Yuqori tashkilotlarga to'lovlar;
- Soliqlar;
- Ishlab chiqarish resurslariga to'lovlar;
- Qarz to'lovlari.

Xarajat turlarini umumiy xarajatlardagi tutgan o'rniga mahsulot tannarxi tuzilishi deyiladi.

Ishlab chiqarilgan mahsulotning ayrim turlariga olib borish usuliga ko'ra barcha xarajatlarda **bevosita** va **bilvosita** xarajatlarga bo'linadi.

Bevosita xarajatlarda deb ishlab chiqarilgan mahsulot tannarxiga bevosita qo'shiladigan xarajatlarga aytiladi. Bular ishlab chiqarishda bevosita ishtirok etuvchi xodimlar ish (mehnat) haqi, urug'lik, o'g'it em-xashak, tor ixtisoslashtirishga mo'ljallangan asosiy vositalar eskirishi va boshqalardir.

Bevosita xarajatlarda deb ayni paytda bir necha ishlab chiqarish xarajatiga taqsimlash yo'li bilan qo'shiladigan xarajatlarga aytiladi.

Tarkibiga ko'ra barcha xarajatlarda **elementli** va **kompleks** xarajatlarga bo'linadi.

Elementli xarajatlarda deb o'zlarining iqtisodiy mazmuniga ko'ra bir xil va alohida tarkibiy qismlarga bo'lish talab qilinmaydigan xarajatlarga aytiladi. Masalan, urug'lik va em-hashak, ishlab chiqarishda bevosita band bo'lgan xodimlarning bevosita mehnat (ish) haqi va hokazo.

Kompleks xarajatlarda deb iqtisodiy mazmuniga ko'ra turli xil elementlardan tashkil topgan xarajatlarga aytiladi.

Ishlab chiqarish xarajatlari elementlar va moddalar bo'yicha hisobga olish mahsulot, ish va xizmatlar tannarxini hisoblashda asos bo'lib xizmat qiladi.

* Bozor iqtisodiyoti sharoitida dotatsiyaning ahamiyati, ulushi kamayib boradi.

Mahsulot yoki bajarilgan ishlarning ayrim turlari bo'yicha ularning birligiga to'g'ri keladigan xarajatlarni pul ifodasida hisoblashga **kalkulyatsiya** deyiladi.

Kalkulyatsiya reja, hisobot va kutilayotgan kabi turlariga bo'linadi.

Reja kalkulyatsiyasi reja xarajatlari asosida tuziladi. Masalan, qishloq xo'jalik korxonalarida kutilayotgan kalkulyatsiya 1 oktabrga, dastlabki uch choraklik (to'qqiz oy) ichida qilingan haqiqiy xarajatlar va olingan mahsulotlar xaqidagi ma'lumotlar hamda to'rtinchi chorakda kutilayotgan xarajatlar va olinadigan mahsulotlarning taxminiy hisobi asosida tuziladi. U har bir tarmoqning va butun xo'jalikning joriy yildagi ishlab chiqarish natijalarini oldindan aniqlashda katta ahamiyatga ega.

Haqiqiy tannarx bilan reja tannarxini o'zaro solishtirish mahsulot tannarxini rejasini nazorat qilish va ishlab chiqarish imkoniyatlarini topishda muhim ahamiyatga ega. Buning uchun, qishloq xo'jalik korxonalarida va ularning tarkibiy bo'linmalarida ishlab chiqarish xarajatlarini rejalashtirish va hisobga olish xarajat moddalarining yagona nomenklaturasida tashkil etiladi.

Qishloq xo'jalik korxonalarida ishlab chiqarish xarajatlari qishloq xo'jalik ishlab chiqarish tarmoqlari (o'simlikchilik, chorvachilik, sanoat, ishlab chiqarish) bo'yicha 2000-«Asosiy ishlab chiqarish» sintetik schetida hisobga olinadi.

YOrdamchi ishlab chiqarishlar bilan bog'liq xarajatlar 2300-«YOrdamchi ishlab chiqarishlar» schetida, ishlab chiqarishni tashkil etish va boshqarish bilan bog'liq xarajatlar 2500-«Umum ishlab chiqarish xarajatlari» va davr xarajatlari 9400 «Davr xarajatlari» sintetik schetlarida hisobga olinadi.

Bu schetlarda xarajatlar odatda, yil davomida yig'ib boriladi va yil oxirida taqsimlash yo'li bilan ishlab chiqarish xarajatlariga qo'shiladi.

Mavzuni o'zlashtirish uchun zarur tayanch tushunchalar:

Kalkulyatsiya, ijtimoiy xarajatlar, individual xarajatlar, mahsulot tannarxi, mahsulot birligi tannarxi, asosiy xarajat, ustama xarajat, bevosita xarajatlar, bilvosita xarajatlar, elementli xarajatlar, kompleks xarajatlar, shartli o'zgaruvchan xarajat, shartli o'zgarmas xarajat, joriy xarajat, kelgusi yil xarajati

Mavzuni mustahkamlash uchun nazorat savollari:

1. Mahsulot tannarxini hisoblash nima uchun kerak?
2. Joriy xarajat deb qanday xarajatga aytiladi?
3. Oddiy xarajat deb qanday xarajatga aytiladi?
4. Asosiy xarajatlari deb qaysi xarajatlarga aytiladi?
5. Ustama xarajatlari nima?

Amaliy mashg'ulot

Xarajat moddalari	Xarajatlar			
	Bevosita	Bilvosita	Shartli o'zgaruvchan	Shartli o'zgarmas Ustama
1. O'simliklarni himoya qilish vositalari				
2. Asosiy xom-ashyo				
3. Ishlab chiqarish ishchilariga hisoblangan ish haqi.				
4. Ma'muriy xodimlar foydalanadigan kompyuterning eskirishi				
5. Asosiy ishlab chiqarish ishchilarining maxsus kiyimi				
6. Mineral o'g'itlar				
7. Em-hashak				
8. Mashina-traktor parki xizmatlari uchun to'lov				
9. Qishloq xo'jalik texnikasi eskirishi				
10. Ishlab chiqarish asbob-uskunasi eskirishi				
11. Ma'muriy boshqaruv xodimlari foydalanadigan binoning eskirishi				
12. Ishlab chiqarish binosini saqlash xarajatlari				
13. Ma'muriy xodimlarga hisoblangan ish xaqi				
14. Asosiy ishlab chiqarish ishchilariga hisoblangan ish haqidan majburiy ajratmalar.				
15. Oldindan to'langan ijara haqi				
16. Sug'urta xarajatlari				
17. Xizmat safari xarajatlari				
18. Ozuqa				
19. Hayvonlarni himoya qilish vositalari				

Xarajat moddalari	Bevosita	Bilvosita	Xarajatlar		Ustama
			Shartli o`zgaruvchan	Shartli o`zgarmas	
20. Bank kreditining foiz xarajati					


Topshiriq: Berilgan xarajat moddalarini xarajat turlariga ajrating.

III-MAVZU. XO`JALIK YURITUVCHI SUB'EKTLAR FAOLIYATINING XARAJATLARINI TURKUMLASH

- 3.1. Ishlab chiqarish jarayonida xarajatlarni boshqarish
- 3.2. Ishlab chiqarishga sarflangan xarajatlarning umumiy turkumlanishi
- 3.3. Ishlab chiqarilgan mahsulotning tannarxini kalkulyatsiya qilish va baholash maqsadida xarajatlarni turkumlash
- 3.4. Tovar-moddiy zahiralarni ishlab chiqarishga sarflanishini baholash usullari
- 3.5. Mahsulot ishlab chiqarish va sotish xarajatlari tarkibida asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar amortizatsiyasini hisobga olish usullari
- 3.6. Sotish hamda moliyaviy faoliyat bilan bog`lik bo`lgan xarajatlar va ularning turkumlanishi

3.1. Ishlab chiqarish jarayonida xarajatlarni boshqarish.

Ishlab chiqarish jarayonining asosiy bosqichlari bo`lib ta'minot, ishlab chiqarish va sotish hisoblanadi. Jarayonlar o`z ichiga turli xil xo`jalik muomalalarini oladi (3.1.1-chizma).



3.1.1-chizma. «Xarajatlar - ishlab chiqarish» tizimi

Chizmaning ma'nosi shuki:

- xarajatlar (xomashyo va mehnat xarajatlari) ishlab chiqarishga kiritilishi natijasida mahsulot chiqariladi.
- xarajat elementlaridan (moddiy, mehnat va boshqa) jarayonida (ishlab chiqarish) foydali (tayyor) mahsulotlar ishlab chiqariladi.
- xomashyo va materiallar mashina va uskunalar (asosiy vosita)

yordamida mahsulot ishlab chiqariladi

- ishlab chiqarish jarayonida o'zgaruvchan va doimiy xarajatlardan foydalanib yakuniy natija – daromadga erishiladi.

Ishlab chiqarish faoliyati xo'jalik yurituvchi sub'ektning asosiy maqsadini - sotiladigan va foyda beradigan mahsulotning ishlab chiqarilishini ko'rsatadi.

Ishlab chiqarish tizimida markaziy bo'lgan ishlab chiqarish bosqichining mohiyati mahsulot ishlab chiqarishga sarflangan xarajatlarni shakllantirishdadir.

Umuman olganda, xo'jalik yurituvchi sub'ektning xo'jalik mexanizmi xarajatlarni boshqarish darajasi bilan aniqlanadi.

Ishlab chiqarish va sotish faoliyati o'rtasida to'g'ri aloqa mavjud bo'lib ishlab chiqarish natijasida olingan sub'ektning tayyor mahsuloti sinov va texnik nazorat bo'limiga qabul qilingandan so'ng tayyor mahsulot omboriga topshiriladi va shu erdan uning sotuvi boshlanadi. Lekin, moliyaviy sotish faoliyati sotishga qaraganda ancha keng.

Har bir sub'ekt o'zining ichki hisobot tizimiga ega bo'lishi mumkin, unda joriy mahsulotni topshirish, xarajatlar summasi, tayyor mahsulotning ombordagi miqdori va hajmi, nakd pulning harakati, debitorlik va kreditorlik qarzlari hamda ma'lumot ko'rsatkichlari bo'lishi ksrak. Bunga qo'shimcha qilib to'liq assortiment bo'yicha natura va narx o'lchovida mahsulot ishlab chiqarish; mahsulotning sifati, yaroqsiz mahsulot; foydaning shakllanishi, uni bashorat qilish; tijorat sarflari va reklama xarajatlari haqidagi ma'lumotlar jalb qilinadi.

3.2. Ishlab chiqarishga sarflangan xarajatlarning umumiy turkumlanishi

Ishlab chiqarish xarajatlari turkumlanishining iqtisodiy asoslanishi ishlab chiqarish faoliyati hisobini tashkil etishning asosi hisoblanadi.

Sanoatda mahsulot tannarxini rejalashtirish va hisoblash bo'yicha me'yoriy hujjatlarda ishlab chiqarishga sarflangan xarajatlarning quyidagi guruxlashtirishlari ko'rsatilgan:

- tarkibi bo'yicha - bir elementli va ko'p elementli;
- turlari bo'yicha - xarajatlarning elementlari va kalkulyatsiya moddalari;
- tayinlanishi (ahamiyati) bo'yicha - asosiy va ustama;
- ishlab chiqarish hajmiga nisbatan - doimiy va o'zgaruvchan;

- alohida mahsulotning tannarxiga olib borish bo'yicha - to'g'ri va egri;
- reja tomonidan qamrab olish darajasi bo'yicha - rejalashtiriladigan va rejalashtirilmaydigan.

Shunday uslubda turkumlashtirilgan ishlab chiqarish xarajatlari mahsulotni kalkulyatsiya qilish tizimida ma'lum vazifani tavsiflaydi.

Hisobda xarajatlarning uch turi hakida ma'lumot to'planadi: ishchi kuchi sarflari, materiallar, ustama xarajatlar. Keyin umumlamtirilgan xarajatlar hisob yo'nalishlari bo'yicha taqsimlanadi:

1. Tayyor bo'lgan mahsulotning tannarxini va olingan foydani aniqlash uchun.

2. Boshqaruv qarorni qabul qilish uchun.

3. Nazorat va tartibga solish jarayonini yo'lga qo'yish uchun.


Ajratilgan uch yo'nalishning har biri o'z iavbatida hisobni detallashtirish, ya'ni xarajatlarni turkumlashni talab qiladi.

3.2.1-jadval. Boshqarish maqsadlari bo'yicha xarajatlarni turkumlash

Ishlab chiqarish xarajatlari hisobining yo'nalishi	Xarajatlarni turkumlash tamoyillari	Xarajatlar turkumi
1. Kalkulyatsiya qilish va tayyor mahsulotni baholash uchun ishlatiladigan xarajatlar	Sub'ektning miqyosida; texnologiya, texnika va ishlab chiqarishni tashkil etishning asoslari; ishlab chiqariladigan mahsulot nomenklaturasi; annalitik holati; nazorat; hisoblar; basho-ratlik holati; elastiklik; ishlab chiqarish jarayonidagi roli; pasayish omillari; rejalashtirishda muhimligi; xara-jatlarni ajratishning maqsadga muvofiqligi; umumiy xarajatlarda tutgan o'rni; mahsulotlar bo'yicha taqsimlashda asosiyliigi; hisobning mehnat hajmi;	Haqiqiy xarajatlarning tarkibi: asosiy va yordamchi materiallar, mehnat xarajatlari, ishlab chiqarishning ustama xarajatlari; kiritiladigan va muddati o'tgan; hisobot davriniki va tannarxga kiritiladigan.
2. Ishlab chiqarishga bo'lgan xarajatlar. Ular to'g'risidagi ma'lumotlar qaror qabul qilish uchun asos bo'ladi.		Xarajatlarning hulqi: doimiy, shartli-doimiy, o'zgaruvchan, shartli-o'zgaruvchan. Kelajak davr xarajatlari: baholashda hisobga olinadigan va olinmaydigan. Qaror qabul qilish: qaytmas xarajatlar, o'zgartirilgan, inkrement, marjinal.
3. Rejalashtirish, nazorat va tartibga solish tizimida ishlatiladigan xarajatlar		Javobgarlik markazlari: tartibga solinadigan va solinmaydigan xarajatlar.

Xarajatlarning paydo bo'lish joylari, me'yoriy (smetali) xarajatlar va ulardan chetlanishlar.

Buxgalteriya hisobi schetlarida ishlab chiqarish xarajatlari to'g'risidagi ma'lumotning harakati quyidagi chizmada ko'rsatilgan.



3.2.1-chizma. Ishlab chiqarish harajatlarning buxgalteriya hisobi schetlarida aks ettirilishi

3.3. Ishlab chiqarilgan mahsulotning tannarxini kalkulyatsiya qilish va baholash maqsadida xarajatlarni turkumlash

Buxgalteriya hisobining xalqaro standartlari, O'zbekistonda qo'llanilayotgan milliy standartlar va "Xarajatlarning tarkibi to'g'risidagi Nizom"ga asosan sarflangan xarajatlar quyidagi belgilariga asosan va tartibda guruxlashtiriladi.

1. Xarajatlarning tarkibi va yo`nalishi bo'yicha asosiy va ustama xarajatlarga bo'linishi kalkulyatsiya moddalarining qisqartirilgan nomlarini o'z ichiga oladi:

a) asosiy xarajatlarga ishlab chiqarishning texnologiya jarayoni bilan bevosita bog'liq bo'lgan xom-ashyo va materiallar sarfi, asosiy ishlab chiqarish bilan band bo'lgan xodimlarga mehnat xaqi hisoblash, mashina va uskunalarni asrash va ulardan foydalanish sarflari va shunga o'xshash sarflar kiradi;

b) ustama xarajatlarga esa ishlab chiqarishga xizmat qilish va uni boshqarish, sub'ektning faoliyatiga xizmat qilish va uni boshqarish xarajatlari kiradi.

2. Ishlab chiqarilgan mahsulotlarning ayrim turlariga qo'shish usuli bo'yicha xarajatlar bevosita va bilvosita xarajatlarga bo'linadi:

a) bevosita xarajatlarga mahsulotlarning ayrim turlarini ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lgan va dastlabki hujjatlarga asosan yig'ma qaydnomada to'lg'azilib ushbu mahsulotlarning tannarxiga bevosita, ya'ni ba'zi belgilariga asosan taqsimlanmay qo'shiladigan xarajatlar kiradi. Masalan, xom-ashyo va materiallarning qiymati, mehnat haqi, bir xil mahsulot ishlab chiqarilsa yoki buyurtma bajarilsa texnologik yoqilgi xarajatlari va shunga o'xshashlar;

b) bilvosita xarajatlarga esa bir necha turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish bilan bog'liq xarajatlar kiradi, ular ham dastlabki hujjatlarga asosan yig'ma qaydnomalarda hisobga olinadi. Ijara summasi, energiya, yoqilgi sarflari, mashina va uskunalarni asrash va undan foydalanish, umumishlab chiqarish xarajatlari bunga misol bo'ladi.


Asosiy xarajatlar ko'p hollarda bevosita va bilvosita xarajatlardan tashkil topgan. Lekin ularni chuqur o'rgangandagina farqini ajratish mumkin.

3. Tayyor mahsulotlarning tannarxini kalkulyatsiya qilish va uni baholashda xarajatlarni mahsulot tannarxiga kiritiladigan va kiritilgan xarajatlarga bo'lib guruhlash muhim ahamiyatga egadir. Chunki, kiritilgan xarajatlar ushbu mahsulotning haqiqiy tannarxini tashkil qiladi:

a) kiritiladigan xarajatlarga kelgusida daromad keltirilishi kutilayotgan sotib olingan va sub'ektning ixtiyorida mavjud bo'lgan moddiy resurslar kiradi.

b) kiritilgan xarajatlarga esa ushbu mahsulotni ishlab chiqarish uchun sarflangan va hozirgi davrda daromad keltirish uchun ishlatilgan

va kelgusida daromad keltira olmaydigan tovar-moddiy zahiralarining qiymati kiradi.



3.3.1-chizma. Xarajatlarni mahsulot tannarxiga kiritiladigan va kiritilgan guruxlarga bo`lish

Jami xarajatlar ishlab chiqarish va ishlab chiqarishdan tashqari xarajatlarga bo`linadi:

a) hisobot davridagi sarflangan xarajatlarning tarkibiga tovar-moddiy zahiralarini hisoblangan tayyor mahsulotlar, tugallanmagan ishlab chiqarishni baholashda hisobga olinmagan xarajatlar kiradi.

b) hisobot davrida sarflangan xarajatlarning bir qismi (noishlab chiqarish xarajatlari) sub'ektning olgan daromadlari bilan qoplanadi, ya'ni olinadigan haqiqiy foydani muqobillashtirib turadi. Ushbu xarajatlar ishlab chiqarilgan u yoki bu mahsulotning tannarxiga qo`shilmaydi va uning qiymatini tashkil qilmaydi.



3.3.2-chizma. Harajatlarni ishlab chiqarishga bog`liqligi bo`yicha guruhlash

Ishlab chiqarishdan tashqari xarajatlarning o`ziga xos xususiyati shundan iboratki, ushbu sarflar amalga oshirilganda mahsulotni ishlab chiqarishda qatnashmaydi va ularning vaqtincha hisobga olinishi va hisobdan chiqarilishi mavjud. Yuqorida keltirilgan 3.3.2-chizmadan ko`rinib turibdiki, hisobot davridagi xarajatlar va mahsulotning tannarxiga qo`shiladigan xarajatlarning bir-biridan farqi bu ularni qayd qilish va moliyaviy natijalarga olib borish vaqti bilan ajralib turadi.

3.4. Tovar-moddiy zahiralarni ishlab chiqarishga sarflanishini baholash usullari

Bozor iqtisodiyoti sharoitida xo`jalik faoliyati jarayonining yakuniy bosqichidan olinadigan tayyor mahsulotlarning tannarxidagi sarflangan xomashyo va materiallarning ulushini imkoniyati boricha kamaytirish muhim o`rin tutadi, chunki talab va taklifdan kelib chiqqan

holda ularga o'rnatilgan baho (chunki ushbu baholarni tartibga solib turuvchi omil – bu tannarxdir) mahsulotlarning raqobatbardoshligi xaridorgirlik darajasini belgilaydi.

Buxgalteriya hisobining ma'lumotlari o'zida mahsulotning tannarxini kamaytirish imkoniyatlarini – moddiy boyliklardan unumli foydalanish, sarflar me'yorini pasaytirish, tovar-moddiy zahiralarining talabga javob beradigan darajadagi saqlash va boshqalar to'g'risidagi ma'lumotlarni umumlashtirishi lozim.

Xarajatlarni etkazib berish hajmiga nisbatan: kiritilgan xarajatlar va relevant xarajatlarga ajratamiz.

Kiritilgan sarflar – bu zahiralariga qo'yilgan investitsiyalardir, Katta kompaniyalar aylanma vositalarni yirik aktivlar yaratish uchun ajratishga majburlar. Agarda vositalar zahiralariga investitsiya qilinishi paytida chetga jalb etilmasa boshqa yo'nalishlarda qo'llanilganda kiritilgan sarflar olingan foydada o'z aksini topishi mumkin edi. Ularga sotib olingan zahiraning miqdoriga bog'liq bo'lgan xarajatlar kiradi.

Relevant - bu tovar moddiy zahiralarini saqlash va buyurtmani bajarish bilan bog'liq xarajatlar.

Zahirani saqlash qiymatiga, odatda quyidagilar kiradi:

- zahiraga qo'yilgan investitsiyalar bo'yicha kiritilgan zararlar;
- sug'urta bo'yicha qo'shimcha sarflar;
- omborda saqlash va zahiralarini saqlash qiymatiga bo'lgan qo'shimcha xarajatlar;
- materialga ishlov berish uchun qo'shimcha sarflar;
- ma'naviy eskirish va zahiralar sifatining yomonlashishi natijasidagi yo'qotishlar.

Saqlashga bo'lgan relevant xarajatlarga faqat zahiralar darajasiga qarab o'zgaradigan moddalar kiradi. Masalan, omborda saqlash xarajatlari va zahiralarini saqlash qiymati faqatgina zahiraning buyurtma qilingan birligining o'zgarishiga qarab o'zgaradigai sarflardan iborat bo'ladi.

Omborchining mehnat haqi, uskunaning eskirishi, uskuna va imorat uchun doimiy ijara to'lovi relevant xarajatlarga kirmaydi, chunki ularga zahiralar hajmining o'zgarishi ta'sir etmaydi.

Tovar-moddiy zahiralar (TMZ)ning tannarxini hisoblash usullari quyidagilardan tashkil topgan:

a) yalpi identifikatsiya usuli, aniq xarajatlarga asoslangan bo'lib, o'zaro almashtirilmaydigan konkret birlikdagi maxsus individual

buyurtmalar bo'yicha ishlab chiqarilgan mahsulot, tovarlar va xizmatlarning tannarxini hisoblash uchun qo'llaniladi.

b) o'rtacha tortilgan qiymat usuli- TMZ har bir birligining qiymati hisobot davrining boshida bir turli TMZ birliklari va hisobot davri davomida sotib olingan yoki ishlab chiqarilgan bir turli TMZ birliklarining o'rtacha tortilgan qiymati bo'yicha aniklanadi. TMZ birligining o'rtacha tortilgan qiymati TMZning butun qiymatini ushbu zahiralar birliklarining soniga bo'lish bilan aniklanadi.

v) birinchi xarid baholari bo'yicha baholash usuli (FIFO- birinchi kirim- birinchi chiqim)- birinchi navbatda sotib olingan tovarlarning tannarxi birinchi navbatda sotib yuborilgan tovarlarga olib borilishi kerak degan tartibga asoslangan.

g) oxirgi xarid narxлари bo'yicha baholash usuli (LIFO)-oxirgi xarid qilingan tovarlarning tannarxi birinchi navbatda sotilgan tovarlarning qiymatini aniqlash uchun, hisobot davrining oxiriga bo'lgan zahiralarining tannarxi esa birinchi navbatda xarid qilingan tovarlarning tannarxi asosida hisobga olinadi, degan taxminga asoslangan.

Misol. Tovar-moddiy zahiralarining tannarxini hisoblash usullarini «Baxt» xususiy ishlab chiqarish firmasi ma'lumotlari asosida ko'rib chiqamiz. Firmaga yil davomida quyidagi TMZni xarid qilgan:

Sana	birliklarning hajmi	Mahsulot birligining bahosi	Umumiy qiymat
15 yanvar	400	1200 sum	480000 so'm
22 may	600	1400 sum	840000 so'm
10 sentabr	500	1500 sum	750000 so'm
Jami:	1500	-	2070000 so'm

Yil oxirida firma omborida 300 birlik mahsulot bo'lgan. Sotishdan kelgan sof tushum 1800000 so'mni tashkil etgan.

1-usul. Birinchi xarid narxlarida baholash usuli (FIFO)ni qo'llab, sotilgan mahsulotning tannarxini va davr oxiridagi zahiralariga taqsimlangan xarajatlar quyidagi tartibda aniqlanadi:

Realizatsiyadan tushgan daromad	1800000
Sotishga tayyor mahsulotlarning tannarxi	2070000
Davr oxiridagi TMZ (300x1500 so'm)	450000
Sotilgan mahsulotlarning tannarxi	1620000
Realizatsiyadan olingan yalpi foyda	180000

2-usul. O`rtacha tortilgan qiymat usuli(**Aveco**)ni ko`llab, sotilgan mahsulotning tannarxini va hisobot davrining oxiridagi zahiralariga taqsimlangan xarajatlar quyidagi tartibda aniqlanadi:

Tovar birligining o`rtacha hisoblangan qiymati (2070000/1500)	1380
Realizatsiyadan tushgan daromad	1800000
Sotishga tayyor mahsulotlarning tannarxi	2070000
Davr oxiridagi TMZ (300x1380 so`m)	414000
Sotilgan mahsulotlarning tannarxi	1656000
Realizatsiyadan olingan yalpi foyda	144000

3-usul. Oxirgi xarid narxlarida baholash usuli (**LIFO**)ni qo`llab, sotilgan mahsulotlarning tannarxi va davr oxiridagi zahiralariga taqsimlangan xarajatlar quyidagi tartibda aniqlanadi:

Realizatsiyadan tushgan daromad	1800000
Sotishga tayyor mahsulotlarning tannarxi	2070000
Davr oxiridagi TMZ (300x1200 so`m)	360000
Sotilgan mahsulotlarning tannarxi	1710000
Realizatsiyadan olingan yalpi foyda	90000

Usullarni taqqoslash

Ko`rsatkichlar usullar	FIFO usuli	O`rtacha tortilgan qiymat usuli	LIFO usuli
Realizatsiyadan tushgan daromad	1800000	1800000	1800000
Sotishga tayyor mahsulotning tannarxi	2070000	2070000	2070000
Davr oxiridagi TMZ	450000	414000	360000
Sotilgan mahsulotning tannarxi	1620000	1656000	1710000
Realizatsiyadan olingan yalpi foyda	180000	144000	90000

Yuqoridagi masala bo`yicha tovar-moddiy zahiralarini sarflanishining baholash usullarini ko`rib chiqadigan bo`lsak 1-usulda sotishdan olingan yalpi foyda 180000 so`m, 2-usulda 144000 so`m va 3-usulda 90000 so`mni tashkil qilgan

Buxgalteriya hisobining milliy standartlari bo`yicha xo`jalik yurituvchi sub'ektlar TMZlarni baholashda faqatgina FIFO va Aveco usullaridan foydalanishlari mumkin.

3.5. Mahsulot ishlab chiqarish va sotish xarajatlari tarkibida asosiy vositalar hamda nomoddiy aktivlar amortizatsiyasini hisobga olish usullari

Asosiy vositalarning asosiy xususiyatlaridan biri shundan iboratki, ular ishlab chiqarish jarayonida uzoq muddat xizmat qiladi va shu bilan birga o'zining jismoniy ko'rinishini saqlab qoladi. Lekin, ular mahsulot ishlab chiqarish yoki ishlab chiqarish jarayoni uchun zarur bo'lgan sharoitlarni yaratib berishda uzoq muddat qatnashadi hamda asta-sekin eskirib boradi va eskirgan qismi ishlab chiqarilayotgan mahsulot, ish yoki xizmatning tannarxiga qisman o'tkazilib boriladi.

Moddiy aktivlar (asosiy vositalar); jismoniy tabiiy ko'rinishga ega bo'lgan, uzoq muddatda foydalaniladigan, aktivlar; erlar, binolar, inshootlar, uskunalar, tabiiy resurslar va shunga o'xshashlar.

Moddiy aktivlar ham o'z navbatida uchta guruhga bo'linadi:

- amortizatsiya qilinishga tegishli bo'lgan moddiy aktivlar, masalan, binolar, inshootlar, uskunalar, mebellar, qurilmalar;
- emirilishga tegishli bo'lmaganlari, masalan foydali qazilmalar, o'rmon boyliklari va shunga o'xshashlar;
- amortizatsiya yoki emirilishga tegishli bo'lmaganlari, masalan er;
- nomoddiy aktivlar-moddiy ko'rinishiga ega bo'lmagan, lekin sub'ektning mulki hisoblanib ularni sotib olishga oldindan sarflar amalga oshirilgan va kelgusida sub'ektga daromad keltiradigan aktivlardir.

Nomoddiy aktivlar quyidagi aktivlar sifatida aniklanadi:

- kompaniya faoliyatida faol qatnashadi, investitsiya sifatida yoki qayta sotish maqsadida saqlanmaydi;
- reja bo'yicha joriy hisobot davri tugashidan keyin manfaat keltirishi kerak;
- hamma vaqt ham moddiy asosga ega emas.

Asosiy vositalarning eskirishi ikki xil bo'ladi. Birinchisi – jismoniy eskirish va ikkinchisi, ma'naviy eskirishdir.

Jismoniy eskirish deb, asosiy vositalarning atmosfera sharoitlari ta'sirida va ulardan foydalanish jarayonida uning moddiy tuzilishida ichki o'zgarishlar (zanglash, chirish, ayrilish) sodir bo'lganda boshlang'ich holatining yo'qolishiga aytiladi. Jismoniy eskirish asosiy vositalardan foydalanish jarayonida ham ular bekor yotganda ham sodir

bo'lishi mumkin. Asosiy vositalarning jismoniy eskirishining darajasi ularning ishlab chiqarishdagi foydalanishi bilan bandlik darajasiga, sifatiga texnologik jaryonning xususiyatlariga, chetki sharoitlardan muhofaza qilish va parvarish qilish sifatlari, hamda ishlaydigan ishchilarning malakasiga bog'liq.

Asosiy vositalarning texnikaviy tavsifi va iqtisodiy samaradorligining davr talabidan, ya'ni haqiqatdan orqada qolishi **ma'naviy eskirish** deb ataladi. Ma'naviy eskirish o'z navbatida ikki xil bo'lishi mumkin. Birinchisi – shu kabi asosiy vositalarni qayta ishlab chiqarishining arzonroqqa tushishi natijasida ular qiymatining kamayishi bo'lsa, ikkinchisi – yangi va ilg'orroq asosiy vositalarni joriy qilish va ularning texnikaviy jihatdan orqada qolishi natijasida qiymatining pasayib ketishi hisoblanadi.

Amortizatsiya miqdorini hisoblashga ta'sir qiluvchi omillar quyidagilardan iborat:

- boshlang'ich qiymati;
- qoldiq qiymati;
- amortizatsiya qilinayotgan qiymati;
- taxmin qilinayotgan foydalanish muddati;
- o'rnatilgan amortizatsiya me'yori.

Amortizatsiya summasini hisoblash jarayonida quyidagi usullardan foydalaniladi:

1. Qiymatni bir tekisda (to'g'ri chiziqli) hisobdan chiqarish usuli;
2. Bajarilgan ishlar hajmiga mutanosib ravishda amortizatsiyani hisoblash (ishlab chiqarish) usuli;
3. Tezlashtirilgan hisobdan chiqarish usuli:
 - a) sonlar yig'indisi bo'yicha qiymatni hisobdan chiqarish (kumulyativ) usuli;
 - b) qoldiqni kamaytirish usuli.

Bir tekisda (to'g'ri chiziqli) hisobdan chiqarish usuli. Bu usulga muvofiq, ob'ektning amortizatsiyalanadigan qiymati uning xizmat qilish muddati (davri) mobaynida bir tekisda hisobdan chiqariladi (taqsimlanadi). Ushbu usul, amortizatsiya summasining aktivning xizmat muddatining uzoq davom etishiga bog'liqligiga asoslanadi. Har bir davr uchun amortizatsion chegirmalar summasi amortizatsiyalanadigan qiymatni (ob'ektning boshlang'ich qiymatidan uning qoldiq qiymatining ayirmasi) ob'ektdan foydalanishning hisobot davri soniga bo'lish orqali hisoblanadi. Amortizatsiya me'yori doimiy hisoblanadi.

Masalan, yuk mashinasining boshlang'ich qiymati 15.000.000 so'm besh yil muddatli foydalanish davri oxiridagi tugatish qiymati 3.000.000 so'mni tashkil qiladi yoki to'g'ri chiziqli hisoblab chiqarish usuliga binoan yillik eskirish summasim 2.400.000.0 so'mni tashkil etadi. Ushbu tartibda amortizatsiya hisoblash quyidagicha bajariladi:

$$\text{Yillik eskirish summasi} = (\text{Boshlang'ich qiymat} - \text{tugatish qiymati}) / \text{foydali xizmat muddati} = (15.000.000 - 3.000.000) / 5 = 2.400.000$$

Bajarilgan ishlarning hajmiga mutanosib ravishda amortizatsiyani hisoblash usuli (ishlab chiqarish usuli).

Bu usulda amortizatsiya (eskirish) summasi asosiy vositaning faqat jismoniy foydalanish natijasiga asoslangan. Eskirish muayyan yilda ishlab chiqarilgan mahsulot miqdoriga asoslangan holda hisoblanadi. Bu usul mashina va uskunalar kabi aktivlarga mos keladi, chunki ularni taxmin qilinayotgan xizmat muddati eng oqilona ravishda ishlab chiqarilgan mahsulot miqdori bilan belgilanadi, ishlab chiqarish qisqargan vaqtlarda esa mashina va uskunalar kam ishlatiladi, bu ularni vaqt birligida o'lganadigan xizmat birligini oshiradi.

Yillik amortizatsiya xarajatlari har bir natura ko'rsatkichiga (bir birlik mahsulot, km) quyidagicha aniqlanadi.

Yillik eskirish summasi = (Boshlang'ich qiymat – tugatish qiymati) / taxmin qilinayotgan ish birliklari

Masalan, engil avtomobilning boshlang'ich qiymati – 10.000.000 so'm, tugatish qiymati – 1.000.000 so'm, 180.000 km yo'l yurish kutilmoqda. Faraz qilaylik, birinchi yilda engil avtomobil 40.000 km, ikkinchi yilda 50.000 km, uchinchi yilda 35.000 km, to'rtinchi yilda 25.000 km, beshinchi yili 30.000 km yo'l yurgan.

$(10.000.000 - 1.000.000) / 180.000 \text{ km} = 9.000.000 \text{ so'm} / 180.000 \text{ km} = 50 \text{ so'm/km}$. Demak, avtomobilning bosib o'tgan 1 kilometri uchun 50 so'm eskirish hisoblanadi. Yuqoridagi ma'lumotlar asosida yuk avtomobili uchun eskirish hisoblash jadvalini quyidagicha tuzishimiz mumkin:

3.5.1-jadval. Ishlab chiqarish usuli bo'yicha asosiy vositalarni eskirishini hisoblash

Davrlar	Boshlang'ich qiymati, so'mda	Yurishi, km	Yillik eskirish qiymati, so'mda	Jamlangan eskirish qiymati, so'mda	Balans qiymati, so'mda
Xarid sanasi	10.000.000		-	-	10.000.000
1 yil oxiri	10.000.000	40.000	2.000.000	2.000.000	8.000.000
2 yil oxiri	10.000.000	50.000	2.500.000	4.500.000	5.500.000

3 yil oxiri	10.000.000	35.000	1.750.000	6.250.000	3.750.000
4 yil oxiri	10.000.000	25.000	1.250.000	7.500.000	2.500.000
5 yil oxiri	10.000.000	30.000	1.500.000	9.000.000	1.000.000

Ushbu usulda tuzilgan jadvalda yillik amortizatsiya summasi bilan ish yoki foydalanish birligi o'rtasidagi bevosita bog'liqlikni ko'rish mumkin. Jamg'arilgan eskirish summasi har yili ish birligiga yoki foydalanishga (yurishiga) to'g'ri bog'langan holda ortib boradi. Nihoyat, balans qiymati, yil sayin ish birligiga yoki foydalanishga to'g'ri mutanosib ravishda qoldiq qiymatga etmaguncha kamayib boradi. Bu usulga muvofiq har bir ob'ektning taxmin qilinayotgan birligi ma'lum aktivlarga mos kelishi kerak.

Tezlashtirilgan hisobdan chiqarish usuli o'z navbatida quyidagi usullarga bo'linadi:

a) sonlarning yig'indisi bo'yicha qiymatni hisobdan chiqarish (kumulyativ) usuli.

Bu usul qandaydir ob'ektning xizmat qilish yillari summasi orqali aniqlanadi va bu summa hisoblash koeffitsientida maxraj bo'lib xizmat qiladi. Bu koeffitsientning sur'atida ob'ektning xizmat muddatining oxirigacha qolgan yillarining soni turadi (teskari tartibda).

Yuqorida keltirilgan misolga murojaat qilaylik. Yuk avtomobilining taxmin qilinayotgan foydali xizmat muddati 5 yil.

Foydalanish yillari yig'indisi - 15 yil (kumulyativ son):

$$1+2+3+4+5=15$$

So'ngra, har bir kasrni 9.000.000 ga (10.000.000-1.000.000) teng bo'lgan amortizatsiyalanadigan qiymatga ko'paytirish yo'li orqali har yillik amortizatsiya summasi aniqlanadi:

$$5/15, 4/15, 3/15, 2/15, 1/15$$

Bu holda amortizatsiya chegirmalari summasining jadvali quyidagi ko'rinishda bo'ladi (ming so'mda):

3.5.2-jadval. Kumulyativ usul bo'yicha asosiy vositalarni eskirishini hisoblash

Davrlar	Boshlang'ich qiymati, so'mda	Yillik eskirish qiymati, so'mda	Jamlangan eskirish qiymati, so'mda	Balans qiymati, so'mda
Xarid sanasi	10.000	-	-	10.000
1 yil oxiri	10.000	$(5/15 \times 9.000) = 3.000$	3.000	7.000
2 yil oxiri	10.000	$(4/15 \times 9.000) = 2.400$	5.400	4.600
3 yil oxiri	10.000	$(3/15 \times 9.000) = 1.800$	7.200	2.800
4 yil oxiri	10.000	$(2/15 \times 9.000) = 1.200$	8.400	1.600

3 il oxiri	10.000	$(1/15 \times 9.000) = 600$	9.000	1.000
------------	--------	-----------------------------	-------	-------

Jadvaldan ko`rinib turibdiki, eng katta amortizatsiya summasi birinchi yilda hisoblanadi, keyin yilma-yil u kamayadi, jamlangan amortizatsiya oldingi davrga nisbatan kamroq ortib boradi, balans qiymati qoldiq qiymatiga etib bormagunicha har yili amortizatsiya summasiga kamayib boradi.

b) kamayib boruvchi qoldiq usuli.

Bu usul sonlar yig`indisi usuli tamoyillariga asoslangan. Bu usulda har qanday qat'iy stavka qo`llanilishi mumkin bo`lsa ham, ammo ko`pincha to`g`ri chiziqli usulda foydalangan o`rtacha darajaga nisbatan ikki karra ko`paytirilgan me'yor qo`llaniladi. Bu jarayon ikkilangan amortizatsiyada kamayib boruvchi qoldiq usuli deb ataladi. Oldindagi misolda yuk avtomobilining foydali xizmat muddati 5 yilga teng edi. To`g`ri chiziqli amortizatsiyalash usulida har yilgi me'yor mos ravishda 20% ( $100\%/5$ )ni tashkil qiladi. Kamayib boruvchi qoldiq usulida to`g`ri chiziqli usulda olinadigan stavka 2 barobar, ya'ni 40% qilib olinib, ushbu stavka qoldiq qiymatga ko`paytirilib yillik eskirish summasi aniqlanadi. Oxirgi yildagi amortizatsiya summasini hisoblashda taxmin qilinayotgan tugatish qiymatidan tashqari summa hisobga olinadi. Bu usulni ifodalovchi ma'lumotlar quyidagi jadvalda keltirilgan (ming so`m).

3.5.3-jadval. Kamayib boruvchi usulda asosiy vositalarni eskirishini hisoblash

Davrlar	Boshlang`ich qiymati, so`mda	Yillik eskirish qiymati, so`mda	Jamlangan eskirish qiymati, so`mda	Balans qiymati, so`mda
Xarid sanasi	10.000	-	-	10.000
1 yil oxiri	10.000	$10.000 \times 40\% = 4.000$	4.000	6.000
2 yil oxiri	10.000	$6.000 \times 40\% = 2.400$	6.400	3.600
3 yil oxiri	10.000	$3.600 \times 40\% = 1.440$	7.840	2.160
4 yil oxiri	10.000	$2.160 \times 40\% = 0.864$	8.704	1.296
5 yil oxiri	10.000	$1.296 - 1.000 = 0.296$	9.000	1.000

3.5.3-jadvaldan ko`rinib turganidek, eskirishning qat'iy me'yori doimo oldingi yilning balans qiymatiga nisbatan ishlatilgan. Eskirish summasi (eng kattasi birinchi yilda) yildan-yilga kamayadi va nihoyat, oxirgi yildagi eskirish miqdori balans qiymatining qoldiq qiymatigacha kamaytirish uchun zarur bo`lgan summa bilan cheklangan.

1996 yil 31 dekabrda O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 469-sonli qaroriga binoan Respublika Moliya vazirligi va Davlat soliq qo`mitasi tomonidan «Asosiy vositalarning guruxlari

bo'yicha eskirishning yagona me'yorlari to'g'risida»gi yangi tartibi ishlab chiqildi. Bu qarorga binoan, amortizatsiya ajratmalarini hisoblashni soddalashtirish maqsadida 1997 yil 1 yanvardan boshlab barcha asosiy vositalar bir yillik amortizatsiya me'yorlari bo'yicha quyidagi besh guruhga bo'lingan:

№	Asosiy vositalar guruhlari	Yillik amortizatsiya me'yori
1.	Imoratlar, inshootlar va qurilishlar	5 %
2.	Engil avtomobil, taksi, yo'llarda ishlatiladigan avtotraktor texnikasi, maxsus uskunalar va jihozlar. Kompyuterlar, uning yonlaridagi jihozlari va ma'lumotlarni ishlash bo'yicha asboblari	20 %
3.	Avtotransportning harakatdagi tarkibi: yuk tashuvchi avtomobillar, avtobuslar, maxsus avtomobillar va avtotirgovlar. Sanoatning barcha tarmoqlari, tikuv ishlab chiqarish uchun mashina va asbob-uskunalar, temirchi-presslash asbob-uskunalar, qurilish asbob-uskunalar, qishloq xo'jalik mashinalari va asbob-uskunalar, ofis uchun mebellar	15 %
4.	Temir yo'l, dengiz, daryo va havo transporti vositalari. Kuchlantiruvchi mashinalar va asbob-uskunalar, issiqlik-texnikaviy asbob-uskunalar, turbina asbob-uskunalar, elektr dvigatellari va dizel generatorlar. Elektr o'tkazgich va aloqa qurilmalari. Turuboprovodlar	8 %
5.	Boshqa guruxlarga kiritilmagan amortizatsiyalanadigan aktivlar	10 %

Bu qarorda korxonalarga, kerak bo'lsa, amortizatsiya me'yorlarni tasdiqlangan me'yorlarga qaraganda kamaytirish yoki tezlashtirilgan amortizatsiya hisoblash usulidan foydalanishga ruxsat etilgan.

Tezlashtirilgan amortizatsiyadan foydalanilganda qo'llanilgan koeffitsient "Nizom" bilan belgilangan me'yordan 2 barobardan oshmasligi va tasdiqlangan me'yorlardan ortiq bo'lgan summani foydadaromadga solinadigan soliq bo'yicha soliqqa tortiladigan bazaga qo'shilishi kerakligi ta'kidlangan.

Ushbu tartibga asosan amortizatsiya quyidagi asosiy vositalar bo'yicha hisoblanmaydi:

- mahsuldor hayvonlar, qo'tos va ho'kizlar;
- kutubxona fondlari;
- hokimiyatlarga va umumiy foydalanishdagi avtomobil yo'llariga qarashli shahar obodonchiligi inshootlari:

- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori bilan konservatsiyaga o'tkazilgan asosiy vositalar;
- To'la amortizatsiyalangan asosiy vositalar.

3.6. Sotish hamda moliyaviy faoliyat bilan bog'liq bo'lgan

xarajatlar va ularning turkumlanishi

Moliyaviy-sotuv bo'limi ishlab chiqarish tizimidagi umumiy tizimning bir qismi sifatida xarajatlar bilan kuzatiladi. Xarajatlarning bu turi tarkibiga quyidagilar kiradi:

- sotuv bilan bog'liq xarajatlar;
- sotuv va boshqa vositachi sub'ektlarga to'lanadigan komission yig'imlar (ajratmalar);
- joriy marketing ma'lumotlarini yig'ish va tarqatishga ketadigan xarajatlar;
- marketing tadqiqotlari bo'yicha xarajatlar;
- boshqa firmalarning marketing xizmatlarini to'lash;
- reklama sarflari;
- vakolatlilik sarflari;
- moliyaviy va sotuv faoliyati bilan bog'liq boshqa sarflar.

Mahsulotni sotish bilan bog'liq xarajatlar quyidagilardan iborat:

- idish va o'ramalarni tayyorlash bilan bog'liq yordamchi tsexlar xizmati; chetdan sotib olingan idishning qiymati; idishning ta'mirlanishi va tarkibi bo'yicha to'lovlar; idish va o'ramalarning qiymati sotib oluvchi tomonidan qo'shimcha to'lanmagan hollarda ular qiymatining boshqa tashkilot tomonidan to'lanishi;
- tayyor mahsulot omborlarini asrash, omborxonalarda, tushirish-ortish mashina va uskunalarning (kranlar, elektrokaraalar va boshqalar) eskirishi, ombor ishchilarining mehnat haklari;
- mahsulotlarni jo'natish bekati yoki portlarga etkazib berish, vagonlarga, konteynerlarga, kemalarga ortish bo'yicha transport xarajatlari; ixtisoslashgan ekspeditsiya sub'ektlarining xizmatlarini to'lash, agar narxi jo'natish franko-stantsiya belgilansa; agar narxi belgilangan franko-stantsiya bo'lsa temir yo'l tarifi yoki suv fraxti yoki boshqa transport xarajatlarini to'lash.

Komission yig'imlar (ajratmalar) ulgurji savdo yoki boshqa vositachi sub'ektlarga sotuv bozori va sotuv hajmini kengaytirish uchun tuzilgan shartnomalarga asosan to'lanadi.

Tijorat faoliyati bilan bog'liq bo'lgan vakolatli xarajatlar quyidagilardan iborat: o'zaro foydali aloqa o'rnatish uchun tadbirlar o'tkazishga kelgan boshqa korxona va tashkilotlar (chet el tashkilotlari ham kiradi)ning vakillarini qabul qilish xarajatlari; madaniy-ko'rgazma tadbirlarda qatnashish; muzoqara va madaniy dastur tadbiri paytida oshxona xizmati; ro'yxatda bo'lmagan muzoqaralarda qatnashgan shaxslar xizmatining to'lovlari; tadbir davomida transport bilan ta'minlash.

Boshqa xarajatlarning tarkibiga moliyaviy-sotuv bo'limini asrashga ketgan xarajatlar kiradi - ishchilarning mehnat haqi, qo'shimchasi bilan, xizmat safari xarajatlari, pochta, telefon va boshqa xarajatlar; savdo vakolatxonalarini asrash - xizmatchilarning mehnat haqi, qo'shimchasi bilan, xonalarning ijarasi, telefaks va boshqa sarflar; mahsulotni sertifikatlashtirish xarajatlari; nomoddiy aktivlarning eskirishi - savdo belgilari; markalar va shunga o'xshash boshqa xarajatlar.

Mavzuni o'zlashtirish uchun zarur tayanch tushunchalar:

Ishlab chiqarish xarajatlari, asosiy vositalar, nomoddiy aktivlar, eskirish, amortizatsiya, kumulyativ usul, qoldiqni kamaytirish usuli, to'g'ri chiziqli usul, FIFO usuli, LIFO usuli, o'rtacha tannarx bo'yicha baholash usuli, tovar moddiy zahira, moliyaviy faoliyat

Mavzuni mustahkamlash uchun nazorat savollari:

1. Ishlab chiqarish jarayonida xarajatlarni boshqarish deganda nimani tushunasiz?
2. Ishlab chiqarishga sarflangan xarajatlar qanday elementlari bo'yicha turkumlanadi?
3. Baholash maqsadida xarajatlarni turkumlanish tartibi qanday?
4. Tovar-moddiy zahiralarini ishlab chiqarishga sarflanishini baholash usullarini ko'rsatib bering?
5. TMZlarni baholashning FIFO usulini qo'llash tartibi qanday?
6. O'zbekistonda TMZlarni baholashning LIFO usulidan amaliyotda qaysi sohalarda qo'llaniladi?
7. TMZlarni baholashning Aveco usulini qo'llash tartibi qanday?

8. Asosiy vositalarni eskirishini hisoblash bo'yicha guruhlash tartibi qanday?
9. Asosiy vositalarni eskirishini hisoblashning qanday usullarini bilasiz?
10. Sotish hamda moliyaviy faoliyat bilan bog'lik bo'lgan qanday xarajatlarni bilasiz?

Amaliy mashg'ulot.

«O`zDEUAвто» kompaniyasi xarajatlar hisobi tizimida quyidagi xarajatlar turkumi mavjud:

1. Mashina (uskuna)lar uchun moylash materiallari qiymati;
2. Avtomobil sanoati (engil avtomobillar) uchun litsenziya sotib olish qiymati;
3. Mashina uskunalarining amortizatsiya qiymati;
4. Laboratoriyada ishlatiladigan ximikatlar qiymati;
5. Mahsulotni sotish bilan shug'ullanadigan xodimga komission to'lovlar;
6. Moliyaviy direktor kotibasining maoshi;
7. Xaridorlarga qullaniladigan chegirma summasi;
8. Reklama agentligi xizmati uchun to'lov;
9. Tayyor mahsulot omborining ijarasi uchun to'lov;
10. Kompaniya binosi sug'urtasi uchun to'lov;
11. Xomashyo omborini saqlash uchun ish haqi;
12. Laboratoriya xodimlariga mehnati haqi;
13. Mashina (stanok) operatorlarining maxsus kiyimi qiymati;
14. Ma'muriyat binosining amortizatsiyasi.

Topshiriq: Yuqoridagi xarajatlarni quyidagi kategoriyalarga joylashtiring:

1. Ishlab chiqarish ustama xarajatlari;
2. Mahsulotni sotish xarajatlari
3. Ma'muriy xarajatlar.

IV-MAVZU. ISHLAB CHIQARISH XARAJATLARINI HISOBGA OLISH VA MAHSULOT TANNARXINI KALKULYATSIYALASH ASOSLARI

- 4.1. Asosiy ishlab chiqarish xarajatlari tarkibi, ularning hisobi va mahsulot tannarxiga o'tkazilish tartibi
- 4.2. Umumishlab chiqarish xarajatlari tarkibi, ularni hisobga olish va mahsulot tannarxiga o'tkazilish tartibi
- 4.3. Ishlab chiqarishda yaroqsiz mahsulot hisobiga nobudgarchiliklar hisobi va ularni mahsulot tannarxiga o'tkazilish tartibi
- 4.4. Tugallanmagan ishlab chiqarishni baholash va hisobga olish
- 4.5. Ishlab chiqarish xarajatlarini hisobi va mahsulot tannarxini kalkulyatsiyalash usullari

4.1. Asosiy ishlab chiqarish xarajatlari tarkibi, ularning hisobi va mahsulot tannarxiga o'tkazilish tartibi

Asosiy ishlab chiqarish xarajatlariga mahsulot ishlab chiqarish texnologik jarayoni bilan to'g'ridan-to'g'ri bog'liq xarajatlari kiradi.

Ishlab chiqarish ahamiyatidagi material, ishlab chiqarish xarajatlaridagi mehnatga haq to'lash, ijtimoiy sug'urtaga ajratma xarajatlari, ishlab chiqarish xarakterlaridagi asosiy fondlar hamda nomoddiy aktivlar amortizatsiyasi va boshqa ishlab chiqarish xarajatlari kiradi.

A. Ishlab chiqarish ahamiyatidagi material xarajatlarining tarkibi, ularni hisobga olish va mahsulot tannarxiga o'tkazilish tartibi.

Ishlab chiqarish ahamiyatidagi material xarajatlariga «Xarajatlari tarkibi to'g'risidagi Nizom»ga muvofiq quyidagilar kiradi:

- Ishlab chiqarilayotgan mahsulot asosini tashkil qiladigan, chetdan sotib olinadigan xomashyo va materiallar.
- Mahsulot ishlab chiqarish texnologik jarayonini ta'minlab turish, mahsulot o'rash va boshqa ishlab chiqarish mahsulotlari uchun mahsulot ishlab chiqarish jarayonida ishlatiladigan, sotib olingan materiallar. Shuningdek, asosiy fondlar, bino, inshoot, asbob-uskunalar ta'mirlashda ishlatiladigan materiallar, ehtiyot qismlar.

- Ushbu korxonada qo`shimcha qayta ishlashni yoki yig`ishni talab etuvchi sotib olingan komplektlashgan mahsulot va yarim tayyor mahsulotlar.
- Asosiy faoliyat turiga taalluqli bo`lmagan boshqa korxona va xo`jaliklarga bajariladigan ishlab chiqarish xarakteridagi ish va xizmatlar.
- Tabiiy hamda mineral xomashyo bazasini qayta tiklash uchun qilinadigan ajratmalar, suv uchun to`lanadigan to`lovlar va boshqalar.
- Chetdan sotib olinadigan yoqilg`ining hamma turlari. Texnologik maqsadlarga, transport ishlariga, binolarni isitishga, ishlab chiqarishga sarflanadigan energiyaning barcha turlari.
- Korxonaning xo`jalik texnologik va boshqa ishlab chiqarish maqsadlari uchun sarflanadigan energiyaning barcha turlari.
- Me'yor chegarasidagi material resurslarining kamomadi va buzilishidan keladigan nobudgarchiliklar.
- Moddiy resurslarni transportda tashish, ortish, tushirish bilan bog`liq xarajatlar. Bu xarajatlar ishlab chiqarish xarajatlarning tegishli elementiga qo`shiladi (xodimlarning ish haqi, mehnatga haq to`lash xarajatlariga, asosiy fondlar amortizatsiyasi, material xarajatlari va boshqa).
- Mol etkazib beruvchilardan olingan material resurslari bilan birga sotib olingan idish va o`rash xarajatlari material resurslari qiymatiga qo`shiladi.
- Mahsulot tannarxiga qo`shiladigan material resurslari xarajatlaridan qaytarilgan chiqindilar yoki idishlar qiymati ularni sotish yoki ulardan foydalanish haqiqiy tannarxi bo`yicha chiqarib tashlanadi.
- «Material xarajatlar» elementi bo`yicha aks ettiriladigan material resurslari bahosi (qiymati) quyidagilardan tashkil topadi: sotib olish qiymatidan, jumladan, barter almashuvida (qo`shilgan qiymat solig`isiz), komission tovarlar, tashqi iqtisodiy ta'minot tashkilotlariga to`lanadigan xarajatlar, transport, saqlash va keltirish bilan bog`liq xarajatlar (to`lovlar).

Ishlab chiqarishda sarflanadigan asosiy materiallar va sotib olingan yarim tayyor mahsulotlar, mahsulot turlari bo`yicha boshlangich hujjatlarga asoslangan holda hisobga olinadi.

Agar korxonada bir xil materialdan bir vaqtning o`zida bir necha xil mahsulot ishlab chiqarilsa, u holda tannarxni aniqlashda materiallar

sarfi kalkulyatsiya ob'ektlari o'rtasida biron-bir ko'rsatkichga mutanosib ravishda taqsimlanadi.

Sanoatning ba'zi bir tarmoqlari tomonidan (mashinasozlik, kimyo, engil sanoat va boshqa) taqsimlashning keng qo'llaniladigan usullaridan biri ishlab chiqarilgan mahsulotni me'yoridagi sarfiga mutanosib ravishda taqsimlashdir.

Misol. Ishlab chiqarish kompaniyasi X va Y mahsulotlarni ishlab chiqarish uchun 540 birlik material sarflagan. X mahsulotdan 50 dona, Y mahsulotdan 80 dona ishlab chiqarilgan.

Bitta mahsulotni ishlab chiqarish uchun material sarflash me'yori X mahsulot uchun 4 birlik, Y mahsulot uchun 5 birlik qilib belgilangan.

Ishlab chiqarilgan mahsulotning haqiqiy soniga ko'ra materialning me'yoridagi sarfi quyidagicha:

X mahsulot – $50 \times 4 \text{ birlik} = 200 \text{ birlik}$

Y mahsulot – $80 \times 5 \text{ birlik} = 400 \text{ birlik}$

Jami – 600 birlik.

Demak, belgilangan me'yorga qaraganda 60 birlik, ya'ni 10% material kam sarflangan. 1-mahsulot uchun 200 birlik emas, 180 birlik ya'ni 10% kam, 2-mahsulot uchun esa 360 birlik sof material sarflangan, deb hisobga olinadi. Hisobot oyi davomida sarflangan materiallar qiymati hisobida qabul qilingan baho bo'yicha schetlarda quyidagicha aks ettiriladi:

1010-«Materiallar»				2010-«Asosiy ishlab chiqarish»			
Dt			Kt	Dt			Kt
		540 birlik		540 birlik			
		so'm		so'm			
		da		da			

Materiallar 1010-«Materiallar» schetida ularni keltirish (tayyorlash) haqiqiy tannarxiga yoki joriy hisobda qabul qilingan narxda hisob qilinadi. Materiallarni haqiqiy tannarxi ularni korxonaga keltirish (tayyorlash) qiymati hamda tashib keltirish bilan bog'liq transport va boshqa xarajatlardan iborat bo'ladi, ya'ni sotib olish qiymatidan hamda ularni korxonaga keltirish bilan bog'liq transport xarajatlaridan iborat.

Agar materiallarning kundalik buxgalteriya hisobi sotib olish bahosida yuritilsa, u holda ularni tashib keltirish bilan bog'liq transport-tayyorlovchi va boshqa xarajatlar alohida hisobga olinadi.

Hisobot oyi davomida ishlab chiqarishda sarflangan materiallar sotib olish bahosi (mol etkazib beruvchi schet) bo'yicha baholanadi va ushbu bahoda ishlab chiqarish xarajatlari schetlariga yoziladi.

Hisobot oyi oxirida ishlab chiqarishda sarflangan materiallar bilan omborda sarflanmay qolgan materiallar o'rtasida ularning sotib olinishi bahosiga mutanosib ravishda transport-tayyorlov xarajatlari taqsimlanadi.

Agar materiallarning kundalik hisobi reja tannarxi bo'yicha yuritilsa, u holda sarflangan materiallar ishlab chiqarish xarajatlari schetlariga reja tannarxi bo'yicha yoziladi. Ularni haqiqiy tannarxi bilan reja tannarxi o'rtasidagi farq sarflangan materiallar bilan omborlarda sarflanmay qolgan materiallar reja tannarxiga mutanosib ravishda taqsimlanadi. Kalkulyatsiyalarda xomashyo va asosiy materiallar, sotib olingan yarim tayyor mollarning summasi chiqindilar qiymatini chiqarib tashlagan holda ko'rsatiladi.

Ishlab chiqarish chiqindilari deb, materiallar va yarim tayyor mahsulotlarni qayta ishlash jarayonida to'la yoki qisman is'temol qilish sifatini yo'kotgan materiallar yoki yarim tayyor mahsulotlar qoldig'iga aytiladi. Chiqindilar qaytariladigan va qaytarilmaydigan chiqindilarga bo'linadi.

Qaytariladigan chiqindilar deb, korxonaning asosiy va yordamchi tsexlarida foydalanish yoki sotish mumkin bo'lgan chiqindilarga aytiladi.

Qaytarilmaydigan chiqindilar deb, ishlab chiqarish jarayonida foydalanish yoki sotish mumkin bo'lmay qolgan chiqindilarga aytiladi.

Qaytariladigan chiqindilar ishlab chiqarish xarajatlari schetlari kreditidan material schetlarining debet tomoniga ulardan foydalanish bahosi bo'yicha yoziladi.

Chiqindilarning ayrim turlari bo'yicha baho ularni yigish hamda foydalanish yoki sotish holiga keltirish bilan bog'liq xarajatlarni qay darajada hisobga olinishi tegishli mutasaddilar tomonidan belgilanadi. Ishlab chiqarish tsexlaridan omborlarga topshirilgan chiqindilarni topshirish hujjati (yukxat) bilan rasmiylashtiriladi.

Mashinasozlik korxonalarida kalkulyatsiyaning alohida moddasi sifatida sotib olingan yarim tayyor mahsulotlar ko'rsatiladi. Mahsulotlar ishlab chiqarishda sarflangan yordamchi materiallar asosiylaridan farq qilib, ko'pchilik hollarda mahsulot tannarxiga to'g'ridan-to'g'ri emas, balki taqsimlash yo'li bilan o'tkaziladi. Mashinasozlik, to'qimachilik va boshqa sanoat korxonalarida yordamchi materiallarning kalkulyatsiya

ob'ektlari o'rtasida, materiallarning me'yordagi sarfiga mutanosib ravishda, to'qimachilik va boshqa sanoat tarmoqlarida esa ishlab chiqarilgan mahsulot turlari sonining sarfiga mutanosib ravishda taqsimlanadi.

Texnologik maksadlarga sarflangan yoqilg'i mahsulot turlari o'rtasida belgilangan dastlabki me'yorlarga, sarflangan materiallar miqdoriga mutanosib ravishda taqsimlash yo'li bilan tannarxga o'tkaziladi. Yoqilg'i sarfi is'temol qilinayotgan joylar, ya'ni pechlar, agregatlar bo'yicha hisobga olinadi. Agar yoqilg'i ma'lum bir mahsulotga sarflanayotgan bo'lsa, uning qiymati to'g'ridan-to'g'ri shu mahsulot tannarxiga qo'shiladi.

Texnologik mahsulotlarga sarflangan elektr quvvati ishlab chiqarish tsexlariga o'rnatilgan schetlar asosida hisoblab boriladi. Agar elektr quvvati bir xil mahsulot ishlab chiqarishga sarflanayotgan bo'lsa u holda uning qiymati bevosita o'sha mahsulotning tannarxiga to'g'ridan-to'g'ri o'tkaziladi. Modomiki, elektr quvvati bir xil emas, balki bir necha xil mahsulot ishlab chiqarish uchun sarflanayotgan bo'lsa u holda sarflangan elektr quvvati mahsulot turlari o'rtasida yordamchi materiallar va yoqilg'i ko'rsatkichiga mutanosib ravishda taqsimlash yo'li bilan tannarxga o'tkaziladi.

B. Ishlab chiqarish xarakteridagi mehnatga haq to'lash xarajatlari.

Ishlab chiqarish xarakteridagi mehnatga haq to'lash xarajatlari tarkibiga «Xarajatlar tarkibi to'g'risidagi Nizom»ga muvofiq quyidagilar kiradi:

1. Korxonada qo'llaniladigan mehnatga haq to'lash shakllari va tizimlarga muvofiq ishbay narxlar, tarif stavkalari va okladlar asosida haqiqatdan bajarilgan ish uchun hisoblangan ishlab chiqarish xarakterlaridagi ish haqi, quyidagilar qo'shilgan holda:

a) og'ir tabiiy iklim joylarda uzoq muddat uzilishsiz ish stajiga ega bo'lganlar uchun ish haqiga qo'shimcha;

b) doimiy ish yo'lda amalga oshiriladigan aloqa, temiryo'l, suv, avtomobil transporti va boshqa soxalarda band bo'lgan xodimlar ish haqiga qo'shimcha. Bunday xodimlar uchun korxonalardan chiqib, qaytib kelguncha bo'lgan har bir sutka uchun qo'shimcha haq to'lanadi;

v) to'g'ridan-to'g'ri ko'rinishda, kapital ta'mirlash kabi ishlarda band bo'lgan xodimlarga qonunda ko'zda tutilgandek ayrim ishlarni bajarganligi uchun to'lanadigan qo'shimcha haq;

g) er osti ishlarida band bo'lgan xodimlarga to'lanadigan qo'shimcha haq;

d) amaldagi qonunlarga muvofiq yo'l, suvsiz va togli xududlarda mehnat kiluvchi xodimlarga to'lanadigan haqlar (tuman koeffitsientlari);

e) ilg'or ishlarni bajarishda band bo'lgan xodimlar transport tashkiloti va yo'lda ob-havo noqulayliklari tufayli ushlanib qolgan xodimlar uchun to'lanadigan summalar;

j) shartnomaga muvofiq korxona, tashkilotlardan muayyan ishlarni bajarish uchun jalb qilgan xodimlarga va ularni yuborgan tashkilotga yo'llanadigan summalar.

2. Me'yordan ortiqcha ishlangan hamda yaxshi ishlagan kunlari va boshqa holatlar hisobga berilgan dam olish kunlari uchun to'lanadigan haq.

3. Miqdor ko'rinishida to'lanadigan mahsulot qiymati.

4. Amaldagi qonunlarga muvofiq, rag'batlantirish xarakteridagi to'lovlar: mukofotlar, kasb mahorati uchun ta'rif stavkalari, oylik maoshiga qo'shimchalar va boshqa rag'batlantirishlar.

5. Tungi smenada, smenada ortiqcha, shuningdek, dam olish kunlari, mehnat sharoiti og'ir va zararli bo'lganligi uchun to'lanadigan to'lovlar.

6. Amaldagi qonunlarga muvofiq, navbatdagi mehnat ta'tili va an'alarining tanaffus soatlari uchun to'lovlar va boshqalar.

7. Ish haqi qisman saqlangan holda, majburiy ta'tilda bo'lgan xodimlarga to'lanadigan haqlar.

8. Qon topshiruvchilar uchun to'lanadigan to'lovlar, tekshirish va qon topshirish, dam olish kunlari uchun beriladigan to'lovlar.

9. Korxonalarda ishlab chiqarish amaliyotining o'tganligi uchun oliy va o'rta maxsus o'quv yurti va talabalar uchun to'lovlar.

10. Talabalar qurilish otryadlari tarkibida ishlovchi oliy va o'rta maxsus o'quv yurti talabalari mehnatiga haq.

11. Tuzilgan shartnomaga ko'ra bajarilgan ishlar uchun korxona ro'yxatida bo'lmaganlar mehnatiga haq.

12. Amaldagi qonunlarga muvofiq ishlab chiqarish jarayonida ishtirok etadigan xodimlar mehnatiga haq to'lash fondiga qo'shiladigan boshqa to'lov turlari.

13. «Ishlab chiqarish xarakteridagi mehnatga haq to'lash xarajatlari» elementi bo'yicha qishloq xo'jalik korxonalari yillik ish natijalari bo'yicha to'lovlarni ham aks ettiradilar.

Ishchilarning ishlab chiqarish bilan bevosita bog'liq bo'lgan asosiy ish haqi odatda boshlangich hujjatlarga asoslanib, kalkulyatsiya qilish ob'ektlari bo'yicha hisob qilinadi va tannarxiga to'g'ridan-to'g'ri o'tkaziladi. Mahsulotning biron-bir turini ishlab chiqarish bilan bevosita bog'liq bo'lgan ish haqi summasi kalkulyatsiya ob'ektlari o'rtasida mahsulot tannarxiga to'g'ridan-to'g'ri o'tkaziladigan ish haqiga mutanosib ravishda taqsimlanadi.

Mahsulot tannarxiga qo'shiladigan 2000-«Asosiy ishlab chiqarish» schetdagi xarajatlar quyidagi schetlar bo'yicha hisob qilinadi:

1. Material xarajatlar.
2. Mehnatga haq to'lash xarajatlari.
3. Ijtimoiy sug'urtaga ajratma xarajatlari.
4. Asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar amortizatsiyasi.
5. Boshqa xarajatlar.

2310-«Yordamchi ishlab chiqarishlar» schetdagi xarajatlar ham xuddi shunday tartibda hisob qilinadi.

4.2. Umumishlab chiqarish xarajatlari tarkibi, ularni hisobga olish va mahsulot tannarxiga o'tkazish tartibi

Mahsulot ishlab chiqarish tannarxiga mahsulot ishlab chiqarish bilan to'g'ridan-to'g'ri bog'liq bo'lgan xarajatlar bilan bir qatorda ishlab chiqarish uchun umumiy bo'lgan, umumishlab chiqarish xarakteridagi xarajatlar ham qo'shiladi.

Umumishlab chiqarish xarajatlari bu asosiy va yordamchi ishlab chiqarish tseklarini boshqarish hamda ular ishlab chiqarishini tashkil qilish bilan bog'liq xarajatlardir.

Ularga «Xarajatlar tarkibi to'g'risidagi nizom»ga muvofiq «ishlab chiqarish xarakteridagi asosiy fondlar va nomoddiy aktivlar amortizatsiyasi», «Ishlab chiqarish xarakteridagi boshqa xarajatlar» kiradi.

Ishlab chiqarish xarakteridagi asosiy fondlar va nomoddiy aktivlar amortizatsiyasi elementiga Nizomga muvofiq quyidagilar kiradi:

1. Belgilangan me'yorga ko'ra asosiy ishlab chiqarish fondlari balans qiymati asosida hisoblangan to'la tiklash bo'yicha amortizatsiya ajratmasi summasi hamda hisoblangan tezlashtirilgan amortizatsiya ajratmasi summasi ham amaldagi qonunga muvofiq qo'shiladi.

2. Uzoq muddatga asosiy vositalarni olgan korxona, o'ziga qarashli asosiy fondlar va ijaraga olingan asosiy fondlar bo'yicha to'la tiklash yuzasidan amortizatsiyasi ajratmasini «Asosiy fondlar eskirishi»

elementida aks ettiriladi. Bunday hollarda ijara bergan korxonada ijaraga berilgan asosiy vositalar eskirishi hisoblanmaydi.

3. Ishlab chiqarish xarajatlariga nomoddiy aktivlar bo'yicha eskirish har oyda ularning dastlabki qiymati bo'yicha hisoblangan eskirishi miqdorida tannarxga qo'shiladi.

Ishlab chiqarish xarakteridagi boshqa xarajatlarga yuqorida eslatilgan nizomga muvofiq quyidagilar kiradi.

1. Ishlab chiqarish jarayoniga xizmat qilish bo'yicha xarajatlar:

a) ishlab chiqarishni xomashyo, material, yoqilg'i, elektr quvvati, uskunalar, moslamalar kabi mehnat buyumlari va mablag'lari bilan ta'minlash bo'yicha xarajatlar;

b) asosiy ishlab chiqarish fondlarini ish holatida saqlab turish bilan bog'liq xarajatlar (texnik kuzatishlar, o'rta, joriy va kapital ta'mirlash xarajatlari). Moliya vazirligi ruxsati bilan ayrim korxonalar ta'mirlash ishlarini olib borish uchun o'zida zahira mablag` tashkil qilishi mumkin. Bu fondga ajratmalar «boshqa xarajatlar» elementi tarkibida aks ettiriladi. Boshqa hamma hollarda asosiy ishlab chiqarish fondlarini ta'mirlashning hamma turlari (o'rta, joriy, kapital) bo'yicha mahsulot (ish xizmat) tannarxiga qo'shiladi.

Tabiatni muxofaza qilishga taalluqli fondlarini saqlash va ulardan foydalanish bilan bog'liq joriy xarajatlar;

v) amaldagi qonunlarga muvofiq va ishlab chiqarish xususiyatlari bilan bog'liq texnika xavfsizligi hamda normal texnik sharoitni ta'minlash bo'yicha xarajatlar;

g) ayrim tarmoqlar xodimlariga bepul ko'rsatiladigan kommunal xizmatlar, beriladigan ovqatlar, mahsulotlar qiymati, xodimlarga bepul beriladigan uy-joy haqini to'lash xarajatlari (bepul berilmagan uy-joy, ko'rsatilmagan kommunal xizmatlar va shu kabilar uchun pul kompensatsiyasi summasi).

d) amaldagi qonunlarga muvofiq bepul beriladigan kiyim-bosh, maxsus oziq-ovqat qiymati;

e) ishlab chiqarish jarayoniga taalluqli bo'lgan boshqarma texnika vositalari, signalizatsiya vositalari, hisoblash markazini saqlash va ularga xizmat qilish bilan bog'liq xarajatlar.

2. Ishlab chiqarish jarayoniga taalluqli xizmat safari xarajatlari.

3. Ishlab chiqarishda band bo'lgan ishchilar va ishlab chiqarish aktivlarining majburiy sug'urtasi bo'yicha xarajatlar.

4. Kafolatlangan ta'mirlash va (mahsulotga kafolatlangan xizmat muddati belgilangan hollarda) kafolatlangan xizmat ko'rsatish bilan bog'liq xarajatlar.

5. Ichki ishlab chiqarish sabablariga ko'ra bo'sh qolingan vaqt bo'yicha nobudgarchilik.

6. Ishlab chiqarishdagi holatlar yuzasidan mehnat qobiliyatini yo'qotganligi uchun to'lanadigan nafaqa.

7. Ishlab chiqarish jarayonida to'g'ridan-to'g'ri ishtirok etadigan xodimlar sog'lig'ini muxofaza qilish va dam olishini tashkil qilish bo'yicha chora- tadbirlar bilan bog'liq xarajatlar.

8. Tannarxga qo'shiladigan va belgilangan tartibda hisoblanadigan budjetdan tashqari maxsus fondlarga ajratmalar.

Umumiy ishlab chiqarish xarajatlarining sintetik hisobi 2510- «Umumishlab chiqarish xarajatlari» schetida yuritiladi.

Umumishlab chiqarish xarajatlarining analitik hisobi hisob kitobning jurnal-order shaklini qo'llovchi korxonalarda xarajat moddalari bo'yicha maxsus qaydnomada yuritilib, har bir tsex uchun alohida ochiladi. Qaydnomaning oylik jami summasi jurnal-orderga ko'chiriladi. Hisobot oyi davomida umumishlab chiqarish xarajatlari summasiga «Umumishlab chiqarish xarajatlari» schetining debeti quyidagi schetlar krediti bilan korrespondentsiyalashadi: «Materiallar», «Kassa», «Hisob-kitob scheti», «Xodimlar bilan mehnat haqi bo'yicha hisob-kitoblar», «Ijtimoiy sug'urta va ta'minot bo'yicha hisob-kitoblar» va boshqa schetlar.

Hisobot oyi oxirida «Umumishlab chiqarish xarajatlari» scheti quyidagicha buxgalteriya o'tkazmasi tuzish bilan yopiladi:

Dt – 2000-«Asosiy ishlab chiqarish» scheti,

Dt – 2300-«YOrdamchi ishlab chiqarishlar» scheti,

Dt – 2600-«Ishlab chiqarishdagi yaroqsiz mahsulot» scheti va boshqa xarajat schetlari.

Kt – 2500-«Umumishlab chiqarish xarajatlari» scheti.

Umumishlab chiqarish xarajatlari mahsulotning ayrim turlari o'rtasida bir necha xil usulda taqsimlanadi. Shulardan eng keng tarqalgani – bu ishlab chiqarishda taqsimlash usulidir.

Misol. TSex ikki xil, ya'ni A va B mahsulot turlarini ishlab chiqaradi. Umumishlab chiqarish xarajatlarining jami oylik summasi 1000 so'mni tashkil qiladi.

4.2.1-jadval. TSexning xarajatlarini mahsulot turlari o'rtasida taqsimoti.

Mahsulot turlari	Taqsimlash bazasi ishlab chiqarishda band bo`lgan ishchilarning asosiy ish haqi.	O`rtacha %	Umumishlab chiqarish xarajatlar
A mahsulot	700	47	470
B mahsulot	800	53	530
Jami.	1500	100	1000

Mahsulot tannarxiga qo`shiladigan 2000-«Ishlab chiqarish xarajatlari» schetidagi xarajatlar quyidagicha schetlar bo`yicha hisob qilinadi.

1. Material xarajatlari.
2. Mehnatga haq to`lash xarajatlari
3. Ijtimoiy sug`urtaga ajratma xarajatlari
4. Asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar amortizatsiyasi.
5. Boshqa xarajatlar.

4.3. Ishlab chiqarishda yaroqsiz mahsulot hisobiga nobudgarchiliklar hisobi va ularni mahsulot tannarxiga o'tkazish tartibi

Ishlab chiqarishda buxgalteriya hisobining vazifalaridan biri yaroqsiz mahsulot hisobiga hamda yarim tayyor mahsulot va boshqa moddiy boyliklarning buzilishi, kamomadi natijasida keladigan nobudgarchiliklarni o'z vaqtida hisobga olishdir.

Yaroqsiz mahsulot hisobiga nobudgarchilik summasi unumsiz xarajatning bir turi bo'lib, u mahsulot tannarxining oshishishga va korxona daromadining pasayishiga olib keladi. Yaroqsiz mahsulot hisobiga nobudgarchiliklar summasi «Xarajatlar tarkibi to'g'risidagi Nizom»ga ko'ra ishlab chiqarish tannarxining «Ishlab chiqarish xarakteridagi boshqa xarajatlar» moddasi tarkibida tannarxga qo'yiladi.

Ishlab chiqarishda yaroqsiz mahsulot (brak) deb o'z sifatiga ko'ra belgilangan standart va texnik sharoitlarga to'g'ri kelmaydigan detal hamda yarim tayyor mahsulotlarga aytiladi. Ishlab chiqarishda yaroqsiz mahsulotka yo'l qo'yilgan bo'lsa, bunday mahsulotni qayta ishlash uchun qo'shimcha xarajatlar talab qilinadi yoki undan umuman foydalanish imkoniyati bo'lmay qoladi. Yaroqsiz mahsulot ishlab chiqarish o'z yaroqlilik darajasiga ko'ra ikkiga bo'linadi: tuzatish mumkin bo'lgan va tuzatish mumkin bo'lmagan mahsulotlar.

Tuzatish mumkin bo'lgan yaroqsiz mahsulot – deb texnik jixatdan tuzatish mumkin bo'lgan va iqtisodiy tomondan maqsadga muvofiq bo'lgan yaroqsiz mahsulotga aytiladi.

Tuzatish mumkin bo'lmagan yaroqsiz mahsulot deb, texnik jixatdan tuzatsa bo'ladigan, ammo iqtisodiy tomondan maqsadga muvofiq bo'lmagan yaroqsiz mahsulotga aytiladi.

Yaroqsiz mahsulot topilgan joyga ko'ra ikki xil, ya'ni **ichki** va **tashqi** yaroqsiz mahsulotga bo'linadi. Texnik nazorat bo'limi xodimlari bunday mahsulotlarni dalolatnoma bilan rasmiylashtiradilar.

Yaroqsiz mahsulotning kelib chiqish sababi, uning aybdori, aybdoridan ushlab qolinadigan mablag' va boshqa ma'lumotlar ana shu dalolatnomada ko'rsatiladi. Sintetik hisobi 2600-«Ishlab chiqarishdagi yaroqsiz mahsulot» schetida yuritiladi.

Tuzatish mumkin bo'lgan yaroqsiz mahsulot bo'yicha asosiy ishlab chiqarish scheti ma'lumotlari asosida uning haqiqiy tannarxi

aniqlanadi. Yaroqsiz mahsulotning haqiqiy tannarxi hamma asosiy xarajatlar va umumishlab chiqarish xarajatlari yig'indisidan tashkil topadi. Ayrim sanoat tarmoqlarida yaroqsiz mahsulot reja yoki normativ tannarxi bo'yicha baholanadi. Yaroqsiz mahsulot tannarxiga quyidagi buxgalteriya o'tkazmasi tuziladi.

Dt – 2600-«Ishlab chiqarishda yaroqsiz mahsulot» scheti.

Kt – 2000, 2300-«Asosiy ishlab chiqarish» yoki «YOrdamchi ishlab chiqarish» schetlari.

Tashqi yaroqsiz mahsulot bo'yicha ishlab chiqarishda xaridor korxona zimmasiga tushadigan turli chiqimlar (yaroqsiz mahsulotni almashtirish bilan bog'liq transport xarajatlari, tuzatib bo'ladigan yaroqsiz mahsulot uchun tuzatish xarajatlari va h.k.) ham aks ettiriladi. Ishlab chiqarishdagi yaroqsiz mahsulot schetning kreditida esa aybdordan ushlab qolinadigan mablag', yaroqsiz mahsulotdan foydalanish qiymati hamda yaroqsiz mahsulotka yo'l qo'yishda tovar yuboruvchi korxonalar aybdor bo'lsa, u holda ulardan undirib olinadigan mablag' aks ettiriladi. Ushbu summalariga quyidagicha buxgalteriya o'tkazmasi tuziladi.

Dt – 1000-«Materiallar» scheti.

Dt – 6700-«Xodimlar bilan mehnat haqi bo'yicha hisob-kitob-lar» scheti.

Dt – 6000-«Mol etkazib beruvchilar va pudratchilar bilan hisob-kitoblar» scheti.

Kt – 2600-«Ishlab chiqarishdagi yaroqsiz mahsulot» scheti.

Ushbu buxgalteriya yozuvlaridan so'ng ishlab chiqarishdagi yaroqsiz mahsulot scheti bo'yicha qoldiq, yaroqsiz mahsulot hisobiga nobudgarchilik summasi ko'rsatiladi. Bu summa, ushbu hisobot oyida ishlab chiqarilgan yaroqli mahsulotlar tannarxiga to'g'ridan-to'g'ri o'tkaziladi.

Tuzatib bo'ladigan yaroqsiz mahsulotni tuzatish uchun sarflangan xarajatlar, ya'ni xomashyo va materiallar ish haqi, ish haqidan ijtimoiy sug'urtaga ajratma hamda umumishlab chiqarish xarajatlari «Ishlab chiqarishdagi yaroqsiz mahsulot» schetining debetida, ishlab chiqarishda yaroqsiz mahsulot hisobiga nobudgarchilik summasini kamaytiradigan summalar esa shu schetning kreditida aks ettiriladi.

Bunda ham 2600-schet bo'yicha qoldiq tuzatib bo'ladigan yaroqsiz mahsulot bo'yicha nobudgarchilik summasini ko'rsatadi va u yaroqli mahsulotlar tannarxiga quyidagicha buxgalteriya o'tkazmasi tuzish yo'li bilan qo'shiladi:

Dt – 2500 -«Umumishlab chiqarish xarajatlari» scheti

Kt – 2600-«Ishlab chiqarishdagi yaroqsiz mahsulot» scheti.

Hisob-kitobning jurnal-order shaklini qo'llovchi korxonalarda «Ishlab chiqarishdagi yaroqsiz mahsulot» schetining analitik hisobi ayrim tsexlar mahsulot turlari xarajat moddalari va uning aybdorlari bo'yicha maxsus qaydnoma yuritiladi. Yaroqsiz mahsulotlarni hisobda aks ettirishda asosiy hujjat shu xususdagi dalolatnoma hisoblanadi.

4.4. Tugallanmagan ishlab chiqarishni baholash va hisobga olish

Hisobot oyi oxirida xarajatlar jamlab-taqsimlash va kalkulyatsiya qilish schetlari «Asosiy ishlab chiqarish» scheti debetiga o'tkazilgandan so'ng ularni tayyor mahsulot bilan tugallanmagan ishlab chiqarish o'rtasida taqsimlash zaruriyati tug'iladi. Rejalashtirish va hisobda yalpi tovar mahsulotlari hamda tugallanmagan ishlab chiqarish tushunchalari mavjud.

Yalpi mahsulot deb hisobot davrida ishlab chiqarilgan hamma tayyor va yarim tayyor mahsulotlarning pul shaklidagi ifodasiga aytiladi. Shuningdek yalpi mahsulot tarkibiga chetga sotilgan yordamchi ishlab chiqarish tsexlarining mahsulotlari, sanoat xarakteridagi bajarilgan ish, xizmatlar, korxonaning o'z kapital qurilish va sanoatga taalluqli bo'lmagan ishlab chiqarishi hamda xo'jaliklar uchun bajarilgan ishlar ham kiritiladi.

Tovar mahsuloti deyilganda chetga sotish uchun mo'ljallangan tayyor mahsulot, bajarilgan ish va xizmatlarni pul shaklidagi ifodasi tushuniladi.

Tugallanmagan ishlab chiqarish deb texnologik jarayondan ko'zda tutilgan hamma ishlab chiqarish bosqichini o'tmagan texnika nazorati tomonidan tekshirib qabul qilinmagan buyum va mahsulotlarga aytiladi.

Bu tur ishlab chiqarish tarkibiga qayta ishlash jarayonidan o'tgan xomashyo, material va yarim tayyor mahsulotlar, detal hamda uzellar, belgilangan sinov shartlaridan o'tmagan mahsulotlar, o'zi tayyor holga keltirilgan, ammo texnik nazorat bo'limi tomonidan qabul qilinmagan mahsulot kiradi.

Hisobot oyi davomida ishlab chiqarish xarajatlarini tayyor mahsulot va tugallanmagan ishlab chiqarish bo'yicha alohida hisobga

olib xarajatlar tugallangan ishlab chiqarish bilan tugallanmagan ishlab chiqarish o`rtasida taqsimlanadi. Buning uchun quyidagi shaklda xarajatlarning umumiy qaydnomasi tuziladi.

4.4.1-jadval. Tugallanmagan ishlab chiqarish xarajatlarini

Hisobot oyi boshiga tugallanmagan ishlab chiqarish	Hisobot oyi xarajatlari	Xarajatlar, jami	Xomashyo va material chiqindilar qiymati	Yaroqsiz mahsulot qiymati	Tugallanmagan mahsulot qiymati	Boshqa chiqarib tashlashlar	Hisobot oxiriga tugallanmagan ishlab chiqarish	Tovar mahsulotiga to'g'ri keladigan xarajatlari
1	2	3	4	5	6	7	8	9

Jami ishlab chiqarish xarajatlari summasidan hamma chiqarib tashlashlar va hisobot oyi oxiriga tugallanmagan ishlab chiqarishga to'g'ri keladigan xarajatlar olib tashlangandan keyin tovar mahsulotga to'g'ri keladigan xarajatlar miqdori kelib chiqadi.

Demak, tugallanmagan ishlab chiqarish hajmini to'g'ri aniqlash va uni to'g'ri baholash korxonada tovar mahsuloti tannarxini to'g'ri aniqlashda muhim ahamiyatga ega. Shuning uchun ham, korxonalarda vaqti-vaqti bilan tugallanmagan ishlab chiqarish inventarizatsiya qilinadi.

Tugallanmagan ishlab chiqarishni baholashning yuqorida keltirilgan usullari murakkab hisoblanadi. Shuning uchun qator sanoat korxonalarida tugallanmagan ishlab chiqarishni baholashda boshqa, engilrok usullardan foydalanish qulayroqdir. Masalan, ishlab chiqarishning yirik seriyali va ommaviy xarakterga ega bo'lgan korxonalarida tugallanmagan ishlab chiqarish **normativ tannarxda** baholanadi. Qisqa texnologik tsiklli ayrim sanoat tarmoqlarida esa (jumladan, to'qimachilik, oziq-ovqat, kimyo kabi sanoatlar) tugallanmagan ishlab chiqarish tannarxiga xomashyo, materiallar xarajati bo'yicha baholanib, qolgan hamma xarajatlar tayyor mahsulot tannarxiga qo'shiladi. Tugallanmagan ishlab chiqarishni baholash tartibi sanoat korxonalarining tarmoq yo'riknomalarida belgilab berilgan bo'lishi lozim.

Xarajatlarning umumiy hisobi jurnal-order shaklida yuritiladi. U uch bo'limdan iborat bo'lib 1-bo'lim – ishlab chiqarish xarajatlari, 2-bo'lim – ishlab chiqarish xarajatlarining iqtisodiy elementi bo'yicha hisob-kitobi, 3-bo'lim – tovar mahsulot tannarxi hisob-kitobi deb ataladi.

Jurnal-orderning birinchi bo'limida ishlab chiqarish xarajatlari «Asosiy ishlab chiqarish» (2000), «YOrdamchi ishlab chiqarishlar»

(2300), «Umumishlab chiqarish xarajatlari» (2500) schetlarining debeti, «Materiallar» (1000) va boshqa schetlarning krediti bilan korrespondentsiyalangan holda keltiriladi.

Jurnal-orderning ikkinchi bo`limida ishlab chiqarish xarajatlarning xarajat guruhlari bo`yicha ma'lumotlar keltiriladi. Uchinchi bo`limda esa tovar mahsuloti tannarxining xarajat kalkulyatsiyasi moddalari bo`yicha hisob-kitobi keltiriladi. Bu bo`lim ishlab chiqarish xarajatlarning ayrim kalkulyatsiya ob'ektlari bo`yicha hisobi va «Tugallanmagan ishlab chiqarish» scheti bo`yicha oborot qaydnomasi hisoblanadi.

Undan tashqari xarajatlarning kalkulyatsiya moddalari bo`yicha tovar mahsuloti tannarxi hisoblanadi.

4.5. Ishlab chiqarish xarajatlarini hisobi va mahsulot tannarxini kalkulyatsiyalash usullari.

Ishlab chiqarish xarajatlari hisobi va mahsulot tannarxini kalkulyatsiya usuli deb, u yoki bu mahsulot birligining tannarxini aniqlashda qo`llaniladigan usullar tizimiga aytiladi. U yoki bu kalkulyatsiya usulini qo`llash quyidagi asosiy omillar bilan aniqlanadi: ishlab chiqarish turi va murakkabligi, ishlab chiqarilayotgan mahsulot nomenklaturasi, xarakteri, tugallanmagan ishlab chiqarish hajmi, ishlab chiqarish jarayonining uzun-qisqaligi va h.k.

Ishlab chiqarish hisobining oxirgi bosqichi - bu xarajatlarni mahsulotning ayrim turlari bo`yicha detallashtirish va mahsulot birligi tannarxini aniqlashdir.

Oddiy ishlab chiqarish, ya'ni kumir, neft, gaz kazib olishda, issiqlik va elektr quvvati ishlab chiqarishda kalkulyatsiyaning oddiy usuli qo`llaniladi. Murakkab texnologik jarayonga ega bo`lgan, masalan, metallugiya, mashinasozlik, to`qimachilik sanoati korxonalarida kalkulyatsiya qilishning murakkab usuli qo`llaniladi.

Korxonada ayrim qism, detal va uzellardan tashkil topmagan oddiy mahsulot ishlab chiqarilsa, bitta, ya'ni tayyor mahsulot tannarxini aniqlash kalkulyatsiyasi tuziladi. Agar korxonada bunday ayrim detal va uzellardan tashkil topgan murakkab mahsulot ishlab chiqarilsa, tayyor mahsulot tarkibiga kiruvchi uzal va detallar tannarxini aniqlash kalkulyatsiyasi ham tuziladi. Bu hol mahsulot tannarxini kalkulyatsiyalashni birmuncha murakkablashtiradi.

Mavjud adabiyotlardan va instruktiv materiallardan (yo`riqnomalar) bizga mahsulotning haqiqiy tannarxini hisobga olish hamda kalkulyatsiya qilinishining quyidagi uch usuli ma'lum. Bular **bo`limli, buyurtmali, normativ (me'yoriy) usullardir.**

Har bir korxonada shu korxonaning xususiyatlari hisobga olingan holda kalkulyatsiyaning u yoki bu usuli qo`llanilishi mumkin.

Ba'zan sanoat korxonasida asosiy ishlab chiqarish tsexlaridan tashqari yordamchi ishlab chiqarish tsexlari mavjud bo`lganligi sababli bitta korxona miqyosida xarajatlarni hisobga olish va tannarxni kalkulyatsiya qilishning bir emas, balki bir necha usuli qo`llanilishi mumkin.

Kalkulyatsiyaning oddiy yoki bir bo`limli usulining mohiyati shundan iboratki, bunda mahsulot ishlab chiqarish bilan bog`liq bevosita va bilvosita xarajatlar kalkulyatsiya moddalarini bo`yicha hisob qilinadi. Bitta mahsulotning o`rtacha tannarxi hisobot oyidagi xarajatlar summasini xarajat moddalarini bo`yicha ishlab chiqarilgan mahsulot soniga taqsimlash yo`li bilan aniqlanadi.

Kalkulyatsiya qilishning oddiy usuli ko`pincha tayyor mahsulotni qazib chiqaruvchi va ayrim mahsulotni qayta ishlovchi sanoat korxonalarida qo`llaniladi.

**Bo`limli usul.** Xarajatlarni hisobga olish va kalkulyatsiya qilishning bo`limli usuli asosan metallurgiya, to`qimachilik, engil, kimyo va boshqa sanoat korxonalarida qo`llaniladi. Bu korxonalarda ishlab chiqarish ayrim ishlab chiqarish bo`limlari, bosqichlaridan tashkil topgan bo`ladi. Masalan, metallurgiya sanoatiga qarashli korxonalar po`lat eritish va prokat ishlab chiqarish bo`limlaridan tashkil topgan bo`ladi. Bu bo`limda material qayta ishlanib, yarim tayyor mahsulot holiga keltiriladi, boshqalarida esa ushbu yarim mahsulot qayta ishlanib, tayyor mahsulot holiga keltirishga mo`ljallangan. Bo`limli usulning muhim xususiyatlaridan biri shundaki, unda har bir tsexdagi ishlab chiqarish xarajatlari ishlab chiqarishning har bir bo`limi bosqichi bo`yicha alohida hisobga olinib, u xarajatlar hisobi mahsulotning ayrim turlari yoki guruhlarini kalkulyatsiya moddalarini bo`yicha yuritiladi.

Buyurtmali usul. Bu usulda hamma asosiy xarajatlar kalkulyatsiya moddalarini bo`yicha, har bir ishlab chiqarish buyurtmasi bo`yicha alohida hisob qilinadi.

Ishlab chiqarish buyurtmalari chetdan mahsulotning ma'lum turlarini ishlab chiqarish uchun beriladi. Boshqa xarajatlar esa tsex yoki korxona bo`yicha hisob qilinadi. Demak, kalkulyatsiya qilishning bu

usulida xarajatlar hisobi va kalkulyatsiyalash ob'ekti ayrim ishlab chiqarish buyurtmalari hisoblanadi.

Bu usulda har bir qabul qilingan buyurtma uchun alohida varaqa ochiladi. Qabul qilingan buyurtma maxsus kitoblarda ruyxatga olinadi va unga navbatdagi raqam biriktirilib, ushbu raqam buyurtma tayyor holga keltirilgunga qadar uning shifri bo`lib turadi. Buyurtma bajarilishi davomida rasmiylashtirilgan hamma dastlabki hujjatlarda ana shu shifr qo`yib boriladi. Bu narsa buyurtma tannarxini kalkulyatsiyalashda, u yoki bu xarajat moddasini buyurtma tannarxiga qo`shishda muhim ahamiyatga ega.

Undagi ma'lumotlar asosida buyurtmaning haqiqiy tannarxi aniqlanadi. Kalkulyatsiyaning buyurtmali usulida kalkulyatsiya ob'ekti tayyor holga keltirilgan buyurtmadir. Agar hisobot oyi oxirida buyurtma tugallanmay qolsa shu hol tugallanmagan buyurtma bo`yicha xarajatlar balansi tugallanmagan ishlab chiqarish sifatida ko`rsatiladi.

Normativ usul ishlab chiqarishning ommaviy va yirik tarmoqlarida qo`llaniladi. Bu usulning asosiy tamoyillari quyidagilardan iborat:

1. Mahsulotning me'yordagi tannarxi aniqlanadi, buning uchun normativ kalkulyatsiyasi tuziladi. Mahsulotning normativ tannarxi material, yoqilg`i, ish haqi va boshqa asosiy xarajatlarning harakatdagi me'yori hamda umumishlab chiqarish xarajatlarining tasdiqlangan choraklik smetalari asosida aniqlanadi.

2. Hisobot oyi davomida asosiy ishlab chiqarish xarajatlarining (xomashyo va yordamchi materiallar, ish haqi) haqiqiy miqdori emas, balki haqiqiy miqdori bilan me'yorlashtirilgan miqdori o`rtasidagi farq, ya'ni me'yordan chetga chiqish hisob qilinadi.

Me'yordan chetga chiqish tsexlar va ayrim korxonalarning mahsulot guruhi, mahsulot turi va xarajat moddalari bo`yicha hisobga olinadi. Agar me'yordan chetga chiqish ortiqcha xarajatga olib kelsa, u holda rasmiylashtirilgan dastlabki hujjatda uning kelib chiqish sababi va aybdori ko`rsatiladi.

3. Harakatdagi me'yorning o`zgarishi hisob qilinadi.

4. Normativ usulda mahsulotning haqiqiy tannarxi normativ tannarxga me'yordan chetga chiqish va me'yordagi o`zgarishni qo`shish yoki ayirish yo`li bilan aniqlanadi.

Misol. Mashinasozlik zavodi bir oyda A mahsulotdan 18 ta ishlab chiqaradi. Hisobot oyining oxiriga 4 ta mahsulot ishlab chiqarish tugallanmay qoldi. Korxona bir xil mahsulot ishlab chiqaradi, deb faraz

kilaylik. A mahsulotning bir donasi me'yordagi tannarx xarajat moddalari bo'yicha quyidagicha:

Xomashyo va asosiy material – 500 so'm.

Ish haqi va ijtimoiy sug'urta – 800 so'm.

Umumishlab chiqarish xarajati (ish haqining 200 foizi miqdorida) – 1600 so'm.

Jami: 2900 so'm.

Mahsulot ishlab chiqarish bilan bog'liq haqiqiy xarajatlar ularning me'yordan chetga chiqishi quyidagi jadvalda berilgan:

4.5.1-jadval. Harajatlarni me'yordan chetga chiqishi (so'mda).

	me'yordagi	me'yordan chetga chiqish.	Jami.
▪ Asosiy material	10000	-300	9700
▪ Ish haqi va ijtimoiy sug'urtaga ajratma	16000	+320	16320
▪ Umumishlab chiqarish xarajatlari			31360
	Umumiy summa		57380

Haqiqiy xarajatlar summasi hisobot oyi oxirida mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilish tovar mahsulot bilan tugallanmagan ishlab chiqarish o'rtasida taqsimlanadi. Bu taqsimlash quyidagi jadvalda keltirilgan.

4.5.2-jadval. Harajatlarni taqsimlanishi (so'mda).

	Haqiqiy xarajatlar	Jumladan, tovar mahsulotiga me'yordagi xarajat			Tugallanmagan ishlab chiqarish
		Bitta mahsulotga	Hamma mahsulotga	Me'yordan chetga chiqish	
Xomashyo va asosiy materiallar	9700	500	9000	300	1000
Ish haqi va ijti-moiy sug'urta ajratmalari	16320	800	14400	-320	1600
Umumishlab chiqarish xarajatlari	31360	1600	28800	640	3200
Jami	57380	2900	52200	620	5800

Bir birlik mahsulotning haqiqiy tannarxini hisoblash tartibi quyidagicha jadvalda keltirilgan.

4.5.3-jadval. Bir birlik mahsulotning haqiqiy tannarxi (so'mda)

	Bitta mahsulotga to'g'ri keladigan xarajat me'yori	Me'yordagi chetga Chiqish		Bitta mahsulotning haqiqiy tannarxi
		Hamma mahsulotga	Bitta mahsulotga	
Xom-ashyo va asosiy material	500	-300	-16,66	483,34
Ish haqi va ijtimoiy sug'urta ajratmalari	800	+320	+17,77	817,77
Umumishlab chiqarish xarajatlari	1600	-640	-35,55	1564,45
Jami	2900	-620	-34,44	2865,56

Kalkulyatsiyalashning boshqa usullari kabi bu usulda ham korxonada omborlar ishini to'g'ri tashkil qilish ularni zarur asbob-uskunalar bilan ta'mirlash, moddiy boyliklarni ishlab chiqarishga sarflash bo'yicha dastlabki hujjatlarni to'g'ri va o'z vaqtida tuzish ustidan nazorat o'rnatish hisob ishlarini bajarishda kompyuter dasturlaridan keng foydalanish muhim ahamiyatga ega.

Mavzuni o'zlashtirish uchun zarur tayanch tushunchalar:

Yaroqsiz mahsulot, ishlab chiqarish chiqindilari, qaytariladigan chiqindi, qaytarilmaydigan chiqindi, umumishlab chiqarish xarajatlari, tuzatiladigan yaroqsiz mahsulot, tuzatilmaydigan yaroqsiz mahsulot, yalpi mahsulot, tovar mahsulot, tugallanmagan ishlab chiqarish, tannarx kalkulyatsiyasining bo'limli usuli, tannarx kalkulyatsiyasining buyurtmali usuli, tannarx kalkulyatsiyasining me'yoriy usuli, me'yordan chetga chiqish.

Mavzuni mustahkamlash uchun nazorat savollari:

1. Asosiy ishlab chiqarish xarajatlarining tarkibi qanday?
2. Umumishlab chiqarish xarajatlarining qanday turlari mavjud?
3. Umumishlab chiqarish xarajatlarini ularni tannarxga qo'shish tartibi qanday?
4. Ishlab chiqarishdagi yaroqsiz mahsulot deganda nimani tushunasiz?
5. Tugallanmagan ishlab chiqarish xarajatlari qanday baholanadi?
6. Ishlab chiqarish xarajatlarini hisobga olish yo'llari va mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilish usullari qanday?

Amaliy mashg'ulot.

Quyidagi ma'lumotlar «DIYOR» kompaniyasining 2005 yilgi hisob-kitob jurnal va qaydnomalaridan olingan.

Ko'rsatkichlar	Summasi
Sotish xarajatlari	140000
1.01.2005 yilga asosiy materiallar qoldig'i	90000
31.12.2005 yilga asosiy materiallar qoldig'i	60000
Ishlab chiqarish kommunal xarajatlari	36000
Asosiy ishlab chiqarish ishchilarining ish haqi xarajatlari	150000
Zavod binosi amortizatsiyasi	162000
Asosiy materiallarni sotib olish	750000
Sotish	2500000
Zavod binosi sug'urtasi	40000
Xo'jalik inventarlari	15000
Ma'muriy xarajatlar	270000
YOrdamchi ishlab chiqarish ishchilarining ish haqi xarajatlari	300000
Ishlab chiqarishga texnik xizmat ko'rsatish xarajatlari	87000
1.01.2005ga tugallanmagan ishlab chiqarish	180000
31.12.2005ga tugallanmagan ishlab chiqarish	100000
1.01.2005 yilga tayyor mahsulot qoldig'i	260000
31.12.2005 yilga tayyor mahsulot qoldig'i	210000

Topshiriq: Quyidagi xarajat elementlarining 2005 hisobot yili bo'yicha ishlab chiqarilgan mahsulotning tannarxi to'g'risida hisobot tayyorlang:

- a. Asosiy material xarajatlar;
- b. Asosiy ishlab chiqarish mehnat xarajatlari;
- c. Ishlab chiqarish ustama xarajatlar

Sotilgan mahsulot tannarxini aniqlang.

V-MAVZU. ISHLAB CHIQARILGAN MAHSULOT, BAJARILGAN ISH VA KO'RSATILGAN XIZMATLARNING TANNARXINI KALKULYATSIYA QILISH TIZIMI

- 5.1. Xarajatlarni hisobga olish va mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilish tizimini turkumlash
- 5.2. Ishlab chiqarish xarajatlarini hisobga olish va mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilishning buyurtmali usuli
- 5.3. Jarayonli usulda xarajatlarni hisobga olish va mahsulotning tannarxini kalkulyatsiya qilish

5.1. Xarajatlarni hisobga olish va mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilish tizimini turkumlash

Xo'jalik yurituvchi sub'ektning ishlab chiqarish faoliyatida xarajatlarning boshqaruv hisobi tizimini tashkil qiladigan va o'zaro bog'langan uchta element mavjud:

- ishlab chiqarishga sarflangan xarajatlarni hisobga olish;
- tayyor mahsulotlarning hisobini yuritish;
- ushbu tayyor mahsulotlarning tannarxini kalkulyatsiya qilish.

Ishlab chiqarish xarajatlarini hisobga olish tizimi quyidagicha turkumlashtiriladi

A. Guruhlashtiriladigan ob'ektlar

Buyurtma tizimi

Jarayon tizimi

V. Me'yorlashtirish darajasi

Haqiqiy sarflarning tizimi

Me'yoriy sarflarning tizimi

S. Xarajatlarni qamrashning to'laligi

To'liq sarflarning tizimi

Qisman sarflarning tizimi

5.1.1-chizma. Ishlab chiqarish xarajatlarini hisobga olish tizimining turkumlanishi

Bu usullardan kaysi birini qo'llash har bir xo'jalik yurituvchi sub'ektda ishlab chiqarilgan mahsulotning turlari, texnologiya jarayoni, tarmoqning xususiyati, ishlab chshqarishni tashkil qilish usuli va uning turlariga bog'liq.

Xarajatlarni hisobga olish va kalkulyatsiya qilish belgilari xarajatlarni hisobga olish tizimini muvaffaqiyatli tashkil qilishga va bir usulni ikkinchisidan ajratishga yordam beradi va osonlashtiradi.

Ishlab chiqarish jarayoni bo'yicha

Yarim fabrikatli usul

Yarim fabrikatsiz usul

Mahsulotning miqdori bo'yicha

Bir xil mahsulot ishlab
chiqaruvchi

Ko'p xil mahsulot ishlab
chiqaruvchi

Bilvosita xarajatlarni taqsim qilish usuli bo'yicha

Bir koeffitsientli

Ko'p koeffitsientli

Kalkulyatsiya tuzish davri bo'yicha

Rejali

Hisobot

5.1.2-chizma. Ishlab chiqarish xarajatlarini hisobga olish usullarini turkumlashtirishning ko'shimcha belgilari

Bozor iqtisodiyoti sharoitida tadbiq qilingan xarajatlarni hisobga olish tizimi bir vaqtning o'zida turkumlashtirishning bir necha asoslaridan foydalanadi. Lekin, biz qo'llanma imkoniyatidan kelib chiqqan holda va o'rgatish usuliga muvofiq asosan buyurtma, jarayonlar va me'yoriy usullarni va ularning turlicha ko'rinishlari bilan bog'liq holatlarini yoritishga harakat qilamiz. Bundan tashqari qo'llanmada:

- chetga chiqish summasiga muqobillashtirilgan joriy me'yorlardagi xarajatlarni hisobga olish tizimi;
- me'yordagi va haqiqatda sarflagan xarajatlarning hisobini parallel yuritish;
- qisman, to'liq haqiqiy va me'yoriy sarflarga asosan xarajatlarni hisobga olish tizimlari yoritiladi.

5.2. Ishlab chiqarish xarajatlarini hisobga olish va mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilishning buyurtmali usuli

Ishlab chiqarish xarajatlarini hisobga olish va mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilishning **buyurtmali usuli** asosan ishlab chiqarish texnologiyasi uchun sarflangan xom-ashyo va materiallar, mehnat sarflari va boshqa umumiy ishlab chiqarilgan mahsulot, bajarilgan ish yoki ko'rsatilgan xizmatning turiga qarab qo'llaniladi.

Bu usulni qo'llash uchun tegishli shart-sharoitlar mavjud bo'lishi kerak. Ushbu usul asosan qurilish ob'ektlari, samolyotsozlik, kemasozlik, qog'oz, mebel sanoati, ilmiy-izlanish, konstruktorlik va ta'mirlash ishlari, auditorlik, konsalting xizmatlari va shunga o'xshash yakka buyurtma yoki kichik guruhlardagi tovarlarni ishlab chiqarish jarayonlarida qo'llaniladi.

Buyurtmali usul qo'llanilayotganda e'tiborni ishlab chiqarishning xususiyati va buyurtmaga qaratish va ularni chuqur tasniflash lozim.

Ko'pchilik hollarda ishlab chiqarilgan mahsulotlar murakkab texnologiyadan tashkil topgan 100 va undan ortiq muomalalar natijasida ishlov berilgan ko'p nomdagi va miqdordagi detallardan tashkil topgan bo'ladi.

Bundan tashqari, ushbu tarmoqlarda ishlab chiqarishning o'ziga xos xususiyatlariga ushbu detallarni tayyorlash va ularga ishlov berishdagi sarflar farq qilishi natijasida ishlab chiqarilgan mahsulot hajmining vaqtlar oraligida o'sib borishi hisoblanadi. Tayyor buyum - mahsulotlarni yig'ish ham mehnatni brigada asosida tashkil qilganda yoki ayrim ishchi yiqqanda ushbu yig'ishning uzoq vaqt davom qilishi va zarur detallarni balki, o'zaro almashtirish yo'li bilan emas, ayrim olgan holda yig'ish xususiyati bilan farq qiladi. Ushbu jarayonda tegishli mashina yoki buyum uchun ishlab chiqarilgan detal yoki qismlar, yig'uv yoki mexanik ishlov beruvchi tsexlarga berilmay, balki omborga topshiriladi. Ushbu ishlab chiqarish, ya'ni buyurtmani tayyorlash jarayonida zarur mehnat buyumlari ayrim olgan holda va tez-tez takrorlanmaydigan turlari bo'lishi, ba'zi vaqtlarda ularning ko'pchilik turlari bo'yicha va ayrim kichik guruhlar bo'yicha harakati (iste'moli) sodir bo'ladi.

Ayrim olingan buyurtmalar va kichik guruh (hajm)dagi mahsulotlarni ishlab chiqarishda yiriklashtirilgan (ishlab chiqarish buyurtmasi, tovar komplekti yoki qismlarning komplekti) reja-hisob

birliklarini qo'llagan holdagi tezkor rejalashtirish va ishlab chiqarishni boshqarishning murakkab tizimini qo'llash xususiyatiga egadir. Chunki, murakkab texnologiya muammolari natijasida ishlab chiqarilgan mahsulotlar ularni tayyor holga keltirish uchun ko'pdan-ko'p ishlarni bajarishni talab qiladi, ya'ni ular texnologiya kartasidagi belgilangan muomalalarni (ishlov berish) amalga oshirish jarayonida bir necha tsexlardan (quyish, ishlov berish, yig'ish, sinash) o'tadi, bitta detal bitta stanokda ishlov berishdan o'tadigan ishlov berishning ko'p, har xil variantlari amalga oshiriladi. Ushbu muomalalarning bajarilishi, bosqichlar o'rtasidagi aloqalar tasdiqlangan tarmoq grafiklari va yig'ma grafiklar yordamida nazorat qilib boriladi va natijada tayyor mahsulot (buyurtma) olinadi.

Ishlab chiqarilgan buyurtma - bu uning oxirgi natijasi buyurtmaning bajarilishiga erishish uchun zarur bo'lgan kompleks texnologiya jarayonlari va muomalalarni bajarish uchun zarur bo'lgan ishlarni bajarishni o'z ichiga olgan reja-hisobdagi birlikdir. Ushbu birlikka konstruktorlik byurosining texnologiya bo'limi va ishlab chiqarish tsexlarining mahsulotlari, bundan tashqari, ularni sinovdan o'tkazish jarayonlari kiradi.

Yig'uv jarayoni bir oydan kam davom qiladigan hollarda mahsulotning detal va bo'laklari yig'uv tsexlari ushbu bo'lak yoki buyumlar bo'yicha komplektlashtirilgan holda o'tkaziladi. Ushbu tartibdagi tizimda yig'uv tsexlari va bo'limlari uchun detal komplekti yoki detalni ishlash uchun tayyorlangan bo'limlar uchta tegishli buyurtma, tayyorlov va ishlov beruvchi bo'limlar uchun detal komplekti yoki detalni ishlash uchun tayyorlangan bo'lakchalar reja-hisob birligi sifatida qabul qilingan.

Agarda yig'uv jarayoni bir oydan ortiqcha davom qilsa, u holda yig'uv tsexlari va bo'limlariga detallar guruhlangan holda yig'uv ishlarini bajarish grafigiga muvofiq topshiriladi. Ishlov berish tsexlari va bo'linmalariga esa ishlab chiqarishning tegishli bosqichida yig'ish uchun zarur bo'lgan va ushbu bo'laklarni yoki bo'laklar guruhini yig'ish uchun kerak bo'ladigan bo'laklar komplekt holda topshiriladi. Bo'laklarni komplektlash uchun zarur bo'lgan detallarni topshirish grafigi ushbu komplektni siqib buyumni yig'ish grafigiga asosan navbatma-navbat topshirilib boriladi. Chunki asosiy maqsad texnologiyada ko'rilgan muomalalarning to'xtab qolishiga yo'l qo'ymaslikdir. Natijada tayyorlov va ishlov berish tsexlari va tayyorlov tsexlari uchun reja-hisob birligi detal komplekti, bo'laklar yoki bo'laklarning guruhi bo'lsa,

yig'uv tsexi yoki bo'limlari uchun esa reja-hisob birligi umumiy yig'uvning bosqichi yoki ishlab chiqarish buyurtmasi hisoblanadi.

Tajriba-sinov ishlari bilan shug'ullanadigan sub'ektlarda esa rejalashtirish va hisobning ob'ekti tasdiqlangan mavzu hisob-rejasida ko'rsatilgan bo'ladi. Ushbu tasdiqlangan mavzularning bajarish darajasini aniqlash maqsadida reja-hisob birligi sifatida tovar komplekti qabul qilingan. Ushbu tovar komplektining tarkibi va hajmi ishlab chiqarish bo'linmalarining mahsulotlari ishlab chiqarishning kaysi bosqichiga taalluqligidan kelib chiqkan.

Konstruktorlik bo'limlarning mahsulotlari joriy rejaga asosan, komplektlangan holda bosh texnologiyaning bo'limiga beriladi, Keyinchalik ushbu mahsulot bo'yicha texnologiya hujjatlari ishlab chiqarish bo'limlari tsexlariga o'tkaziladi. Me'yoriy xarajat - mehnatning sarfiga va texnologiya jarayoniga muvofiq tayyorlov va ishlov beruvchi tsex bo'limlarga beriladigan tovar komplektlari hisoblab chiqiladi. Ushbu jarayonni bosib o'tgan, haqiqatda ishlov berilgan yoki tayyorlangan va tovar komplektiga kiritilgan detallar va tovar-komplektlari, agarda tsex-bo'limning yig'ma dasturining talabiga javob bersagina haqiqatda bajarilgan, deb hisoblanadi.

Xo'jalik yurituvchi sub'ektlarda kichkina guruhlarda o'zining yo'nalishida mahsulot ishlab chiqarish bilan bir qatorda mahsulotning hajmida asosiy o'rin yo'nalishiga mos kelmaydigan mahsulotlar bo'lgan holatlarda tezkor ishlab chiqarish boshqaruvining tizimini tanlashga sub'ektning ixtisos yo'nalishi katta ta'sir qiladi. Chunki, ushbu mahsulotlarni ishlab chiqarishni tashkil qilish xususiyati faoliyatida asosiy mahsulotlarni ishlab chiqarish sharoitidan ancha farq qiladi. Ushbu hollarda tegishli sub'ektlarda asosiy mahsulotlarni ishlab chiqarish uchun tezkor-ishlab chiqarish rejasi va hisobining boshqa tizimi qo'llanilgan vaqtlarda ham yuqorida tasniflangan buyurtma yoki kompleks tizimlarining bittasini tadbiq qilish maqsadga muvofiqdir.

Bir vaqtning o'zida tezkor boshqaruv tizimining har xil turlaridan foydalanish reja-hisob birliklarining ko'payishiga, texnik-iqtisodiy va tezkor ishlab chiqarish rejasini bog'lashdagi hisob ishlarining murakkablashishiga, ishlab chiqarish jarayonining yuritilishida hisob va nazorat darajasining pasayishiga olib keladi.

Umuman olganda, ushbu aniqlangan yo'nalish me'yorlashtirish, kalkulyatsiya qilish va baholarni shakllantirish ob'ektlarini soddalashtirish bilan bir qatorda umumlashtirilgan holda rejalashtirish va hisob ob'ektlarining birligi zaruriyatini keltirib chiqaradi. Lekin, ichki

tarkibiy bo`linmalar, ayniqsa, brigadalar yoki ichki ijara guruhlari bo`yicha ishlab chiqarish xarajatlarining turlarini ishlab chiqarishda hisobga olish tartibi e`tiborga olinmaydi. Chunki, ayrim va kichik guruhdagi mahsulotlarni ishlab chiqarishda tegishli ularning oxirgi bosqichida - yig`uv tsexida va sub'ekt darajasida reja-hisob birliklari va kalkulyatsiya ob'ektlarining bir-biri bilan mos kelishi etarli, deb hisoblanadi.

Ish joylarini xomashyo va materiallar bilan ta'minlash tizimidan foydalanishga qarab markaziy ombordan xomashyo va materiallarni tsex va bo`limlarga chiqarish har xil hujjatlar bilan tasdiqlanadi. Natijada ushbu xomashyo va materiallarni ishlab chiqarishga chiqarishi ishlab chiqarish bo`linmalarining ixtisoslashishi va mustaqilligi bo`yicha ilgari tasdiqlangan sarflarning me'yoriga asosan tushgan, limitlashmagan sarfini tashkil qilish usulida, tsexlarda ishlatiladigan ushbu qiymatlarning to`liq nomlari va turlari keltirilgan limit qaydnomalaridan markazlashtirilgan tizimda esa brigada yoki zvenolar uchun tuzilgan limit qaydnomalardan foydalaniladi. Har bir xomashyo va materialning sarflanish limiti (chegarasi) bo`laklar, detal va yarimfabrikatlarning ishlab chiqarishga berilish rejasi, bundan tashqari, ularning tsex omborlarida va ish joylaridagi zahirasining umumiy me'yori va reja-hisob birliklari bo`yicha sarflashning guruhlashtirilgan me'yorlarini inobatga olgan holda hisoblash markazlari yoki guruhlari tomonidan bajariladi.

Ushbu me'yorlarning yig`indisi tugallanmagan ishlab chiqarishning rejadaga bajarilish darajasini detallarga ishlov berish va tayyor buyumlar ishlab chiqarishda komplektlash va yo`qotishlarni hisobga olgan holdagi hisob-kitoblarni o`z ichiga oladi.

Limit (chegara) qaydnomalari hisoblash markazi tomonidan ikki nusxada yoziladi va bosh texnolog bilan moddiy-texnika ta'minoti bo`limining rahbari tomonidan tasdiqlanadi. Omborxonada qoldiriladigan ushbu qaydnomada jo`natilgan xomashyo va materillar turlari bo`yicha faqat tsex yoki bo`limlar bo`yicha kodlashtirilgan holda ko`rsatiladi (brigada va zvenolarga ajratilmaydi). TSexda qo`llanilayotgan ushbu qaydnomaning 2-nusxasida ushbu tsexning oylik dasturi – rejasini bajarish uchun zarur bo`lgan xomashyo va materiallarning rejadagi talabini aks ettirgan mashinogramma mavjud bo`ladi. Bo`linmalar va brigadalar va zvenolar uchun ayrim kartalar tayyorlanib, ushbu kartalarga asosan, har bir tsexga yoki brigadaga zarur bo`lgan, lekin kartada ko`rsatilgan turlari va me'yori bo`yicha xomashyo

va materiallarni tsexning omboridan olishi mumkin. Ushbu kartalar moddiy resurslarning zahirasi va ulardan foydalanishi nazorat qilish uchun tsex yoki bo`limning rahbarida turishi lozim.

Ayrim hollarda sodir bo`ladigan limit (chegara)dan ortiqcha berish, bir xomashyoni boshqasiga almashtirish hozirgi davrdagi yo`qotishlarni qoplash uchun kelgusi oy hisobiga bo`nak ko`rinishida olishi, yig`ish-o`rnatish va moslashtirish ishlari jarayonidagi yo`qotishlarni qoplash uchun olinadigan xomashyolar, materiallar va detallar ushbu voqealarning sababi va javobgarlari ko`rsatilgan holda tsexning rahbari yoki boshqa mas'ul xodimning imzosi bilan tuzilgan qizil rangdagi hujjatlar orqali amaga oshiriladi. Ushbu holatlar tez-tez takrorlansa talabnomalar to`lg`aziladi, mabodo ushbu holatlarda qo`shimcha olinadigan xomashyo va materiallarning turlari ko`p bo`lsa, ilgari tuzilgan chegarali qaydnoma yoki kartada ayrim qator ochiladi va olingan resurslar ushbu qatorga qayd qilinadi. Chunki, ushbu ortiqcha sarflar-chegara me'yoridan chiqishlarning sabablari va javobgar shaxslar tezlik bilan aniqlanishi va tegishli qarorlar qabul qilishni taqozo qiladi. Faqatgina ushbu chegara kartalarida bo`linma va brigadalarining o`rtasida foydalanilmagan xomashyo va materiallarning harakati ko`rsatiladi.

Buyurtmalar bo`yicha xarajatlarni umumlashtirilgan hisobi bir necha variantlar bo`yicha quyidagilar yordamida tashkil etiladi:

- nazorat schetlari;
- alohida hisoblash;
- shartnoma bo`yicha tannarx kalkulyatsiyasi.

Nazorat schetlari – bu xarajatlar va ular bilan korrespondentsiyada bo`ladigan schetlarni moliyaviy hisobning odatdagi tartibida ochilishini ko`zda tutuvchi schetlar tizimi hisoblanadi. Xarajatlarning analitik schetlarida bevosita xarajatlar umumlashtiriladi. Bevosita xarajatlar esa taqsimlash hisoblari bo`yicha hisobot davri tugagandan so`ng kiritiladigan «buyurtmalar kartochkalari»da hisobga olib boriladi. Kartochka buyurtmada ko`rsatilgan hamma ishlar bajarilgandan so`ng yopiladi. Hamma buxgalterlik yozuvlar qaydnomalarga qayd qilinadi, natijalar bosh kitob schetlariga o`tkaziladi.

Alohida hisoblash - bu boshqaruv va moliyaviy hisobda schetlarni alohida ochishni ko`zlovchi hisob tizimi bo`lib, bu holda xarajatlar schetlariga moliyaviy muomalalar haqida yozuvlar qilinmaydi.

Shartnoma bo'yicha tannarx kalkulyatsiyasi - ishlab chiqarilishi uzoq tsikli bo'lgan yirik buyumlarni hisobga olish va kalkulyatsiya qilish tizimi hisoblanadi. Ishlab chiqaruvchiga qilingan ishlar uchun bosqichlar bo'yicha oraliq to'lovlar shartnomada ko'zda tutilgan to'lovlar summasi buyurtmachi dalolatnoma bilan tasdiqlangan sotilgan ishlar qiymati bilan aniqlanadi. To'lovlarning kelib tushishiga qarab mazkur davr uchun foyda hisoblash uchun sotilgan mahsulot tannarxiga kiritilishi kerak bo'lgan xarajatlar aniqlanadi. Shu erda vaqti o'tmagan xarajatlarning miqdori, ya'ni tugallanmagan va buyurtmachiga topshirilmagan ishlarning tannarxi aniqlanadi.

Shartnoma bo'yicha kalkulyatsiya tizimi qo'llanilganda bu tizim uchun o'rnatilgan tamoyillarga rioya qilish tavsiya etiladi, ya'ni:

1. Shartnoma bajarilishining dastlabki davrlarida foydani hisoblamaslik - bu daromad va xarajatlarni baholashning past ishonchliligi.

2. Ziyrak bo'lish - hisobot davrida aniqlangan zararlar shu davrda sotilgan ishlarning tannarxiga kiritilishi kerak. Agar zararlar kutiladigan bo'lsa, unda ularning summasi sotilgan mahsulotning tannarxiga zararlar ehtimoli aniqlangandan so'ng kiritiladi. Masalan, ta'til summalarini to'lash bilan bog'liq ishchilar ta'tili va qo'shimchalarni to'lash uchun zahira yaratiladi.

3. 35-85% atrofida bajarilgan shartnomaga ketgan anchagana xarajatlarga ziyrak bo'lish kerak. Hisobot sanasiga bo'lgan foyda quyidagi formula bilan hisoblanadi:

$$\text{Foyda} = \text{Ko'zda tutilgan foydaning } 2/3 \text{ qismi} * \frac{\text{Buyurtmachidan olingan summalar}}{\text{Topshirilgan ishlarning qiymati}}$$

Ko'zda tutilgan foyda	=	Topshirilgan ishlarning qiymati	-	Topshirilgan ishlarning tannarxi	-	Ko'zda tutilmagan xarajatlarning zahirasi
-----------------------	---	---------------------------------	---	----------------------------------	---	---

Shunday qilib, tannarxni buyurtma bo'yicha hisoblash va kalkulyatsiya qilish tizimi quyidagicha tavsiflanadi:

- sarflar xaqidagi ma'lumotlar mahsulotning turlariga yoki tayyor mahsulotning alohida seriyalariga o'tkaziladi;
- xarajatlar hajmi oraliq vaqtda emas, balki har bir tugallangan guruh, (partiya) bo'yicha hisoblanadi;
- bosh kitobda debet koldig'ida tugallanmagan ishlab chiqarishning

hajmi ko`rsatiladigan «Asosiy ishlab chiqarish» schetini yuritiladi.

5.3. Jarayonli usulda xarajatlarni hisobga olish va mahsulotning tannarxini kalkulyatsiya qilish

Tannarxni jarayonlar bo'yicha kalkulyatsiya qilish tizimi seriyali yoki ommaviy tarzda bir xil yoki taxminan bir xil qo'llaniladi. Xarajatlarni jarayonlar bo'yicha kalkulyatsiya qilishni har bir ishlab chiqarish bo'linmasi tomonidan ishlab chiqarish jarayonining alohida qismini bajarish va ishlov berishga qarab mahsulotni bitta muomaladan boshqasiga o'tishni ko'zda tutgan texnologiyaga ega sub'ektlar ham qo'llaydilar. Oxirgi bo'linma ishlab chiqarishni tugatadi va mahsulotni tayyor mahsulot omboriga topshiradi. Xarajatlar mahsulotlarga ishlab chiqarish bo'linmalari bo'yicha ma'lum vaqt davri uchun nisbatsiz umumlashtiriladi.

Mahsulot birligining tannarxi ishlab chiqarish tannarxini ma'lum davrda shu davrda ishlab chiqarilgai mahsulotning miqdoriga bo'lish yo'li bilan aniqlanadi.

Bunday ishlab chiqarishlarga kimyo, neftni qayta ishlovchi, to'qimachilik, tsement va boshqa ishlab chiqarishi seriyali va ommaviy turdagi tarmoqlar kiradi. Ishlab chiqarishni tashkil etish va rejalashtirish va ishlab chiqarish ob'ektlarining hisobi uchun qo'llaniladigan birliklar to'g'risidagi aniq tavsif mashinasozlik misolida berilgan.

Seriyali ishlab chiqarish ommaviyga nisbatan tezkor-ishlab chiqarishni rejalashtirish aniqlashtirilgan uslublaridan va tayyor mahsulotni o'lchashga nisbatan detallashtirilgan reja-hisob birliklaridan foydalanadi. Oqimli ishlab chiqarishda bo'lgan mashinasozlik korxonasida seriyali turdagi tsex va uchastkalar ko'p hissani tashkil etadi. Shunga nisbatan ishlab chiqarishni to'liq akslovchi va uning xususiyatlariga bog'liq bo'lgan tezkor-kalendar rejalashtirish va tezkor hisob tizimlarini ko'rib chiqamiz.

Seriyali ishlab chiqarish maxsus uskunalar bilan ta'minlangan ixtisoslashgan yoki universal uskunada ishlangan detallarning ko'p miqdoridan tarkib topgan mahsulotlarning keng nomenklaturasi bilan tavsiflanadi.

Tayyorlovchi ishlab chiqarish tsexlari, ularga quyuvchi, temirchilik, presslovchi tsexlar kiradi, texnologik turi va ishlab chiqarish tsiklining tugaganligi bo'yicha ixtisoslashadi. Shunday qilib, quyuvchi tsexlar va ularning bo'linmalari qo'yiladigan narsalari bo'yicha

ixtisoslashadi – kulrang cho`yan, quyma cho`yan, po`lat quyilma, rangli quyilma; quymalar guruhlari bo`yicha-yirik, o`rta va kichik quyilma bo`linmalari; texnologiya jarayonlarining xususiyatlari bo`yicha – bosim yordamida quyish; kuydiradigan yoki eritiladigan modullar bo`yicha – quyish va boshqalar.

Temirchilik tsexlar texnologik turlari bo`yicha ixtisoslashadi – mustaqil quyish, issiq shtampovka, o`tqazish; detallar guruhlari bo`yicha – og`ir, o`rtacha va mayda nakovka; uskuna guruhlari bo`yicha – kovka mashinalari bo`linmalari, bolg`a yoki press bilan kovka, bolg`alarda shtampovka qilish, prokatka va boshqalar.

Presslovchi tsexlarda ishlab chiqarishni tashkil etishning asosi bo`lib tugallangan ishlab chiqarish tsikliga ega predmet-texnologiya tamoyili hisoblanadi; bo`linmalarda presslanadigan metallning qalinligiga va uskuna turlariga – qalin, o`rta va yupqa varoqli shtampovka qiluvchi uskunalariga qarab ixtisoslashtirilgan.

Mexanik ishlov berish tsexlarida ishlab chiqarish predmetning yopiq tsikli bo`yicha – uzellar, agregatlar, detallar; predmet-texnologiya turi bo`yicha-tokar bo`linmasi, frezer va boshqalar tashkil etiladi; ayrim hollarda bo`linmalarga ishlov berish turi bo`yicha ixtisoslashtirilganligi uchraydi – cho`yan detallar bo`linmasi, po`lat detallar bo`linmasi va boshqalar. Asosan detal-larga ishlov berish hamma turdagi ishlov berishni termik ishlov berish, mustaxkamlash va boshqa komplektlanishini ta'minlovchi ish joylariga ega oqimli liniyalarda mujassamlangan qo`shimcha muomalalarni ham kiritadi.

Me'yorlashtirilgan detallarni ishlab chiqarish, odatda, mustaqil tsexlarga yoki alohpda bo`linmalarga ajratiladi. Ko`p hollarda bunday detallarni tayyorlash metall bilan qoplash bilan kuzatiladi.

Mexanik yig`ish va yig`ish tsexlarida oqimli texnologiya bo`yicha konveyerlarda tashkil etilishi mumkin yoki yig`ish stendlarda amalga oshiriladigan muhim yig`ish bo`linmalariga ega bo`lishi mumkin. Bu holda moddiy oqimlar harakatnning asosiy turlari – komplektli, guruhli va portsiyali. TSexlar ichida bo`linmadan bo`linmaga detallar bemalol yoki liniyalar yordamida, mexanizatsiyalangan va avtomatlashtirilgan moslamalar yordamida, konveyerli yoki relssiz transport yordamida yurishi mumkin. Tayyorlash, pakovka, qo`yilmalar, shtampovkalarga ishlov berish yoki yig`ishdan oldin saqlash uchun tsexlar oldidagi omborlar yoki detallarni komplektlovchi bo`linmalarga ega markaziy omborlar vazifalarini bajaruvchi omborlar tashkil etiladi. Muomalalar oralig`idagi ta'mirlar buning uchun maxsus ajratilgan joylarda saqlanadi:

osilgan tara, osilgan omborlar, mexanizatsiyalashgan hududlar, muomalalar orlikidagi omborlar va boshqalar.

Moddiy oqim harakati nazorat-hisob nuqtalarida nazorat qilinadi: materialni olish, materiallarni qayta ishlashga jo`natish, tsexlar ichidagi harakati, tsexlararo harakati, tayyor mahsulotni chiqarish. Nazorat-hisob nuqtalari mahsulotning yaroqliligini va yaroqsizligini aniqlash maqsadida mahsulotni qabul qilish uchun kerak bo`ladi. O`zining texnologiyasiga ko`ra, har bir ishlab chshqarish chiqarishning turli joylariga ega mahsulot chiqarish va shunga muvofiq nazorat-hisob nuqtalari. Quyuvchi tsexlarda ishlab chiqarish nuqtasi bo`lib detallarga shakl berish hisoblanadi, temirchilik tsexlarda – pakovkalarni shtampovkalash, presslovchi tsexlarda – buyumlarni shtampovkalashda birinchi yoki yurituvchi muomala, mexanik yig`ish va yig`ish tsexlarida – buyumlarni yig`ishga jo`natish. Hamma ishlab chiqarishlarda tayyor buyumlarning hisoblash nuqtasi bo`lib, tayyor mahsulotni qabul qilish bo`yicha texnik nazorat bo`limlarining punktlari hisoblanadi. Tayyor mahsulotlarni topshirish nuqtasi bo`lib, tayyor mahsulotni iste'molchi tsexlarga yoki ishlab chiqarish bo`limining, sotuv bo`limining omborlariga jo`natish joylari xizmat qiladi. Yaroqsiz detallarning hisoblash nuqtasi bo`lib, yaroqsizlik aniqlangan texnologik jarayonlarning muomalalari hisoblanadi. Detal, uning buyumga kirish me'yori hozirgi davrning o`zida me'yoriy kalkulyatsiya qilishning ob'ekti hisoblanadi, chunki uzel, agregat. buyumga me'yoriy kalkulyatsiya tuzilishidan oldin to`g`ri xarajatlarni detalga bo`lgan natural va qiymatli mazmunining me'yorlari aniqlanadi.

Detal reja-hisob birligi sifatida quyidagi elementlarni qamrab oluvchi me'yoriy rejalashtirish va ishlab chiqarishga bo`lgan xarajatlar hisobi tizimining komplektlashganligi talabiga javob beradi:

- mahsulot chiqarishning ishlab chiqarish imkoniyatlarini, uni tayyorlash muddatining etkazib berish shartnomasi muddati bilan to`g`ri kelishini, tsexlar, bo`linmalar va brigadalar bo`yicha mahsulot tarkibini me'yorlashtirish va boshqalar;
- iste'mol, asosiy jamg`armalarning sarflari va zahirolari, moddiy, mehnat va moliya resurslarining yagona me'yori asosida texnik, texnologiya va iqtisodiy asoslash;
- ishlab chiqarish bo`linmalari darajasida ishlab chiqarish faoliyati natijalarini rejalashtirish, hisobga olish va aniqlash.

Ommaviy ishlab chiqarishning chegaralangan nomenklaturasi bilan va ma'lum vaqt mobaynida uzluksiz tayyorlanadigan mahsulotning turlari ko'p miqdorda ishlab chiqarish bilan ajralib turadi.

5.3.1-chizma. Mahsulotlarning tannarxini jarayonlar bo'yicha kalkulyatsiya qilish va xarajatlarni yig'ish

		Ishlov beradigan tsexlar		
Asosiy xomashyo va materiallar	→	A Tayyor mahsulot	Tugallanmagan ishlab chiqarish	→ Tugallanmagan ishlab chiqarish
Bevosita mehnat haqi	→	B Tayyor mahsulot	Tugallanmagan ishlab chiqarish	→
Ishlab chiqarish ustama harajatlari	→	C Tayyor mahsulot	Tugallanmagan ishlab chiqarish	→ Tayyor mahsulot

Xarajatlarning jarayonli kalkulyatsiyasi ishlatiladigan ishlab chiqarishda mahsulot to tayyor bo'lmaguncha bir jarayondan boshqasiga o'tib yuradi. Bunday ishlab chiqarish bosqichlarini yoki jarayonlarini o'tash kimyo, tsement, neftni qayta ishlash, tekstil sanoatlariga hosdir. Xarajatlar to'planishi jarayoni ishlab chiqarish jarayoniga parallel bo'ladi. Har jarayon uchun nazorat schetlari o'rnatilib, to'g'ri va ustama xarajatlari aniqlanadi. To'g'ri xarajatlar buyurtmali kalkulyatsiya usulidek aniqlanadi, lekin hisob-kitobi engilroq bo'ladi, chunki mahsulotning har birligi uchun xarajatlarni detallashtirish kerak emas. Bir jarayondan boshqasiga o'tganda xarajatlar o'sadi. A jarayonning xarajatlari V jarayonga o'tib, uning xarajatlariga qo'shiladi, keyin S jarayonga o'tib Sning xarajatlari qo'shiladi va hokazo. Shunday qilib ohirgi bosqichning xarajatlari ham qo'shilgandan keyin umumiy tannarx kelib chiqadi.

Jarayonli kalkulyatsiya tizimida tannarx o'zgarishi.

A jarayon

materiallar 1000 jarayon 3000 ----->
 mehnat xarajatlari 1000 V ga berildi
 ustama xarajatlari 1000

3000

V jarayon

-----> jarayon A dan 3000 jarayon S ga ----->

mehnat xarajatlari 2000 berildi 6500
 material 1000
 ustama xarajatlari 500
 6500

S jarayon

---> jarayon V dan 6500 Tayyor mahsulot
 mehnat xarajatlari 3000 omboriga
 material 2000 berildi 12500 ----->
 ustama xarajatlari 1000
 12500

Tayyor mahsulot

-----> S jarayondan 12500 berildi



Ustama sarflar va tutallanmagan ishlab chiqarishni baholash bilan bog`liq muammo paydo bo`lganda to`g`ri xarajatlarni taqsim etish oddiy tartibga ega.

Jarayonlararo kalkulyatsiya va xarajatlarni jamg`arish tartibini tahlil qilib hisob jarayonini besh bosqichga bo`lish mumkin:

1. Ishlab chiqarish xarajatlarini natural yoki reja hisob birliklarida hisobga olish.
2. Mahsulotni chiqarishni natura yoki reja-hisob birliklarida hisobga olish.
3. Hisoblangan xarajatlarni «Asosiy ishlab chiqarish» schetining

debetida jamlash.

4. Xarajatlarni tayyor mahsulotlar va davr oxiriga bo'lgan tugallanmagan ishlab chiqarish o'rtasida taqsimlash.

5. Mahsulot birligining tannarxini hisoblab chiqish.

Mavzuni o'zlashtirish uchun zarur tayanch tushunchalar:

Buyurtmali kalkulyatsiya, jarayonli kalkulyatsiya, kalkulyatsiya qilish tizimi, shartnoma bo'yicha tannarx kalkulyatsiyasi, seriyali ishlab chiqarish, yig'uv jarayoni, murakkab texnologiya.

Mavzuni mustahkamlash uchun nazorat savollari:

1. Xarajatlarni hisobga olish va mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilish tizimi qanday turkumlanadi?
2. Tannarxni kalkulyatsiya qilishning buyurtmali usulining mohiyati nimada?
3. Qanday hollarda tannarxni kalkulyatsiya qilishning buyurtmali usuli qo'llaniladi?
4. Shartnoma bo'yicha kalkulyatsiya tizimining tamoyillari nimalardan iborat?
5. Tannarxni kalkulyatsiya qilishning jarayonli usulining mohiyati nimada?
6. Jarayonli usulda xarajatlarni hisoblash va yig'ish tartibi qanday?

Amaliy mashg'ulot.

Gulasal xususiy firmasi TIKO avtomobilidan 2003 yil 17 iyundan buyon foydalanadi. Avtomobil boshlang'ich qiymati 8400.000 so'm. Hisob siyosati bo'yicha avtomobilning tugatish qiymati boshlang'ich qiymatning 10 %i miqdorida qilib belgilangan. Avtomobildan 5 yil foydali xizmat muddati davomida 300.000 km yo'l yurish mo'ljallangan. 2003 yilda avtomobil 37.000 km, 2004 yilda 65.000 km, 2005 yilda 57.000 km yo'l bosgan.

Topshiriq: Yuqoridagi ma'lumotlar asosida quyidagi usullarda avtomobilga 2005 hisobot yili uchun eskirish hisoblang:

- ⇒ To'g'ri chiziqli usul;
- ⇒ Ishlab chiqarish usuli;

- ⇒ Kumulyativ usul;
- ⇒ Qoldiqni kamaytirish usuli.

VI-MAVZU. SANOAT ISHLAB CHIQARISH XARAJATLARINI HISOB VA MAHSULOT TANNARXINI KALKULYATSIYA QILISH

- 6.1. Sanoat korxonalarida ishlab chiqarish xarajatlari hisobini tashkil etish va uning vazifalari.
- 6.2. Elektr ta'minotida ishlab chiqarish xarajatlarini hisobga olish va mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilish.
- 6.3. Neft va gaz qazib olish sanoatida ishlab chiqarish xarajatlarini hisobga olish va mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilish.

6.1. Sanoat korxonalarida ishlab chiqarish xarajatlari hisobini tashkil etish va uning vazifalari.

Prezident I.Karimovning 2005 yilda mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2006 yilda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishning eng muhim ustivor yo`nalishlariga bag`ishlangan Vazirlar Mahkamasidagi «Erishilgan yutuqlarni mustahkamlab yangi marralar sari izchil harakat qilishimiz lozim» mavzusidagi ma'ruzasida ta'kidlaganidek «...Bu energiya resurslari, birinchi navbatda, ko`p miqdorda energiya sarf etadigan tarmoqlar – kimyo, rangli metallurgiya, elektr energetikasi va boshqa sohalarda qattiq tejamkorlikni ta'minlash bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirishdir»

Ana shu vazifani amalga oshirish mahsulot tannarxini kamaytirish bilan uzviy bog`liqdir. Mahsulotning tannarxi mahsulot ishlab chiqarish va uni sotishga sarflangan mablag`lardan tashkil topadi. Mahsulot tannarxini pasaytirish iqtisodiyot tarmoqlaridagi zahiralarining ko`payishiga, ishlab chiqarish mablag`larini o`zgartirmay turib ko`proq mahsulot ishlab chiqarishga imkon yaratadi.

Mahsulot tannarxini tashkil etishda quyidagi qonun-qoidalarga amal qilinishi kerak:

1. Korxona xarajatlarini uning xo`jalik faoliyati doirasi buyicha aniq chegaralanishi;
2. Xarajatlarni ishlab chiqarish va muomala jarayonlari bilan bevosita bog`lanishi;
3. Xarajatlarni ishlab chiqarish jarayonida daromadlar hisobidan koplanishi;

4. Haqiqiy xarajatlarni me'yorlarga rioya qilinishidan qat'iy nazar to'liq hisobga olish;

5. Mahsulot ishlab chiqarish bilan bog'liq xarajatlarni ma'lum davrga aniqlash.

Mahsulot (ishlar, xizmat)larning ishlab chiqarish tannarxini hosil qiluvchi xarajatlar ularning iqtisodiy mazmuniga ko'ra quyidagi elementlar bilan guruhlariga ajratiladi:

1. Ishlab chiqarish moddiy xarajatlari (qaytariladigan chiqimlar qiymati chiqarib tashlangan holda);

2. Ishlab chiqarish xususiyatiga ega bo'lgan mehnatga haq to'lash xarajatlari;

3. Ishlab chiqarishga tegishli bo'lgan ijtimoiy sug'urta ajratmalari;

4. Asosiy vositalar va ishlab chiqarish ahamiyatiga ega bo'lgan nomoddiy aktivlar amortizatsiyasi;

5. Ishlab chiqarish ahamiyatiga ega bo'lgan boshqa xarajatlar.

Yuqoridagi xarajatlarning hammasi ishlab chiqarilgan mahsulotning tannarxiga qo'shiladi.

Tannarxning o'zini uchga bo'lib o'rganamiz.

1. Tsex tannarxi (tsexdagi mahsulot ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lgan xarajatlar).

2. Ishlab chiqarish tannarxi (tsex tannarxiga umum ishlab chiqarish xarajatlari qo'shiladi).

3. To'la tannarx (ishlab chiqarish tannarxiga ishlab chiqarishdan tashqari xarajatlar va tijorat xarajatlari qo'shiladi).

TANNARX							
Tsex tannarxi			Ishlab chiqarish tannarxi			To'la tannarx	
mahsulot ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lgan xarajatlar			Tsex tannarxi + umum ishlab chiqarish xarajatlari			Ishlab chiqarish tannarxi + ishlab chiqarishdan tashqari xarajatlar +	

6.1.1-chizma. Tannarxni turlari bo'yicha hisoblash tartibi

Kalkulyatsiya – mahsulot (ko'rsatilgan xizmatlar) birligi tannarxni unga qilgan sarflarni turlari ya'ni kalkulyatsiya moddalari bo'yicha hisoblab chiqish usulidir.

Kalkulyatsiya qilishning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

1. Har bir mahsulot birligi bo'yicha tannarxni aniq hisoblash.
2. Tannarx bo'yicha norma va normativlarga rioya qilish ustidan nazorat o'rnatish.
3. Xarajatlarga asoslanib xo'jalik hisobidagi bo'lim, tsex va brigadalar samaradorligini aniqlash.
4. Iqtisodiy tahlil uchun ma'lumotlarni o'z vaqtida berish.

Kalkulyatsiya qilishning asosiy qoidalari quyidagilardan iborat:

1. Ishlab chiqarish xarajatlarini to'g'ri turkumlash.
2. Xarajatlar hisobi ob'ektlari va kalkulyatsiya ob'ektlarini to'g'ri tanlash.
3. Egri xarajatlarni taqsimlashda qonundagi usullardan foydalanish.
4. Xarajatlarni davrlar bo'yicha chegaralash.
5. Kalkulyatsiya birligi tannarxini hisoblashda to'g'ri usullardan foydalanish.

Ishlab chiqarish xarajatlari hisobi va mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilish usuli deb, u yoki bu mahsulot birligining tannarxini aniqlashda qo'llaniladigan usullar tizimiga aytiladi. U yoki bu kalkulyatsiya usulini quyidagi asosiy omillar bilan aniqlanadi: ishlab chiqarish turi va murakkabligi; ishlab chiqarilayotgan mahsulot nomenklaturasi, xarakteri, tugallanmagan ishlab chiqarish hajmi, tugallanmagan ishlab chiqarish hajmi, ishlab chiqarish jarayonining uzun-qisqaligi.

Ishlab chiqarish hisobining oxirgi bosqichi – bu xarajatlarni mahsulotning ayrim turlari buyicha detallashtirish va mahsulot birligi tannarxini aniqlashdir. Oddiy ishlab chiqarish, ya'ni ko'mir, neft, gaz kazib chiqarishda, issiqlik va elektr quvvati ishlab chiqarishda kalkulyatsiyaning oddiy usuli qo'llaniladi. Murakkab texnologik jarayonga ega bo'lgan, masalan, metallurgiya, mashinasozlik, to'qimachilik korxonalarida kalkulyatsiya qilishning murakkab usuli qo'llaniladi. Agar korxona ayrim qism, detal va uzellardan tashkil topmagan oddiy mahsulot ishlab chiqarsa, u holda bitta, ya'ni tayyor mahsulot tannarxini aniqlash kalkulyatsiyasi tuziladi. Agar korxonada

bunday ayrim detal va uzellardan tashkil topgan murakkab mahsulot ishlab chiqarilsa, ba'zi hollarda tayyor mahsulot tarkibiga kiruvchi uzal va detallar tannarxini aniqlash kalkulyatsiyasi ham tuziladi. Bu hol mahsulot tannarxini kalkulyatsiyalashni birmuncha murakkablashtiradi.

6.2. Elektr ta'minotida ishlab chiqarish xarajatlarini hisobga olish va mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilish.

Elektrostantsiyalar suv kuchi bilan ishlaydigan elektrostantsiyalar (Tuyamuyin, Chirchiq, Sirdaryo) va yoqilg'i kuchi bilan ishlaydigan (Taxiyatosh, Angren, Navoiy, Toshkent) kabi stantsiyalarga bo'linadi.

Elektr va issiqlik energiyasi ishlab chiqarishning xususiyatlari quyidagilardan iborat:

1. Elektr energiyasi ishlab chiqarish korxonalari energiyani ishlab chiqarish uni taqsimlash ishlarini bajaradi. Elektr energiyasi ishlab chiqarishda asosiy bo'linma bu hududiy birlashmalardir. Bu birlashmalar viloyat yoki bir necha viloyat bo'yicha tashkil etiladi.

2. Energiya tizimida asosiy ishlab chiqarishga elektrostantsiyalar, ta'minot va energetik korxonalarga xizmat qiluvchi yordamchi ishlab chiqarishlar kiradi.

3. Energiya tizimlarini boshqarish tuman boshqarmalari orqali bajariladi. Bu tashkilotlar tuman ichida elektr ta'minotining to'xtovsizligi va sifati uchun javob beradi.

4. Elektr ta'minoti tizimining har bir bo'linmasida (viloyat, tuman) o'ziga qarashli ishlab chiqarish xarajatlari hisobga olinib energiyaning qisman tannarxi aniqlanadi. Mahsulotning to'la tannarxi faqat energiya tizimi bo'yicha aniqlanadi. Buning uchun tizimga kiradigan hamma tashkilot va muassasalarning jami xarajatlari sotilgan energiya miqdoriga bo'linadi.

5. Energiya ishlab chiqarish jarayoni uzluksizligi bilan ta'riflanadi. Energiyani uzatish va taqsimlash katta tezligi tufayli uni ishlab chiqarish va iste'mol qilish bir vaqtning o'zida amalga oshiriladi. Shuning uchun energiya tizimlarida to'la tannarx energiya tizim bo'yicha ya'ni Franko-iste'molchigacha aniqlanadi.

6. Energiya ishlab chiqarish va uzatish tannarxi oy davomida, chorak davomida hisoblab boriladi.

7. Energiya tizimining yana bir xususiyati o'zi ishlab chiqargan energiyadan tashqari qo'shni energiya tizimlaridan sotib olingan energiyani iste'molchiga uzatishdir. Shuning uchun energiya tizimlari

bo'yicha energiyani ishlab chiqarish tannarxi tarkibiga alohida moda «Sotib olingan energiya xarajatlari» kiritiladi. Bu paytda energiya tizimi sotib olingan energiyani uzatish, taqsimlash, tarmoqlarda energiya nobudgarchiligi kabi sarflarni o'z zimmasiga oladi.

8. Ishlab chiqarilgan mahsulotning bir xilligi, tugallanmagan ishlab chiqarish xarajatlari bo'lmaganligi natijasida energetika korxonalarida kalkulyatsiya qilishning oddiy usuli qo'llaniladi.

9. Energiya tizimlarida 2 turdagi energiya (elektr va issiqlik) ishlab chiqarilganligi uchun ba'zi xarajatlarni egri yo'l bilan taqsimlash zaruriyati paydo bo'ladi.

Energiya tannarxi ob'ektlari ikki turga bo'linadi.

1) Elektr energiya – 1 kilovat-soat

2) Issiqlik energiyasi – 1 gigo-kaloriya

Energiya ishlab chiqarishning «Tabiiy manbalari» – ko'mir, gaz, balanddan tushgan suvdan foydalanib uning kuchini energiyaga o'zgartirish natijasida bajariladi. Hidroelektr stantsiyalarda energiya tannarxi stantsiyaning o'rnatilgan joyi, uning turi, suv bosimi va boshqa ko'rsatkichlar bilan bog'liq bo'ladi.

Energetikada xarajatlar quyidagicha turkumlanadi:

1. Ishlab chiqarish xarakteri bo'yicha: – asosiy va yordamchi ishlab chiqarish.

2. Mahsulot turlari bo'yicha: – elektr va issiqlik energiyasi ishlab chiqarish.

3. Kalkulyatsiya moddalar bo'yicha.

Asosiy ishlab chiqarishga energiya ishlab chiqarish bilan shug'ullanuvchi tseklar kiradi.

A. Issiqlik energiyasini texnologik bosqichlarini amalga oshiruvchi tseklarga quyidagilar kiradi:

1) yoqilg'i transport tsexi – yoqilg'ini qozonga eltib berish, saqlash va tayyorlash ishlarini bajaradi.

2) qozonxona tsexi – yoqilg'ini yoqish, bug' ishlab chiqarish, uni mashinalar joylashgan tsexga yuborish, suvni tayyorlash va tozalash, kulini yig'ib uni yo'qotish ishlarini bajaradi.

3) mashina(turbina tsexi) – elektr energiyani ishlab chiqarish va paydo bo'lgan bugni jo'natish ishlarini bajaradi.

4) elektro-texnika tsexi – energiyani turbinalardan tarmoqlarga o'tkazish va o'z ehtiyoji uchun foydalanish bilan shug'ullanadi.

5) issiqlik bilan ta'minlash tsexi – suvni isitib bug'ga aylantirish bilan shug'ullanadi.

B. Hidroelektr stantsiyalarda xarajatlarni hisobga olib borish ishlari quyidagi texnologik tsexlarda amalga oshiriladi:

1. Hidrotexnika tsexi - bu tsexga gidrotexnik inshootlar xarajatlari (damba, suv omborlari va har xil nazorat qiluvchi moslamalar) kiradi.

2. Mashina gidrotrubina xarajatlari.

3. Elektro-texnika tsexi xarajatlari.

Elektrostantsiyalarda quyidagi kalkulyatsiya moddalari bo'yicha xarajatlar hisobga olinadi:

1. Texnologik maqsadlarga mo'ljallangan yoqilg'i.

2. Texnologik maqsadlarga mo'ljallangan suv.

3. Ishchilarning asosiy ish haqi.

4. Ishchilarning qo'shimcha haqi.

5. Ishchilarning ish haqidan ijtimoiy sug'urta ajratmalari.

6. Asbob uskunalarni saqlash va ulardan foydalanish xarajatlari.

7. Ishlab chiqarishni o'zlashtirish va tayyorlash xarajatlari.

8. Umum ishlab chiqarish xarajatlari.

9. Umum stantsiya-jami elektrostansiya xarajatlari.

10. Sotib olingan energiya xarajatlari.

Kalkulyatsiya moddalari bo'yicha qilingan xarajatlar ta'rifini quyida keltirib o'tamiz:

Texnologik maqsadlarga mo'ljallangan yoqilg'i xarajatlari moddalari bo'yicha elektr va issiqlik energiyasi sarflangan turli xildagi yoqilg'i bahosi aks ettiriladi. Agar yoqilg'i sarflash va saqlash natural o'lchamlarda hisobga olinsa uning qiymati o'rtacha haqiqiy narxlarda aniqlaniladi.

YOqilg'ini sarflash va saqlash natijasida bo'lgan nobudgarchiliklar tabiiy kamayish normasi chegarasida yoqilg'i transport tsexining xarajatlar tarkibida hisobga olinadi. YOqilg'i sarflash natijasida chiqindilar paydo bo'ladi. Ular foydalanadigan turlarga bo'linadi. Foydalanadigan chiqindilardan olingan daromad qiymatidan qozonli tsexning «Texnologik maqsadlarga» mo'ljallangan yoqilg'i sarflari olib tashlanadi.

Elektro-energiya uchun sarflangan yoqilg'i **natural** va **shartli** bahoda baholanadi.

Misol: Shartli yoqilg'ini yonish paytidagi issiqligini 7000 kilo-kaloriya ko'rsatkich qilib olingada, elektrostantsiyada energiya ishlab chiqarish uchun 36467 tonna ko'mir yoqilgan. Stantsiya laboratoriyasidagi analizga ko'ra bu ko'mirni yoqish paytidagi issiqlik 8274 kilo-kaloriyaga teng bo'lgan.

Bunda natural yoqilg'i quyidagicha shartli yoqilg'iga aylantiriladi:

$$\frac{36467 * 8274}{7000} = 41922 \text{ tonna}$$

YOqilg'i xarajatlari har xil energoblok yoki agregat bo'yicha har smenada dastlabki hujjatlarda aks ettiriladi. Bu ishni maxsus xodimlar bajaradi. Bu xodimlar yoqilg'ini haqiqiy xarajatlarini normadagi xarajatlarga taqqoslaydi va chetga chiqish summalarini aniqlaydi. Shu bilan birga buning aybdorlari va sabablari ham aniqlanadi. Bu sabablarga yoqilg'i turini yoki uning qiymatini o'zgarishi va nobudgarchiliklar kiradi.

Texnologik maqsadlarga mo'ljallangan suv xarajatlari moddasida issiqlik elektrostantsiyalarida o'zaro bosqichlar bo'yicha suv xarajatlari aks ettiriladi. Bularga:

1. Qozon tsexida qozonlarga suv to'ldirish uchun, suvga to'plangan chiqindilarni olish uchun qilingan xarajatlar.

2. Mashina trubina tsexida transformatorlarni sovutish uchun suv xarajatlari maxsus jurnalda hisobga olinadi. Bu hujjatlarda bir vaqtning o'zida suv xarajatlarini normadan chetga chiqish sabablari ko'rsatiladi. Bu sabablarga suv yoki havo temperaturasining o'zgarishi kiradi. Bu modda bo'yicha suvni kimyoviy reaktivlari bilan tozalash xarajatlari ham kiradi.

Ishlab chiqarishdagi ishchilarning asosiy ish haqi xarajatlariga – energiyani ishlab chiqarish, uni uzatish bilan bevosita bog'liq bo'lgan ishchilarning ish haqi kiradi.

Ishlab chiqarishdagi ishchilarning qo'shimcha ish haqi xarajatlariga – mehnat ta'tili, o'quv ta'tili, ijtimoiy ishlarni bajarish vaqtidagi ish haqlari kiradi.

Ishlab chiqarish ishchilarining ish haqidan ijtimoiy sug'urta ajratmalari xarajatlariga – pensiya jamg'armaga ajratma, ijtimoiy sug'urta uchun ajratma, bandlik jamg'armasiga ajratma kabi xarajatlar kiradi.

Ishlab chiqarishni tayyorlash va o'zlashtirish xarajatlariga – yaxshi asbob uskunalarni sinab ko'rish va ishga tushirish, ularni saqlash xarajatlari kiradi. Bu xarajatlarning qiymati smetalarda har bir agregat va uskuna bo'yicha aniqlaniladi. Dastlab bu xarajatlar 3100-«Kelgusi davr xarajatlari» scheti bo'yicha hisobga olinib, smeta stavkasi asosida agregat ishga tushirilgandan so'ng bir yil davomida tannarxga kiritiladi.

Asbob uskunalarini saqlash va foydalanish xarajatlari hamda umum ishlab chiqarish xarajatlari – 2500-«Umum ishlab chiqarish

xarajatlari» schetlar guruhida hisobga olinmasdan bevosita 2000«Asosiy ishlab chiqarish» schetida hisobga olinadi. 2000-«Asosiy ishlab chiqarish» schetida ular texnologik bosqichlar nuqtai-nazaridan alohida moddalarda ko`rsatiladi.

Umumstantsiya ya'ni umumtarmoq xarajatlariga energetik korxonani boshqarish va xizmat qilish xarajatlari kiradi. Bu xarajatlar oy davomida 9400-«Davr xarajatlari»schetida hisobga olinib har oyning oxirida 2010-«Asosiy ishlab chiqarish» va 2310-«YOrdamchi ishlab chiqarish» schetlariga o`tkaziladi. Bu modda tarkibida energetik boshqarmalarning tuman bo`linmalari xarajatlari ham hisobga olinadi.

Sotib olingan energiya xarajatlari – bu faqat tizim ya'ni butun vazirlik tomonidan hisobga olinadi. Energiya ishlab chiqarish xarajatlari 2010-«Asosiy ishlab chiqarish» schetida yuqorida ko`rsatilgan texnologik bosqichlar va moddalar bo`yicha hisobga olinib umumlashtiriladi. Dastlab asosiy ishlab chiqarish xarajatlari maxsus «TSexlar bo`yicha asosiy ishlab chiqarish xarajatlari» qaydnomasida, umumstantsiya xarajatlari esa alohida qaydnomada yig`iladi.

Elektrostantsiyalarda kalkulyatsiya ob'ektlari bo`lib elektr va yoqilg`i energiya, kalkulyatsiya birligi esa 1 kv.soat elektr energiya va 1 gigo-kaloriya issiqlik energiyasi xizmat qiladi. Energiya tizimlarida kalkulyatsiya ob'ekti bo`lib iste'molchilarga foydalanish uchun yuborilgan elektr va issiqlik energiyasi hisoblanadi.

Elektr stantsiya va energiya tizimlarida kalkulyatsiya qilish xususiyati shundan iboratki tovar mahsulot tannarxi ya'ni istemolchilarga yuborilgan energiya qiymati aniqlaniladi.

O`z ehtiyojiga va texnologik maqsadlarda ishlatiladigan energiya mustaqil moddada ko`rsatilmaydi.

Energetik korxonalarda kalkulyatsiya qilishning oddiy usulidan foydalaniladi, ya'ni xarajatlar texnologik bosqichlar va kalkulyatsiya moddalari bo`yicha yig`iladi. Shu bilan birga, avvalgi bosqichdagi tsex xarajatlari keyingi bosqichdagi tsex xarajatlariga kirmaydi.

Issiqlik elektr stantsiyalarda elektr va issiqlik energiyasi tannarxi aniqlanganida tegishli tsex xarajatlari taqsimlanadi. Bu taqsimlash energiyani ishlab chiqarishdagi ishtirokiga asoslanib natural usulda amalga oshiriladi. Bu usulda 2000-«Asosiy ishlab chiqarish» schetida yig`ilgan umumiy xarajatlar shartli yoqilg`i xarajatlariga proporsional taqsimlanadi.

Umumstantsiya xarajatlari elektr va issiqlik energiyasi o`rtasida barcha to`g`ri xarajatlarga nisbatan taqsimlanadi.

Elektr va issiqlik energiyasini ishlab chiqarish, o'tkazish va taqsimlash tannarxining kalkulyatsiyasi maxsus hisobotda rasmiylashtiriladi. Bu hisobot 2-qismdan iborat.

1) «Energiyani ishlab chiqarish, o'tkazish va taqsimlash».

2) «Texnik iqtisodiy ko'rsatkichlar» - bu bo'limda ishlab chiqarilgan energiya miqdori, o'z ehtiyojlariga sarflangan energiya, sotib olingan energiya va shartli yoqilg'i sarfi ko'rsatiladi.

Elektr stantsiyalarida energiya ishlab chiqarish, energiya tizimidagi ishlab chiqarish jarayonining bir qismini tashkil etadi. Chunki, energiya ishlab chiqarish bilan texnologik xarayon tugamasdan uni ma'lum masofaga o'tkazish va tarmoqlarga (shahobchalarga) taqsimlash zarurdir. Bu ikkala jarayon uzluksiz bog'langan va bir vaqtning ichida bajariladi. Shuning uchun energiyani o'tkazish va taqsimlash xarajatlari ishlab chiqarish xarajatlari bilan birgalikda hisobga olinadi. Bu xarajatlar boshqarmalarda 2000-schetda aks ettiriladi.

Elektr energiyasini o'tkazish va taqsimlash quyidagi bosqichlardan iboratdir.

1. Yuqori va past kuchlanishga ega bo'lgan havo liniyalari, ularga xizmat qiluvchi podstantsiyalar bilan birgalikda transformator xonalari, fider punktlari va faza kondensatorlari hamda boshqa yordamchi qurilmalar.

2. Er ostida joylashgan kabel tarmoqlari, podstantsiyalar xonalari, fider punktlari va faza kondensatorlari.

Energiyani o'tkazish va taqsimlash xarajatlariga havo va kabel tarmoqlarini saqlash, foydalanish, ularni ta'mirlash sarflari hamda shu uchastkalarda ishlovchi dispecher va xizmatchilarning ish haqi xarajatlari kiradi.

Elektr va issiqlik elektr stantsiyalarida qo'llaniladigan kalkulyatsiya moddolari elektr stantsiyalaridagi moddalardan katta farq qilmaydi. Lekin texnologik maqsadlarga mo'ljallangan kalkulyatsiya moddasi ko'rsatilmaydi.

Elektr tarmoqlarida esa texnologik maqsadlarga mo'ljallangan suv moddasi ajratilmaydi. Asbob uskunalarni saqlash va foydalanish xarajatlari moddasiga asbob uskunaga talluqli xarajatlardan tashqari energiya o'tkazish moslamalari, transformatorlarni va boshqa uskunalarni saqlash xarajatlari kiradi.

Elektr va issiqlik energiyani o'tkazish va taqsimlash tannarxi energiya tizim bo'yicha aniqlanadi. Buning uchun energiyani o'tkazish

va taqsimlash bilan bog`liq xarajatlarning umumiy qiymati iste'molchilarga foydali jo`natilgan energiya miqdoriga bo`linadi.

Elektr issiqlik energiyasini to`la tannarxi boshqarmalarda aniqlaniladi va tarkibiga quyidagilarni kiritadi.

1. Tizimga kiradigan elektr stantsiyalarda energiyani ishlab chiqarish tannarxi xarajatlari.

2. Issiqlik va elektr shaxobchalarida energiyani o`tkazish va taqsimlash tannarxi xarajatlari.

3. Tuman energiya boshqarmalari va energiyani sotish muassasalarini saqlash xarajatlari.

4. Qo`shni energiya tizimlaridan sotib olingan energiya xarajatlari.

Shuning uchun energiya tizimlarida energiya tannarxining 3 ta kalkulyatsiyasi tuziladi.

1. Elektrostantsiyalarda – elektr va issiqlik energiyasini ishlab chiqarish tannarxini kalkulyatsiyasi.

2. Elektr va issiqlik shaxobchalarida energiyani o`tkazish va taqsimlash tannarxi kalkulyatsiyasi.

3. Tuman energiya boshqarmalarida energiyani to`la tannarxi kalkulyatsiyasi.

Bu 3 ta kalkulyatsiya bir xil tartibda tuziladi va 2 ta bo`limga bo`linadi.

1. Kalkulyatsiya moddalari va energiya turlari bo`yicha xarajatlar.

2. Elektrostantsiyalar va energiya tizim faoliyatini ifodalovchi texnik iqtisodiy ko`rsatkichlar.

6.3. Neft va gaz qazib olish sanoatida ishlab chiqarish xarajatlarini hisobga olish va mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilish.

Neft va gaz sanoati taqchil va iqtisodiy yoqilg`i manbasi bo`lib, kimyo sanoatini muhim xomashyo bilan ta'minlaydi.

Neft va gaz qazib olish jarayoni o`z xususiyatlariga ega bo`lib, bu xususiyatlar ishlab chiqarish xarajatlarini hisobga olish va mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilishga ta'sir etadi.

Neft va gaz qazib olish texnologik jarayoni quduqlar orqali neft va gazni qazib erning sirtiga chiqarish, quvurlardan ularni transportirovka qilish, har xil aralashmalardan tozalash, tozalangan mahsulotni tsisterna va boshqa maxsus tozalangan idishlarga solish bilan bog`liqdir. Neft

bilan birga yoʻldosh gaz va tabiiy gaz olinishi mumkin. Yoʻldosh gaz neft emussiyasidan ajratiladi. Tabiiy gaz esa mustaqil mahsulot sifatida gaz quvurlari orqali qazib olinadi.

Neft va gaz qazib olish jarayonini tashkil qilish va unga xizmat qilish uchun neft, gaz boshqarmalarida tuman muhandis-texnik xizmat koʻrsatuvchi uchastkalar tashkil etiladi. Bundan tashqari bir qator maxsuslashgan ishlab chiqarishlar asosiy va yordamchi xususiyatlarga ega boʻlgan tsex va boʻlinmalar korxona ishini toʻxtovsizligini taʼminlaydi.

Neft va gaz qazib olish sanoatining xususiyatlari:

1. Maxsus geologik qidiruv tashkiloti tomonidan neft va gaz konlari avvaldan qidirib topiladi. Bu ishlarni bajarish uchun qilinadigan xarajatlarning umumiy xarajatlarning 20%ini tashkil etadi va neft, gaz tannarxiga joriy etilgan stavkalar orqali kiritiladi.

2. Bu tarmoq oʻzining mehnat predmetini tabiatdan tayyor holda topadi. Shuning uchun tannarxda «Xomashyo va materiallar» moddasi boʻlmaydi. Yordamchi materiallar xarajati kam boʻlganligi uchun ular ham maxsus moddada ajratib koʻrsatilmagan «Asbob uskunalarni saqlash va foydalanish» va boshqa moddalarga ajratiladi.

3. Neft va gaz qazib olish jarayoni maxsus inshootlar, quduqlar orqali amalga oshiriladi. Quduqlarni parmalash katta hajmdagi kapital sarflarni talab qiladi. Shuning uchun, quduqlar amortizatsiyasi xarajati xarajatlarning toʻrtidan bir qismini tashkil etib alohida kalkulyatsiya moddasida ajratib koʻrsatiladi. Neft va gazni er sirtiga chiqarish uchun elektro-energiya, suv, siqilgan havo, gaz kabi sarflar qilinadi. Bu sarflar ham mustaqil moddaga ajratib koʻrsatiladi. **Bu modda qatlamga sun'iy ta'sir etish xarajatlari deb ataladi.**

4. **Neft va gaz sanoatida** 3 turdagi mahsulot - neft, yoʻldosh gaz va tabiiy gaz bir vaqt ichida ishlab chiqarilishi mumkin. Natijada ba'zi xarajatlarning shu mahsulotlar uchun umumiy sarf boʻlib, har oyning oxirida egri yoʻl bilan taqsimlanadi.

5. **Neft va gaz korxonalarida qazib olishning 3 usuli qoʻllaniladi:**

- Favvora usuli.
- Kompresor usuli.
- Chuqur nasos usuli.

Bu usullarda xarajatlarning miqdori va tarkibi turlicha boʻladi.

6. Neft va gaz qazib olish jarayoni tabiatdan tayyor mahsulot qazib olingani uchun tugallanmagan ishlab chiqarish boʻlmaydi. Shuning uchun kalkulyatsiyaning oddiy usuli qoʻllaniladi.

Neft va gaz korxonalarida ishlab chiqarish xarajatlarining hisobi quyidagi bo`limlar bo`yicha yuritiladi:

1. Asosiy ishlab chiqarish.

- neftni qazib olish;
- yo`ldosh gazni qazib olish;
- tabiiy gazni qazib olish;
- qatlam bosimini saqlash xarajatlari;
- neftni yig`ish, saqlash va kon ichida transportirovka qilish;
- neftni texnologik tozalash;
- gazni yig`ish va transportirovka qilish.

2. YOrdamchi ishlab chiqarish.

- asbob uskunalarni ta'mirlash;
- elektr bilan ta'minlash;
- suv bilan ta'minlash;
- siqilgan havo bilan ta'minlash.

Kalkulyatsiya xarajatlarining moddolari quyidagilardan iborat:

- Neft va gaz qazib olish uchun energiya xarajatlari;
- Qatlamga sun'iy ta'sir etish xarajatlari;
- Ishlab chiqarishdagi ishchilarning asosiy ish haqi;
- Ishlab chiqarishdagi ishchilarning qo`shimcha ish haqi;
- Ijtimoiy sug`urta ajratmalari;
- Quduqlar amortizatsiyasi;
- Neft va gazni yig`ish va transportirovkalash;
- Neftni texnologik tayyorlash xarajatlari;
- Ishlab chiqarishni tayyorlash va o`zlashtirish xarajatlari;
- Asbob uskunalarni saqlash va ulardan foydalanish xarajatlari (shu jumladan quduqlarni er osti remonti xarajatlari);
- Umum xo`jalik(davr)xarajatlari;
- Boshqa ishlab chiqarish xarajatlari (shu jumladan geologik qidiruv ishlari xarajatlari);
- Ishlab chiqarishdan tashqari xarajatlar.

Neft qazib olish uchun sarflangan energiya xarajatlariga – nasoslarni harakatga keltirish uchun sarflangan elektr energiya, gaz, siqilgan havo xarajatlari kiradi.

YOrdamchi tsex tomonidan ishlab chiqarilgan energiya xarajatlari oy davomida 2310-«YOrdamchi ishlab chiqarish» schetida hisobga olinib, oyning oxirida iste'molchilar orasida sarflangan energiya miqdoriga qarab taqsimlanadi.

Hisobda bu xarajatlar konlardagi foydalanish usullariga qarab guruppalanadi (kompressorli, kompressorsiz, er osti nasoslari va hokazo).

Qatlamga sun'iy ta'sir etish xarajatlari – moddasida qatlam bosimini barqarorligini ta'minlovchi ishchilarning ish haqi va ijtimoiy sug'urta ajratmalari, bu ishlarga sarflangan energiya, suv, havo, gaz xarajatlari, gazni haydovchi quduqlar amortizatsiyasi xarajatlari, turli materiallar, kislotalar hisobga olinadi. Bu xarajatlar 2010-«Asosiy ishlab chiqarish scheti»ning alohida subschetida hisobga olinib bevosita tannarxga kiritiladi.

Ishlab chiqarishdagi ishchilarning asosiy ish haqi, qo'shimcha ish haqi, ijtimoiy sug'urta ajratmalari moddasida – har oyning oxirida quyidagicha taqsimlanadi:

Moddalar bo'yicha umumiy xarajatlar – neft va tabiiy gaz orasida, quduqlar oylar miqdoriga nisbatan, neft quduqlariga qarashli xarajatlar esa neft va yo'ldosh gaz orasida yalpi qazib olingan mahsulot miqdoriga nisbatan taqsimlanadi.

Quduqlar amortizatsiyasi – moddalari orasida neft, gaz va boshqa quduqlarni to'la tiklash uchun ajratmalar ko'rsatiladi. Eskirishni hisoblash o'z xususiyatlariga ega bo'lib, eskirish normalari neft va gaz qazib olish zonolari bo'yicha (10,3 %dan 7,7%) gacha qilib belgilangan. Bunda neft quduqlari uchun 15 yil, gaz quduqlari bo'yicha 12 yil xizmat muddati belgilangan. Agar quduqlar bu muddat o'tmay turib eskirsa, unda amortizatsiya ajratmalari quduqlarni dastlabki qiymati qoplanguncha hisoblanaveradi.

Quduqlar bu muddat o'tib ketgandan keyin ham xizmat qilsa, amortizatsiya ajratmalari belgilangan muddat o'tib ketgandan keyin hisoblanmaydi.

Quduqlar amortizatsiyasi xarajati neft va gaz orasida ishlab chiqarilgan mahsulot miqdoriga qarab taqsimlanadi.

Gaz quduqlari amortizatsiyasi tannarxga to'g'ri yo'l bilan o'tkaziladi.

Misol. Neft quduqlari amortizatsiyasi xarajati 240500 so'mni tashkil etgan, neftni ishlab chiqarilgan miqdori 175000 tonna, gaz 10000 tonna, jami 185000 tonna

$$Коэффициент = \frac{240500}{185000} = 1,3$$

Neft tannarxiga - $175000 \times 1,3 = 227500$ so'm

Yo'ldosh gaz tannarxiga - $10000 \times 1,3 = 13000$ so'm

**Neft va gazni yig`ish, transportirovkalash xarajatlariga** – neftni yig`ish, bir joydan boshqa joyga o`tkazish (quyish), neftni saqlash xarajatlari kiradi. Bu moddaga neftni saqlash vaqtida norma chegarasidagi nobudgarchiliklar ham kiradi. Normadan tashqari nobudgarchiliklar 9400-schetda hisobga olinadi. Bu xarajatlar neft tannarxiga to`g`ri usul bilan kiritiladi. Yo`ldosh va tabiiy gaz orasida esa ularni ishlab chiqarilgan hajmiga qarab taqsimlanadi.

Misol. Gazni yig`ish va transportirovkalash xarajatlari 30000 so`m, yo`ldosh gaz ishlab chiqarish 8000 metr kub, tabiiy gaz esa 12000 metrkub ishlab chiqarilgan. Jami 20000m.kub.

$$\text{Коэффициент} = \frac{30000}{20000} = 1,5$$

Yo`ldosh gaz tannarxiga -  $8000 \times 1,5 = 12000$  so`m

Tabiiy gaz tannarxiga - $12000 \times 1,5 = 18000$ so`m

Neftni texnologik tayyorlash xarajatlariga – neftni tozalash, maxsus uskunalarda saqlash va foydalanish xarajatlari, neftni tozalash uchun sarflangan moddalar qiymati, tozalash vaqtida bo`lgan nobudgarchiliklar qiymati aniqlaniladi. Bu xarajatlar 2010-«Asosiy ishlab chiqarish» schetining alohida subschetida hisobga olinib, har oyning oxirida neft, yo`ldosh gaz va tabiiy gaz orasida ishlab chiqilgan yalpi mahsulotga nisbatan taqsimlaniladi.

Misol. Neftni texnologik tayyorlash xarajatlari 10000 so`m bo`lib, neft 175000 t. yo`ldosh gaz 10000 t., tabiiy gaz 15000 t. Jami 200000 t ishlab chiqarilgan.

$$\text{Коэффициент} = \frac{10000}{200000} = 0,05$$

Neft tannarxiga - $175000 \times 0,05 = 8750$ so`m

Yo`ldosh gaz tannarxiga  $10000 \times 0,05 = 500$  so`m

Tabiiy gaz tannarxiga $15000 \times 0,05 = 750$ so`m

Jami: $8750 + 500 + 750 = 10000$ so`m

**Ishlab chiqarishni tayyorlash va o`zlashtirish xarajatlariga** – yangi neft va gaz boshqarmalarini tashkil etish xarajatlari, yangi texnikani yaratish va o`zlashtirish va shu bilan bog`liq rag`batlantirish jamg`armasini tashkil etish xarajatlari kiradi. Bu xarajatlar avvaldan 3100-«Kelgusi davr xarajatlari» schetida hisobga olinib boshqarmalar tashkil etilgandan so`ng tannarxga me'yorlar bo`yicha kiritiladi.

Asbob uskunalarini saqlash va foydalanish xarajatlari – 2500-«Umum ishlab chiqarish» schetida yig`iladi. Bu schetda neft, gaz

quduqlarini er osti va er sirtidagi joriy remont, saqlash va foydalanish xarajatlari hisobga olinadi.

Quduqlar amortizatsiyasi va neftni saqlash texnologik tayyorlash bog`liq asbob uskunalar amortizatsiyasi kalkulyatsiyaning boshqa moddalarida ko`rsatiladi. Asbob uskunalarini saqlash va ulardan foydalanish xarajatlari har oyning oxirida neft va gaz tannarxiga ulardan olingan mahsulot hajmiga qarab taqsimlanadi.

Misol. Asbob uskunalarini saqlash va foydalanish xarajatlari 68000 so`mni tashkil etgan. Ishlab chiqarilgan neft 175000 t, yo`ldosh gaz 10000 t, tabiiy gaz 15000 t, jami: 200000 t

$$Коэффициент = \frac{68000}{200000} = 0,34$$

Neft tannarxiga - $175000 \times 0,34 = 59500$ so`m

Yo`ldosh gaz tannarxiga -  $10000 \times 0,34 = 3400$  so`m

Tabiiy gaz tannarxiga - $15000 \times 0,34 = 5100$ so`m

Neftning yalpi mahsuloti deb jami ishlab chiqarilgan mahsulotga aytiladi.

Misol. Neftni tovar mahsuloti 172000 t. Korxonaning o`z ehtiyojlari uchun 900 t neft ishlatilgan. Neftni tayyorlash natijasida uning nobudgarchiligi 1600 t, tashish vaqtidagi nobudgarchilik 500 t. Neftning yalpi mahsuloti – $172000 + 900 + 1600 + 500 = 175000$ t

**Umum xo`jalik (davr) xarajatlari tarkibiga** ishlab chiqarishni boshqarish, uni tashkil etish xarajatlari ya'ni boshqarma rahbar xodimlarning, muhandis-texnik, texnologlarning ish haqi, ijtimoiy sug`urta ajratmalari, boshqaruv binosi inshootlarining eskirishi, ularni saqlash va ta'mirlash xarajatlari kiradi. Bu xarajatlar oy davomida 9400-«Davriy xarajatlari» shetida hisobga olinib oyning oxirida neft, yo`ldosh gaz va tabiiy gaz tannarxiga umumiy xarajatlarga nisbatan taqsimlanadi. Bunday umumiy xarajatlar summasidan avval geologik qidiruv ishlariga ajratmalar ayirib tashlanadi.

Misol. Umum kon xarajatlari – 94000 so`m.

Umumiy xarajatlar:

Neft 583486 so`m

Yo`ldosh gaz 34319 so`m

Tabiiy gaz 50745 so`m

Jami 668550 so`m

$$Коэффициент = \frac{94000}{668550} = 0,1406$$

Neft tannarxiga – $583486 \times 0,1406 = 82040$

Yo'ldosh gaz tannarxiga – $34319 \times 0,1406 = 4825$

Tabiiy gaz tannarxiga - $50745 \times 0,1406 = 7135$

Bu qilingan xarajatlar tannarxiga buxgalteriyada quyidagicha schetlar aloqasi belgilanadi.

Debet	Kredit	Summa
2010	9400	82040
2020	9400	4825
2030	9400	7135

Boshqa ishlab chiqarish xarajatlariga quyidagilar kiradi:

a) Geologik qidiruv ishlariga ajratmalar joriy etilgan stavkalar bo'yicha tannarxga to'g'ri usulda kiritiladi va davlat budjetiga ajratmalar qilinadi.

b) Ilmiy izlanish va tajriba ishlariga ajratmalar, qazib olingan naft va gazni yalpi mahsulotga nisbatan bo'lgan miqdoriga taqsimlanadi.

v) Geologik qidiruv tashkilotlaridan olingan naft qiymati naft tannarxiga o'tkaziladi.

Ishlab chiqarishdan tashqari xarajatlarga naftni sotish, transportda sotish, temir yo'l tsisternalariga yoki boshqa idishlarga quyish, naftni quvurlar orqali o'tkazish xarajatlari kiradi. Bu xarajatlar to'g'ri usulda naft tannarxiga kiritiladi.

Ishlab chiqarish xarajatlarini buxgalteriya hisobida umumlashtirish boshqarma buxgalteriyasida markazlashtirilgan holda yuritiladi. Ishlab chiqarish xarajatlari elementlar va kalkulyatsiya moddalari bo'yicha maxsus jurnalda aks ettiriladi. Naft va gaz ishlab chiqarish oddiy ishlab chiqarishga qaraydi. Bu erda mahsulot ommaviy miqdorda olinadi. Tugallanmagan ishlab chiqarish va yarim tayyor mahsulot bo'lmaydi. Shuning uchun kalkulyatsiyaning oddiy usuli qo'llaniladi.

Bu erda 3 turdagi mahsulot ishlab chiqarilganligi uchun kalkulyatsiya ob'ektlari bo'lib naft, yo'ldosh gaz, va tabiiy gaz qo'llaniladi. Kalkulyatsiya birliklari esa 1 t naft va 1 metr kub gaz hisoblanadi.

Gaz qazib olish jarayoni bilan bog'liq xarajatlar ya'ni gazni yig'ish va transportda tashish, geologik qidiruv ishlariga ajratmalar gaz tannarxiga kiritilgan xarajatlarning ko'p qismi gaz va naft uchun umumiydir.

Naft, tabiiy gaz va yo'ldosh gazni tannarxi quyidagicha topiladi:

Misol. A) Naftni tovar mahsuloti 172000 t., xarajatlari 774547 sum.

Neftni tannarxi 774547 so`m : 172000 t.=4500 so`m.

B) Tabiiy gaz mahsuloti 10880000 metr kub, xarajatlari 71808 so`m.

Tabiiy gaz tannarxi 71808 so`m : 10880000 metr kub=6,6 so`m

V) Yo`ldosh gaz mahsulot 7520000 metr kub, xarajatlari 43090 so`m.

Yo`ldosh gaz tannarxi 43090 so`m : 7520000 metr kub=5,73 so`m.

Mavzuni o`zlashtirish uchun zarur tayanch tushunchalar:

Tannarx turlari, kalkulyatsiya, energetika xarajatlari, gidrotexnika tsexi xarajatlari, texnologik maqsadlarga mo`ljallangan suv xarajatlari, quduqlar amortizatsiyasi.

Mavzuni mustahkamlash uchun nazorat savollari:

1. Sanoat korxonalarida tannarxning qanday turlari mavjud?
2. Elektr ta'minotida qanday ishlab chiqarish xarajatlarini hisobga olinadi?
3. Energetika tizimida energiya tannarxi ob'ektlari nimalardan iborat?
4. Neft va gaz korxonalarida qazib olishning qanday usullari mavjud?
5. Neft va gaz korxonalarida xarajatlarni hisobga olishning o`ziga xos xususiyatlari qanday?

VII-MAVZU. DEHQONCHILIK MAHSULOTLARI TANNARXI KALKULYATSIYASI

- 7.1. Dehqonchilik tarmoqlari tasnifi.
- 7.2. Dehqonchilik xarajatlari va mahsulotlar olinishining analitik va sintetik hisobi.
- 7.3. G`alla ekinlari mahsulotining tannarxini hisoblash
- 7.4. Makkajo`xori tannarxini aniqlash
- 7.5. Kartoshka, sabzovot, poliz va em xashak ekinlari tannarxini hisoblash.

7.1. Dehqonchilik tarmoqlari tasnifi

Bozor iqtisodiyoti sharoitida qishloq xo`jaligida yangi mulk shakllarining paydo bo`lishi va eski mulk shakllarining takomillasha borishi, bular asosida yangi ishlab chiqarish turlarining paydo bo`lishi mahsulot tannarxini hisoblashda har xil xarajatlar turlarini keltirib chiqarmoqda, bir qator eski xarajatlar turlari esa o`z ahamiyatini yo`qotmoqda.

Mahsulot tannarxiga kiradigan xarajatlar turkumi, qatnashish ahamiyati, mohiyati, tutgan o`rniga qarab har xil guruhlariga bo`linib, ularning me'yori – mahsulot ishlab chiqarish uchun sarflangan ishlab chiqarish resurslarining **natural** va **pul** ko`rinishidagi ifodasiga bog`liq.

Dehqonchilik qishloq xo`jalik ishlab chiqarishining asosiy tarmog`i bo`lib, paxtachilik, sabzavotchilik, bog`dorchilik, uzumchilik va boshqalarni o`z ichiga oladi.

Dehqonchilik mahsulotlari aholining oziq-ovqatga, sanoatning xomashyoga va chorvachilikning em-xashakka bo`lgan talabini qondiradi.

Buxgalteriya hisobida o`simlikchilik tarmog`iga qilinadigan xarajatlar va undan mahsulotlar olinishi 2010 «Asosiy ishlab chiqarish» schetining «**O`simlikchilik**» schetida hisobga olinadi.

Xarajatlarning analitik hisobi quyidagi moddalar bo`yicha yuritiladi:

- 1. Mehnat haqi xarajatlari ijtimoiy sug`urta ajratmalari bilan
- 2. Urug`lik va ko`chat materiallari
- 3. O`g`itlar
- 4. O`simliklarni himoya qilish vositalari

5. Ishlar va xizmatlar
6. Asosiy vositalarni saqlash xarajatlari
7. Ishlab chiqarishni tashkil etish va boshqarish xarajatlari
8. Sug`urta to`lovlari
9. Boshqa xarajatlar

1. «Mehnat haqi xarajatlari ijtimoiy sug`urta ajratmalari bilan» moddasida muayyan ekin turlari yoki guruhlarining bevosita texnologik jarayonida ishlagan turli toifadagi xodimlarga hisoblangan mehnat haqi tavsifiga ega bo`lgan pul va natura turlari hisobga olinadi.

Xodimlarning asosiy va qo`shimcha mehnat haqlari, ijtimoiy sug`urta va ta`minot fondiga o`tkazilgan ajratmalar hamda ta`til haqi ajratmalari ham shu moddada hisobga olinadi. Aniq ekin va ish turiga o`tkazish mumkin bo`lmagan mehnat haqlari va fermer xo`jaliklarida ijtimoiy ta`minot fondiga hisoblangan summalar hisob ob'ektlari o`rtasida mehnat haqiga mutanosib taqsimlanadi.

2. «Urug`lik va ko`chat materiallari» moddasida xo`jalikning o`zida etishtirilgan va sotib olingan urug`lik va ko`chatlar hamda ularning tegishli ekinlarni ekish uchun sarflanishi aks ettiriladi. Bunda oldingi yillarda etishtirilgan hamda sotib olingan urug`lik va haqiqiy tannarxda aks ettirilsa, joriy yilda etishtirilgan urug` va ko`chatlar, yil davomida reja tannarxida hisobga olinib yil oxirida haqiqiy tannarx darajasiga etkazib qo`yiladi.

Urug`larni ekinga tayyorlash xarajatlari (quritish, saralash va boshqa ishlov berish) ularning tannarxiga o`tkaziladi. Lekin bevosita ekin oldidan qilinadigan xarajat (urug`ini ekish joyiga tashlab kelish, ortish, tushirish, dorilash, ivitish va shu kabilar) urug`ning tannarxiga o`tkazilmay, bevosita o`simlikchilikning tegishli xarajat moddalari (mehnat haqi, ishlar va xizmatlar, asosiy vositalarni saqlash xarajatlari) ga yoziladi.

3. «O`g`itlar» moddasida muayyan bir ekin (ekin guruhi) uchun sarflangan mineral o`g`itlar va boshqa o`g`itlar (go`ng, torf va boshqalar) miqdor va summa ko`rsatkichi aks ettiriladi. Bu modda mineral va organik o`g`itlar bo`yicha alohida hisobga olinadi. O`g`itlar tayyorlash, yuklash, dalaga tashish va erga solish bilan bog`liq bo`lgan xarajatlar bu moddada emas, balki bevosita o`simlikchilikning tegishli xarajat moddalarida aks ettiriladi.

4. «O`simliklarni himoya qilish vositalari» moddasida begona o`tlarga, ekin zararkunandalari va kasalliklariga qarshi kurashda kimyoviy va biologik materiallar sarfi bo`yicha hisobga olinadi.

5. «Ishlar va xizmatlar» moddasida xo'jalikning o'zidagi avtomobil transporti va ot ulov transporti, traktorlar bajargan transport ishlari hisobga olinadi.

Yil oxirida bajarilgan ish va xizmatlarning haqiqiy tannarxi aniqlangandan so'ng, reja tannarxi haqiqiy tannarx darajasiga etkaziladi. O'simlikchilik tarmog'i uchun ko'rsatilgan elektr ta'minoti, suv ta'minoti, issiqlik ta'minoti, gaz ta'minoti xizmatlari ham shu moddada hisobga olinadi.

Chet tashkilotlarning transport va boshqa xil xizmatlari belgilangan tarif stavkalari yoki to'lovlarning boshqa shakllari bo'yicha baholanadi.

6. Asosiy vositalarni saqlash xarajatlari moddasida bevosita o'simlikchilikda foydalanayotgan asosiy vositalarni saqlash bilan bog'liq bo'lgan xarajatlar hisobga olinadi. Bularga asosiy vositalarni saqlash, ulardan foydalanish xarajatlari, ularning amortizatsiya ajratmalari va ta'mirlash fondiga ajratilgan summolari kiradi.

O'simlikchilikda bunday asosiy vositalarga mahsulot etishtirishda foydalaniladigan traktorlar, qishloq xo'jalik mashinalari, asbob uskunalar, issiqxonalar, omborxona binolari, xo'jalik sug'orish shaxobchalari, ko'p yillik daraxtlar, ularni holatini yaxshilash bo'yicha qilinadigan kapital sarflar kiradi.

Mevaga kirgan daraxtlarni parvarishlash xarajatlari (amortizatsiya ajratmalaridan tashqari) bu xarajat moddasiga kirmaydi.

O'simlikchilikda foydalanilgan asosiy vositalarni saqlash xarajatlari ayrim ekin va tugallangan ishlab chiqarishlarga quyidagi tartibda o'tkaziladi:

- maxsus asosiy vositalar (paxta terish mashinalari, kartoshka yig'ib terib oladigan kombayinlar va shu kabilar) ni saqlash xarajatlari tegishli ekinlar mahsulotlarining tannarxiga o'tkaziladi;
- traktorlarni saqlash xarajatlari, ekin va ishlash uchun bajarilgan ish hajmi (shartli etalon gektar) ga mutanosib taqsimlanadi;
- qishloq xo'jalik mashinalarining saqlash xarajatlari ishlov berilgan ekinlar maydoniga mutanosib ravishda taqsimlab o'tkaziladi;
- hosilni yig'ib terib olishda foydalaniladigan asosiy vositalarni saqlash xarajatlari yig'ib terib olingan ekinlar maydoniga solingan o'g'itlarning miqdoriga mutanosib ravishda taqsimlanadi;
- meliorativ asosiy vositalarni saqlash xarajatlari ekin maydonlariga mutanosib ravishda taqsimlanadi;

- g'alla va sabzavot mahsulotlari saqlanadigan binolarning xarajatlari tegishli ekinlarga, g'alla va sabzavot mahsulotlari band qilgan maydonga mutanosib ravishda taqsimlanadi va h.k.

7. Ishlab chiqarishni tashkil etish va boshqarish xarajatlari moddasida o'simlikchilik tarmog'ining brigadalarida va boshqa ishlab chiqarish bo'limlarida ishlab chiqarishni tashkil etish xarajatlari va xo'jalik boshqaruv xarajatlarining tegishli qismi hisobga olinadi.

8. Sug'urta to'lovlari moddasida qishloq xo'jalik ekinlari va meva beradigan yoshdagi ko'p yillik daraxtlar hosilining davlat majburiy sug'urtasiga oid to'lovlari hisobga olinadi.

O'simlikchilik mahsulotlari etishtirish bilan bog'liq bo'lgan binolar, inshootlar, qishloq xo'jalik mashinalari, qurilmalari, inventarlari va boshqa asosiy vositalarning davlat majburiy sug'urtasi bo'yicha to'lovlari shu moddada hisobga olinadi. Bu asosiy vositalar bo'yicha sug'urta to'lovlari o'simlik turlariga (o'simlik guruhlariga) asosiy vositalarni saqlash xarajatlariga munosib ravishda taqsimlash yo'li bilan olib boriladi.

9. Boshqa xarajatlar moddasida yuqoridagi moddalarda olinmagan, o'simlikchilikning barcha bevosita xarajatlari aks ettiriladi. Bu xarajatlarga tegishli ishlab chiqarish ob'ektlarini ishga tushirish bilan bog'liq bo'lgan sarflar, idish va qadoqlash xarajatlari (agar idishlash qiymati mahsulotning realizatsiya narxidan tashqari to'lansa) ilmiy tadqiqot ishlari, texnika tadqiqoti va standartlashtirishga oid xarajatlar kiradi.

Tannarx - xo'jalik ishlab chiqarish va moliya faoliyatining muhim iqtisodiy ko'rsatkichidir. Qishloq xo'jalik korxonalarining faoliyati tannarx darajasi bilan baholanadi. Mahsulot tannarxini taxlil qilish esa xo'jalik foydalanilmayotgan ichki imkoniyatlarini topishi va ishlab chiqish rentabelligini oshirishga yordam beradi. Mahsulot tannarxini hisoblashdan oldin xarajatlarni aks ettiruvchi schetlar bo'yicha quyidagilar sinchiklab tekshiriladi:

- barcha qilingan xarajatlar va olingan mahsulotlarni yillar bo'yicha to'g'ri taqsimlanganligi va hisobda aks ettirilganligi,
- tabiiy ofatlar okibatida zararlangan ekinlar bo'yicha xarajatlar summasini to'g'ri hisobdan chiqarilganligi,
- «O'simlikchilik» schetida aks ettirilgan miqdor ko'rsatkichlar (kishi soatlar, eqilgan urug' va ko'chatlar, solingan o'g'itlar va boshqalar) ning to'g'riligi va shu kabilar.

O`simlikchilikdan asosiy, yordamchi va qo`shimcha mahsulotlar olinadi.

Ishlab chiqarish qanday mahsulot etishtirish maksadida tashkil qilingan bo`lsa, shu mahsulot (paxta, g`alla, kartoshka va boshqalar) asosiy hisoblanadi. Bir xil ekinlardan ikki va undan ortiq mahsulotlar olinsa, ular yondosh mahsulotlar deyiladi.

Masalan, bir yillik va ko`p yillik o`tlardan pichan urug`i ham «ko`k massa» olish mumkin.

O`simliklarning biologik xususiyatlariga karab asosiy mahsulotlar bilan birga ikkinchi darajali, ya'ni qo`shimcha mahsulotlar (poxol, somon, palak va boshqalar) olinishi mumkin. Demak, o`simlikchilikdan asosiy va xo`jalikda foydalaniladigan qo`shimcha mahsulotlar ham olinadi.

Mahsulot tannarxini hisoblashdagi eng muhim hisob ishlaridan biri xarajatlarni asosiy (yondosh) va qo`shimcha mahsulotlar o`rtasida to`g`ri (xaqqoniy taqsimlashdir). Ekinlardan faqat bir xil mahsulot olinsa, uning tannarxi qilingan barcha xarajatlarni to`g`ridan-to`g`ri, mahsulot hajmi(tsentr, kilogramm, dona) ga bo`lish yo`li bilan aniqlanadi.

Agar ekinlardan ikki uch xil mahsulot olinsa, tannarxni hisoblashda bu usul qo`llanilmaydi. Bunday hollarda xarajatlar asosiy, yondosh va qo`shimcha mahsulotlar o`rtasida iqtisodiy asoslangan usullar bo`yicha taqsimlanadi va tegishli mahsulot turi (asosiy, yondosh, qo`shimcha) to`g`ri keladi xarajat summasi mazkur mahsulot miqdoriga bo`linib, mahsulot turining (ts kg. dona) tannarxi aniqlanadi.

O`simlikchilikda ekinlardan olingan hosil turlari tugallanmagan ishlab chiqarishga o`tkaziladigan (ularning turlari bo`yicha) kelgusi yil hosil uchun qilingan xarajatlar, korxonaning o`z aylanma mablag`i hisobidan er holatini yaxshilash bo`yicha qilingan ishlar tannarxni hisoblash ob'ekti bo`lib hisoblanadi.

O`simlikchilikda mahsulotlarni tannarxini aniqlashda mahsulotni kaergacha etkazib berish (franko xarajatlari) qo`shilishi muhim ahamiyatga ega. Hozirgi vaqtda belgilangan tartibga asosan mahsulotlarni quyidagi joylarga etkazib berish (franko) xarajatlari qo`shib hisoblanadi:

a) g`alla, paxta, kungaboqar urug`i-franko-dala, (xirmon yoki daladan mahsulot yig`iladigan boshqa joy);

b) somon, pichan-franko-saqlash yoki qaytadan ishlov berish joyi;

- v) kartoshka, sabzavot, poliz ekinlari mahsulotlari, qand lavlagi va boshqa mevalar- franko- saqlash joyi;
- g) qand lavlagi (fabrikada qayta ishlanadigan) - franko- dala;
- d) issiqxona, sabzavot-franko-ombor yoki franko-qabul punkti;
- e) silosbop «ko`k massa»-franko siloslash joyi;
- j) vitaminlashtirilgan o`t, uni tayyorlash uchun o`rilgan «ko`k massa»-franko oziq tayyorlaydigan joy.

Demak, xo`jalik mahsulotni iste'molchilarga – tayyorlov-tashkiloti, dehqon bozoriga, bolalar muassasalari va shu kabilarga etkazib berayotgan bo`lsa, etkazib berish xarajatlari dehqonchilik mahsulotining tannarxiga kiritilmaydi.

Mahsulotni saqlash joylari ombor, oziq saklaydigan joylarga etkazib berish xarajatlari tannarxga kiritiladi, ya'ni ular yil davomida (berish xarajatlari tannarxiga) 2010 schetning debetida aks ettiriladi.

7.2. Dehqonchilik mahsulotlari etishtirish xarajatlari va ularning analitik va sintetik hisobi

O`simlikchilik tarmog`ida qilingan xarajatlar va etishtirilgan mahsulotlar 2000-«Asosiy ishlab chiqarish» schetlar guruhi 2010-«O`simlikchilik» schetida hisobga olinadi.

Bu schet debetida mahsulot etishtirish uchun qilingan xarajatlar hisobiga olinsa, kreditda va yil oxirida reja tannarxi bilan haqiqiy tannarx o`rtasidagi tavofut aks ettiriladi.

Tugallangan ishlab chiqarish xarajatlari yil oxirida ushbu schet debetida qoldiq tarzida aks ettirilib, xotima balansida ko`rsatiladi.

Buxgalteriya hisobini tashkil etishda xo`jalik bo`yicha xarajat ob'ektlarini to`g`ri belgilab olish muhim ahamiyatga ega. O`simlikchilik xarajat ob'ektlari bo`lib, ekin turlari yoki guruhlari, ishlar taqsimlanadigan xarajat turlari va boshqa ob'ektlar hisoblanadi.

Ayrim o`simliklarni parvarishlash uchun qilingan xarajatlarni hisobga olishga mo`ljallangan analitik schetlardan tashqari, mustakil hisob ob'ektlarini aks ettirish uchun quyidagi analitik schetlar ochiladi.

«O`simlikchilikda ishlatiladigan asosiy vositalar bo`yicha taqsimlanmagan amortizatsiya ajratmalari»;

«O`simlikchilikda ishlatilgan asosiy vositalarning lozim bo`lgan joriy ta'mirlash xarajatlari»;

«Taqsimlanishi lozim bo`lgan sug`orish xarajatlari»;

«Sho`r yuvish xarajatlari».

Bu analitik schetlarda bevosita o`simlik turlari (o`simlik guruhlari)ga o`tkazib bo`lmaydigan tegishli xarajatlar yil davomida to`planib boradi.

Amortizatsiya, joriy ta'mirlash xarajatlari, sug`urta to`lovlar va o`simlikchilik bo`linmasiga biriktirilgan qishloq xo`jalik mashinalarini saqlash va ulardan foydalarni saqlash va ishlatish bo`yicha shaxsiy schetda yil oxirida tegishli o`simliklar (o`simliklar guruhi) va bo`linmadagi hamda boshqa bo`linmalariga hisob ob'ektlariga bajarilgan shartli etalon detallariga mutanosib ravishda taqsimlanadi. Buning uchun shaxsiy schetda ishlangan shartli etalon detallardan bo`linadigan biriktirilgan o`simliklar bo`yicha, hamda xizmat ko`rsatgan bo`linma bo`yicha aks ettiriladi.

Oy oxirida, aloqa kiluvchi schetlar bo`yicha tizimlashtirilgan jami xarajatlar, bo`linma bo`yicha shaxsiy schetdan xo`jalik bo`yicha umumiy (sintetik) schetga o`tkazilib, jurnal-orderda aks ettiriladi.

- Har bir bo`linma shaxsiy schetida qaysi maydondan yig`ib-terib olinganligi, kirim qilingan mahsulot va uning sifati ko`rsatiladi.
- Bo`linma bo`yicha o`simlikchilik mahsulotlarining chiqishi to`g`risida jami ma'lumotlar mazkur bo`linmadagi ishlovchilar bilan ishning yakuniy natijasi uchun hisoblanishida foydalaniladi.
- Bundan tashqari, shaxsiy schet ma'lumotlaridan bo`linmaning xo`jalik hisobi faoliyatini yakunlash, mahsulot etishtirish reja topshiriklari (ijara shartnomasi)ning bajarilishi va ishlab chiqarish xarajatlari me'yorlariga rioya qilishni aniqlashda foydalaniladi.

Yil davomida o`simlikchilikdan olingan mahsulot reja tannarxi bo`yicha baholanib, 2010-schet kreditidan 2800-«Tayyor mahsulot» schetlar guruhining 2810 «O`simlikchilik mahsulotlari» scheti debetiga kirim qilinadi.

Agar mahsulot olinayotgan paytida urug`lik yoki em-xashak sifatida foydalanish ma'lum bo`lsa, u 2010-schet kreditidan to`g`ridan-to`g`ri 1000-« Materiallar» schetiga qabul qilinadi.

Yil oxirida, 2010-schet bo`yicha yordamchi ishlab chiqarish bajargan ishlarining reja va haqiqiy tannarxi o`rtasidagi farqlar, hamda umumishlab chiqish va umumxo`jalik xarajatlarining o`simlikchilikka to`g`ri keladigan ulushi aks ettirilgandan so`ng o`simlikchilik mahsulotlari tannarxi hisoblanadi.

7.3. G`alla tannarxi kalkulyatsiyasi

G`alla ekinlari mahsulotining tannarxi ularga ishlov berish, quritish natijasida kamayish va xo`jalikda foydalanmaydigan xas-cho`plar vazni chiqarib tashlangandan keyingi vaznda aniqlanadi.

Masalan, A.Navoiy nomli xo`jalik - kirimiga olingan g`allaning bunker vazni 8600 ts, tuzilgan dalolatnomalar bo`yicha:

- xas-cho`p va g`allaning qurishi tufayli kamaygan vazni 1200 ts,
- em uchun foydalaniladigan chori* (laboratoriya taxmini bo`yicha 40% doni bor) 1800 ts,
- undan tashqari 5400 ts somon olingan.

Demak, 8300 tsentner sof g`alla bilan 1800 tsentner chorining va 5400 tsentner somon tannarxini aniqlash kerak.

G`allaning tannarxini aniqlash uchun 2010-«O`simlikchilik scheti»ning tegishli analitik schetida g`allaning mazkur turi bo`yicha hisobga olingan barcha xarajatlar summasidan somon uchun normativlar bo`yicha qilinadigan xarajatlar (o`rib yig`ib olish, presslash, jo`natish, jamlash) summasi chegirib tashlanadi. Qolgan summa g`alla bilan chori tarkibidagi sof don hajmiga mutanosib taqsimlanadi. So`ng chori tarkibidagi g`allaga tegishli xarajatni chorining natura hajmiga bo`lish yo`li bilan uning tsentner tannarxi aniqlanadi. Xo`jalikda yuqorida keltirilgan miqdordagi mahsulotlarni etishtirish uchun 38480 so`m sarflangan. G`alla mahsulotlari tannarxini aniqlash uchun jami qilingan xarajatlardan somonning normativ qiymati chegirib tashlanadi. Faraz kilaylik, 5400 tsentner somonning 1 tsentnerining tannarxi 0,48 so`m ( $2592/5400$ ) bo`ladi. Bu holda g`alla bilan choriga tegishli xarajat 35888 so`mni ($38480-2592$) tashkil etadi. Chorining tarkibida 40% don bo`lganligi uchun uni g`allaga aylantirilganda 720 tsentner bo`lsa ( $180 \cdot 40 : 100$ ) jami shartli g`alla miqdori 9020 tsentner ($8300+720$)ga teng, shunda choridagi g`alla miqdori 0,86 %ni ( $720 \cdot 100 : 9020$ ) tashkil etadi. Demak somonning normativ qiymati (25920 so`m)ni chegirib tashlagandan so`ng qolgan xarajatlar summasining 0,86%ni chori (g`alla) ga tengdir. Bu 308,6 so`mni ( $35888 \cdot 0,86 : 100$ ) tashkil etadi. Shunday qilib, 1 tsentner chori tannarxini 0,17 so`m ($308,6 : 1800$) bo`lsa, 1 tsentner g`alla tannarxi 4,28 so`mga ($(35888-308,6) : 8300$) teng.

Urug`chilik xo`jaliklarda etishtirilgan urug`lik don tannarxini

* chori – ichida doni bor bo`lgan g`allaning boshog`i va somon aralashmasi. Laboratoriya tahlili natijasida qancha foiz don bor ekanligi aniqlanadi.

quyidagi hisob guruhlari bo'yicha hisoblanadi: superelita, elita, reproduksiya. Foydalanadigan chorining bir tsentneri tegishli urug'lik doni (superelita, elita, reproduksiya) tannarxini aniqlash uchun jami xarajatdan chori normativ qiymati chegirib tashlanadi. Qolgan urug'lik donga tegishli summa yuqoridagi reproduksiyalarning sotish bahosi qiymati bo'yicha taqsimlanadi va olingan summa tegishli reproduksiyadagi urug'lik donining ular tozalanib kuritilgandan so'nggi miqdoriga bo'linadi. Natijada tegishli reproduksiyadagi 1 ts urug'lik donning haqiqiy tannarxi aniqlanadi.

7.4. Makkajo`xori tannarxi kalkulyatsiyasi

Makkajo`xori chilikda don va quruq poya tannarxi aniqlanadi. Agar barcha etishtirilgan makkajo`xori doni davlatga topshirilsa, uning miqdori tayyorlov tashkilotlari ma'lumotlariga muvofiq aniqlanadi. Basharti etishtirilgan makkajo`xorining bir qismi xo`jalikda em yoki boshqa maqsad uchun qoldirilsa, qoldirilgan so`talardan qancha don chiqishi tayyorlov punktining laboratoriya tomonidan belgilangan koeffitsent bo'yicha donga aylantiriladi. Agar donning namligi yuqori bo'lsa (makkajo`xori donining bazis namligi -22%) donning ortiqcha namligi chegirib tashlanadi.

Bazis namligi (22%)dan olingan har bir foiz namligi uchun don massasi 1% ga kamaytiriladi. Shunday qilib, aniqlangan makkajo`xori doni miqdorining davlatga topshirilgan don miqdoriga qo`shilish yo`li bilan umumiy etishtirilgan makkajo`xori doni miqdori aniqlanadi. Makkajo`xori doni tannarxini aniqlash uchun barcha qilingan xarajatlar summasidan makka poyasini o`rib-yig`ib olish xarajatlarini va uning qiymatini chegirib tashlab qolgan summani makkajo`xori doni miqdoriga bo`lish kerak.

7.5. Kartoshka, sabzovot, poliz va em-xashak ekinlari tannarxi kalkulyatsiyasi

Kartoshkaning tannarxini aniqlash uchun jami qilingan xarajatlardan palagining normativ qiymati chegirib tashlanib, qolgan summa olingan standart va nostandart mahsulotlar o`rtasida ularning sotilish bahosi bo'yicha qiymatiga mutanosib taqsimlash yo`li bilan topiladi.

Masalan, xo`jalikda kartoshka etishtirishi uchun 124,2 mln. so`m xarajat qilingan, kartoshka palagining normativ qiymati 220 ming so`m. Standart va nostandart kartoshkaga taqsimlanadigan summa 122,0 mln. so`m. 1 ts standart va nostandart kartoshka tannarxini hisoblash tartibi 7.5.1-jadvalda keltirilgan.

7.5.1-jadval. Kartoshka tannarxini hisoblash tartibi.

Mahsulot nmi	Miqdori (tsentner)	1 tsetner-ing sotish bahosi (ming so`m)	Sotish bahosi bo`yicha qiymati (ming so`m)	Jami qiymati-dagi xissasi %	Xarajat summasi (ming so`m)	1 tsetner-ning tannarxi (ming so`m)
Standart kartoshka	8600	18,00	154800	87,0	106140	12,34
Nostandart kartoshka	2200	10,5	23100	13,0	15860	7,20
Jami:	-	-	177900	100,0	122000	-

Ixtisoslashtirilgan sabzavotchilik xo`jaliklarida xarajatlarni hisobga olish va mahsulot tannarxini hisoblash har bir ekin yoki unga yaqin ekinlar guruhi bo`yicha, alohida ixtisoslanmagan xo`jaliklarda – asosiy sabzovot ekinlar yoki umuman tarmoq bo`yicha amalga oshiriladi.

Sabzovotchilik bir necha ekinlarga tegishli umumiy xarajatlar (o`g`it solish, erga gerbitsidlar bilan ishlov berish kabilar) bo`lishi mumkin. Ular alohida ekinlar o`rtasida egatlangan, o`g`itlangan yoki ishlov berilgan maydonlarga mutanosib taqsimlanadi.

Sabzavot va poliz ekinlari urug`lari bo`yicha xarajatlar hisobi hamda tannarxi urug`liklari (bir yilliklar, birinchi yildagi ikki yilliklar, ikkinchi yildagi ikki yilliklar) bo`yicha har bir guruhdagi asosiy ekinlar ajratib hisoblanadi. Bunda olinadigan mahsulot (sabzavot, poliz) qo`shimcha hisoblanib, xashak, ildiz-mevalar yoki xashaki poliz ekinlari tannarxi bo`yicha baholanadi. Urug`lar tannarxini hisoblashda jami xarajattan qo`shimcha mahsulot qiymati chegirib tashlanadi va qolgan summa tozalangan va quritilgan asosiy mahsulotga taqsimlanadi.

Ozuqa sifatida chorva mollariga beriladigan ildiz mevalilar, hamda qand lavlagi tannarxi, sabzavot, poliz ekinlari tannarxini hisoblash kabi aniqlanadi.

Em-xashak uchun olingan maydonlardan va tabiiy pichanzorlardan olingan «ko`k massa», pichan joyida edirilgan o`tlar, shuningdek ularga qayta ishlov berish natijasida olingan silos, senaj, vitaminli o`t uni va shu kabilar mahsulot tannarxi hisoblash ob'ekti bo`lib hisoblanadi.

Eqilgan o`tlar va tabiiy pichanzorlardan faqat bitta mahsulot olinsa, uning tannarxi qilingan xarajatlarni mahsulot miqdoriga bo`lish bilan aniqlanadi.

Silos (senaj) tayyorlash bilan bog`liq barcha xarajatlar summasini tayyorlangan oziq miqdoriga bo`lib bir tsentner (tonna) mahsulotning haqiqiy tannarxi aniqlanadi.

Eqilgan bir yillik va ko`p yillik o`tlardan bir necha xil mahsulot (pichan, urug`, somon, «ko`k massa») olish mumkin. Bu yondosh mahsulotlar tannarxini rejalashtirish va hisoblashda ularni etishtirish uchun qilingan xarajatlar quyidagi koeffitsientlar bo`yicha taqsimlanadi:

Bir yillik o`tlar: pichan 1 ts=1,0; urug` 1 ts=9,0; somon 1 ts=0,1; kuk massa 1 ts=0,25.

Holati yaxshilangan pichanzorlar va tabiiy o`tloqlardan ikki va undan ko`p mahsulot («ko`k massa», pichan va boshqalar) olish mumkin.

Bunday holatlarda qilingan xarajatlar olingan mahsulotlar o`rtasida 1 gektardan o`rib-yig`ib olingan mahsulotlarning oziq birligiga mutanosib ravishda taqsimlash yo`li bilan mahsulot birligining tannarxi aniqlanadi.

Chorva mollariga o`tlatib boqib edirilgan o`tlar miqdori agronom tomonidan aniqlanadi.

Ko`p yillik o`tlar uchun qilingan xarajatlarni aniqlash ba'zi xususiyatlarga ega. Ko`p yillik o`tlar miqdoridan bir necha yil davomida foydalaniladi. Shuning uchun, ularni ekish bilan bog`liq xarajatlar ulardan foydalanish yillari o`rtasida teng taqsimlanadi. Masalan: Ko`p yillik o`tlardan uch yil davomida foydalaniladi. Birinchi yilda xarajatlarning 34 foizi, ikkinchi va uchinchi yillar 33 foizidan xarajat moddalari bo`yicha o`tkaziladi.

Silos va senajning tannarxi ularga sarflangan «ko`k massa»ning tannarxidan, silos bosimi xarajatlari (xandakni tozalash, «ko`k massa»ni zichlash, ustini yopish), silos inshootlarining amortizatsiyasi, ta'mirlash xarajatlari va silos (senaj) bosimida qo`llaniladigan boshqa qo`shimchalar qiymatidan tashkil topadi, silos bostirilgan kundan 20-25 kun o`tgach maxsus komissiya silos inshootining hajmiga qarab undagi silos (senaj) miqdorini aniqlaydi.

Mavzuni o`zlashtirish uchun zarur tayanch tushunchalar:

Tannarx, qishloq xo`jalik mahsulotlari tannarxi, o`simlikchilik, «ko`k massa», chori, g`alla tannarxi elementlari.

Mavzuni mustahkamlash uchun nazorat savollari:

1. Dehqonchilik mahsulotlarini kirim qilish yo`llari va vazifalarini tushuntirib bering
2. Dehqonchilik mahsulotlari turlari, va ularning tannarxini hisoblash usullari haqida nimalarni bilasiz?
3. G`alla ekinlarini turlari va ularni tannarxini hisoblash xususiyatlari qanday?
4. Em-xashak ekinlarini turlari va ularni tannarxini hisoblash yo`llarini tushuntiring.
5. Sabzavot va poliz ekinlarini turlari, ularni tannarxini hisoblash uslluari haqida nimalarni bilasiz?

Amaliy mashg`ulot.

Fermer xo`jaligida hisobot yilida hisobot bug`doy etishtirish bo`yicha quyidagi ma'lumotlarga egamiz:

- ⇒ Bug`doy eqilgan maydon – 7 ga;
- ⇒ Bug`doy etishtirish uchun qilingan harajatlar 1400.000 so`m;
- ⇒ Olingan sifatli bug`doy 21 tonna;
- ⇒ Bug`doy chiqindilari (ichida 42 % sifatli g`allasi bor) yoki chori - 1,4 t.
- ⇒ Olingan poxol yoki somon 14,7 t. (donga aylantirma koeffitsienti 0,08)

Topshiriq: Sifatli bug`doy, bug`doy chiqindilari va poxolning tannarxini aniqlang.

Amaliy mashg`ulot.

Xo`jalikda kartoshka etishtirish bo`yicha quyidagi ma'lumotlarga egamiz:

- ⇒ Kartoshka eqilgan erni ishlash, hosilni yig`ib olish va uni omborga joylash xarajatlari hammasi 6.045.000 so`m. Ushbu xarajatlarga xo`jalik rahbari xizmat avtomobilining 1800.000 so`mlik bir yillik eskirish xarajatlari ham kiritilgan;

- ⇒ Olingan kartoshka hosili– 500 ts:
 - ⇒ Yig`ib olingan palagi – 150 ts. 1 ts. palagining bahosi 300 so`mdan hisoblab kiringa olingan.
- Topshiriq: 1 ts. kartoshkani haqiqiy tannarxini aniqlang.

VIII-MAVZU. PAXTA TANNARXI KALKULYATSIYASI

8.1. O`rta tolali paxtani tannarxini aniqlash

8.2. Ingichka tolali paxta navlari tannarxini aniqlash

8.1. O`rta tolali paxta tannarxini aniqlash

Paxtachilikdan o`rta tolali va ingichka tolali paxta navlari mahsulot tannarxini aniqlash ob'ekti bo`lib hisoblanadi. G`o`zapoya va g`o`zapo`choq (agar foydalanilsa) yordamchi mahsulot bo`lishi mumkin.

1 tsentner paxtaning tannarxini aniqlash uchun g`o`zapoya va g`o`zapo`choqlar normativ xarajatlarda baholanib, paxtachilik bo`yicha qilingan umumiy xarajatdan chegirib tashlanadi. Qolgan xarajat summasi hisobdan o`tgan paxta miqdoriga bo`linadi.

Masalan: «Bobur» nomli fermer xo`jaligida hisobga o`tgan 487,4 ts o`rta tolali paxtani etishtirish uchun 8562844 so`m sarflangan. G`o`zapoya va g`o`zapo`choqlarining normativ xarajatlari bo`yicha qiymati 164500 so`m, demak 1 ts paxta tannarxi 17230,91 so`mni tashkil qiladi. $((8562844-164500): 487,24)$

Paxtaning tannarxini alohida navlari bo`yicha aniqlashda xarajatlar summasi uning xarid bahosi bo`yicha aniqlangan qiymatiga munosib ravishda taqsimlanadi. So`ng mazkur navga tegishli xarajatning shu navdagi paxta miqdoriga bo`lish yo`li bilan 1ts tannarxi aniqlanadi.

8.2. Ingichka tolali paxta tannarxini aniqlash

Paxtachilikda o`rtacha tolali va ingichka tolali paxta navlari mahsulot tannarxini aniqlash uchun ob'ekt bo`lib hisoblanadi. Ingichka tolali paxta O`zbekistonning Surxondaryo, Kashkadaryo va Buxoro viloyatlarida etkaziladi. Ingichka tolali paxtadan paxta xom-ashyosi, g`o`zapoya, g`o`zapachok (agar foydalanilsa) olinadi. Hozirgi vaqtda g`o`zadan faqat paxta mahsuloti olinmoqda.

Paxtaning tannarxini aniqlash uchun paxta etishtirish bo`yicha qilingan barcha xarajatlar yil davomida 2010-«Paxtachilik» schetining debet tomonida yig`ib boriladi. Bu xarajatlar mahsulotning o`tgan kondentsiya vazniga bo`linadi. Masalan, Surxondaryo viloyatining A.Ikromov nomli fermer xo`jaligida 2500 ts ingichka tolali paxta etishtirish uchun jami bo`lib 68 mln. so`m sarflangan. Demak, u vaqtda

1 ts ingichka tolali paxtaning tannarxi 680 mlnd / 2500 ts = 27200 sumni tashkil etadi.

Basharti xo'jalikda g'o'zapoya va g'o'zapo'choqlardan foydalanish zaruriyati tug'lsa, u holda qo'shimcha mahsulotlar normativ xarajatlarda baholanib, paxtachilik bo'yicha qilingan umumiy xarajatdan olib tashlanadi.

Qolgan summa paxtaning tannarxiga o'tkaziladi va ushbu summani mahsulot miqdoriga bo'lib, tannarx aniqlanadi.

Agarda ingichka tolali paxtaning g'o'zapoya va g'o'zapo'choqlardan foydalanish zaruriyati tug'lsa, ularni yig'ib terib olish, g'o'zapoyani chopish, yig'ish, yuklash, tushirish, tashish, g'aramlash kabi xarajatlar bilan bog'liq bo'lgan sarf-xarajatlarni alohida hisobga olib, tayyorlangan qo'shimcha mahsulot birligini haqiqiy tannarxini aniqlash maqsadga muvofiqdir. Ingichka tolali paxtani tannarxini navlari bo'yicha alohida kalkulyatsiya qilish mumkin. U vaqtda xarid qilingan paxtaning bahosidagi qiymatiga nisbatan mutanosib ravishda taqsimlanadi, ya'ni navlari bo'yicha topshirilgan paxtani foiziga nisbatan har bir navning tannarxi ayrim-ayrim hisoblanadi.

Paxta etishtirishda mehnat sarfi va moddiy mablag'larni iqtisod qilish va ulardan samarali foydalanish paxta tannarxini kamaytiradi. Moddiy texnika bazasini mustahkamlash mahsulot tannarxini kamaytirishning asosiy yo'llaridan biri hisoblanadi. Shuning uchun, paxtachilikni mexanizatsiyalash, kimyolashtirish, intensiv texnologiyalarni qo'llash, tannarxni 15-20 % ga kamaytiradi.

Paxtachilik bo'yicha zarur bo'lgan xarajat moddalarini to'g'ri aniqlash, bu soxa hisobini tashkil etishning muxim shartlaridan biri bo'lib hisoblanadi. Paxtachilik tarmog'ida xarajatlar quyidagi moddalar bo'yicha hisobga olinadi:

1. Mehnat haqi xarajatlari, ijtimoiy sug'urtaga ajratmalari bilan birga
2. Urug'lik – chigit, ko'chatlar
3. O'g'itlar (organik va mineral o'g'itlar)
4. O'simliklarni hasharotlarga qarshi muhofaza qilish xarajatlari (zaharli ximikatlar, biopreparatlar)
5. Ish va xizmatlar (gaz, suv, elektr, traktor, ustaxona, transport va boshqalar)
6. Asosiy vositalarni saqlash xarajatlari (amortizatsiya)
7. Ishlab chiqarishni tashkil etish xarajatlari

8. Sug`urta to`lovlari (ixtiyoriy, majburiy)

9. Boshqalar (fartuk, shol, inventar, barg to`ktirish, gerbitsidlar va boshqalar) kiradi.

Ushbu xarajatlarning barchasi tannarx xarajatlari bo`lib hisoblanadi. Ularning hammasini 100 % deb olib, undagi har bir moddaning salmog`i esa uning tarkibiy tuzilmasini tashkil etadi. Bu xarajatlar ingichka tolali paxta etishtirishda yil davomida xarajatlarni hisobga olish daftarida memorial orderlar bo`yicha oyma-oy, chorak va yillik hisob qilib yig`ib boriladi.

Paxta tayyorlash va sotish bo`yicha qishloq va suv xo`jaligi Vazirligi tomonidan 1999 yil yillik hisobot uchun tasdiqlangan 7-ASK shakl «Qishloq xo`jalik mahsulotlarini sotish» to`lg`aziladi.

**8.2.1-jadval. 7-ASK shakl «Qishloq xo`jalik mahsulotlarini sotish»
(etishtirilgan paxta (navlari bo`yicha))²**

Hisobga o`tgan vaznda (tsentner va ming so`mda)

№	Mahsulot nomi	Satr	Jami sotildi			Natija	
			miq.ts	To`l.tan	Pul darom.	Foyda	Zarar
1	2	3	4	5	6	7	8
1	Paxta xom-ashyosi	515	500	1100000	125000	150000	-
2	Paxta tolasi	516	-	-	-	-	-
	Jami	517	500	1100000	125000	150000	-

(8.2.1-jadvalning davomi)

Shundan navlari bo`yicha								Jami xarajat so`m	1 ts max. tan.
I		II		III		IV			
9		10		11		12		13	14
Mik.ts	So`m	mik.ts	So`m	mik.ts	So`m	mik.ts	So`m		
350	900000	50	120000	60	150000	40	80000	1100000	22000
-	-	-	-	-	-	-	-	-	-
350	900000	50	120000	60	150000	40	80000	1100000	22000

Jami xarajatlarga – mehnat xaqi, ajratmalari bilan birga, o`g`itlar, amortizatsiya, urug`liklar, ish xizmatlari, yoqilg`i moylash materiallari, sug`urta to`lovlari, er solig`i, umumishlab chiqarish xarajatlari, zaharli kimyoviy vositalar va boshqa xarajatlar jamlanib, mahsulot birligiga bo`linib, tannarx aniqlanadi.

² 7-ASK shaklning qisqartirilgan ko`rinishi.

Mavzuni o`zlashtirish uchun zarur tayanch tushunchalar:

O`rta tolali paxta, ingichka tolali paxta, paxta tannarxi elementlari, urug`lik xarajatlari, o`g`it xarajatlari, ishlab chiqarishni tashkil etish xarajatlari..

Mavzuni mustahkamlash uchun nazorat savollari:

1. Paxta xom-ashyosi va navlari bo`yicha hisobga olishning qanday yo`llari mavjud?
2. O`rta va ingichka tolali paxta navlarining bir-biridan farqi nimada?
3. Paxta tannarxini tuzilishi, uning tarkibiy elementlari nimalardan tashkil topgan?

Amaliy mashg`ulot.

№	Xarajat moddalari nomi	1 tsentner paxta tannarxi so`m			Salmog`i
		O`tgan yilda	Hisobot yilida		
			Rejada	Haqiqatda	
1.	Mehnat haqi – ajratmalari bilan	10300	10050	10420	28,63
2.	YOnilg`i moylash materiallari	5770	5710	6280	17,25
3.	Urug`lik	1500	290	650	1,79
4.	O`g`itlar	12090	8020	11850	32,55
5.	Asosiy vositalarning amortizatsiyasi	1900	2680	2030	5,58
6.	Avtomobilning joriy remonti	270	770	50	0,14
7.	Boshqa asosiy xarajatlar	4300	4150	2940	8,08
8.	Umumxo`jalik va umumishlab chiqarish xarajatlari	2020	2470	2180	5,99
9.	Jami xarajatlar	38150	34140	36400	100,00

Amaliy mashg`ulot.

Fermer xo`jaligida paxta etishtirish bo`yicha quyidagi ma'lumotlar keltirilgan:

- ⇒ Xo`jalikda paxta ekish, hosil olish va paxta punktlariga etkazib berish bilan bog`liq bo`lgan yillik xarajatlar yig`indisi 24.000.000 so`mni tashkil etadi.
- ⇒ Olingan xomashyo va mahsulotlar
 - 1-navli paxta xomashyosi – 1500 ts. (1,0)

▪ 2-navli paxta xomashyosi	–	500 ts. (0,33)
▪ 3-navli paxta xomashyosi	–	300 ts. (0,2)
▪ 4-navli paxta xomashyosi	–	200 ts. (0,13)
JAMI:	–	2500 ts.

⇒ G`o`zapoya – 5000 ts. 1 ts. poyani bahosi – 500 so`mdan.
Topshiriq: Paxtani navlar bo`yicha tannarxini hisoblang.

IX-MAVZU. CHORVACHILIK MAHSULOTLARI TANNARXINI KALKULYATSIYALASH

- 9.1. Chorvachilik tarmog`ining tasnifi va hisobining vazifalari
- 9.2. Ixtisoslashtirilgan chorvachilik xo`jaliklarida xarajatlar va mahsulotlar hisobini tashkil etishning xususiyatlari
- 9.3. Chorvachilik xarajatlari va olingan mahsulotlarning analitik va sintetik hisobi
- 9.4. Chorvachilik mahsulotlari tannarxi kalkulyatsiyasi

9.1. Chorvachilik tarmog`ining tasnifi va hisobining vazifalari

Chorvachilik tarmog`i axolining sut, go`sht va boshqa oziq-ovqat mahsulotlariga, sanoatning esa xomashyoga bo`lgan talabini qondiradi.

Chorvachilik o`simlikchilik bilan bir qatorda qishloq xo`jaligining muhim tarmog`i bo`lib, uning tarkibiga sut va go`sht yo`nalishidagi qoramolchilik, qo`ychilik, cho`chqachilik, yilqichilik, parrandachilik, asalarichilik, quyonchilik, ipakchilik, baliqchilik va boshqalar kiradi.

Chorvachilik xarajatlarini hisobga olish uchun 2000«Asosiy ishlab chiqarishni hisobga oluvchi schetlar guruhi»da 2020-«Chorvachilik harajatlari» schetining debet tomonida quyidagi moddalar bo`yicha xarajatlar guruhlanadi:

- mehnat xaqi xarajatlari ijtimoiy sug`urta ajratmalari bilan;
- Chorva mollarini himoya qilish vositalari;
- Em-xashak;
- Ish va xizmatlar;
- Asosiy vositalarni saqlash xarajatlari;
- Ishlab chiqarishni tashkil etish va boshqarish xarajatlari;
- Sug`urta to`lovlari;
- Boshqa xarajatlar;
- Chorva mollarining nobud bo`lishidan ko`rilgan zararlar.

1. «Mehnat haqi xarajatlari ijtimoiy sug`urta ajratmalari bilan» moddasida muayyan chorva turi yoki guruhlarga tegishli turli toifadagi xodimlarga (yollangan shaxslarni ham qo`shib hisoblangan) mehnat haqi, ijtimoiy sug`urta ajratmalari, ta`til vaqti va ish staji uchun to`lanadigan xaqlar hamda moddiy rag`batlantirish fondini ajratilgan to`lovlari aks ettiriladi.

2. «Chorva mollarini himoya qilish vositalari» moddasida xo`jalikning o`z mablag`lari hisobidan sotib olinib sarflangan biopreparatlar, dori-darmonlar va dezinfektsiya vositalari va ularni ishlatish bilan bog`liq sarflar hisobga olinadi.

Budjet mablag`lari hisobidan sotib olinib foydalanilgan biopreparatlar, dori-darmonlar va dezinfektsiya vositalari bu moddaga yozilmaydi.

3. «Em-xashak» moddasida xo`jalikning o`zida ishlab chiqarilgan va sotib olingan em xashaklarning chorva mollariga (ishchi hayvonlarni ham qo`shib), parrandalarga va boshqa turdagi chorva mollariga sarflanishi hisobga olinadi. Em-xashak tayyorlash tsexlarini xarajatlari ham shu moddada alohida analitik schet ochilib hisobga olinadi va tayyorlangan em-hashak miqdoriga mutanosib ravishda taqsimlanadi.

4. «Ish va xizmatlar» moddasida mazkur chorvachilik tarmog`i uchun korxonaning yordamchi ishlab chiqarishi, bajargan ish va ko`rsatgan xizmatlarining qiymati hamda chet tashkilotlarning ko`rsatgan xizmatlariga to`lanadigan xaq hisobga olinadi. Ushbu xarajat moddasida yuk avtotransporti, ot-ulov transporti, traktorlarning transport ishlari, suv ta`minoti, elektr ta`minoti, ta`mirlash ustaxonasi xarajatlari hisobga olinadi.

5. «Asosiy vositalarni saqlash xarajatlari» moddasida bevosita chorvachilikda foydalanilayotgan asosiy vositalarni saqlash bilan bog`liq bo`lgan xarajatlar hisobga olinadi.

6. «Ishlab chiqarishni tashkil etish va boshqarish xarajatlari» moddasida fermalarda, tarmoqlarda ishlab chiqarishni tashkil etish va boshqarish xarajatlari hamda butun korxonani boshqarish va ishlab chiqarishni tashkil etish xarajatlarning chorvachilikka tegishli qismi aks ettiriladi.

7. «Sug`urta to`lovlari» moddasida ish hayvonlari, em va maxsuldor mollar, parrandalar, quyonlar, asalarichilik, shuningdek chorvachilikda foydalanilayotgan binolar, inshootlar va asbob uskunalarning majburiy sug`urtasiga doir to`lovlar aks ettiriladi.

Mollar bo'yicha hisoblangan sug'urta to'lovlari bevosita tegishli hisob guruhining xarajatlariga o'tkaziladi. Chorvachilikda asosiy vositalar bo'yicha hisoblangan sug'urta to'lovlari esa chorvachilik hisob guruhlari o'rtasida taqsimlanadi.

8. «Boshqa xarajatlar» moddasida mahsulot etishtirish bilan bevosita bog'liq bo'lgan, lekin yuqoridagi xarajat moddalarida hisobga olinmagan sarflar aks ettiriladi. Bularga quyidagilar kiradi: ferma atroflarini o'rash, dezinfektsiya, g'ovlarni qurish va boshqa xarajatlar; to'lamlar; sut sog'uvchilar, cho'chqaboqarlar va boshqa xodimlarga berilgan maxsus kiyim, poyabzallar qiymati, chorva mollari uchun yozgi bostirmalar va boshqa nokapital inshootlarni kurish xarajatlari.

9. Mollarning nobud bo'lishidan ko'rilgan zararlar moddasida bokuvda turgan yosh va katta yoshdagi mollar, parrandalar, asalarilar, quyonlar va boshqa hayvonlarning nobud bo'lishidan ko'rilgan zararlar aks ettiriladi. Nobud bo'lgan chorva mollari uchun aybdor shaxslardan undirib olinadigan summa va tabiiy ofatdan ko'rilgan zararlar bu xarajat moddasiga yozilmaydi.

Chorvachilik xarajatlari va mahsulotlarini hisobga olishda em-xashak sarfini hisobga olish jurnali, amortizatsiya hisoblash qaydnomasi, yordamchi ishlab chiqarishlar bajargan ishlar uchun berilgan ma'lumotnomalar, sog'ilgan sutni hisobga olish jurnallari, qishloq xo'jalik mahsulotlarining kelish kundaligi, tug'ilgan naslni kirim qilish aktlari va boshqa hujjatlar asos bo'ladi. Bu hujjatlar har oyda guruhlanib, tarkibiy bo'linmaning shaxsiy scheti aks ettiriladi. Shaxsiy schetlar analitik hisob registri bo'lib, tarkibiy bo'linmalar bo'yicha tuziladi.

Yordamchi ishlab chiqarish xizmatlari, amortizatsiya ajratmalari kabilar alohida ko'rsatiladi. Xarajatlar to'g'risida jami ma'lumotlar bir oylik va yil boshidan o'sib borishi tartibida aks ettiriladi.

Tarkibiy bo'linma bo'yicha chorvachilik mahsulotlarining chiqimi to'g'risidagi shaxsiy schetdagi jami ma'lumotlar shu bo'linma ishchilar bilan ishning yakuniy natijalari uchun hisoblashda foydalaniladi.

Shaxsiy schetning jami ma'lumotlari bo'linma faoliyatini tahlil qilish va yakuniy baho berishda foydalaniladi. Lekin barcha ixtisoslashtirilgan chorvachilik xo'jaliklarida xarajat va mahsulotlar hisobi boshqa xo'jaliklarga qaraganda ancha tor hisob nomenklaturalari bo'yicha yuritiladi.

Masalan, sanoat asosida mahsulot etishtiriladigan ixtisoslashtirilgan chorvachilik xo'jaliklarida xarajatlar va mahsulotlar

chiqishining hisob ob'ektlari normativdan oshiqcha yosh chorva mollarini o'stirish, parvarishlash va chorva mollarini yakuniy semirtirish; cho'chqachilik majmualarida - asosiy poda, onasidan ajratilgan cho'chqalar o'rnini to'ldirish uchun boqilayotgan yosh cho'chqalar va bo'rdoqiga boqilayotgan cho'chqalar bo'lib hisoblanadi. Ixtisoslashtirilgan chorcachilik xo'jaliklarida ozuqa tsexlarida ozuqa tayyorlash xarajatlari alohida hisob ob'ektiga ajratilib hisobga olinadi.

Ayrim ixtisoslashtirilgan chorcachilik xo'jaliklarida dastlabki hisobni tashkil etishda ham o'ziga xos xususiyatlar mavjud.

9.2. Ixtisoslashtirilgan chorcachilik xo'jaliklarida xarajatlar va mahsulotlar hisobini tashkil etish xususiyatlari

Chorcachilik mahsulotlari ishlab chiqarishni ko'paytirish, sifatini yaxshilash va mahsulot tannarxini pasaytirishda ishlab chiqarish sanoat asosida tashkil etilgan ixtisoslashtirilgan chorcachilik xo'jaliklarining ahamiyati kattadir. Bunday xo'jaliklar ayrim fermer xo'jaliklarida o'zlarining moliyaviy moddiy texnika va mehnat resurslarining bir qismini ixtiyoriy birlashtirish yo'li bilan xo'jaliklararo asosida tashkil etiladi.

Ishlab chiqarish faoliyati va amaldagi ishlab chiqarish texnologiyasi xususiyatlariga ko'ra chorcachilik majmuilarida xarajatlar va mahsulotlar chiqishining hisobini tashkil etish o'ziga xos xususiyatlarga ega.

Masalan, sanoat asosida cho'chqa go'shti etishtiridigan xo'jaliklarda dastlabki hujjatlarning quyidagi maxsus shakllari qo'llaniladi: chorva mollari harakati va em-xashak sarfini hisobga olish varaqasi, chorva mollarining nobud bo'lishi va so'yilishini hisobga olish varaqasi, chorva mollari xarajati hisobining yig'ma qaydnomasi va chorva mollarining nobud bo'lishi va so'yilish hisobining yig'ma qaydnomasi.

Cho'chqachilik xo'jaligining buxgalteriyasida hisob varaqalarining ma'lumotlari har kuni chorva mollarining nobud bo'lishi va so'yilishi hisobining yig'ma qaydnomasiga yozib boriladi.

Oyda kamida ikki marta xo'jalik qushxonasida ma'muriyat ishtirokida bir bosh cho'chqadan qancha go'sht chiqishini aniqlash uchun tekshiruv so'yish o'tkaziladi. U holda hisob varaqasiga «tekshiruv uchun so'yildi» deb yozib qo'yiladi.

Chorva mollari va em-xashaklarni hisobga olish varaqasi, chorva mollarini so'yish va nobud bo'lishini hisobga olish varaqalari chorva mollarini so'yish va nobud bo'lish hisobining yig'ma varaqasi, fermadagi chorva mollari va parrandalarning harakati haqida hisoboti kabi hujjatlar jurnal-order va qaydnomalarini tuzishda asos bo'ladi.

Parrandachilik fabrikalarida dastlabki hujjatlarning quyidagi maxsus shakllari qo'llaniladi: jo'ja chiqarish va sutkalik jo'jalarni saqlash dalolatnomasi, yosh parrandalar harakatining hisob kartochkasi, parrandalarni inkubatsiya tsexidagi tuxumlarni saralash dalolatnomasi, parrandalarni qayta ishlash va mahsulot chiqishi haqidagi ishlab chiqarish dalolatnomasi, va omborxona-sovutgichi bo'yicha hisobot, chorva mollarini so'yish va nobud bo'lishini hisobga olish yig'ma qaydnomalari fermadagi chorva mollari va parrandalarning harakati haqidagi hisobotlar jurnal-orderni to'lg'izishda asos bo'ladi.

Jo'ja chiqarish sutkalik jo'jalarni saralash dalolatnomasi chiqarilgan jo'jalarni qabul qilish va saralash, qo'yilgan tuxumlardan jo'ja chiqarish va uning sifatini aniqlash uchun qo'llaniladi.

Parvarishlash tsexidagi yosh parrandalarning kundalik harakati, har bir tsex uchun alohida ochiladigan yosh parrandalar harakatining hisobi kartochkasida yuritiladi. YOsh parrandalarning harakati (kirim va chiqim) har kuni kartochkalarga yozib boriladi. Har oy oxirida kartochkalardagi ma'lumotlar joylanib, oy boshi va oxiriga bo'lgan bosh soni va tirik vazni, o'rtacha sutkalik qo'shilgan vazni ko'rsatiladi.

Katta yoshdagi parrandalar harakatining hisob kartochkasi katta yoshdagi parrandalar harakatining kundalik hisobi uchun mo'ljallangan, u 150-180 kunlik har bir parranda to'dasi uchun ochiladi. Inkubatsiya tsexidagi tuxumlarni saralash natijalari tuxumlarni saralash dalolatnomasi bilan rasmiylashtiriladi.

Xo'jalik rahbari tayinlagan komissiya tomonidan inkubatsiyaga qo'yishga yaroqli deb topilgan tuxumlar alohida ajratilib olinadi. Inkubatsiyaga qo'yishga yaroqsiz va ovqatga ishlatiladigan tuxum dalolatnomada alohida ko'rsatiladi. Parrandalarni so'yish va qayta ishlash haqidagi ma'lumotlar parrandalarni qayta ishlash va mahsulot chiqish to'g'risidagi hisobotda umumlashtiriladi. Uni so'yish tsexini boshlig'i va veterinariya vrachi imzolaganidan so'ng bosh zoomuhandis tekshiradi va xo'jalik rahbari tasdiqlaydi. Shundan so'ng hisobot ilova qilingan kirim va chiqim hujjatlari bilan birga korxona buxgalteriyasiga topshiriladi.

Omborxona-sovutgichdagi mahsulotlar harakati to'g'risidagi ma'lumotlarni umumlashtirish uchun omborxona-sovutgich bo'yicha hisobot qo'llaniladi. U har kun va butun oy uchun ikki nusxada tuziladi. Hisobotda go'sht toifasi va uning kun (oy) davomidagi harakati ko'rsatiladi. Hisobotni sovutgich - omborxona mudiri tuzib imzolaydi va korxona buxgalteriyasiga topshiradi.

9.3. Chorvachilik mahsulotlari etishtirish xarajatlari va ularning analitik va sintetik hisobi

Chorvachilik tarmog'ida xarajatlar va olingan mahsulotlarni hisobga olishda ko'plab dastlabki hujjatlar qo'llaniladi. Bular asosan xarajatlarni va olingan mahsulot hisobiga olinadigan dastlabki hujjatlarga bo'linadi. Chorvachilikdagi xarajatlar mehnat buyumlari, mehnat vositalari va chorva xodimlarining mehnat haqi xarajatlardan iboratdir. Ushbu xarajatlar xususiyatlariga ko'ra tegishli dastlabki hujjatlar bilan rasmiylashtirib boriladi. Masalan, sarflangan em-xashaklarning dastlabki hisobi em-xashak sarflash qaydnomasida, yig'ma hisobi esa ularni hisobga oladigan maxsus jurnalda yuritiladi. Unda chorva shakllarining har bir guruhi uchun alohida betlar ajratilib sarflangan em-xashak miqdori ularning ozuqa birligiga va xazm bo'luvchi chorvachilikdagi xarajatlarning analitik hisobi qaydnomasi yoki shaxsiy schetda yuritiladi. Ular ishlab chiqarish xarajatalari yuqoridagi moddalar bo'yicha guruhlanib, analitik hisob ob'ektlari va tarkibiy bo'linmalari bo'yicha tuziladi hamda hujjat aylanish grafigiga muvofiq belgilangan muddatda buxgalteriyaga topshiriladi. Bu qaydnomada xarajatlarning miqdori va qiymat ko'rsatkichlari yoziladigan qatorlar hisob ob'ektlari va tarkibiy bo'linmalarini yozish uchun esa tegishli grafalar ajaratilgan.

Ishlab chiqarish xarajatlari qaydnomasi ikki xil; yil boshidan hisobot oyigacha va hisobot oyida kabi ko'rsatkichlar ko'rinishda yoziladi. Bu esa xarajatlarni nazorat qilish va yil davomidagi hamda yillik buxgalteriya hisobotini tuzishda mahsulot tannarxini hisoblash imkonini yaratadi.

Buxgalteriyada chorvachilik turlari bo'yicha analitik hisob yig'ma qaydnoma yoki yig'ma shaxsiy schetda yuritiladi.

Qaydnomada chorvachilikdan olingan asosiy va yordamchi mahsulotlar miqdori va qiymati, ya'ni 2020-«chorvachilik» schetining

kredit va boshqa o'zaro bog'lanuvchi (1000, 2000, 2800, va boshqa) schetlarning debetiga yoziladigan ko'rsatkichlar aks ettiriladi.

Chorvachilikda sarflangan boshqa moddiy boyliklar (dori darmonlar; biopreparatlar va boshqalar) belgilangan tartibda maxsus hujjatlar bilan rasmiylashtiriladi.

Mehnat vositalari sarfi dehqonchilikdagi kabi amortizatsiya hisoblash hujjatlariga asosan rasmiylashtiriladi. Chorvachilik xodimlari mehnatiga haq to'lash etishtirilgan mahsulotlar miqdori va sifatiga qarab amalga oshiriladi. Shuning uchun chorvachilikdan olingan mahsulotlarning rasmiylashtiriladigan hujjatlar (sut sog'ishni hisobga olish jurnali, tug'ilgan hayvon bolalarini kiringa olish dalolatnomasi, chorva mollarining vaznini o'lchash qaydnomasi, chorva mollarini guruhdan o'tkazish dalolatnomasi va boshqalar) mehnatga haq to'lash uchun asos bo'ladi. Chorvachilik xodimlari ishlagan vaqtining hisobi har kuni ish vaqtini hisobga olish tabelida yuritiladi. Ushbu hujjatlarga asosan chorvachilik xodimlariga mehnat haqi hisob-kitobi tuziladi.

Chorvachilikdagi ishlab chiqarish xarajatlarining analitik hisobi chorva mollarining turlari, yoshi va jinsiga karab ochilgan analitik schetlarida quyidagi xarajat moddalari bo'yicha yuritiladi:

1. Mehnat haqi xarajatlari ijtimoiy sug'urta ajratmalari bilan birga, odam/soati, so'm;

2. Ozuqalar ts, ozuqa birligi, so'm;

3. Chorva mollarini himoya qilish vositalari, so'm;

4. Ishlar va xizmatlar, so'm;

5. Asosiy vositalarni saqlash xarajatlari, so'm;

6. Ishlab chiqarishini tashkil etish va boshqarish xarajatlari, so'm;

7. Sug'urta to'lovlari, so'm;

8. Boshqa xarajatlari, so'm;

9. Hayvonlarni yaroqsizlikga chiqarish va harom o'lishdan kelib chiqadigan yo'qotishlar, so'm;

Yuqoridagi ma'lumotlar «moddiy boyliklarning harakati to'g'risidagi hisobot», «hayvon va parrandalarning harakati to'g'risidagi hisobot», «hayvonlarning harakatining hisobga olish daftari», «sog'ilgan sutning harakati to'g'risidagi hisobot»larda hayvon va parrandalar hisobot davri ichida aks ettirilgan ko'rsatkichlarga teng bo'lishi kerak.

Aks ettirilgan muomalalarni oy oxirida (2020) «Chorvachilik» schetning kreditidan boshqa bog'lanuvchi schetlarning debetiga yoziladi. Oy oxirida bu muomalalar jurnal-orderga o'tkaziladi. Yig'ma qaydnomada ko'rsatilgan «Chorvachilik» schetning debeti va kreditiga

yozilgan oylik summalar asosida jurnal-order tuziladi. Bosh daftardagi 2020-schetidagi debet va kredit oborotlari teng bo'lishi kerak.

9.4. Chorvachilik mahsulotlari tannarxi kalkulyatsiyasi

Yil oxirida chorvachilik mahsulotlari tannarxini hisoblashdan oldin 2020-«Chorvachilik» scheti bo'yicha hisob ma'lumotlari puxta tekshiriladi. Har bir chorva turi (guruhi) bo'yicha umumiy xarajatlar va yil davomida olingan mahsulotlarning umumiy summasi aniqlanadi. Bunda xarajatlar hisob ob'ektlari bo'yicha to'g'ri taqsimlanishi – kishi-soatlar, oziq-kunlari va oziq-birliklari to'g'ri hisobga olinishi chorvachilikni ayrim tarmoqlari (parrandachilik, baliqchilik, asalarichilik, tuyachilik) bo'yicha tugallangan ishlab chiqarish hajmining to'g'ri aniqlanishiga, olingan asosiy va qo'shimcha mahsulotlar qiymatining to'g'ri aks ettirilishiga e'tibor berilishi zarur.

Chorvachilikda asosiy mahsulotlar sut, jun, tuxum, nasl, tirik vazn, umumiy tirik vazn va boshqalar tannarx hisoblash ob'ektlari bo'lib hisoblanadi.

Bunda ko'pchilik tarmoqlarda bir vaqtning o'zida o'zaro bog'liq mahsulotning bir qancha turlari olinadi.

Sut yo'nalishidagi qoramollardan – sut va nasl, qo'ychilikdan – jun, nasl, qo'shilgan vazn, parrandachilikdan – tuxum, go'sht va boshqalar olinadi. Shu sababli xarajat ob'ektlari bilan tannarx hisoblash ob'ektlari bir-biridan farq qiladi va mahsulot turlari o'rtasida xarajatlarni to'g'ri taqsimlash zaruriyati tug'iladi. Chorvachilikda qo'shimcha mahsulotga go'ng, parranda axlati, jun-tivit, pat, teri hamda nobud bo'lgan hayvonlardan olingan nimtalangan go'sht va boshqalar kiradi.

Go'shtning tannarxi muayyan sharoitdagi uni etishtirish to'lovlarining normativ xarajatlari hamda go'ng chiqarish, saqlash xarajatlari asosida aniqlanadi.

Chorvachilikning asosiy tarmoqlari bo'yicha mahsulotlar tannarxini hisoblash tartibini ko'rib chiqamiz. Bunda aylantirma va normativ koeffitsentlardan foydalaniladi.

Sut yo'nalashidagi chorvachilik mahsulotlari tannarxi kalkulyatsiyasi. Bu yo'nalishdagi chorvachilikda tannarx hisoblash ob'ekti bo'lib olingan sut va buzoqlar hisoblanadi. Bir tsentner sut va bir bosh buzoqning tannarxini hisoblash uchun sut yo'nalishidagi qoramollarga qilingan yillik xarajatlar summasidan go'ng, to'lashdan

tushgan jun va boshqa shunga o'xshash qo'shimcha mahsulotlar qiymati chegirib tashlanadi.

Misol: Hisobot yilida xo'jalikning sigirlar fermasida 8406000 so'm xarajat qilinib 1420 tsentner sut, 81 buzoq va 26800 so'mlik go'ng olingan.

Birinchi navbatda go'ngning normativ qiymati (26800 so'm) jami xarajattan chegirib tashlanadi ($8.406.000 \text{ s} - 26.800 \text{ s} = 8.379.200$) so'm). Qolgan xarajat summasining 90 foizi sut miqdoriga va 10 foizi buzoqlar bosh soniga bo'linadi ya'ni:

- bir tsentner sut tannarxi 5310,76 so'm ($7541280/1420 \text{ ts}$);

- bir bosh buzoq tannarxi 10344,69 so'm ($837920/81 \text{ bosh}$)

Demak 1 ts sutning tannarxi 5310 s 76 t, bir bosh buzoqniki esa 10344 s 69 t ekan.

O'stirilayotgan va boquvdagi qoramollarning qo'shilgan va tirik vaznining tannarxi kalkulyatsiyasi. O'stirilayotgan va boquvdagi chorva mollari bo'yicha tirik vazni, qo'shilgan vazni va molning umumiy tirik massasi tannarx hisoblash ob'ektlari bo'lib hisoblanadi.

Qo'shilgan tirik vaznining tannarxi ushbu hisob guruhidagi mollarni saqlash xarajatlari umumiy summasidan tashkil topadi (qo'shimcha mahsulot qiymat chegirib tashlanadi). Hayvon turi tegishli guruhi bo'yicha qo'shilgan vazn quyidagi formula yordamida aniqlanadi :

$$V_q = V_o + V_{ch} - V_k - V_b$$

Bunda: V_q - qo'shilgan (semirgan) vazn,

V_o - yil oxiriga qolgan vazn,

V_{ch} - yil davomida xo'jalikdan chiqarilgan hayvonlar vazni (hayvonlarning yil boshiga bo'lgan tirik vaznini ham qo'shgan holda),

V_k - yil davomida xo'jalikka kirim qilingan hayvonlar vazni,

V_b - yil boshiga bo'lgan vazni.

O'stirilayotgan va boquvdagi chorva mollar bo'yicha qo'shilgan vazn tannarxini hisoblashdan tashqari bir tsentner tirik massaning ham tannarxi hisoblanadi.

Tirik vazn tannarxini hisoblash shuning uchun ham zarurki, o'stirilayotgan va boquvdagi chorva mollarining har biri bo'yicha 1100-«O'stirilayotgan va boquvdagi chorva mollari» schetida analitik hisob yuritiladi. Masalan, olingan buzoq, uning olingan bosh sonidan qat'iy nazar sut yo'nalishdagi asosiy podaga qilingan xarajatning 10 foizi bo'yicha tannarxi aniqlanadi. Buzoqlarning qo'shilgan vazni rejadagi

qo`shilgan vazni tannarxi bo`yicha baholanadi. Sotib olingan buzoqlar esa haqiqatda sotib olingan baholarda kirim qilinadi. Boquvga qabul qilingan katta yoshli mol va o`tgan yilgi yosh mollar yil boshidagi bir tsentner tirik vazni tannarxi o`tgan yillardagi o`rtacha tannarx bo`yicha hisobga olinadi.

Go`sht yo`nalishidagi chorvachilik tannarxi hisoblash ob'ektlari quyidagilar: asosiy poda bo`yicha - qo`shilgan tirik vazni, onasidan ajratilgan umumiy tirik vazni, buzoq bosh soni; «Boquvdagi 8 oylikdagi va undan katta katta yoshdagi chorva mollari» guruhi bo`yicha qo`shilgan tirik vazni. Go`sht yo`nalishidagi chorva mollaridan olingan sut qo`shimcha mahsulot bo`lib hisoblanadi va asosiy mahsulot tannarxini hisoblashda uning qiymati davlat xarid narxlari yoki sotish bahosida baholanib, umumiy xarajatlardan chegirib tashlanadi.

**Cho`chqachilik mahsuloti tannarxi hisoblash kalkulyatsiyasi.** Cho`chqachilik tarmog`ida tannarx hisoblash ob'ektlari quyidagilar hisoblanadi: «Asosiy poda» hisob guruhi bo`yicha qo`shilgan tirik vazn, ikki oylikdan to`rt oylikkacha bo`lgan cho`chqalar «to`rt oylikdan katta cho`chqa bolalari va boquvdagi katta yoshli cho`chqalar» hisob guruhi bo`yicha qo`shilgan vazn va umumiy tirik vazni.

Onasidan ajratish paytida ikki oyga to`lgan cho`chqa bolalarining tannarxini aniqlash uchun «Asosiy poda» hisob guruhi bo`yicha qilingan haqiqiy xarajatlar jami summasidan qo`shimcha mahsulotlar (go`ng, qil) qiymati normativ bahoda baholanib chegirib tashlanadi. Qolgan summaga onalaridan ajratilmagan cho`chqa bolalarining yil boshiga bo`lgan balans qiymati qo`shilib hosil bo`lgan summani yil davomida ajratilmagan cho`chqa bolalarining umumiy tirik vazniga (o`lganlarining vazni chegirib tashlanib) taqsimlanadi.

Onasidan ajratilgan bir bosh cho`chqa bolasining tannarxini hisoblash uchun har tsentner tirik vazn tannarxini ularni umumiy vazniga ko`paytirib, hosil bo`lgan summa onasidan ajratilgan cho`chqa bolalari bosh soniga bo`linadi. Shuni nazarda tutish kerakki, onasidan ajratilgan cho`chqa bolalari tannarxini hisoblashda tekshiriluvchi va bir martalik ona cho`chqalarni saqlash xarajatlari ham hisobga olinadi (cho`chqalar qochirilgandan boshlab ularni saqlash xarajatlari asosiy poda hisobiga o`tkaziladi).

Boshqa hisob guruhlari bo`yicha guruh vazni, umumiy tirik vazn va qo`shilgan tirik vazni tannarxni hisoblash qoramolchilikdagi kabi amalga oshiriladi.

**Qo`ychilik va echkichilik mahsulotlari tannarxi kalkulyatsiyasi.** Qo`ychilik va echkichilik mahsulotlarini tannarxi asosiy podadagi va yosh qo`y-echkilarni parvarishlash hamda ularning junini qirqish bilan bog`liq xarajatlardan iborat. Bu tarmoqda quyidagi mahsulotlar tannarxni hisoblash ob'ektlari bo`lib hisoblanadi: jun-go`sht va go`sht-jun etishtirishga ixtisoslashtirilgan qo`ychilikda - jun, qo`shilgan hamda tirik vazni; qorako`lchilikda - qorako`l teri, jun, joriy yilda tug`ilgan qo`zilar va oldingi yillardagi qo`zilarning o`shishi.

Qo`ychilikning barcha tarmoqlaridan olingan mahsulotlar tannarxini hisoblashda hisobot yilida qilingan xarajatlardan qo`shimcha mahsulotlar qiymati normativ xarajatlar asosida baholab chegirib tashlanadi.

Tug`ilgan qo`zilar tannarxini hisoblashda asosiy podaga qilingan jami xarajatlar (qo`shimcha mahsulot qiymati chegirib tashlangandan qolgan) mahsulot miqdoriga (qo`zilar bosh soniga) taqsimlanadi: jun-go`sht va go`sht-jun yo`nalishdagi qo`ychilikda – 10 %, «romanov» qo`ychiligida – 12% va qorako`lchilikda – 15%. Umumiy xarajatdan qo`zilar tannarxiga o`tkaziladigan summa chiqarib tashlangandan so`ng qolgan summa qo`ychilikdan olingan boshqa asosiy mahsulotlarning (1ts ortgan vazn va 1 ts jun) sotish bahosi qiymatiga mutanosib taqsimlanadi. Tegishli summa esa mahsulot miqdoriga bo`linib uning o`lchov birligi tannarxi aniqlanadi.

Qo`ychilikdan olinadigan ayrim mahsulotlar bir qancha qo`shimcha xarajatlarni talab etadi. Bular jun qirqish xarajatlari, junlarni saralash, joylash, markalash va jun qirqish punktlarining xarajatlaridan iborat. Qo`zilarning sovgi`idan ajratish paytida 1 tsentner ortgan tirik vaznining tannarxi, ularning tug`ilgan paytidagi tannarxiga parvarish xarajatlari va yil davomida chetdan keltirilgan qo`zilar qiymatini qo`shib qo`zilarni sovgi`idan ajratish vaqtidagi joriy yilga tegishli bo`lgan vaznga bo`lish yo`li bilan aniqlanadi.

Echkichilikda ham nasl, tirik vazn va jun tannarxi qo`ychilikdagi kabi tartibda (qorako`lchilikdan tashqari) aniqlanadi.

Parrandachilik mahsulotlari tannarxi kalkulyatsiyasi. Parrandachilikda tannarx hisoblash ob'ektlari bo`lib: asosiy podadagi parrandalarni saqlash, parvarishlash xarajatlari, qo`shimcha vazn va sutkalik jo`jalar hisoblanadi. Ming dona tuxum va parrandalarning 1 tsentner qo`shilgan vaznining tannarxi parrandalarni saqlash va parvarishlar xarajatlaridan qo`shimcha mahsulot (pat, axlat) qiymati

chegirib tashlanib, qolgan summa tegishli mahsulot (tuxum, qo`shilgan tirik vazn) miqdoriga bo`lish yo`li bilan topiladi.

Sutkalik jo`jani tannarxi inkubatsiyaga doir barcha xarajatlardan (tuxumlar qiymatini ham qo`shgan holda), qo`shimcha mahsulotlar qiymati chegirib tashlanib, qolgan summa sog`lom jo`jalar miqdoriga bo`lish yo`li bilan aniqlanadi.

Yilqichilik va tuyachilik mahsulotlarining tannarxi kalkulyatsiyasi. Yilqichilikda quyidagi mahsulotlar tannarx hisoblash obe'ktlari hisoblanadi: asosiy uyurda – onasidan ajratilgan qulunlar, oylar bo`yicha o`sishi va o`stirilgan toylarning to`liq qiymati, sut yo`nalishidagi yilqichilik, qimiz, katta yoshli boquvdagi otlar bo`yicha qo`shilgan va tirik vazni.

Yilqichilikda tulashdan olingan jun, qil, o`lgan otlarning terisi, go`shti va go`ng kabi qo`shimcha mahsulotlar olinadi. Bular normativ asosida yoki xarid narxlarida baholanib kiringa olinadi. Qulun tug`ilgan vaqtida biyani asrash 60 kunining qiymati bo`yicha baholab kiringa olinadi

Asosiy podadagi qulunlarni biyasidan ajratib olish paytidagi tannarxni aniqlash uchun biyalar, ayg`irlar va qulunlarni boqish xarajatlari summasidagi yordamchi mahsulotlar va ayg`irlar hamda biyalar bajargan ishlarning (ishchi otlar bir ot-kunining normativ tannarxi bo`yicha baholanib) qiymatini chegirib tashlab, qolgan summani biyasidan ajratilgan qulunlar soniga bo`linadi.

Toylar bo`yicha qo`shilgan vazn (semirish) aniqlanmaydi, ya'ni ular tarozida tortilmaydi. Shuning uchun toylarning tannarxi hisoblanadi. Buning uchun toylarning yil boshidan mazkur guruhdan chiqib ketgunga qadar (sotilishi, boshqa hisob guruhiga o`tkazilishi) yoki ushbu hisob guruhida xech qanday o`zgarish bo`lmasa yil oxiriga bo`lgan oziq-kunlar soni aniqlanadi. So`ng umumiy xarajat summasidan qo`shimcha mahsulotlar qiymati chegirib tashlanadi. Agar toylar ishchi ot sifatida foydalanilgan bo`lsa, bajargan ishlar bir ish kunining normativi bo`yicha baholanib aniqlanadigan summa umumiy xarajatlarda chegirib tashlanadi. Qolgan xarajatlar summasini muayyan hisob guruxi bo`yicha oziq kunlar soniga taqsimlash yo`li bilan bir ozuqa-kun tannarxi aniqlanadi. Bu ko`rsatkich toylarning muayyan guruhda boqilgan kunlari soniga ko`paytirib ularning o`sish tannarxi aniqlanadi.

Qimizbop biyalar fermasining asosiy mahsuloti qimiz va qulunlardir.

Biya va ayg`irlarni asrash xarajatlaridan qo`shimcha mahsulotlar qiymatini chegirib tashlab qolgan summa qimiz bilan qulunlarga quyidagi koeffitsientlar bo`yicha taqsimlanadi: sut - 1 tsentner – 1,0; 1 bosh qulun-6,0

Qimiz olinmaydigan yilqichilikda bir bosh qulun tannarxi biya va ayg`irlarni asrash xarajatlaridan qo`shimcha mahsulotlar qiymatini chegirib tashlanib qolgan summani qulunlar soniga bo`lish yo`li bilan bir bosh qulunning tannarxi aniqlanadi.

Tuyachilikda mahsulotlarini tannarx kalkulyatsiyasi.
Tuyachilikda tug`ilgan bir bosh bo`taloqning tannarxi urg`ochi tuyalarning 120 ozuqa-kuni qiymati bilan aniqlanadi. Bir bosh bo`taloqning biyasidan ajratish vaqtidagi tannarxini aniqlash uchun yil boshiga qolgan tugallanmagan ishlab chiqarish xarajatlarga joriy yildagi bo`taloqni tuyalarni butalog`i ajratilgunga qadar qilingan saqlash xarajatlarini qo`shib, olingan summadan katta yoshdagi tuyalar bajargan ishlar, olingan sut, jun, qo`shilgan mahsulotlar qiymati va kelgusi yilga o`tkaziladigan tugallanmagan ishlab chiqarish xarajatlari qiymati chegirib tashlanadi va qolgan summani bo`taloqlar bosh soniga bo`linadi.

Bo`taloqlar o`shishining tannarxi ham yilqichilikdagi kabi aniqlanadi. Lekin bu ishda ayrim xususiyatlar mavjud. Tuyalar ikki yilda bir marta bolalaydi va ularning bo`g`ozlik davri 13 oygacha cho`ziladi. Shuning uchun ham, tuyalarning bir oylik asrash xarajatlari tugallanmagan xarajatlari sifatida kelgusi yilga o`tkaziladi.

Asalarichilik mahsulotlari tannarxi kalkulyatsiyasi.
Asalarichilikdan asosan asal olinadi va qishloq xo`jalik ekinlarini changlatishda foydalaniladi. Bu tarmoqdan olinadigan asal, mum, yangi asalari uyalar, ona asalarilar, ona ari suti (propolis) tannarxni hisoblash ob'ekti hisoblanadi. Rezavor-meva ekinlari va urug`lik bedalarini changlatishga, xosildorligiga qarab, asalarichilik xarajatlarining 40-60%, boshqa ekinlarga 20-40% o`tkaziladi. Faqat ekinlarni changlatishga mo`ljallangan asalarichilik xarajatlari changlantiriladigan ekinlardan olinadigan mahsulotlar tannarxiga o`tkaziladi. Bunda olingan asal, mum va boshqa mahsulotlar qo`shimcha mahsulot hisoblanib, sotiladigan narxda baholanib haqiqiy xarajatlari summasidan chegirib tashlanadi.

Sotilgan (tovar), uyalarida qoldirilgan, qish-bahor davrida oziq uchun omborda qoldirilgan asalarichilikdan olingan yalpi asal hisoblanadi.

Asalarichilik mahsulotlari tannarxini aniqlash uchun qilingan xarajatlarni olingan mahsulotlar o`rtasida ularning xarid narxi bo`yicha aniqlangan qiymatiga mutanosib ravishda taqsimlash kerak. Olingan mum kataklarining tannarxi eritilgan konditsiyadagi mumlar tannarxi bo`yicha aniqlanadi. Bunda uyadagi 435x230 mm hajmidagi mum katak 140 gr, 435x215 mm 110 gr, 435x145mm 70 gr mumga teng qilib olinadi.

Yangi asalari oilalari ularni sotish bahosida kiringa olinadi. Bunda bir kg asalari 10kg asalga tenglashtiriladi.

Asalarichilikda asalari uyalarining balans qiymati ham aniqlanib, u ona asalari, ishchi asalari oziq sifatida uyada qoldirilgan asal, asalari yashiklari shu kabilarning qiymatlari yig`indisidan iboratdir.

Baliqchilik mahsuloti tannarxi kalkulyatsiyasi. Baliqchilikda sotiladigan baliqlar va urchitish uchun qoldirilgan baliqlar tannarxi hisoblash ob'ekti hisoblanadi.

Sotiladigan va urchitish uchun suv havzalarida qoldirilgan baliqlar tannarxi yillik xarajatlari summasini baliqchilikdan olingan tovar baliqlarining haqiqiy vazni va yil oxirida urchitish uchun qoldirilgan baliqlarin shartli vazniga (tsentner hisobida) bo`lish yo`l bilan aniqlanadi. Urchitishga qoldirilgan baliqlarning shartli vaznini aniqlashda bir dona baliqning o`rtacha taxminiy vazni 30 gr deb aniqlanadi.

Ipakchilik. Ipakchilikda mahsulot tannarxini hisoblash ob'ekti bo`lib, ipak qurtidan olingan pilla hisoblanadi.

Pillachilikdan g`ana, dasta va tut o`tinlari kabi qo`shimcha mahsulotlar olinadi. Bular xarid narxlarida baholanib kiringa olinadi. Pilla tannarxi ipak qurti urug`larini sotib olish va ularni parvarishlash bilan bog`liq bo`lgan xarajatlar summasidan qo`shimcha mahsulotlar qiymatini chegirib tashlab qolgan summani haqiqiy pilla miqdoriga bo`lish yo`li bilan aniqlanadi.

Mavzuni o`zlashtirish uchun zarur tayanch tushunchalar:

Chorvachilik xarajatlari, chorvachilik tarmoqlari, chorvachilik mahsulotlari, ozuqa xarajatlari, qo`shimcha mahsulotlar, chorvachilik mahsulotlari tannarxi, sut yo`nalishidagi chorvachilik mahsulotlari tannarxi kalkulyatsiyasi, cho`chqachilik mahsuloti tannarxini kalkulyatsiyalash, qo`ychilik mahsulotlari tannarxini kalkulyatsiyalash, parrandachilik mahsulotlari tannarxini kalkulyatsiyasi, yilqichilik va

tuyachilikda tannarx kalkulyatsiyasi, asalarichilikda tannarx kalkulyatsiyasi, baliqchilikda tannarx kalkulyatsiyasi, ipakchilikda mahsulot tannarxi kalkulyatsiyasi.

Mavzuni mustahkamlash uchun nazorat savollari:

1. Chorvachilik tarmoqlari va uni tasnifini tushuntiring.
2. Chorvachilik tarmoqlarida tannarx kalkulyatsiyasining o`ziga xos xususiyatlari nimada?
3. Chorvachilik mahsuloti etishtirish uchun sarf bo`ladigan xarajatlarning tuzilishi qanday?
4. Chorvachilikni ixtisoslashuvida mahsulot tannarxini hisoblashning yo`llari qanday?

Amaliy mashg`ulot.

Chorvachilikka ixtisoslashgan fermer xo`jaligi faoliyati bo`yicha quyidagi ma'lumotlarga egamiz:

⇒ Bir yilda «Sut uchun boqiladigan qoramollar» guruhiga sarflangan xarajat – 14.880.000 so`m.

⇒ Olingan mahsulotlar:

o Sut – 1200 ts;

o Buzoq – 68 bosh;

⇒ Qo`shimcha mahsulot – 20000 so`mlik;

⇒ Go`ng – 300 t. yoki 450000 so`mlik.

Topshiriq: 1 ts. sut va 1 bosh buzoqning tannarxini aniqlang (1 bosh buzoq 1,5 ts. sutga tenglashtiriladi).

X-MAVZU. AGROSANOAT MAJMUIDA MAHSULOT

TANNARXI KALKULYATSIYASI

10.1. Agrosanoat majmui ishlab chiqarish turlari, xarajatlar hisobining mazmuni va mohiyati

10.2. Agrosanoat majmui ishlab chiqarish xarajatlarining analitik va sintetik hisobi

10.3. Agrosanoat majmui mahsulotlari tannarxi kalkulyatsiyasi

10.1. Agrosanoat majmui tarmoqlarida ishlab chiqarish turlari, xarajatlar hisobining mazmuni va mohiyati

O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotida qishloq xo'jaligining o'rnini va ahamiyati kattadir. O'zbekiston – agrar davlat bo'lib, agrosanoat majmui asosiy moddiy ishlab chiqarish sohasi hisoblanadi.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishning o'sishi, shuningdek, u bilan bog'liq bo'lgan qayta ishlash tarmoqlarining rivojlanishi aholi turmush darajasining yaxshilanishiga imkon beradi, iste'mol qilinayotgan oziq-ovqat mahsulotlari tarkibini o'zgartirib, ularning assortimentini ko'paytiradi.

Qishloq xo'jaligi mamlakat iqtisodining boshqa sohalari, tarmoqlari va ayrim korxonalari bilan iqtisodiy jihatdan bog'lanmasdan turib, o'z faoliyatini tashkil eta olmaydi. Qishloq xo'jalik ishlab chiqarish jarayoni murakkab jarayondir. Bu jarayonni amalga oshirish uchun dehqon mehnatidan tashqari o'nlab xilma-xil korxonalarining, shu jumladan, qishloq xo'jalik mashinasozlik zavodlari, mineral va xilma-xil kimyoviy dorivorlar ishlab chiqaruvchi korxonalar, yoqilg'i va moylash hamda ehtiyot qismlar ishlab chiqaruvchi zavodlar, hosil tashuvchi, qayta ishlovchi, iste'molchilarga etkazib beruvchi va boshqa bir qator qishloq xo'jaligi tarkibiga kirmaydigan korxonalar, tashkilotlar va savdo shoxobchalari xizmatidan foydalanish zaruriyati paydo bo'ladi.

Qishloqda dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarini qayta ishlash, shuningdek, qurilish materiallarini ishlab chiqarish, mayda asbob-uskunalarini tayyorlash va hokazolar uchun qishloq xo'jalik korxonalari tarkibida yoki mustaqil holda sanoat korxonalari va yordamchi xo'jaliklar tashkil qilish ishchi kuchining mavsumiy ortiqchaligidan to'la va samarali foydalanish imkonini beradi.

Sanoat ishlab chiqarishni hisobga olish har bir ishlab chiqarish sarfini hisob ob'ekti va xarajat moddasi bo'yicha to'g'ri va o'z vaqtida hisobda aks ettirish, ishlab chiqargan mahsulotni aniq hisobga olish va uning tannarxini to'g'ri hisoblash, tugallanmagan ishlab chiqarishni to'g'ri aniqlash, mablag'larni tejab sarflanishini nazorat qilish ijara asosida ishlaydigan bo'linmalarining xo'jalik hisobi topshiriqlari (shartnomalar)ni bajarishni nazorat qilish va har bir korxona bo'yicha alohida ishlab chiqarish faoliyatini moliyaviy natijalarini aniqlash lozim.

Qishloq xo'jaligidagi sanoat ishlab chiqarishlarga qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlaydigan (tegirmon, sutni qayta ishlash, moyjuvoz, konserva zavodlari va h.k.) korxonalar va ishlab chiqarishlar

yog'och, g'isht zavodi, salloxona hamda mahsulotlarga oddiy ishlov berishga oid ishlab chiqarishlar (meva va sabzavotlarni quritish, bodring va pomidor tuzlash va boshqalar) kiradi.

Sanoat ishlab chikrishda qilingan xarajatlar quyidagi moddalar bo'yicha hisobga olinadi.

1. Mehnat haqi xarajatlarini ijtimoiy sug'urtaga ajratmalar bilan birgalikda
2. Xomashyo va materiallar
3. Ishlar va xizmatlar
4. Asosiy vositalarni saqlash xarajatlari
5. Ishlab chiqarishni tashkil etish va boshqarishga oid xarajatlar.
6. Sug'urta to'lovlari
7. Boshqa xarajatlar.
8. Yaroqsizlikdan ko'rilgan yo'qotishlar.

Xomashyo va materiallar moddasida tayyorlanadigan mahsulotning negizini tashkil etuvchi yoki uni tayyorlashda zarur bo'ladigan komponentlar, tegirmon va juvozxonada – donning qiymati, kanop va zig'irni qayta ishlashda – poyaning qiymati, meva, sabzavot, kartoshka, dukkaklilar, rezavorlar va boshqalar qiymati hisobga olinadi.

«Yaroqsizlikdan ko'rilgan yo'qotishlar» moddasida butunlay yaroqsizga chiqarilgan mahsulot (buyumlar, yarim tayyor mahsulotlar) qiymati, qurilmalarni dastlabki ishlatish vaqtida buzilgan xomashyo, materiallar va yarim tayyor mahsulotlar qiymati hamda yaroqsizlikni tuzatish xarajatlari aks ettiradi.

Qolgan xarajat moddalari ularning mazmuniga ko'ra 2000-schetning 2010 va 2020 scheti bo'yicha ko'rib chiqilgan xarajat moddalariga o'xshashdir.

10.2. Agrosanoat majmuida xarajatlarning analitik va sintetik hisobi

Sanoat ishlab chiqarish xarajatlari va mahsulot chiqarishni hisobga olishda xilma-xil dastlabki hujjatlar va hisob registrlari qo'llaniladi.

Bajarilgan ishlar bo'yicha mehnat haqi xarajatlari tsex boshlig'i yoki boshqa ma'suliyatli shaxs tomonidan ishbay ishlar bo'yicha tuziladigan naryadga asosan rasmiylashtiriladi.

Sutni va sut mahsulotlarini qayta ishlashni har kuni hisobga olish uchun sut va sut mahsulotlarini qayta ishlash qaydnomasidan foydalaniladi. Bu qaydnoma sutni qayta ishlash punktining boshlig'i

tomonidan har kuni ikki nusxada yuritiladi. Qaydnomada qayta ishlash uchun qabul qilingan sut va qayta ishlashdan olingan mahsulotlar hajmi ko`rsatiladi.

Mol so`yish punktida so`yilgan mollarni hujjatlashtirishda mollarni asosiy podadan yaroqsiz mahsulotga chiqarish dalolatnomasi, hayvon va parrandalarni hisobdan chiqarish dalolatnomasi, bo`rdoqiga boqilayotgan mollarni so`yishda – hayvonlarni tortish qaydnomasi qo`llaniladi. Mol so`yishdan olingan mahsulotlar dalolatnomaning orqa tomonida aks ettiriladi.

Xo`jalikdagi tegirmon va juvozxonalarda don yanchish (maydalash) pattasi (kvitantsiyasi) dastlabki hujjat bo`lib hisobalanadi. U tegirmon (juvozxona) boshlig`i tomonidan don olingan vaqtda ikki nusxada to`lg`aziladi. Birinchi nusxasi don topshirgan shaxsga beriladi, ikkinchi nusxasi esa tegirmon (juvozxona)da qoladi.

Sabzavot va mevalarni qayta ishlash uchun sarflangan xomashyo, materiallar, idishlar va boshqa materiallar, shuningdek, olingan tayyor mahsulotni rasmiylashtirishda mahsulotni qayta ishlash to`g`risida hisobot tuziladi. Bu hisobot ilova qilingan hujjatlar bilan birga buxgalteriyaga topshiriladi. Hisobot ikki bo`limdan iborat bo`lib, uning birinchi bo`limida qayta ishlash uchun qabul qilingan xom-ashyo va materiallar ko`rsatilsa, ikkinchi bo`limida- ishlab chiqarilgan tayyor mahsulotlar aks ettiriladi.

Yuqorida ko`rib chiqilgan hujjatlar, shuningdek «Ish va xizmatlarni hisobga olish jurnali» ma'lumotlari asosida tsex boshlig`i oyning oxirida sanoat ishlab chiqarishi bo`yicha ishlab chiqarish hisoboti tuzib buxgalteriyaga topshiradi. Buxgalteriyada tekshirib qabul qilgan ishlab chiqarish hisoboti ma'lumotlari jurnal-orderga yozish uchun asos bo`lib hisoblanadi.

Sanoat ishlab chiqarishga xarajatlar qilinganda 2030-«Sanoat ishlab chiqarish»^{*} scheti debetlanib quyidagi schetlar kreditlanadi:

- 0500-«Nomoddiy aktivlarni eskirishi» scheti – nomoddiy aktivlarga hisoblangan eskirish summasiga;
- 1000-«Materiallar» scheti – sarflangan materiallar qiymatiga (shu jumladan, 1080-«Xo`jalik inventarlari»);
- 2800-«Tayyor mahsulot» scheti – qayta ishlashga berilgan mahsulotlar qiymatiga (sotib olingan);

^{*} 2000-«Asosiy ishlab chiqarish xarajatlari» schetlar guruhida ochish mumkin.

- 9000-«Mahsulot (ish, xizmat)larni sotish» scheti – o`z xo`jaligida etishtirilgan qishloq xo`jalik mahsuloti va so`yishga jo`natilgan o`stirilayotgan va boquvdagi mollarning davlat xarid bahosiga.
- 6700-«Xodimlar bilan mehnat haqi bo`yicha hisob-kitoblar» scheti – hisoblangan mehnat haqi summasiga va boshqa schetlar

Qayta ishlash uchun boshqa tashkilot va axolidan qabul qilingan materiallar ishlov berish tannarxini aniqlash uchun alohida analitik schetlarda hisobga olingan xarajatlarni qabul qilingan materiallar hajmida bo`lishi kerak. Ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari reja tannarxida qabul qilinganda 2030 schet kreditlanib quyidagi schetlar debetlanadi:

- 1000-schet o`z ishlab chiqarishi uchun xom-ashyo va materiallar sifatida kiringa olingan mahsulot qiymatiga;
- 2800-schet sotish va qisman o`z ehtiyojlari uchun foydalaniladigan tayyor mahsulotlar qiymatiga,
- 9700-schet tabiiy ofatlar oqibatida to`liq nobud bo`lgan sanoat ishlab chiqarish mahsulotlari uchun qilingan xarajatlar summasiga.

Yil oxirida mahsulotning haqiqiy tannarxi aniqlangandan so`ng uning reja tannarxi haqiqiy tannarx darajasiga etkazib qo`yiladi.

10.3. Agrosanoat majmui tarmoqlarida mahsulot tannarxi kalkulyatsiyasi

Sanoat ishlab chiqarish mahsulotlari tannarxini hisoblashda mahsulot tayyorlash uchun qilingan xarajatlardan (qayta ishlangan xomashyo qiymatini ham qo`shgan holda) olingan yordamchi mahsulotlar qiymatini chegirib tashlanib, qolgan summa asosiy mahsulot miqdoriga bo`linadi.

Lekin har bir sanoat ishlab chiqarish o`ziga xos xususiyatlarga ega bo`lganligi uchun ularning mahsulotlari tannarxlarini aniqlashda ham shunday xususiyatlar mavjud.

Sanoat ishlab chiqarish mahsulotlarining tannarxini hisoblash tartibini quyidagi ishlab chiqarishlar misolida ko`rib chiqamiz.

Tegirmon (juvozxona) mahsuloti tannarxini hisoblash. Donni qayta ishlashda, un, yorma, maydalangan don tannarx hisoblash ob'ektlari bo`lib hisoblanadi. Agar oralatib chet tashkilotlar yoki

aholining g'allasi ham tortilsa – tannarx hisoblash ob'ekti bo'lib tortishga olib kelingan g'alla hisoblanadi.

Tegirmonda tortilgan xo'jalikning uni, yorma yoki maydalangan donning tannarxini aniqlash uchun jami qilingan xarajatlar umumiy summasidan (g'allaning qiymatini ham qo'shgan holda) foydalansa bo'ladigan chiqindilar qiymati (xarid narxi yoki foydalanish narxida baholanib) chegirib tashlanib qolgan summani qayta ishlashdan olingan mahsulot miqdoriga bo'lish yo'li bilan aniqlanadi.

Agar tegirmonda xo'jalikning o'z g'allasi bilan bir qatorda chet buyurtmachilar va axoli g'allasi tortilsa, xarajatning umumiy summasidan (umumxo'jalik xarajatlarini ham qo'shib) tortishga qabul qilingan o'z donining qiymati chegirib tashlanadi va g'allani tortishga qilingan xarajat aniqlab olinadi. So'ngra bu xarajatlar summasini tortilgan g'alla (o'z g'allasi va chetdan kelgan g'alla)ning miqdoriga bo'lib bir tsentner tortilgan g'alla tannarxi aniqlanadi.

Xo'jalikning tortilgan uni, yormasi va boshqa mahsuloti tannarxini aniqlash uchun 1 ts. g'allanig tortish tannarxini jami tortilgan g'alla miqdoriga ko'paytirib hosil bo'lgan summaga g'allaning qiymati qo'shiladi va qo'shimcha mahsulotlar chegirib tashlanib qolgan summa olingan un yoki yorma miqdoriga bo'linadi.

Sabzavot va ho'l meva mahsulotlarni qayta ishlash. Sabzavot va ho'l meva mahsulotlarni qayta ishlab chiqarishda konservalar, tuzlangan va achitilgan sabzavot mahsuloti, qoqi, sharbat va shu kabilar tannarx hisoblash ob'ekti bo'lib hisoblanadi.

Har bir mahsulot turini qayta ishlash uchun ochilgan analitik schetlarda yig'ib borilgan xarajatlardan xo'jalikda ishlatiladigan chiqitlarning (silos ekinlari «ko'k massa»sini ozuqa birligini reja tannarxida baholab) qiymatini olib tashlab, qolgan summani olingan tayyor mahsulot miqdoriga bo'lish yo'li bilan mahsulot birligining tannarxi aniqlanadi.

Meva-sabzavot konservalari va sharbatlar tayyorlashda tannarx ob'ekti bo'lib ming shartli banka mahsuloti hisoblanadi. Ichida 400 g massasi bo'lgan konserva bir shartli banka hisoblanadi. Har bir mahsulotdan ishlab chiqarilgan konservalarni shartli bankaga aylantirish uchun maxsus koeffitsientlar qo'llaniladi. Koeffitsientlarning katta yoki kichikligi bankalarning hajmi va mahsulotning massasiga bog'liq. Jami ishlab chiqarilgan konservalar shartli bankalarga aylantirib olingandan so'ng barcha xarajatlarni (qo'shimcha mahsulot qiymatidan tashqari)

shartli bankalar miqdoriga bo'lish yo'li bilan 1000 shartli banka tannarxi aniqlanadi.

Sutni qayta ishlash. Sutni qayta ishlash natijasida tayyorlanadigan sariyog', qaymoq, tvorog, kefir, pishloq kabi mahsulotlar tannarxni hisoblash ob'ekti bo'lib hisoblanadi. Sutni qayta ishlashda olingan ayrim turdagi mahsulotlar tannarxini hisoblash uchun sarflangan xarajatlarning umumiy summasidan foydalansa bo'ladigan ayrim, zardob va boshqa qo'shimcha mahsulotlar qiymati chegirib tashlanib, qolgan summa ayrim mahsulot turlari ularning xarid narxi bo'yicha aniqlangan qiymatiga mutanosib ravishda taqsimlanadi.

Mol so'yish. Chorva mollari va parrandalar korxonaning ichki ehtiyojlarini qondirish uchun va noilojlikdan (oyoqi sinishi, kasal bo'lishi) so'yiladi. Mol so'yish bilan bog'liq xarajatlar so'yilgan mollarning o'rtasida ularning tirik vazniga mutanosib taqsimlanadi. So'yilgan moldan olingan barcha qo'shimcha mahsulotlar yo sotish mumkin bo'lgan narxda baholanib kiringa olinadi. Asosiy mahsulot (go'sht) esa molning semizligini ko'rsatib, albatta veterinariya xodimi ishtirokida dalolatnoma bilan qabul qilinadi. Go'shtning haqiqiy tannarxini hisoblash uchun barcha qilingan xarajatlar (so'yilgan molning qiymati ham qo'shilgan holda)dan qo'shimcha mahsulotlar (teri, kalla-pocha, ichak-chavoq) qiymatini olib tashlab qolgan summani olingan go'sht miqdoriga bo'lish kerak.

Qorako'l teri tannarxini aniqlash uchun oldin qorako'l qo'zilarini so'yish punktiga olib kelish, so'yish, terilarga dastlabki ishlov berish, so'yish punktini asrash xarajatlari va shunga o'xshash xarajatlar va so'yilgan qo'zilarining qiymati alohida analitik schetda hisobga olinadi. So'ng bu xarajatlardan qo'shimcha mahsulot (barra go'sht, shirdon)lar qiymati sotish narxida baholanib chegirib tashlanadi.

Qolgan summani olingan qorako'l terilarning miqdoriga bo'lib, bir dona qorako'l terining haqiqiy tannarxi aniqlanadi.

Mavzuni o'zlashtirish uchun zarur tayanch tushunchalar:

Agrosanoat majmui, agrosanoat majmuida mahsulot tannarxi kalkulyatsiyasi, «ko'k massa», sutni qayta ishlash xarajatlari, yaroqsiz mahsulot, tegirmon mahsulotlari tannarxi, sabzaovtlarni qayta ishlash xarajatlari, go'sht tannarxini aniqlash, chorvachilik mahsulotlari tannarxini kalkulyatsiya qilish.

Mavzuni mustahkamlash uchun nazorat savollari:

1. Agrosanoat majmuiga qarashli qanday ishlab chiqarish turlarini bilasiz?
2. Agrosanoat majmui ishlab chiqarish xarajatlari hisobining mazmuni va mohiyati nimada?
3. Agrosanoat majmui ishlab chiqarish xarajatlarini analitik va sintetik hisobini yuritish tartibi qanday?
4. Agrosanoat majmui mahsulotlari tannarxi kalkulyatsiyasining o`ziga xosligi nimada?
5. Tegirmon (juvozxona) mahsuloti tannarxini hisoblash tartibi qanday?
6. Sabzavot va ho`l meva mahsulotlarni qayta ishlash xarajatlarini hisobi qanday amalga oshiriladi?
7. Sutni qayta ishlash xarajatlarini hisoblash usullari qanday?
8. Mol so`yish xarajatlari va olinadigan mahsulotlar tannarxini aniqlash tartibi qanday?

Amaliy mashg`ulot.

Sutni qayta ishlash firmasining xo`jalik faoliyati bo`yicha ma'lumotlar keltirilgan:

- ⇒ Sutni qayta ishlash punktiga qilingan yillik xarajatlar yig`indisi – 13.600.000 so`mni tashkil etadi;
- ⇒ Qayta ishlashdan quyidagi mahsulotlar olingan
 - Qaymoq, 200 ts. – 1 ts.ni sotish bahosi 84.000 so`m;
 - Suzma, 600 ts. – 1 ts.ni sotish bahosi 18.000 so`m;
 - YOg`, 300 ts. – 1 ts.ni sotish bahosi 108.000 so`m;
 - YOg`i olingan sut, 4800 ts. – 1 ts.ni sotish bahosi 7.000 so`m;

Topshiriq: 1 ts. mahsulot tannarxini aniqlang.

XI-MAVZU. UMUMIY OVQATLANISH VA XIZMAT KO`RSATISH KORXONALARIDA MAHSULOT TANNARXI KALKULYATSIYASI

- 11.1. Umumiy ovqatlanish va xizmat ko`rsatish korxonalari xarajat va daromadlarining hisobi
- 11.2. Umumiy ovqatlanish korxonalarida mahsulot tannarxini kalkulyatsiyalash
- 11.3. Uy-joy-kommunal xo`jalik xarajatlari hisobi

11.1. Umumiy ovqatlanish va xizmat ko`rsatish korxonalari xarajat va daromadlarining hisobi

Faoliyati korxonaning ishlab chiqargan mahsuloti, bajargan ish va ko`rsatgan xizmatlari bilan bevosita bog`liq bo`lmagan xo`jaliklar xizmat ko`rsatuvchi ishlab chiqarish va xo`jaliklar hisoblanadi. Bu xil xizmat ko`rsatuvchi xo`jaliklarni o`ziga xos xususiyatlariga qarab uch guruhga bo`lish mumkin:

- mahsulot ishlab chiqaruvchi (oshxona, novvoyxona);
- xizmat ko`rsatuvchi (hammom, sartaroshxona, poyabzal ta'mirlash ustaxonalari);
- ixtisoslashgan ijtimoiy va maishiy vazifalarni (bolalar muassasalari, uy-joy kommunal xo`jaligi, dam olish uylari) bajaruvchi muassasalar.

Korxonalarda umumiy ovqatlanish statsionar oshxona va bufetlarda tashkil etiladi. Taomlar tayyorlash uchun sarflanadigan xarajatlar 2700-«Xizmat ko`rsatuvchi xo`jaliklar» schetlar guruhida ochilgan 2730-«Oshxona (bufet)lar»^{*} analitik schetida quyidagi moddalar bo`yicha hisobga olinadi:

1. Asosiy va qo`shimcha ish haqi ijtimoiy sug`urta ajratmalari bilan birga;
2. Xom-ashyo (mahsulotlari);
3. Inventar va xo`jalik jihozlari;
4. Boshqa xarajatlar.

Oshxonada tayyorlangan taomlar narxini arzonlashtirish maqsadida oshxona (bufet) asosiy vositalarini asrash (amortizatsiya,

^{*} 2700-«Xizmat ko`rsatuvchi xo`jaliklar» schetlar guruhida ochish tavsiya qilinadi

ta'mirlash, isitish, yoritish) xarajatlari, issiq va sovuq suv qiymati, taom tayyorlash uchun sarflanadigan yoqilg'i va transport xizmatlari qiymati tayyorlangan taomlar qiymatiga qo'shilmay xo'jalikning davr xarajatlarga o'tkazilishi mumkin.

Xizmat ko'rsatish korxonalarida asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar amortizatsiyasi, ta'mirlash, isitish, yoritish xarajatlari bevosita mahsulot tannarxiga kiritiladi.

Oshxona va boshqa umum ovqatlanish korxonalariga berilgan mahsulotlar 2990-«Boshqa tovarlar» scheti kreditidan 2730- «Oshxona (bufet)lar» schetidebetiga o'tkaziladi. Oshxona uchun sotib olingan mahsulotlar (yog', un makaron, choy va boshqalar) ham 2990-schetda hisobga olinadi.

Oshxonalarda taom tayyorlashning o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, u erda barcha jarayonlar bir kunlik tsiklga ega. Mahsulot olish, ovqat tayyorlash va uni sotish bir kunning o'zida bajariladi. Har kuni oshxonada tayyorlangan taomlarning tannarxi aniqlanadi. Buning uchun maxsus tannarx hisoblash kartochkasi tuziladi. Bunda taom tayyorlashda ishlatilgan mahsulotlarning nomi, ularning xarajat normasi, tannarxga qo'shiladigan chakana bahosi va mahsulotlarning shu baholardagi qiymati ko'rsatiladi. Bir portsiya taomning sotish narxini topish uchun barcha sarflangan mahsulotlar qiymatidan foydalansa, yoki sotsa bo'ladigan chiqindilar qiymatini olib tashlab qolgan summaga oshxona xarajatlarini qo'shib (mehnat haqi va boshqa xarajatlar) ustama narx qo'shib hosil bo'lgan summani jami tayyorlangan taomlar portsiyasiga bo'lish kerak. Qo'shiladigan ustama narx to'g'ri xarajatlarga nisbatan foiz hisobida belgilanadi.

Oshxona va bufetlardan sotilgan taomlar qiymatini hisobdan chiqarish uchun har kuni ish kunining oxirida oshxonadan taomlar sotilganligi to'g'risida dalolatnoma tuziladi. Dalolatnomada tayyorlangan taomlar nomi, ularni sotish narxi, qanchasi sotilganligi ko'rsatiladi. Ushbu dalolatnoma oshxona mahsulotlari harakati to'g'risidagi hisobot bilan birga belgilangan muddatda buxgalteriyaga topshiriladi. Bu hujjatlarga asosan oshxona va bufetlarda sotilgan taomlarning haqiqiy tannarxi quyidagi o'tkazma bilan hisobdan chiqariladi.

Dt 9130-«Bajarilgan ishlar va ko'rsatilgan xizmatlar tannarxi»

Kt 2730-«Oshxona (bufet)lar».

Taomlarni sotishdan tushgan pul kiringa olinganda:

Dt 5010-«Milliy valutadagi pul mablag'lari»

11.2. Umumiy ovqatlanish korxonalarida mahsulot tannarxini kalkulyatsiyalash

Umumiy ovqatlanish korxonalarida mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilish tartibini «Mashhura» xususiy korxonasiga qarashli oshxonada milliy taomlarimizdan biri - palov tannarxini hisoblashni quyidagi misolda ko`rib chiqamiz.

11.2.1-jadval. «Mashxura» xususiy korxonasida palov tannarxi kalkulyatsiyasi (20 portsiya palov uchun)

Xarajatlar mazmuni	Miqdori	Bahosi	summasi
Mehnat haqi va unga tenglashtirilgan majburiy ajratmalari bilan			1250,00
Masalliqlar:			
Guruch	4,0	600,00	2400,00
Go`sht	1,0	2500,00	2500,00
Sabzi	2,0	150,00	300,00
O`simlik yog`i	1,0	900,00	900,00
Piyozi	0,4	200,00	80,00
Pomidor	0,5	300,00	150,00
Har xil masalliqlar			420,00
Jami masalliqlar	x	x	6750,00
HAMMA XARAJATLAR			8000,00
1 portsiya palov tannarxi			400,00
Ustama, foyda 10 %			800,00
QQS 20 %			1760,00
Sotish bahosi			10960,00
1 portsiya palovni sotish bahosi			548,00

1 portsiya oshning sotish bahosi yuqoridagidan ko`p yoki kam bo`lishi mumkin. Unga masalliqlar qiymatini o`zgarishi va foyda foizini o`zgarishi sabab bo`lishi mumkin.

11.3. Xizmat ko`rsatish korxonalarida mahsulot tannarxi kalkulyatsiyasi

Korxona balansida turadigan **uy-joy kommunal xo`jaligiga** jamoat uy-joy fondi, yotoqxonalar, kommunal xo`jaligi maqsadli

tushumlar hisobidan bajariladigan xizmatlarga doir muomalalar 2710-«Uy-joy kommunal xo`jaligi»^{*} schetida hisobga olinadi.

Bu schet bo`yicha quyidagi analitik schetlar ochiladi.

1. Uy-joy fondi va yotoqxonalardan foydalanish;
2. Maqsadli yig`imlar va xarajatlar.

Birinchi analitik schetlar xarajatlari quyidagi moddalar bo`yicha hisobga olinadi:

1. Asosiy va qo`shimcha ish haqi, ijtimoiy sug`urta ajratmalari bilan birga (navbatchilar, montyor, santexnik, uy-joy xo`jaligi mudiri, hisob xodimlari, qorovul, farrosh, komendant va boshqalar).

2. Uy-joy xo`jaligini saqlash (qor tozalash, axlatlarni tashib chiqarish, tom va yo`laklarni tozalash, texnika xavfsizligi va boshqalar) xarajatlari.

3. Asosiy vositalarni asrash (amortizatsiya va ta'mirlash) xarajatlari.

5. Boshqa xarajatlar (yuqoridagi xarajat moddalariga kirmaydigan xarajatlar).

Bu xarajatlar qilinganda 2710-«Uy-joy kommunal xo`jaligi» scheti debetlanib, quyidagi schetlar kreditlanadi:

1010-1090 schetlar – sarflangan xomashyo, yoqilg`i, inventar va xo`jalik jihozlari va boshqa qiymatliklar summasiga;

2310-scheti – yordamchi ishlab chiqarishlar ko`rsatgan xizmatlari qiymati;

6010-scheti – chet tashkilotlarning ko`rsatgan xizmatlari (suv, bug`, energiya va h.k.) qiymatiga;

6510-scheti – sug`urta xarajatiga;

6520-scheti – ijtimoiy sug`urtaga ajratilgan summaga;

6990-scheti – turli korxonalar tomonidan ko`rsatilgan xizmatlar uchun ularga hisoblangan summaga;

6710-scheti – xodimlarga hisoblangan mehnat haqi summasiga;

0210-0299-schetlari – asosiy vositalarga hisoblangan amortizatsiya summasiga;

8910-scheti – asosiy vositalarni ta'mirlash uchun tashkil etilgan rezerv summasiga «Uy-joy fondi va yotoqxonalardan foydalanish» analitik schetining kreditida kvartira va yotoqxonalarda turuvchilardan olinadigan kommunal xo`jaligini daromadlari (kvartira haqi va uy-joy xo`jaligining boshqa daromadlari) hisobga olinadi.

^{*} 2700-«Xizmat ko`rsatuvchi xo`jaliklar» schetlar guruhida ochish tavsiya qilinadi

2710-«Uy-joy kommunal xo`jaligi» scheti bo`yicha ochilgan ikkinchi «maqsadli yig`imlar va xarajatlar» analitik schetida xarajatlar markaziy isitish, suv ta'minoti, kanalizatsiya va shu kabilar bo`yicha alohida hisobga olinadi. Bu xizmatlarni bir qismi (suv ta'minoti, bug` ta'minoti, chuqurlarni tozalash vash u kabilar)ni korxonaning yordamchi ishlab chiqarishlari bajarishi mumkin.

**Maishiy xizmat ko`rsatuvchi va tikuv ustaxonalarida xarajatlar hisobi.** Korxonalarning balansida hisobga olinadigan maishiy xizmat ko`rsatuvchi va tikuv ustaxonalariga poyafzal ta'mirlash ustaxonalari, kiyim-kechak tikadigan va tuzatadigan ustaxonalar va shu kabilar kiradi. Bu ustaxonalarning xarajatlari va ulardan tushadigan daromadlar 2700-«Xizmat ko`rsatuvchi xo`jaliklar» schetlar guruhi bo`yicha har bir ustaxona va boshqa maishiy xizmat ko`rsatuvchi muassasalar bo`yicha alohida ochilgan analitik schetlarda yuritiladi.

Kiyim-kechak tikadigan va ta'mirlaydigan ustaxonalar xarajatlari quyidagi moddalar bo`yicha hisobga olinadi:

1. Asosiy va qo`shimcha ish haqi ijtimoiy sug`urta ajratmalari bilan;
2. Xom-ashyo va materiallar;
3. Elektr ta'minoti;
4. Asosiy vositalarni saqlash xarajatlari;
5. Boshqa xarajatlar.

Mavzuni o`zlashtirish uchun zarur tayanch tushunchalar:

Masalliqalar, umumiy ovqatlanish korxonalari xarajatlari, umumiy ovqatlanishda ishlab chiqarish tsikli, xizmat ko`rsatish korxonalari xarajatlari, tikuvchilik xarajatlari, xizmatlar tannarxi.

Mavzuni mustahkamlash uchun nazorat savollari:

1. Umumiy ovqatlanish xarajatlarining turlari qanday?
2. Umumiy ovqatlanish xarajatlarini hisobga olishning o`ziga xos xususiyatlari nimada?
3. Xarajatlarni hisoblashni kompyuterlashtirish xususiyatlari nimada?
4. Umumiy ovqatlanishda taomlar tannarxini hisoblashning qanday yo`llarini bilasiz?
5. Xizmat qiluvchi ishlab chiqarish va xo`jaliklar xarajatlarini hisobga olish tartibi qanday?

6. Maishiy xizmat ko`rsatish shaxobchalari xarajatlarini hisobi qanday amalga oshiriladi?
7. Tikuv ustaxonalari xarajatlari tartibi qanday?

XII-MAVZU. YORDAMCHI ISHLAB CHIQARISH KORXONALARI MAHSULOTLARI TANNARXI KALKULYATSIYASI

1. YOrdamchi ishlab chiqarish sohalarida bajarilgan ish va xizmatlar tannarxini hisoblash
2. Ta'mirlash ustaxonalari xarajatlarining hisobi
3. Avtomobil transportidan va ot ulov transportidan foydalanish xarajatlarini hisobga olish
4. Elektr va issiqlik ta'minoti, suv va gaz ta'minoti xarajatlarini hisobini kalkulyatsiyasi

12.1. YOrdamchi ishlab chiqarish tarmoqlarida bajarilgan ish va xizmatlar tannarxini hisoblash

Iqtisodiyot tarmoqlaridagi mavjud korxonalarda asosiy tarmoqlarga xizmat ko'rsatuvchi bir qancha yordamchi ishlab chiqarishlar mavjud. Bularga ta'mirlash ustaxonalari, yuk avtotransporti, ot-arava transporti, va boshqalar kiradi.

Umumxo'jalik xarajatlari quyidagi moddalarda guruhlanib hisobga olinadi: boshqaruv apparati xodimlarning ish (mehnat) haqi ijtimoiy sug'urta ajratmalari bilan; xizmat safari xarajatlari; bank kreditlari uchun foizlar; safar otlarini saqlash; umumxo'jalik ahamiyatiga ega bino, inshoot va inventarlarning amortizatsiyasi; saqlash va ta'mirlash xarajatlari; kadrlar tayyorlash, korxonani qo'riqlash va umumxo'jalik tavsifidagi boshqa xarajatlari; xo'jalik hisobidagi boshqaruv organlarini saqlash uchun ajratmalar, umumxo'jalik unumsiz xarajatlari.

Umumxo'jalik xarajatlari moddalari umum ishlab chiqarish xarajatlari moddalariga o'xshash bo'lib, ishlab chiqarishni tashkil etish va boshqarishni faqat ayrim brigada (ferma), tsex va tarmoqlarda emas, balki butun xo'jalik miqyosida hisobga olish bilangina farq qiladi.

Xo'jaliklararo korxonalarning umumxo'jalik xarajatlari ham shu moddalar bo'yicha hisobga olinadi.

Ishlab chiqarishni tashkil etish va boshqarish xarajatlari hisobining vazifalariga quyidagilar kiradi:

muomalalarni hujjatlarda to'g'ri rasmiylashtirish, xarajatlarni ularning turlari va moddalari bo'yicha o'z vaqtida va aniq hisobga olish, mamuriy - boshqaruv xarajatlarining belgilab qo'yilgan normalariga

rioya qilishni va bu xarajatlarni kamaytirish ustidan nazorat qilish, xarajatlarini asosiy ishlab chiqarishning xarajat ob'ektlariga to'g'ri taqsimlash.

Qishloq xo'jalik korxonalari asosiy tarmoqlaridan tashqari yordamchi ishlab chiqarishlarga ham ega bo'lib, ular asosiy ishlab chiqarishni rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi va bu ishlab chiqarish xarajatlari katta salmoqqa ega. Yordamchi ishlab chiqarishlarning xususiyati shundaki, ular mahsulot ishlab chiqar- maydilar, asosiy tarmoqlar uchun ish va xizmat bajaradilar. Yordamchi ishlab chiqarishlarga ta'mirlash ustaxonasi, avtomobil transporti, ot-ulov transporti, elektr-issiqliq, suv-gaz ta'minotlari va boshqa ishlab chiqarishlar kiradi.

Yordamchi ishlab chiqarishlar va kapital ta'mirlash xarajatlari **2300** - «Yordamchi ishlab chiqarishlar» sintetik schetida hisobga olinadi. Bu schetda har bir yordamchi ishlab chiqarish uchun alohida schet ochiladi.

2300-schet kalkulyatsion schet bo'lib, uning debetida yordamchi ishlab chiqarishlarga qilingan xarajatlari, kreditida esa reja tannarxida baholangan: bajarilgan ishlar va ko'rsatilgan xizmatlar hamda haqiqiy tannarx o'rtasidagi farqlar hisobga olinadi.

Yordamchi ishlab chiqarishlar, mashina- traktor parkini saqlash va undan foydalanishning analitik hisobi yuritiladi. Ta'mirlash ustaxonasi xarajatlarini hisobga olish jurnali, yuk avtotransporti ishlar hisobining yig'ma qaydnomasi, ish vaqtini hisobga olish tabeli va boshqa hujjatlar asosida tuziladi.

Shaxsiy schetda xarajatlari belgilangan xarajat moddolari bo'yicha korrespondentsiyalanuvchi schetlar ko'rsatilib, hisobga olinadi.

12.2. Ta'mirlash ustaxonalarida xarajatlari hisobi

Korxonaning o'z ustaxonasida traktorlar, kombaynlar, qishloq xo'jalik mashinalari, avtomashinalar va qurilmalarni joriy va kapital ta'mirlash ishlari amalga oshiriladi. Bundan tashqari, u erda murakkab bo'lmagan ehtiyot qismlar, inventarlar tayyorlanadi va boshqa ishlar bajariladi.

Traktorlar, mashinalar va qurilmalarni joriy va kapital ta'mirlash, inventarlar, ehtiyot qismlar, moslamalar tayyorlash hamda boshqa ishlarga doir ta'mirlash ustaxonasida qilinadigan barcha xarajatlari 2310-«Ta'mirlash, ishlab chiqarish» schetida ro'yxatga olinadi.

Ta'mirlash ustaxonasi xarajatlari quyidagi moddalar bo'yicha hisobga olinadi:

1. Mehnat haqi xarajatlari ijtimoiy sug'urta ajratmalari bilan.
2. Ishlar va xizmatlar.
3. Asosiy vositalarni saqlash xarajatlari.
4. Ishlab chiqarishni tashkil etish va boshqarish xarajatlari.
5. Sug'urta to'lovlari.
6. Boshqa xarajatlar.

«Mehnat haqi xarajatlari ijtimoiy sug'urta ajratmalari bilan» moddasida tegishli hujjatlar (tabel, yig'ma qaydnoma)ga asosan ustaxona xodimlariga hisoblangan ish haqi, ijtimoiy sug'urta ajratmasi, ta'til haqi va boshqa qo'shimcha haqlar hisobga olinadi. «Ishlar va xizmatlar» moddasida ta'mirlash ustaxonasi ehtiyojini ta'minlaydigan, o'z korxonasi yordamchi ishlab chiqarishlari (avtomobil va ot ulov transporti, elektr ta'minoti, gaz ta'minoti, suv ta'minoti va h.k) xizmati aks ettiriladi. «Asosiy vositalarni saqlash xarajatlari» moddasida hisobga olinadigan dvigatel quvvati qiymati bu moddaga kiritilmaydi.

«Asosiy vositalarni saqlash xarajatlari» moddasiga ta'mirlash ustaxonasida ishlatiladigan asosiy vositalarga xizmat ko'rsatish va ulardan foydalanish, amortizatsiya, joriy ta'mirlash uchun normativ ajratmalar kiritiladi.

«Ishlab chiqarishni tashkil etish va boshqarish xarajatlari» moddasida ta'mirlash ustaxonasi miqyosida qilinadigan umumiy xarajatlar hisobga olinib, yil oxirida ta'mirlangan ob'ektlar qiymatiga munosib ravishda taqsimlanadi. «Sug'urta to'lovlari» moddasida ta'mirlash ustaxonasi binosi qurilmalarining davlat majburiy sug'urtasi bo'yicha to'lovlari aks ettiriladi.

«Boshqa xarajatlar» moddasida ta'mirlash ustaxonasida bajariladigan, asosiy vositalarni ta'mirlash bilan bevosita bog'liq bo'lgan, lekin yuqorida ko'rsatilgan moddalarning birortasiga kiritilmagan xarajatlar aks ettiriladi.

Ta'mirlash ishlari bo'yicha bevosita xarajatlar ta'mirlash ustaxonasi xarajatlarini hisobga olish jurnalida yuritiladi. Bu jurnalda ta'mirlashlar (ishlar) va tayyorlanayotgan buyumlar nuqsonlar qaydnomasi limit-zabor kartalari, nakladnoylar, naryadlar va boshqa dastlabki hujjatlar asosida har bir ta'mirlanayotgan mashina (traktor, kombayn, avtomashina va h.k.) boshqa xo'jalik mashinalari bo'yicha buyumlar va inventarlar tayyorlashga oid ishlar bo'yicha hisobga olib boriladi.

Bevosita brigadalarda bajarilgan ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatishga oid xarajatlar ham shu jurnalda hisobga olinadi.

Ta'mirlash ustaxonasining tsex xarajatlari belgilangan moddalar bo'yicha alohida analitik schetlarda hisobga olinadi.

Yil davomida bajarilgan ta'mirlash ishlarining haqiqiy tannarxini aniqlash hamda ta'mirlash ustaxonasi bajargan ishlar va xizmatlarni iste'molchilarga taqsimlash (butun xo'jalik bo'yicha) uchun har oyda hisobga olingan bevosita xarajatlar ustiga ta'mirlash ustaxonasi tsex xarajatlari reja o'lchovida qo'shib boriladi. Yil oxirida tsex xarajatlari haqiqiy summa darajasiga etkaziladi, unda ularning bir qismi tugallanmagan ishlab chiqarishga olib boriladi.

Ta'mirlash ustaxonalarida xarajatlar hisobini bunday tashkil qilish bevosita xarajatlarni tejaganliklari hamda yuqori sifatli bajarilgan ta'mirlash ishlari uchun mukofotlashga oid zarur ma'lumotlar olish imkonini beradi.

Ta'mirlash ustaxonalari ishlarini hisobga olish jurnalida guruhlangan bevosita xarajatlar alohida moddalar bo'yicha ta'mirlash ustaxonasining shaxsiy schetiga o'tkaziladi. Shaxsiy schetda har oyda ta'mirlash ustaxonasiga oid umumishlab chiqarish xarajatlari (tsex xarajatlari) ham moddalari bo'yicha o'tkazib boriladi. Ishlar xo'jalik usulida ta'mirlash ustaxonasidan tashqarida bajarilganida ta'mirlashdan qaytib olgan materiallar 1000-«Materiallar» schetiga tegishli schetning debeti va 2300-«YOrdamchi ishlab chiqarishlar» schetining kreditida aks ettirilib, ta'mirlash xarajatlarning kamayishiga olib keladi.

Pudrat usulida bajarilgan ta'mirlash ishlarining hisobi, xo'jalik usuli bilan bajarilgan ishlar hisobi bilan deyarli o'xshash. Faqat ishlar pudrat usulida bajarilganda xarajatlar hisobi moddalarga ajratilmasdan, pudratchi tashkilotlarning aktseptlangan schetiga muvofiq bir butun modda bilan 2300-schet debeti va 6000-«Mol etkazib beruvchi va pudratchi bilan hisob-kitoblar» schetining kreditida aks ettiriladi.

Yil oxirida 2300-«YOrdamchi ishlab chiqarish» schetining «Ta'mirlash ishlab chiqarish» schetida asosiy vositalarning tugallanmagan joriy va kapital ta'mirlashga doir xarajatlari hamda ehtiyot qismlar, inventar va asosiy vositalarni tayyorlash bo'yicha tugallanmagan xarajatlar qoladi.

12.3. Avtomobil transportidan va ot ulov transportidan foydalanish xarajatlarini hisobga olish

Qishloq xo'jalik korxonalarida yuk va ulardan foydalanish xarajatlari 2300-schetning 2320-«Avtomobil transporti» schetida hisobga olinadi. Avtomobil transportini saqlash va ulardan foydalanish xarajatlarining analitik hisobi quyidagi moddalar bo'yicha hisobga olinadi.

1. Mehnat haqi ijtimoiy sug'urta ajratmalari bo'yicha hisobga olinadi.

2. Ishlar va xizmatlar.

3. Asosiy vositalarni saqlash xarajatlari.

4. Ishlab chiqarishni tashkil etish va boshqarish xarajatlari.

5. Sug'urta to'lovlari.

6. Boshqa xarajatlari.

Avtomobil transportlariga sarflangan yoqilg'i va bajargan ishlar yuk va engil avtomobillarning yo'l varaqasida aks ettiriladi. Yangi yo'l varaqasini olishdan oldin haydovchi eskisini topshirishi lozim.

Haydovchilarga mehnat haqi ishbay va vaqtbay tizimida hisoblanadi. Shuning uchun yo'l varaqasi ham ikki xil bo'ladi;

4-P-shakl ishbay haq to'lashda qo'llaniladigan yo'l varaqasi. Bundan tashqari, yuk avtomashinalari bir sutkadan ortiq yo'l yuradigan, uzoq joylarga yuborilsa, u holda 4-m shakldagi shaharlararo yuk tashish yo'li varaqasi tuziladi.

Yo'l varaqalarida tashilgan yuk miqdori sarflangan yoqilg'i va moylash materiallari, bosib o'tilgan yo'l, hisoblangan mehnat haqi va boshqa ko'rsatkichlar aks ettiriladi. Yo'l varaqalaridan to'liq rasmiylashtirib, tegishli shaxslar imzolaganlaridan so'ng, ulardagi ma'lumotlar har bir avtomashinalar haydovchilik bo'yicha buxgalteriyada tuziladigan yuk avtotransport ishlarining yig'ma qaydnomasiga xo'jalikning tarmoqlari, tarkibiy bo'linmalari va hisob ob'ektlari bo'yicha o'tkazib boriladi.

Xo'jalik bo'yicha barcha tuzilgan shunday qaydnomalar jamlanib yuk avtotransport ishlarining jamlama qaydnomasida guruhlanadi.

Yuk avtotransport vositalari va bajargan ishlarining analitik hisobi ham shaxsiy schetda yuritiladi. Shaxsiy schet avtotransport ishlarining jamlama qaydnomasi asosida tuziladi. Shaxsiy schetda yuk, yo'lovchilar va maxsus avtotransport hamda tsex xarajatlari alohida analitik schetlarda aks ettiriladi.

Tannarx yuk avtotransporti bo'yicha tonna-km, yo'lovchi tashiydigan va maxsus avtotransportlar bo'yicha mashina-kun birliklarida hisoblanadi.

Bir tonna-km haqiqiy tannarxi yil oxirida yuk avtotransporti bo'yicha jami xarajatalarning tonna-km lar miqdoriga bo'lib, yo'lovchi tashiydigan va maxsus transportlar bo'yicha esa tegishli xarajatlar summasi ishlangan mashina kunlar soniga bo'lib topiladi.

Hisoblab topilgan tashilgan yuk bir tonna-km va ishlangan mashina kun haqiqiy tannarxi tafovuti aniqlanadi. So'ngra reja tannarxi haqiqiy tannarx darajasiga etkaziladi.

Yuk avtotransportining boshqa yordamchi ishlab chiqarishlarga (ta'mirlash ustaxonasi, elektrostantsiyasi va h.k.) bajargan ishlarning reja tannarxi haqiqiy tannarx darajasiga etkazilmaydi. Shuning uchun ham bir tonna-km ning haqiqiy tannarxini hisoblaganda jami tonna-km lardan boshqa yordamchi ishlab chiqarishlarga bajarishlarga tonna-km lar chegirib tashlanib, qolganiga yuk avtotransporti bo'yicha jami xarajat bo'linadi. Hisoblab topilgan tannarx tafovuti xo'jalik bo'yicha jami yil davomida bajarilgan ish hajmiga ko'paytarilib, tegishli xarajat ob'ektlariga qo'shimcha ravishda olib borilishi (ortiqcha sarflanganda) lozim bo'lgan summa topiladi.

Qishloq xo'jalik ishlab chiqarishda ot-ulov transportini barcha turdagi ishchi hayvonlar (ot, tuya, ho'kiz va boshqalar) bo'yicha «Ot - ulov transporti» schetida quyidagi moddalar bo'yicha hisobga olinadi;

1. Asosiy va qo'shimcha ish haqi ijtimoiy sug'urta ajratmalari bilan birga.
2. Hayvonlarni himoya qilish vositalari.
3. Ishlar va xizmatlar.
4. Asosiy vositalarni saqlash vositalari.
5. Sug'urta to'lovlari.
6. Boshqa xarajatlar.

Qilingan xarajatlar va ot-ulovlarning bajargan ishlari, ulardan olingan yordamchi mahsulotlarni guruhlash uchun har oyda yig'ma qaydnoma yoki ish va xarajatlarni hisobga olib, jurnal to'lg'azib boriladi. Ushbu vedemost yoki jurnalga ma'lumotlar tegishli dastlabki hujjatlar (mehnatni va bajarilgan ishlarni hisobga olish varaqasi, brigadirning daftarchasi, em-xashak sarflash qaydnomasi va boshqalar) dan olib yoziladi. Oy oxirida yig'ma qaydnoma yoki ish va xarajatlarni hisobga olish jurnalida moddalari bo'yicha hisobga olingan ma'lumotlar jamlanib, shaxsiy schetning tegishli bo'limiga o'tkaziladi.

Ot-ulov transporti xizmatlari (bir ish kunining reja tannarxida hisoblanib) har oyda qaysi ishlab chiqarish turiga ish bajarilgan bo'lsa, shu ishlab chiqarishni hisobga oladigan schet debetiga olib boriladi.

Yil oxirida ot-ulov transporti bajargan ishlarning reja tannarxi (o'zi uchun va boshqa yordamchi ishlab chiqarishlar uchun bajarilgan ishlar chegirib tashlanib) haqiqiy tannarx darajasiga etkaziladi.

Ish kunining haqiqiy tannarxi, yil oxirida ot-ulov transporti xarajatlari yig'indisini bajarilgan ish kunlarining umumiy miqdoriga o'z-o'ziga xizmat ko'rsatish, ya'ni em- xashak, suv va hokazolarni tashib keltirish ish kunlarini chegirib tashlab bo'lish yo'li bilan aniqlanadi.

12.4. Elektr va issiqlik, suv va gaz ta'minoti xarajatlari kalkulyatsiyasi

Qishloq xo'jalik korxonalarida ishlab chiqarish, uy-joy xo'jaligi va madaniy maishiy ehtiyojlar uchun elektr va issiqlik quvvatlari sarflanadi.

Elektr va issiqlik quvvati xo'jalikning o'zida ishlab chiqiladi yoki chetdan olinishi mumkin. Xo'jalikning o'z elektr stantsiyasida ishlab chiqilgan yoki chetdan olingan elektr quvvati **elektr quvvatidan foydalanish to'g'risida** hisobotda aks ettiriladi. Hisobotni muhandis - elektrchi va elektro-montyor tuzadi va korxona rahbari tasdiqlaydi.

Xo'jalik va elektrostantsiyasi hamda chetdan olingan elektr va issiqlik energiyalarining xarajatlari «Elektr ta'minoti» va «Issiqlik ta'minoti» degan schetlarda quyidagi moddalar bo'yicha hisobga olinadi.

1. Mehnat haqi, ijtimoiy sug'urta ajratmalari bilan birga
2. Ishlar va xizmatlar.
3. 3 Asosiy vositalarni saqlash xarajatlari.
4. Sug'urta to'lovlari.
5. Boshqa xarajatlar.

Chetdan olingan hamda xo'jalikning o'zida ishlab chiqarilgan elektr va issiqlik energiyasi 1 kilovatt-soat elektr energiyasi va issiqlik energiyasi birligining reja tannarxi bo'yicha baholanib, ishlab chiqarish va boshqa xarajatlarni hisobga oladigan schetlar debeti va 2310-schetning «Energetik ishlab chiqarish (xo'jaligi)» schetining krediti yil davomida hisobga olib boriladi.

Elektr va issiqlik energiyasi xo'jalikning o'z elektr stantsiyasi va qozonxonalarida ishlab chiqarilganda, xarajatlarning analitik hisobi

ishlab chiqarish turlari va belgilangan xarajat moddalar bo'yicha shaxsiy schetda yuritiladi.

Chet tashkilotlardan olingan elektr va issiqlik energiyalari alohida moddalar bilan aks ettiriladi.

Yil oxirida 1 kilovatt-soat elektr energiyasi va issiqlik energiyasi birligining haqiqiy tannarxi aniqlanadi. Buning uchun xarajatlarni tegishli ravishda elektr va issiqlik miqdoriga bo'linadi. So'ng yil davomida tarmoqlar bo'yicha sarflangan elektr va issiqlik energiyasining rejadagi tannarxi haqiqiy tannarx darajasiga o'tkaziladi.

Suv ta'minoti xarajatlarning hisobi kalkulyatsiyasi. Ko'pchilik xo'jaliklar suvga bo'lgan ehtiyojini qondirish uchun nasos stantsiyalari, suv chiqargichlar, artezian quduqlar, suv o'tkazgichlar va boshqa qurilmalardan foydanadilar. Ularni saqlash xarajatlarni 2310-schetning «Suv ta'minoti» schetida «Energetik ishlab chiqarish (xo'jaligi)» schetidagi kabi xarajat moddalari bo'yicha olinadi.

Qilingan xarajatlarni oy davomida tegishli hujjatlarga asosan suv ta'minoti hisobga olish daftariga yozib boriladi. Oy oxirida suv ta'minoti uchun mas'ul shaxs tomonidan xarajatlarni va tarmoqlar bo'yicha sarflangan suv to'g'risida tuzilgan hisobot ma'lumotlari 2310-schetning «Suv ta'minoti» schetida aks ettiriladi.

Suv ta'minoti bo'yicha qilingan xarajatlarni summasiga 2310-schetning «Suv ta'minoti» scheti debetlanib, tegishli schetlar (6700, 6500, 1000, 2300, 2500 schetlar) kreditlanadi.

Yil oxirida suv ta'minoti bo'yicha qilingan barcha xarajatlarni foydalanilgan suvni miqdori (kub metr) ga bo'lish yo'li bilan 1kubometr suvning haqiqiy tannarxi aniqlanadi. Bunda paxta va sholiga, ferma va yaylovlarga suv chiqaradigan nasoslarga qilingan xarajatlarni tegishli o'simlikchilik va chorvachilik tarmog'i xarajatiga olib boriladi.

Suv ta'minotining analitik hisobi ham shaxsiy schetda yuritiladi.

Gaz ta'minoti va sovutgichlar xarajatining hisobi kalkulyatsiyasi. Qishloq xo'jalik korxonalarida gaz ta'minoti va muzlatgich qurilmalarining xarajatlari 2300-«Energetika ishlab chiqarish (xo'jaligi)» schetida smeta (rejada belgilangan moddalar bo'yicha) hisobga olinadi.

Gaz ta'minotining tannarxi iste'molchilarga berilgan bir kubometr gaz, muzlatgich qurilmalariniki esa bir saqlash-tsentr, kuni birliklarida hisoblanadi.

Iste'mol qilingan gaz miqdori bir kub metrning reja tannarxi bo'yicha baholanib, iste'molchilar schetlariga olib boriladi. Yil oxirida

iste'mol qilingan bir kubometr gazning haqiqiy tannarxi aniqlangandan so'ng reja tannarxi haqiqiy tannarx darajasiga etkaziladi.

Muzlatgich qurilmalari bo'yicha saqlash - tsentner-kuni reja tannarxi bo'yicha baholanib, har oyda mahsulotlar saqlangan iste'molchilar schetlariga olib boriladi.

Saqlash - tsentner-kunining reja tannarxi yil oxirida butun xo'jalik bo'yicha haqiqiy tannarx darajasiga etkaziladi.

Gaz ta'minoti va muzlatgich qurilmalari xarajatlarining analitik hisobi ham shaxsiy schetda alohida analitik schet ochib hisobga olinadi.

Mavzuni o'zlashtirish uchun zarur tayanch tushunchalar:

YOrdamchi ishlab chiqarish, avtotransport korxonalari xarajatlari, avtotransportlarning eskirishi, boshqaruv apparati xarajatlari, umumxo'jalik xarajatlari, mashina-traktor parki xarajatlari, ta'mirlash ustaxonalari xarajatlari, elektr, issiqlik, gaz va suv ta'minoti xarajatlari.

Mavzuni mustahkamlash uchun nazorat savollari:

1. YOrdamchi ishlab chiqarish xarajat turlariga nimalar kiradi?
2. Bajarilgan xizmat va ishlarni tannarxini kalkulyatsiyalash tartibi qanday?
3. Avtomobil transporti xarajatlarini hisobi va t/km ni tannarxi kalkulyatsiyasini hisoblash tartibi qanday?
4. Elektr, gaz, issiqlik energiyasi tannarxini kalkulyatsiyasi xususiyatlari nimada?
5. Suv ta'minoti xarajatlari tarkibini aytib bering?

Amaliy mashg'ulot.

YOg'ochni qayta ishlashga ixtisoslashgan kichik korxonaning bir yillik faoliyati bo'yicha quyidagi ma'lumotlar berilgan:

- ⇒ Sotib olingan yog'och (xomashyo) tannarxi – 59.100.000 so'm;
- ⇒ YOg'och tilishga (mahsulot ishlab chiqarish) qilingan yillik xarajatlar – 29.900.000 so'mni tashkil etdi.
- ⇒ YOg'och tilishdan quyidagi materiallar olingan:
 - 1-navli yog'och taxta – 250 m^3 (1,0);
 - 2-navli yog'och taxta – 320 m^3 (0,8);

- 3-navli yog`och taxta – 160 m^3 (0,7);
- 4-navli yog`och taxta – 100 m^3 (0,6);
- Yaroqli garbil – 160 m^3 (0,5);
- O`tin bo`ladigan garbil – 120 m^3 (0,2);

Topshiriq: Ushbularni qo`llab olingan mahsulotning haqiqiy tannarxini hisoblang.

XIII-MAVZU. MAHSULOT TANNARXI

KALKULYATSIYASINING «YANGI» TURLARI VA USULLARI

1. Standart-kost (Standart costs) tizimi bo'yicha xarajatlarni hisobga olish va mahsulotning tannarxini kalkulyatsiya qilish
2. Direkt-kosting tizimi bo'yicha xarajatlarni hisobga olish va mahsulotning tannarxini kalkulyatsiya qilish
3. Xarajatlarii hisobga olish va mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilishning me'yoriy usuli

13.1. Standart-kost (Standart costs) tizimi bo'yicha xarajatlarni hisobga olish va mahsulotning tannarxini kalkulyatsiya qilish

Mehnatni tashkil etish va ishlab chiqarishni boshqarish muammolarini echishning ob'ektiv tendentsiyalari 20-yillar boshidai AQShda qo'llaniladigan ishlab chiqarish xarajatlarini hisoblash usulini qaytadan ko'rib chiqishni taqozo qildi. Mahsulot birligining tannarxini hisoblash, narxlarni o'rnatish, xarajatlarni tezkor boshqarish va nazorat qilish uchun moddiy va mehnat xarajatlarining me'yorlari ishlab chiqila boshlandi.

Akslanishga yondoshishga muvofiq ishlab chiqarish xarajatlari hisobida qo'llaniladigai usullarni ikkita asosiy guruhga ajratish ko'zda tutildi: o'tgan xarajatlar hisobi va standartlashtirilgan xarajatlar va ulardan chetga chiqishlarning hisobi. Ishlab chiqarishga bo'lgan xarajatlar hisobi va kalkulyatsiya usullari tizimida standart xarajatlar hisobi tizimi buyurtmalararo va jarayonlararo hisobda qo'llashni ko'zlab uni mustaqil va muhimlashgan sifatida ko'rilmaydi.

Me'yor – standartlarni ishlab chiqish. ishlab chiqarishning boshlanishigacha standart kalkulyatsiyalarni tuzish va to'plam sifatida tizimlashgan standartlardan chetga chiqishlarni ajratish bilan haqiqiy xarajatlarning hisobi «standart-kost» tizimi nomini oldi.

«Standart» – mahsulot birligini ishlab chiqarish uchun kerak bo'lgan moddiy va mehnat xarajatlarining miqdori yoki mahsulot, xizmat, ish birligini ishlab chiqarish uchun oldindan hisoblab chiqilgan moddiy va mehnat xarajatlarini; «kost» – mahsulot birligini tayyorlash uchun ishlab chiqarish xarajatlarining pul ko'rinishini aks ettiradi.

Amerika adabiyotida standart-kost tizimiga har xil tushunchalar beriladi, bu tushunchaga har xil mazmun kiritiladi. Lekin xamma

hollarda ham bu tizim ishlab chiqarishning to'g'ri xarajatlarini tartibga solishga qaratilgan nazorat vositasi sifatida tavsif qilinadi.

Standart-kost tizimining ustunliklari quyidagilardan iborat:

a) ishlab chiqarish va buyumlarning sotilishi bo'yicha kutiladigai xarajatlar haqidagi ma'lumot bilan ta'minlash;

b) mahsulot birligining oldindan hisoblab chiqilgan tannarxi asosida narxni o'rnatish;

v) me'yorlardan chetga chiqishlar va ularning vujudga kelish sabablarini ko'rsatib daromad va sarflar haqidagi hisobotni tuzish.

Kutiladigan xarajatlar firma-ichida hisoblab chiqilgan standartlar (me'yor va me'yorlashtirishlar) asosida aniqlanadi. Bu standartlar tizim funktsiyalanishining asosi bo'ladi va uning mazmunini ochadi.

Standartlarning butun yig'imi quyidagi guruhlariga bo'linadi:

1. Hisobga olinadigan baholarning darajasiga muvofiq.

- Ideal: materiallar, xizmatlarga bo'lgan tariflar, mehnatga haq to'lashga bo'lgan darajalarni va ustama sarflarning smeta darajalariga bo'lgan eng ma'qul narxlarni ko'zlaydi.
- Me'yoriy: iqtisodiy tsikl mobaynida o'rtacha narxlar bo'yicha hisoblab chiqiladi.
- Joriy: ma'lum hisob davrida kutilayotgan va bu davrda harakatda bo'lgan narxlar asosida hisoblashni ko'zlaydi.
- Bazis: yil boshida o'rnatiladi va yil davomida o'zgarmay qoladi. Odatda, ulardan narxlar indeksini hisoblash uchun qo'llaniladi.

2. Quvvatdan foydalanish darajasiga nisbatan.

- Nazariy: ulardan yaxshi yoki ideal foydalanishda sub'ekt tomonidan erishiladigan natija. Ular sub'ektning maqsadi hisoblanadi, quvvatdan to'liq foydalanish. dam olish vaqtining meyorlangan qiymatiga asoslangan, yaroqsiz, turib qolishlar, buzilishlarga vaqt sarflashni ko'zda tutmaydi.
- O'tgan o'rtacha bajarish: statistik ma'lumotlar bo'yicha hisoblanadi va yaroqsiz, turib qolishlar va buzilishlarga sarflangan vaqtni hisoblaydi, yani oldingi davrning hamma kamchiliklarini nazarda tutadi.
- Me'yoriy bajarish: kelajak davrda meyorlarning kutilayotgan o'rchacha darajasini ko'zda tutadi.

3. Mahsulot chiqarish hajmiga nisbatan.

- Mahsulotning ishlab chiqarish hajmi standartlarni ishlab chiqarishga yondashishga birinchi darajada ta'sir ko'rsatadi.
- Nazariy: sub'ektning nazariy quvvatiga asoslangan holda oldindan

belgilangan. Ularga yoki erishib bo'lmaydi, yoki bir martalik tartibda erishiladi.

- Amaliy: yaxshi bajarilishda sub'ekt tomonidan erishiladi, ular o'z darajasi bilan yaxshi bajarilishda nazariy standartlarga yaqin, ishlab chiqarishning real erishiladigan darajasiga asoslangan va qochish imkoniyati bo'lmaydigan yo'qotishlarga yo'l qo'yadi.
- Meyoriy: tsikl mobaynida ishlab chiqarishning yuqori va past hajmining o'rtacha qiymatidan kelib chiqqan holda mahsulot chiqarishning erishish darajasida hisoblanadi.
- Kutilayotgan: mahsulot chiqarishning kutilayotgan hajmida ishlab chiqarishning aniq sharoitlari asosida hisoblanadi.

Mazkur tavsif Amerika firmalarida xarajatlarning moddalari bo'yicha standartlarni o'rnatishga har xil yondoshishlarning mavjudligini ko'rsatadi. Lekin har bir yondoshishda qabul qilingan standartlar buxgalteriyada ishlab chiqarish jarayoni boshlanguncha standart tannarx xaritalariga umumlashtiriladi. Kartalar buyum, shu buyumni, buyurtmani tayyorlashda ishtirok etadigan ishlab chiqarish bo'linmalari bo'yicha va buyurtmalar bo'yicha tuziladi.

Standart-kost tizimi to'g'ri xarajatlarni boshqarish vositasi sifatida namoyish qilinadi. Bu tizimning bir necha variantlaridan foydalaniladi. Bitta variantda xarajatlar «ishlab chiqarish» schetining debetida to'planadi va standart qiymat bo'yicha baholanadi, tayyor mahsulot xuddi shunday standart qiymat bo'yicha shu schetning kreditidan chiqarib tashlanadi, tugallanmagan ishlab chiqarish standart qiymat bo'yicha baholanadi. Ikkinchi variantning mazmuni «Ishlab chiqarish» schetining debetida umumlashtirilgan xarajatlar haqiqiy qiymati bo'yncha baholanishdan, schetning kreditidan esa tayyor mahsulot standart qiymat bo'yicha chiqarib tashlanishidan iborat. Tugallanmagan ishlab chiqarish haqiqiy xarajatlardan u yoki bu tomonga chiqib ketishlarni hisobga olgan holda standart qiymat bo'yicha hisoblanadi.

Haqiqiy xarajatlarning standartlardan chetga chiqishini Amerika firmalari odatda tannarxga olib bormasdai «Mahsulot, ish va xizmatlarning sotilishi» schetiga chiqarib tashlaydilar.

Sub'ektning quvvatlariga nisbatan standart-kost tizimini tashkil etish, standartlardan chetga chiqishlarni aniqlash va ularni chiqarib tashlash uslubiyati bo'yicha ishlar koordinatsiyasini standart-kost tizimi bilan bog'liq bo'lgan hamma bo'linmalarning vakillari amalga oshiradilar. Yanada yirik kompaniyalarda standartlarni tuzish, ularga

o'zgartirishlar kiritish, hisoblash va boshqalar bo'yicha barcha ishlar jamlangan standartlar bo'linmasi tuziladi.

Standart-kost tizimi amaliyotda qo'llaniladigan xarajatlarni hisoblashning boshqa tizimiga ko'ra, o'z xususiyatlariga ega. Birinchidan, vositalarni sarflash jarayonida standartlardan chiqib ketishlarni aniqlash asosi bo'lib ularni hujjatlashtirish emas, balki maxsus. schetlardagi buxgalteriya yozuvlari hisoblanadn. Ikkinchidan, aniqlashdan chetga chiqishlarni hamma kompaniyalar ham emas. joriy standartlardan foydalanadiganlari buxgalteriya hisobida aks ettiradi. Standartlardan chetga chiqishlarni aks ettirish qismida uchinchi xususiyat bo'lib chetga chiqishlarni hisobga olish uchun maxsus sintetik schetlarning kalkulyatsiya moddalarini, ustga chiqishlarning omillari bo'yicha ajratish hisoblanadi.

Standart-kost tizimining mazkur xususiyatlari shuni ifodalaydiki, xarajatlarni boshqarish maqsadida har doim bu chetga chiqishlar va ularni hisoblash uchun qanchalik muhimligi ko'rib chiqiladi; ular nimalarni ko'rsatadilar, qaysi muammolarni echishda ulardan foydalanish mumkinligi aniqlangan chetga chiqishlarning ishlab chiqarishga bo'lgan xarajatlarni tahlil qilishdagi muhimligi asosan e'tiborga olinadi.

13.2. Direkt-kosting tizimi bo'yicha xarajatlarni hisobga olish va mahsulotning tannarxini kalkulyatsiya qilish

Kalkulyatsiya qilish milliy tizimining nazariyasi va amaliyoti rivojlanayotgan bozor munosabatlari sharoitlarida bozor iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarda qo'llanilayotgan boshqaruv hisobining tashkiliy tizimlarini o'rganishga muhtoj. Bunday tizimlardan biri to'g'ri xarajatlar bo'yicha mahsulotning tannarxini kalkulyatsiya qilish tizimi hisoblanadi.

O'zgaruvchan xarajatlarni hisobga olish tizimi AQShda Buyuk depressiya davrida vujudga keldi va 50-yillarda keng tarqaldi. Buyuk depressiyadan oldin (1928 y) tayyor mahsulotning qoldiqlari to'liq xarajatlar bo'yicha hisoblangan tannarx bo'yicha baholanadigan edi. Depressiya sotilmagan mahsulotning katta zahiralarini yaratishga olib keldi, to'liq xarajatlar bo'yicha baholash esa, o'sha davr tahlilchilarining fikricha, foydani sun'iy buzishga olib kelgan. Ishlab chiqarishning hajmi va foydaning miqdoridan holi bo'lgan doimiy xarajatlarning hisobi daromadning qiymatiga ma'lum darajada ta'sir ko'rsatgan.

Tahlilchilarning fikricha, sarflangan xarajatlarning qaytishini va ishlab chiqarishning hajmini xarajatlar va foydalar aloqasi orqali hisoblash lozim. Bu yo'nalishda, o'xshashlikka ega bo'lgan o'zgaruvchan xarajatlarga bo'lish foydasiz deyilgan va egrilar bilan o'xshashlikka ega bo'lgan doimiy xarajatlarga ajratishga ijozat etilgan. Xarajatlarning yangi tizimi «direkt-kosting» nomini oldi. ,

Tizimning mazmuni – korxona ishlab chiqarish xarajatlarini kalkulyatsiya qilish uslubini ko'rib chiqishda 1936 yilda Djonatan Xarris tomonidai kiritilgan «direkt-kosting reja» mazmuniga asoslanadi.

Daromadlar va zararlar to'g'risidagi oylik hisobotning tarkibida oddiy ishlab chiqarish xarajatlari va egri ustama sarflarni chegaralash boshlandi. Ishlab chiqarish sarflarini differentsiatsiyalash daromadning hajmini, mahsulotni sotish hajmining bog'langanligini aniklashga va tannarxni boshqarishga yordam berdi. Shunday qilib, bu tizimning mazmuni quyidagilarga olib kelindi: to'g'ri xarajatlar tayyor majulotlarning turlarn bo'yicha umumlashtiriladi, egri xarajatlar esa alohida schetda to'planadi va ular vujudga kelgan davrning umumiy moliyaviy natijalariga olib boriladi. Agar har bir buyum bo'yicha tushgan daromad summasidan bu buyum bo'yicha sarflangan o'zgaruvchan xarajatlar chiqarib tashlansa unda buyum bo'yicha brutto-daromad olamiz. Hamma buyumlar bo'yicha olingan brutto-daromadni jamlab doimiy xarajatlarning umumny summasini qoplash uchun mo'ljallangan daromadning umumiy summasini olish mumkin.

Direkt-kosting tizimi bir nscha farqlovchi xususiyatlarga ega: birinchisi – ishlab chiqarish xarajatlarini o'zgaruvchan va doimiyga ajratish; ikkinchisi – mahsulot tannarxini cheklangan xarajatlar bo'yicha kalkulyatsiya qilish; uchinchisi – foydalar bo'yicha hisobotlarni tuzishning ko'p bosqichligi. Hisob jarayoni ikki bosqichda olib boriladi:

Birinchi bosqich						
«Tannarxni hisoblash»	Mahsulotning turlari	1	2	3	4	5
	Sotishdan olingan foydalar	x	x	x	x	x
	O'zgaruvchan xarajatlar	x	x	x	x	x
	Marjinal foydalar (brutto-daromad)	x	x	x	x	x
Ikkinchi bosqich						
Natijani hisoblash	Doimiy xarajatlar					x
	Ishlab chiqarishning rentabelligi				=	x
Natija:						

Birinchi bosqichda tayyor mahsulotni ishlab chiqarish hajmiining to'g'ri (o'zgaruvchan) xarajatlar bilan aloqasi o'rnatiladi, alohida turdagi mahsulotni ishlab chiqarishning rentabelligi aks ettiriladi. Ikkinchi

bosqichda bitta schetda umumlashtirilgan egri (doimiy) sarflar bir turdagi mahsulot realizatsiyasidan olingan qo'yilma bilan taqqoslanadi. Natijada butun ishlab chiqarish va realizatsiyashng rentabelligini aks ettiradi. Shunday qilib, bu tizim realizatsiyaga qaratilgan. Realizatsiyaning hajmi qancha ko'p bo'lsa sub'ekt shuncha ko'p daromad oladi. Tayyor mahsulot va tugallanmagan ishlab chiqarish faqat o'zgaruvchan (to'g'ri) xarajatlar bo'yicha baholanadi. Baholashning bunday tizimi sub'ektlarda mahsulotlarni sotishni ko'paytirishning yangi imkoniyatlarini izlashga qiziqish uyg'otadi.

Sub'ektlarda direkt-kosting hisobi tizimi har xil tartibda tashkil etilishi mumkin. Bu erda ikkita – avtonom va integratsiya yondoshish ishlatiladi. Xarris tizimi boshqaruv va moliyaviy hisob integratsiyasiga asoslangan. Boshqaruv va moliyaviy hisobning umumiy tizimi bosh kitobda hamma mablag'larning ichki aylanishi aks ettirishni ko'zlaydi.

Hisob yuritishning monistik (integratsiyalangan) tizimining murakkabligi, hisob muomalalarining katta hajmi bilan farq qiladi, ko'p hollarda qimmat va oddiy emasliga bilan ajralib turadi. Ko'p hollarda integratsiyalashgan tizim boshqaruv hisobi pritsipiga, ya'ni tijorat sirlarini saqlashga rioya qilmaydi.

Foydalar to'g'risidagi hisobotni tuzishni ko'p jarayonlik asosida marjinal foydalar xaqidagi hisobot yotadi. Direkt-kosting tizimidagi foyda va sarflar haqidagi taxminiy hisoboti 13.2.1-jadvalda keltirilgan.

13.2.1-jadval. Direkt-kosting tizimidagi foyda va sarflar haqida tahminiy hisobot.

№	Ko'rsatkichlar	Summa, ming so'm
1.	Sotilgan mahsulotning hajmi	5700
2.	O'zgaruvchan xarajatlar	3300
3.	Marjinal foyda 1-satr–2-satr	2400
4.	Doimiy sarflar	1370
5.	Sof foyda (yoki zarar) (3-satr–4-satr)	1030

Keltirilgan hisobda ikki pog'ona mavjud: yuqori marjinal daromad; pastki hisobda bosqichlar bo'yicha jarayonda to'ldiriladigan sof foyda. Agar o'zgaruvchan xarajatlarni ishlab chiqarish va noishlab chiqarishga bo'lsak mazkur hisobot uch bosqichda tuziladi. Birinchi bosqichda marjinal foyda mahsulotni sotishdan tushgan pul bilan o'zgaruvchan ishlab chiqarish xarajatlari o'rtasidagi farq sifatida hisoblanadi. Uchinchi bosqichda jamlama marjinal foyda bilan doimiy xarajatlar summasnpi taqqoslash yo'li bilan sof foyda (yoki sof zarar)

hisoblanadi. Keyin hisobotning pog'onaliligini doimiy xarajatlarni shartli-doimiy va shartli-o'zgaruvchanlarga bo'lish bilan ko'paytirsang bo'ladi. Ayrim hollarda pog'onalar xarajatlar va foydalarni guruhlashning boshqa belgilarini ko'zda tutishi mumkin. Masalan, aniq buyumlar yoki buyumlar guruhiga to'g'ri munosabatga ega bo'lgan doimiy xarajatlarning guruhlanishi: doimiy xarajatlarning hududlar, sotuv segmentlari yoki taqsimlash kanallari bo'yicha bo'linmalarini nazarda tutadi.

13.3. Xarajatlarni hisobga olish va mahsulot tannarxini

kalkulyatsiya qilishning me'yoriy usuli

Xo'jalikni yuritishning samaradorligini oshirish mamlakat iqtisodiy rivojlanishining har qanday bosqichida asosiy va muhim masala hisoblanadi. Bu boshqaruvning me'yoriy tiziminn milliy xo'jalik tarmoqlari darajasida va bir sub'ekt miqyosida qo'llashni muhim qilib qo'yadi.

Xarajatlarni boshqarishning me'yoriy tizimi o'zi bilan rejalashtirish, me'yorlash, materiallarni ishlab chiqarishga berish, ichki hisobot tuzish, mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilish, xarajatlarning me'yori asosida iqtisodiy tahlil va nazoratni ro'yobga chiqarish bo'yicha muolajalarning jamlamasini aks ettiradi.

Uning asosiy maqsadi bo'lib ishlab chiqarish omillarini to'liq ishlatish va xo'jalikni tejamli yuritish hisoblanadi. Bu tizimning mazmuni quyidagilardan iborat:

- sub'ektning oldiga qo'yilgan masalalarni echishni ta'minlovchi me'yorlar asosida xarajatlarni rejalashtirish;
- me'yor va me'yorlashtirishlar bilan asoslangan ishlab chiqarish maqsadlari bo'yicha turli resurslarni ishlatish uchun ruxsatnomalar berish yo'li bilan xarajatlarni hujjatlashtirish;
- xarajatlarni buxgalteriya hisobining schetlarida ularning me'yorlari va undan chetga chiqishlarni aks ettirish.

Kalkulyatsiya qilish xarajatlarning me'yoriga asoslanadi, me'yordan chiqib ketishlar ularning vujudga kelishi bo'yicha buxgalteriya hisobining schetlarida ishlab chiqarish natijasining ko'payishi yoki kamayishi sifatida ko'rsatiladi.

Ishlab chiqarishga bo'lgan xarajatlarni va mahsulotning tannarxi kalkulyatsiyasining me'yoriy usuli boshqalardan ko'proq xarajatlarni boshqarish me'yoriy tizimining talablariga javob beradi.

Har bir sub'ektda xarajatlarni hisobga olishning usulini tanlash ushbu sub'ektning tarmoq xususiyatidan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi. Xarajatlarni hisobga olishda me'yoriy hisobni tashkil qilishning uchta turini ajratish mumkin:

A. Me'yoriy xarajatlar bo'yicha hisobga olish. Ushbu usulda sarflangan haqiqiy xarajatlar quyidagi ko'rinishda aniqlanadi:

Me'yoriy xarajatlar $\pm$ me'yordagi xarajatlardan chetga chiqish = haqiqiy xarajatlar.

Ushbu tartibda buxgalteriya hisobida moddiy qiymatliklarning (asosiy materiallar, tugallanmagan ishlab chiqarish, tayyor mahsulotlar) harakati belgilangan me'yorlar bo'yicha baholanishi shartidan kelib chiqiladi. Ushbu faoliyat jarayonida aniqlangan chetga chiqishlar ro'yobga chiqish holatida yig'ilib boriladi va hisobot davrining oxirida me'yordagi xarajatlarning hajmiga ko'shiladi.

V. Haqiqiy va me'yordagi xarajatlarni bir yo'la hisobga olish. Ushbu usul ishlab chiqarishdagi xarajatlar to'g'risidagi ma'lumotlarni ikki bahoda:

- haqiqatda yig'ilgan xarajatlar bo'yicha;
- haqiqatda ishlab chiqarilgan mahsulot, bajarilgan ish va ko'rsatilgan xizmatlarning hajmiga sarflangan me'yoriy xarajatlarning miqdorida yoritishni nazarda tutadi.

Haqiqiy sarflar - Me'yordagi sarflar = $\pm$ Chetga chiqishlar.

S. Aralash usulda hisobga olish. Ushbu usul ikkita yo'l bilan hisobni yuritishni nazarda tutadi.

Birinchi yo'l. Iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarning amaliyotida keng tarqalgan va mamlakatimizda ham qo'llanishi tavsiya qilingan. Lekin hisobot davri davomida jami chetga chiqishni aniq darajada hisobga olish imkoniyati mavjud emas. Hisobot oyining oxiridagi tugallanmagan ishlab chiqarishning me'yoriy tannarxi ishlab chiqarishga sarflangan xarajatlarning me'yordagi hajmi bilan ishlab chiqarilgan tayyor mahsulotlarning me'yoriy tannarxning farqi ko'rinishida aniqlanadi. Natijada oy davomida yoki boshqa hisobot davrida hisobga olinmagan chetga chiqish summasi hisobot davrining oxiridagi ishlab chiqarishning qiymatiga qo'shiladi.

Ikkinchi yo'l. Asosiy xarajatlar bo'yicha tasdiqlangan me'yorlarga rioya qilish ustidan kundalik nazoratni o'rnatishni nazarda tutadi. Hisobot davri davomida me'yordan chetga chiqish bo'yicha olingan ma'lumotlar buxgalteriya hisobining tegishli registrlarda umumlashtirilmaydi va schetlarda qayd qilinmaydi.

Tasdiqlangan me'yorlardan chetga chiqish summasi baholangan tayyor mahsulotning hajmiga sarflangan haqiqiy xarajatlarni bilan ushbu mahsulot uchun sarflanishi lozim bo'lgan me'yoriy xarajatlarni taqqoslash yo'li bilan bir xil mahsulotlarning har bir guruxi bo'yicha aniqlanadi. Ushbu holatda tugallanmagan ishlab chiqarishning qiymati ishlab chiqarishda yarim fabrikatlar harakatining balansi bo'yicha natura ko'rsatkichlardan kelib chiqqan holda me'yoriy tannarxi bo'yicha baholanadi, yoki ishlab chiqarish bo'linmalaridagi tugallanmagan ishlab chiqarishni xatlab hisobga olish asosida baholanadi.

Mavzuni o'zlashtirish uchun zarur tayanch tushunchalar:

Me'yor, standart, standart-kost, ideal baho, me'yoriy baho, joriy baho, direkt-kosting, o'zgaruvchan xarajatlarni, me'yoriy usul, haqiqiy sarflar, me'yoriy sarf, chetga chiqishlar.

Mavzuni mustahkamlash uchun nazorat savollari:

1. Standartlarning butun yig'imi qanday guruhlarga ajratiladi?
2. Standart-kost tizimi bo'yicha xarajatlarni hisobga olishning o'ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?
3. Standart-kost tizimida baholarning qanday turlari mavjud?
4. Hisobga olinadigan baho turlarini sanab bering?
5. Direkt-kosting tizimi bo'yicha xarajatlarni hisobga olishning o'ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?
6. Direkt-kosting tizimi bo'yicha mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilishda o'zgaruvchan xarajatlarning o'rnini qanday?
7. Xarajatlarni hisobga olishning me'yoriy usulining qanday turlari mavjud?

XIV-MAVZU. TANNARX KALKULYATSIYASIDA KOMPYUTER DASTURLARIDAN FOYDALANISH.

14.1. Tannarx kalkulyatsiyasida 1S:Buxgalteriya tizimidan foydalanish

14.2. Tannarx kalkulyatsiyasini ishlab chiqishda Microsoft Excel dasturidan foydalanish

14.1. Tannarx kalkulyatsiyasida 1S:Buxgalteriya tizimidan foydalanish

Xo'jalik yurituvchi sub'ektlarda buxgalteriya hisobini avtomatlashtirishda turli tuman kompyuter dasturlaridan foydalaniladi. Shulardan eng mukammal, universal tizim sifatida 1S:Buxgalteriyani aytishimiz mumkin. 1S:Buxgalteriya tizimidan turli-tuman korxonalarda hisobning ixtiyoriy bo'limini yuritishda foydalanish mumkin.

1S:Buxgalteriyaning turli-tuman va egiluvchan imkoniyatlari undan hisobni avtomatlashtirish tizimi sifatida dastlabki hujjatlarni kiritishdan tortib to hisobotni shakllantirishgacha bo'lgan jarayonni amalga oshirish imkoniyatini beradi.

1S:Buxgalteriya tizimidan amalda hisobning hamma bo'limlarini yuritishda foydalanish mumkin:

- bank va kassa bo'yicha muomalalarni hisobga olish;
- asosiy vositalar va nomoddiy aktivlarni hisobga olish;
- materiallarni hisobga olish;
- bank va kassa bo'yicha muomalalarni hisobga olish;
- mahsulot ishlab chiqarishni, tovar va xizmatlarni va hisobga olish;
- valuta operatsiyalarini hisobga olish;
- boshqa korxona va tashkilotlar bilan o'zaro hisob-kitoblarni, debitorlar, kreditorlar va hisobdor shaxslar bilan hisob-kitoblarni hisobga olish;
- mehnatga haq to'lash bo'yicha hisob-kitoblarni hisobga olish;
- budjet bilan hisob-kitoblarni hisobga olish;
- hisobning boshqa bo'limlari hisobi.

1S:Buxgalteriya hisobni tashkil etishning turli-tuman imkoniyatlariga ega:

- ko'p bosqichli schetlar rejasi bo'yicha sintetik hisob;
- bir necha schetlar rejasi bo'yicha hisobni amalga oshirish;
- valuta hisobi;

- ko`po`lchamli analitik hisob;
- o`lchov turlari bo`yicha ko`pbosqichli analitik hisob;
- miqdoriy hisob;
- bitta axborot bazasida bir necha korxonalar hisobini yuritish.

1S:Buxgalteriyaga axborot kiritish avtomatlashtirishning har xil darajalarida tashkil qilinishi mumkin:

- muomalalarni qo`lda kiritish rejimi;
- namunaviy muomalalar bo`yicha kiritish rejimi;
- hujjatlar asosida muomalani avtomatik shakllantirish tizimi.

Biz ushbu mavzu doirasida buxgalteriya hisobini yuritishni osonlashtirish va tezlashtirishga yordam beradigan, boshqacha qilib aytganda, avtomatlashtirishda ishlatiladigan kompyuter dasturlari to`g`risida to`xtalib o`tmoqchimiz.

Ta'kidlab o`tganimizdek, 1S:Buxgalteriya dasturi (tizimi) hisobni avtomatlashtirishdagi eng mukammal va universal tizimdir. 1S:Buxgalteriya tizimida hisobni yuritish jarayoni haqida to`htalishdan oldin buxgalteriya hisobi haqida qisman to`xtalsak.

Ma'lumki, buxgalteriya hisobi ayrim sub'ektlarda sodir bo`laetgan xo`jalik mablag`lari va jarayonlarining harakatini ma'lum hujjatlar bilan asoslangan holda ro`yxatga olish va pulda baholab umumlashtirilgan tarzda yoppasiga va bevosita kuzatish tizimidir. U sub'ektning xo`jalik faoliyatini boshqarish va unda xo`jalik hisobini joriy ettirishning muxim vositasi hisoblanib, sub'ektning mablag`laridan to`g`ri va unumli foydalanish va uning butligini ta'minlash ustidan ham dastlabki, ham joriy (kundalik) va kelgusi nazoratni yuritish imkonini beradi.

Buxgalteriya hisobi yordamida mavjud moddiy qiymatliklar, pul mablag`larining harakati kuzatiladi va nazorat qilinadi, mahsulot ishlab chiqarish va sotish bilan bog`liq xarajatlar aniqlanadi, xo`jalik faoliyatining moliyaviy natijalari va sub'ektlarning umumiy mulki haqidagi ma'lumotlar yig`iladi.

Buxgalteriya hisobi schet, sintetik hisob, analitik hisob ob'ektlari kabi tushunchalarga asoslanadi. 1S:Buxgalteriya tizimida schet asosiy tushuncha hisoblanadi. Schet qator xususiyatlarga ega bo`lishi mumkin – u valuta scheti bo`lishi, analitik hisob ob'ektlariga ega bo`lishi va boshqa xususiyatlarga ega bo`lishi mumkin. Hamma schetlar bitta yoki bir necha schetlar rejasiga birlashtiriladi. 1S:Buxgalteriya tizimida schetlar rejasiga – buxgalteriya hisobini aniq bir korxonaning talablaridan kelib chiqqan holda moslashtirish vositasi hisoblanadi.

Schetlar rejasini moslashtirishda konfiguratsiyada (1S:Buxgalteriya tizimi bo'limi) buxgalteriya hisobini yuritish imkoniyatlari aniqlashtirib olinadi. Faqat sintetik hisob yuritiladimi, yoki analitik hisob ham talab qilinadimi, yoki valuta va miqdoriy hisob yuritiladimi, bularning hammasi schetlar rejasini konfiguratsiyasida ko'rsatiladi. Schetlar rejasining asosiy elementi schet hisoblanadi. Hisobning yangi imkoniyatlarni kiritishda u o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'ladi.

Schetlar rejasiga schetlarni kiritishda (konfiguratsiyaga yoki axborot bazasiga) har bir schet bo'yicha hisobni yuritish shakli – subschet mavjudligi, valuta hisobi yuritilishi, analitik va miqdoriy hisobning yuritilishi – ko'rsatib o'tiladi.

Schetlarning mavjudligi buxgalteriya hisobida korxonaning vositalari haqida umumlashgan axborot olish imkoniyatini beradi. Olinadigan axborotlarni aniqlashtirish uchun subschetlar ishlatiladi*. 1S:Buxgalteriya tizimida subschet tushunchasidan ko'p bosqichli hisobni amalga oshirish uchun foydalaniladi. Masalan, 1000-«Materiallar» scheti, 1010-«Xomashyo va materiallar» scheti, 1010001-«A material», 1010001-«B material» va h.k. Shunday qilib 1S:Buxgalteriya tizimida schet o'z subschetlariga, subschetlar ham o'z navbatida o'zining sub-subschetlariga ega bo'lishi mumkin.

Schet bo'yicha miqdoriy hisob yuritish ham mumkin. Miqdoriy hisob yuritish imkoniyati konfiguratsiya bosqichida ko'rsatib o'tiladi. Miqdoriy schetlarda miqdor (natura) ko'rinishidagi axborotlar umumlashtiriladi. Miqdoriy hisob yuritish imkoniyati ko'pincha analitik hisob yuritish jarayonida qo'llaniladi. Masalan, analitik hisob ob'ektlari bo'yicha to'liqroq hisobot ma'lumotlari olish uchun: omborda tovar mavjudligi, biror bir bo'limga tegishli asosiy vositalar soni va boshqa.

1S:Buxgalteriya tizimida xo'jalik muomalalarini dastlabki hujjatlardan to hisobotlarni tayyorlashgacha bo'lgan jarayonlarni kiritib borilishi har bir mahsulot turi bo'yicha tannarxni aniqlash imkonini beradi.

* Buxgalteriya hisobi milliy standartlarida subschet tushunchasi yo'q. Biz faqat 1S:Buxgalteriya tizimi doirasida subschet tushunchasidan foydalanyapmiz

14.2. Tannarx kalkulyatsiyasini ishlab chiqishda Microsoft

Excel dasturidan foydalanish

Microsoft Excel dasturi Windows operatsion tizimi Microsoft Office dasturlar paketiga tegishli universal jadval muharriri bo'lib, elektron jadvallarni qayta ishlash uchun mo'ljallangan. Microsoft Excel dasturi bilan elektron jadvallar yordamida hisob-kitoblarni amalga oshiriladi.

Jadval ko'rinishida tasvirlanadigan masalalarni echish uchun maxsus amaliy dasturlar paketlari ishlab chiqilgan bo'lib, ular elektron jadvallar yoki jadval protsessori deb ataladi.

Elektron jadvallar avvalo iqtisodiy masalalarni echish uchun mo'ljallangan, lekin uning yordamida muhandislikka doir masalalarni bajarishda ham, masalan, formulalar bo'yicha hisob-kitoblar muvaffaqiyatli ishlatilmoqda.

Elektron jadvallar qo'llanilayotgan sohalar juda ko'p, masalan: moliyaviy, buxgalteriyaga oid, xususan ish haqini hisoblash, har xil iqtisodiy-texnik hisoblar, kundalik, xo'jalik tovarlari va mahsulotlarni sotib olish va hokazolar.

Mahsulot, ish va xizmatlarni tannarxini kalkulyatsiyalashda Microsoft Excel elektron jadvallaridan foydalanish mumkin. Ma'lumotlarni jadval ko'rinishida tasvirlash ularni tahlil qilishni ancha soddalashtiradi. Shuning uchun ko'pchilik hollarda hisob-kitoblar samaradorligi va sifatini oshirish uchun avtomatlashtirilgan hisoblashlarni joriy qilish maqsadga muvofiqdir.

Excel hujjati (ya'ni qayta ishlanadigan ob'ekt) kengaytmasi .xls bo'lgan ixtiyoriy nomli fayl hisoblanadi. Exsel da bu fayl ish kitobi deb nomlanadi.

Har bir .xls faylda 1 dan 255 tagacha elektron jadval joylashishi mumkin, ularning har biri ish varag'i deb ataladi. Excel jadvali 16384 satr va 256 ustundan iborat. Satrlar 1 dan to 16384 gacha bo'lgan butun sonlar yordamida nomerlanadi. Ustunlar esa lotin alifbosi xarflari bilan belgilanadi, yani A, V, ..., Z, AA, AV, ..., IV. Ustun satrlarning kesishish joyida jadvalning strukturali elementlari-yacheykalar joylashgan bo'ladi. Ixtiyoriy yacheykaga boshlangich ma'lumotlarni – son, matn yoki ixtiyoriy ma'lumotni hisoblash formulasini kiritish mumkin. Ustun kengligi va satr balandligini o'zgartirish mumkin.

Elektron jadvaldagi aniq bir yacheykani ko'rsatish uchun adreslardan foydalanish zarur, ya'ni adreslar o'zaro kesishadigan ustun

belgisi va satr nomerlaridan iborat bo`ladi va ular orqali aniqlanadi. Masalan: A1, A8, S24, AA2 va hokazo.

Quyidagi rasmda biz Mashxura choyxonasida pishiriladigan ovqatlarni tannarxini kalkulyatsiya qilish uchun ochilgan «Mashxura choyxonasi - tannarx kalkulyasiyasi.xls» nomli fayl (ish kitobini) ko`rib turibmiz. Unda «Palov», «Chuchvara», «Yumurta-barak», «Lag`mon», «So`msa» kabi ish varag`lari ochilgan. Faol oynada esa «Palov» ish varag`i ko`rsatilgan. Ushbu varaqda 20 portsiya palov tayyorlash uchun qilinadigan xarajatlar, jumladan mehnat haqi va moddiy (masalliklar) xarajatlar va boshqalar ko`rsatilgan. Varaqda A ustunda xarajatlar, B ustunda 20 portsiya palov uchun kerak masalliklar miqdori (5-satrdan 10-satrgacha), C ustunda bahosi (5-satrdan 10-satrgacha) va D ustunda summasi keltirilgan.

	A	B	C	D	E	F
1	«Машхура» хусусий корхонасида палов таннархи калькуляцияси					
2	(20 порция палов учун) 15 январ 2006 йил					
3	Харажатлар мазмуни	Микдори	Баҳос	Суммаси		
4	Мехнат ҳақи ва унга тенглаштирилган харажатлар (25 % ЯИТ ажратма билан)			1250		
5	Масалликлар:					
6	Гуруч	4	600	2400	=B5*C5	
7	Гушт	1	2500	2500	=B6*C6	
8	Сабзи	2	150	300	=B7*C7	
9	Усимлик ёғи	1	900	900	=B8*C8	
10	Пиёз	0,4	200	80	=B9*C9	
11	Помидор	0,5	300	150	=B10*C10	
12	Хар хил масалликлар			420		
13	Жами масалликлар	x	x	6750	=СУММ(D5:D11)	
14	ХАММА ХАРАЖАТЛАР			8000	=D12+D13	
15	1 порция палов таннархи			400	=D13/20	
16	Устама, фойда 10 %			800	=D13*10%	
17	ККС 20 %			1760	=(D13+D15)*20%	
18	Сотиш баҳоси			9760	=D13+D16	
19	1 порция паловни сотиш баҳоси			488	=D17/20	

12.2.1-rasm. Palov tannarxi kalkulyatsiyasi.


D5-yacheykadan D10-yacheykagacha ovqat uchun zarur bo`lgan masalliklar miqdori va bahosidan kelib chiqib formula yordamida xarajatlar summasi topilgan (=B5*C5, ...). D12-yacheykada esa

=SUMM(D5:D11) formula yordamida jami masalliqalar summasi topilgan. D12-yacheykadagi formulani yuqorida formulalar satridan ham ko`rishimiz mumkin. Bizni misolimizda D12-yacheyka faol yacheyka hisoblanadi.

Boshqa hisoblashlar ham shu tartibda amalga oshirilgan. Buni D ustunda qanday formulalar yozilganligini rasmdan ham ko`rishimiz mumkin.

Microsoft Excel yordamida hisob-kitoblar qilishning yutug`i shunda-ki, agar biror bir masalliq yoki xarajatning bozor bahosi qimmatlasa yoki arzonlashsa, shuning umumiy natijaga – bir portsiya ovqatning tannarxiga, sotish bahosiga ta'sirini darrov ko`rishimiz mumkin. Masalan, agar C6-yacheykadagi go`shtning bahosini 2500 so`mdan 3000 so`mga o`zgartirsak (ya'ni go`sht qimmatlasa) bir portsiya tannarxi 425 so`mga va sotish bahosi 518,5 so`mga o`zgaradi. YOki guruch bahosi 600 so`mdan 500 so`mga arzonlasa (C5-yacheyka), bir portsiya tannarxi 380 so`m va sotish bahosi 463,6 so`m bo`ladi.

Ushbu ish kitobini yanada mukammal qilib ishlab chiqish mumkin. Masalan, ish kitobining bir varag`ida ovqat pishirishda ishlatiladigan hamma masalliqalarning bir birligi (kg, l) bahosini hamda taom turlari bo`yicha ma`lum bir birlik (20 portsiya) taom tayyorlash uchun qilinadigan mehnatga haq to`lash xarajatlarini kiritishimiz mumkin (12.2.2-rasm). Boshqa varaqlarda esa ovqat turlari bo`yicha sarf bo`ladigan masalliqalarni me'yorini va mehnatga xaq to`lash xarajatlarini kiritishimiz mumkin(12.2.3-rasm). Bunda boshqa varaqdagi yozuvlarni Microsoft Excel dasturining **Servis** menyusidan **Zaщita** kichik menyusidan **Zaщitit list...** ni tanlab himoyalab qo`yishimiz mumkin. Bunda **Zaщitit list...**ni tanlaganimizda **Zaщita lista** oynasi chiqadi. U erda varaqni himoyalash uchun parol kiritamiz va foydalanuvchilarga nimadan foydalanishga ruxsat qilinishi va nimalar himoyalaniши kerakligini belgilaymiz.



12.2.2-rasm. Zashita lista

Microsoft Excel - Tannarx kalkulyasiyasi

Файл Правка Вид Вставка Формат Сервис Данные Окно Справка

Arial Cyr 14

В14 Ун (1-нав)

Масалликларнинг бозор баҳоси			20 порция овқат тайёрлаш учун меҳнатга ҳақ тулаш харажатлари			
6.02.2006 йил.						
Масалликлар	Улчов бирлиги	Баҳоси	Таом номи	Ҳисобла надиган иш хақи	25 % ЯИТга ажратма	ЖАМИ
Гушт	кг	2500	1 Палов	1000	250	1250
Усимлик ёғи	л	900	2 Чучвара	2000	500	2500
Картошка	кг	300	3 Юмурта барак	1800	450	2250
Сабзи	кг	150	4 Шурва	600	150	750
Пиёз	кг	200	5 Лагмон	1400	350	1750
Гуруч (авангард)	кг	600	6 Шашлик	800	200	1000
Гуруч (лазер)	кг	1000	7 Сумса	800	200	1000
Мош	кг	700	8 Ковурдок	800	200	1000
Ловия	кг	700	9 Катлама сумса	1000	250	1250
Ун (олий нав)	кг	300				
Ун (1-нав)	кг	300				

Действия Автофигуры

12.2.3-rasm. Ovqatda ishlatiladigan masalliqлар baholari va 20 portsiya ovqat uchun zarur mehnatga haq to'lash xarajatlari

Microsoft Excel - Tannarx kalkulyasiyasi

Файл Правка Вид Вставка Формат Сервис Данные Окно Справка

PANDA Times UZ 14

D3 =MasalliqIarI06

«Машхура» хусусий корхонасида палов таннархи калькуляцияси (20 порция палов учун) 15 феврал 2006 йил			
Харажатлар мазмуни	Микдори	Баҳоси	Суммаси
Меҳнат ҳақи ва унга тенглаштирилган харажатлар (25 % ЯИТ ажратма билан)			1250
Масалликлар:			
Гуруч	4	600	2400
Гушт	1	2500	2500
Сабзи	2	150	300
Усимлик ёғи	1	900	900
Пиёз	0,4	200	80
Помидор	0,5	300	150
Хар хил масалликлар			420
Жами масалликлар	x	x	6750
ХАММА ХАРАЖАТЛАР			8000
1 порция палов таннархи			400
Устама, фойда 10 %			800
ККС 20 %			1760
Сотиш баҳоси			9760
1 порция паловни сотиш баҳоси			488

Действия Автофигуры

12.2.4-rasm. Palov tannarxi kalkulyatsiyasi.

Агар масаллиqlar varag'idagi, bitta masalliqning bahosini yoki taom tayyorlash uchun mehnatga haq to'lash xarajatlari o'zgartirsak

shu masalliqdan foydalaniladigan barcha taomlarning baholari o'zgaradi. 12.2.3-rasmda tasvirlangan «Palov» varag'iga e'tibor berilgan bo'lsak, V ustundagi raqamlarning ostida formulalar yotganligini ko'rishimiz mumkin. Ya'ni ushbu ustunda «Mashhura» xususiy korxonasining tannarx hisoblash xususiyatlarini hisobga olgan holda ma'lum bir hisob-kitoblar amalga oshirilgan. S ustundagi S5 dan S10 gacha yacheykadagi masalliq bahosi va D3 yacheykadagi mehnatga haq to'lash xarajatlarining ishchi kitobning (Tannarx kalkulyasiyasi.xls faylning) «Masalliq» varag'i (12.2.2-rasmda ko'rsatilgan) bilan bog'langanligini ko'rishimiz mumkin.

Agar ishchi kitobning mos varaqlarida taomlarga sarflanadigan me'yorlarni kiritib chiqib, ularni himoyalab qo'ysak, biz faqatgina «Masalliq» varag'idagi ma'lumotlarni o'zgartirib taomlar narxidagi o'zgarishlarni ko'rishimiz mumkin.

Biz mavzu doirasida faqatgina taom tayyorlashda Microsoft Excel imkoniyatlarini yoritib berishga harakat qildik. Excelning imkoniyatlaridan tannarxni kalkulyatsiyalashda iqtisodiyot tarmoqlaridagi barcha korxonalar faoliyatida keng foydalanish mumkin.

Mavzuni o'zlashtirish uchun zarur tayanch tushunchalar:

Kompyuterlashtirish, 1-S Buxgalteriya, schetlar tizimi, dastur konfiguratsiyasi, elektron jadval, Excel, ishchi jadval, ishchi varaq, yacheyka, formula, himoyalash.

Mavzuni mustahkamlash uchun nazorat savollari:

1. Tannarx kalkulyatsiyasida 1S:Buxgalteriya tizimidan foydalanishning afzalliklari nimada?
2. Hisobni qaysi bo'limlarini yuritishda 1S:Buxgalteriya tizimidan foydalanish mumkin?
3. Elektron jadval deganda nimani tushunasiz?
4. Tannarx kalkulyatsiyasini ishlab chiqishda Microsoft Excel dasturidan foydalanish afzalliklari va kamchilik tomonlari nimada?

O'qitish vositalari

Jixozlar, inventarlar, didaktik materiallar va texnik vositalar; shaxsiy kompyuter; kompyuter uchun CTX display tizimi va

multimedia, skaner; mavzu bo'yicha disketlar; kodoskop; slaydlar; kartochka topshiriqlar va dasturlashtirilgan topshiriqlar.

MUSTAQIL TA'LIM MAZMUNI

Mustaqil ta'lim sifatida mamlakatda qabul qilingan me'yoriy hujjatlarni o'rganish, yangi adabiyotlar, jurnallar bilan tanishish, horijda va mamlakatda shu sohada amalga oshiriladigan ishlar bilan yaqindan tanishish, internet ma'lumotlaridan foydalanish tavsiya qilinadi.

«Tannarx kalkulyatsiyasi» fani bilan bog'liq tushunchalar, kategoriyalarni hozirgi zamon talablaridan kelib chiqqan holda o'rganish, yuzaga kelgan savollar, muammolarni hal qilish yo'llarini bilishdan iboratdir.

1. Ishlab chiqarish xarajatlari va mahsulot tannarxi
2. Xo'jalik yurituvchi sub'ekt faoliyatining xarajatlarini turkumlash
3. Ishlab chiqarishga sarflangan xarajatlarning umumiy turkumlanishi
4. Tovar-moddiy zahiralarini ishlab chiqarishga sarflanishini baholash usullari
5. Mahsulot ishlab chiqarish va sotish xarajatlari tarkibida asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar amortizatsiyasini hisobga olish usullari
6. Asosiy ishlab chiqarish xarajatlari tarkibi, ularning hisobi va mahsulot tannarxiga o'tkazilish tartibi
7. Umumishlab chiqarish xarajatlari tarkibi, ularni hisobga olish va mahsulot tannarxiga o'tkazish tartibi
8. Tugallanmagan ishlab chiqarishni baholash va hisobga olish
9. Ishlab chiqarilgan mahsulot, bajarilgan ish va ko'rsatilgan xizmatlarning tannarxini kalkulyatsiya qilish tizimi
10. Ishlab chiqarish xarajatlarini hisobga olish va mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilishning buyurtmali usuli
11. Jarayonli usulda xarajatlarni hisobga olish va mahsulotning tannarxini kalkulyatsiya qilish
12. Dehqonchilik mahsulotlari tannarxi kalkulyatsiyasi
13. G'alla tannarxi kalkulyatsiyasi
14. Makkajo'xori tannarxi kalkulyatsiyasi
15. Kartoshka, sabzovot, poliz va em-xashak ekinlari tannarxi kalkulyatsiyasi
16. Paxta tannarxi kalkulyatsiyasi
17. Chorvachilik mahsulotlari tannarxini kalkulyatsiyalash

18. Ixtisoslashtirilgan chorvachilik xo'jaliklarida xarajatlar va mahsulotlar hisobini tashkil etish xususiyatlari
19. Chorvachilik mahsulotlari tannarxi kalkulyatsiyasi
20. Agrosanoat majmui tarmoqlarida mahsulot tannarxi kalkulyatsiyasi
21. Xizmat ko'rsatuvchi korxonalar xarajatlari hisobi
22. Uy-joy-kommunal xo'jalik xarajatlari hisobi
23. Maishiy xizmat ko'rsatuvchi va tikuv ustaxonalarida xarajatlar hisobi
24. Umumiy ovqatlanish korxonalarida mahsulot tannarxini kalkulyatsiyalash
25. Standart-kost (Standart costs) tizimi bo'yicha xarajatlarni hisobga olish va mahsulotning tannarxini kalkulyatsiya qilish
26. Direkt-kosting tizimi bo'yicha xarajatlarni hisobga olish va mahsulotning tannarxini kalkulyatsiya qilish
27. Xarajatlarni hisobga olish va mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilishning me'yoriy usuli
28. Tannarx kalkulyatsiyasida kompyuter dasturlaridan foydalanish
29. Tannarx kalkulyatsiyasida 1S:Buxgalteriya tizimidan foydalanish
30. Tannarx kalkulyatsiyasini ishlab chiqishda Microsoft Excel dasturidan foydalanish

GLOSSARIY

Aylanma mablag`lar - bu mablag`larga korxonaning ishlab chiqarish doirasidagi mehnat buyumlari va muomala bosqichidagi mablag`lar kiradi.

Aktiv - balansning chap qismi, unda xo`jalik mablag`lari turlarining holati aks ettiriladi

Aktivlar - bu korxonaga ilgari amalga oshirgan muomalalar yoki o`tgan davrda sodir bo`lgan hodisalar vositasida va mazkur yuridik shaxs tomonidan sotib olingan yoki nazorat qilinadigan mablag`larning holati aks etadi. Aktivlar o`tgan operatsiyalar va hodisalar natijasida xo`jalik sub'ekti tomonidan nazorat qilinadigan iqtisodiy resurslar bo`lib, ular kelajakda foyda keltirishi ehtimoliga ega. Aktiv sifatida ko`rib chiqilayotgan resurslar quyidagilarga mos bo`lishi shart:

a) Kelgusida iqtisodiy foyda keltirishi kerak, foyda keltirishga layoqatli bo`lishi kerak;

b) Nazorat qilinishi kerak. Egalik huquqiga asosan xo`jalik sub'ektiga qarashli bo`lishi kerak (ulardan ishlab chiqarishda erkin foydalanishiyoki ularning istisno qilinishi mumkin);

c) Oldingi operatsiyalarning natijalari bo`lishi kerak (ya'ni joriy vaqtda zahiralar sifatida haqiqatan ham mavjud bo`lishlari kerak, yoki ishlab chiqarishni yaratishda yoki yo`lda bo`lishlari kerak).

Aktiv schetlari – har xil turdagi boyliklarning ko`payishi yoki kamayishini ko`rsatadi.

Amortizatsiya - eskirishning qiymatdagi ifodasi bo`lib, asosiy vosita aktivining butun xizmati davomida mahsulot ishlab chiqarish tannarxiga va davr xarajatlariga qo`shiladigan amortizatsiya qiymatini tizimtik ko`rinishda taqsimlash.

Amortizatsiya ajratmasi (amortizatsiya) - mahsulot yoki bajarilgan ish tannarxiga o`tkazib boriladigan asosiy vositalar eskirgan qismining qiymati. Amortizatsiya summasi avval belgilangan me'yor asosida aniqlanadi. Bu summa ob'ektning dastlabki qiymatini qayta tiklash va kapital ta'mir bilan bog`liq xarajatlarni qoplashi lozim. Amortizatsiya, avvalo, oddiy takror ishlab chiqarishni, ya'ni asosiy vositalarning dastlabki qiymati to`la tiklanishini ta'minlaydi. U ma'lum darajada kengaytirilgan takror ishlab chiqarish manbai bo`ladi.

Analitik schetlar - sintetik schetlardagi ma'lumotlarni tafsilotlab, aniqlashtirib ko`rsatuvchi schetlar.

Analitik hisob - analitik schetlar yordamida amalga oshiriladigan hisob.

Asosiy ish haqi - ishchi va xizmatchilarning ishlagan vaqti uchun to'lanadigan haq.

Asosiy ishlab chiqarish xarajatlari - mahsulot ishlab chiqarish texnologik jarayoni bilan to'g'ridan-to'g'ri bog'liq xarajatlar.

Bevosita xarajatlar - mahsulotning ayrim turlari tannarxiga to'g'ridan-to'g'ri, ya'ni bevosita o'tkaziladigan xarajatlar. Masalan, texnologik maqsadlar uchun sarflangan xom-ashyo va asosiy materiallar, ishlab chiqarishda band bo'lganlarning asosiy mehnat haqi va boshqalar.

Belgilangan stantsiyagacha franko - bunda jo'natish bo'yicha barcha xarajatlar temir yo'l tarifi qo'shilgan holda mol etkazib beruvchi tomonidan to'lanadi.

Belgilangan stantsiyagacha franko-vagon - bu shunday narxki, bunda mol etkazib beruvchi to'lov-talabnomasiga faqat temir yo'l tarifi summasini qo'shadi.

Bilvosita xarajatlar - ya'ni egri xarajatlar, hisobot oyi davomida yig'ib-taqsimlovchi schetlarda hisobga olinib, tannarxni kalkulyatsiya qilishda, mahsulotning ayrim turlari tannarxiga biron-bir ko'rsatkichga mutanosib ravishda taqsimlash yo'li bilan o'nga qo'shiladigan xarajatlar. Ko'pgina sanoat korxonalarida bunday xarajatlarga umumtsex va boshqa ishlab chiqarish sarflari kiradi.

Bo'linmas xarajatlar - bo'linish nuqtasigacha bo'lgan xarajatlar. Bo'linish nuqtasi mahsulot ishlab chiqarishga nisbatan aytilgan bo'lib, tayyor mahsulotning sotilmay qolgan (yaroqsiz mahsulot, yarim tayyor) qismida bo'linish nuqtasi sodir bo'ladi.

Davr xarajatlari - ishlab chiqarish jarayoni bilan to'g'ridan-to'g'ri bog'liq bo'lmagan xarajatlar. Masalan, boshqarma bo'yicha mahsulotning realizatsiyasi bilan bog'liq va boshqa umumxo'jalik ahamiyatidagi xarajatlar.

Daromadlar - bu sub'ektning xo'jalik faoliyati natijasida, odatda, ijara haqi, foizlar, litsenziya to'lovlari va dividendlar shaklida daromad keltiradigan faoliyat, ya'ni tovarlarning sotilishi, xizmatlarning ko'rsatilishi yoki boshqa shaxslarning xo'jalik sub'ektining resurslaridan foydalanishi natijasida aktivlarning kelib tushishi yoki majburiyatlarning kamayishi orqali ro'y beradigan iqtisodiy resurslarning ko'payishidir.

Deponent - shunday shaxs-ki (jismoniy yoki yuridik), unda korxona yoki tashkilotning vaqtinchalik pul mablag'i saqlanadi. Deponentlangan summa shaxslarning talabi bilan beriladi yoki boshqa bir korxona va tashkilotlarga o'tkazib beriladi. O'z vaqtida olinmagan oylik maoshlari, sudning ijro varaqalariga ko'ra ish haqidan ushlangan

ushlangan, ammo olinmagan summalar ham deponent hisoblanib, maxsus schetlarda saqlanadi. Uch yil muddatgacha talab qilib olinmagan deponentlangan ish haqi summasi budjetga o'tkaziladi.

Dividend - bu aktsiyadorlik jamiyatining hisobot davrida olingan va aktsiyalarga qarab aktsionerlar o'rtasida takimlanadigan foydasi.

Diskontlangan qiymat - kapital qo'yilmalarni baholashning 4 usulidan biri bo'lib, kelgusida olinadigan nakd pullarni joriy qiymat orkali foiz stavkasi yordamida ifodalash jarayoni bo'lgan diskontlash jarani natijasida olinadigan miqdorni ifodalaydi.

YOrdamchi ishlab chiqarish – ishlab chiqarish jarayoni bir qismi bo'lib, u asosiy ishlab chiqarish fondlarni qayta tiklash, ta'mirlash, asosiy ishlab chiqarish jarayoni energiya va boshqa yordamchi materiallar bilan ta'minla-nadi.

YOrdamchi materiallar - asosiy materiallardan farq qilib, ishlab chiqarilayotgan mahsulotning asosini tashkil qilmaydi, balki mahsulot ishlab chiqarishda biron-bir vosita sifatida ishtirok etadi. YOqilgi o'z mohiyatiga ko'ra yordamchi materiallarning bir turi hisoblanadi.

Zararlar – bu asosiy faoliyat va barcha boshqa operatsiyalar, hodisalar, sharoitlar natijasida xususiy kapitalining kamayishi bo'lib, xarajatlar yoki xususiy kapitalning taqsimlanishi natijasidagi kamayish bundan mustasno.

Ijara – bu aktivdan foydalanish bo'yicha bir tomonning ikkinchi tomonga taqdim qilingan huquqidir. Ko'pincha korxona boshqa korxonadan yollash haqidagi xo'jalik shartnomasiga muvofiq mulkni ijaraga oladi va dastlabki to'lovni amlga oshiradi. To'langan dastlabki ijara haqi, masalan, majburiyatlarni kamaytirish uchun to'lovlar, ko'pincha jami ijara davrini qoplaydi.

Ijara munosabatlari - bunda ijarachi ijara beruvchidan shartnoma asosida ishlab chiqarish vositalari, er va boshqa mol-mulklarni ma'lum bir muddatga ijara to'lovi asosida foydalanish uchun oladi. Ijara munosabatlarida ijara haqi muxim rol uynaydi va ijarachi bilan ijaraga beruvchi munosabatlarini keltirib chiqaradi.

Ijaraning turlari - ijaraning quyidagi turlari mavjud:

Muddatiga ko'ra:

- 1) *uzoq muddatli ijara* - uch yil va undan ortiq muddatga;
 - 2) *o'rta muddatli ijara* - bir yildan uch yilgacha bo'lgan muddatga.
 - 3) *qisqa muddatli ijara* - bir yildan ortiq bo'lmagan muddatga.
- Mulkni topshirish shartiga ko'ra:

- 1) *moliyalashtirilgan;*
- 2) *joriy.*

Ishlab chiqarish asosiy vositalari - moddiy ishlab chiqarish sohasida ishlatilib, ishlab chiqarish jarayonida qayta-qayta qatnashib, asta-sekin eskirib, o'zining qiymatini yaratilgan mahsulot tannarxiga qisman o'tkazib boradi. Ular moddiy ishlab chiqarish sohasida ishlatiladigan imoratlar, inshootlar, o'tkazuvchi moslamalar, mashina va asbob-uskunalar, transport vositalari, ishlab chiqarish va xo'jalik inventarlari, yirik ish va maxsuldor hayvonlar, ko'p yillik kuchat qilingan daraxtlar va boshqa mehnat vositalari kiradi.

Ishlab chiqarish xarajatlari - bo'larga ishlab chiqarish jarayonida ishlatiladigan tabiat resurslari, xomashyo, material, yoqilgi, energiya va boshqa xarajatlar. Ishlab chiqarish xarajatlari iqtisodiy mazmuniga ko'ra ikki guruhga bo'linadi:

- 1) Asosiy xarajatlar
- 2) Ishlab chiqarishni tashkil qilish va o'nga xizmat qilish bilan bog'liq xarajatlar

Ishlab chiqarish xarajatlari hisobi - u yoki bu mahsulot birligining tannarxini aniqlashda qo'llaniladigan usullar tizimi.

Ishlab chiqarish chiqindilari - materiallar va yarim tayyor mahsulotlarni qayta ishlash jarayonida to'la yoki qisman iste'mol qilish sifatini yo'qotgan material yoki yarim tayyor mahsulotlar qoldig'i. Chiqindilar qaytariladigan va qaytarilmaydigan chiqindilarga bo'linadi.

Qaytariladigan chiqindilar deb, korxonaning asosiy va yordamchitsexlarida foydalanish yoki sotish mumkin bo'lgan chiqindilarga aytiladi.

Qaytarilmaydigan chiqindilar deb esa, ishlab chiqarish jarayonida foydalanish yoki sotish mumkin bo'lmay qolgan chiqindilarga aytiladi.

Ishlab chiqarish hisobi - bunda ishlab chiqarish xarajatlarning hisobi va o'tgan davr bilan solishtirilgan holda iqtisod, ortiqcha xarajat tahlili tushuniladi.

Ishlab chiqarishdagi yaroqsiz mahsulot - o'z sifatiga ko'ra belgilangan standart va texnik sharoitlarga to'g'ri kelmaydigan detal hamda yarim tayyor mahsulotlar.

Iqtisodiy isloxot - quyidagicha amalga oshadi:

1. Korxona va birlashmalarning mustaqiligi keskin oshadi.
2. Birlashma va korxonalar to'la xo'jalik hisobiga o'z-uzini qoplashga utadi.

3. Mehnat jamoasining huquqi oshadi.
4. Ishchilarning o'z qobiliyatlarini namoen qilishga imkoniyat kengayadi.
5. Yuqori sifatli mehnatni moddiy va ma'naviy rag'batlantirish uchun qulay imkoniyat yaratiladi.

Kalkulyatsiya - korxona faoliyatini boshqarish jarayonida sarflangan xarajatlarni aniqlash va ishlab chiqarilgan mahsulot, ish va xizmat birligining tannarxini aniqlash usulidir. Ushbu usulda mahsulot tannarxi aniqlanib, ma'lum bir faoliyat turidan olingan foyda va zararlar aniqlanadi. Kalkulyatsiya ishlab chiqarilgan mahsulot va sotib olingan moddiy boyliklarning tannarxini aniqlash usuli bo'lib buxgalteriya hisobi ob'ektlari haqida umumlashgan ma'lumotlar olish uchun zarur.

Kalkulyatsiya ob'ekti - bu korxonalarda tayyorlanadigan ayrim mahsulotlar, yarim tayyor mahsulotlar, biron-bir buyurtma turi yoki bajariladigan xizmat turlaridan iborat. Korxona uchun kalkulyatsiya ob'ektning ro'yxati avvaldan ishlab chiqiladi va mutasaddi xodimlar tomonidan tadiklanadi.

Kalkulyatsiyalashning buyurtmali usuli - bu usulning mohiyati shundan iboratki, bunda hamma asosiy xarajatlar kalkulyatsiya moddalari bo'yicha, har bir ishlab chiqarish buyurtmasi bo'yicha alohida hisob qilinadi. Ishlab chiqarish buyurtmalari chetdan mahsulotning ma'lum turlarini ishlab chiqarish uchun beriladi.

Kalkulyatsiyalashning bo'limli usuli. Xarajatlarni hisobga olish va kalkulyatsiya qilishning bo'limli (poperedel) usuli asosan metallurgiya, tukimachilik, engil, kimyo va boshqa sanoat korxonalarida qo'llaniladi. Bu korxonalarda ishlab chiqarish ayrim ishlab chiqarish bulmlari, bosqichlaridan tashkil topgan bo'ladi. Bo'limli usulning muxim xususiyatlaridan biri shundaki, unda har bir tsexdagi ishlab chiqarish xarajatlari ishlab chiqarishning har bir bo'limli bosqichi bo'yicha alohida hisobga olinib, bu xarajatlar hisobi mahsulotning ayrim turlari yoki guruhlar kalkulyatsiya moddalari bo'yicha yuritiladi.

Kalkulyatsiyalashning normativ usuli - bu usul asosan ishlab chiqarishning ommaviy va yirik tarmog'i bulmish mashinasozlik hamda metallni qayta ishlash korxonalarida qo'llaniladi. Bu usulning asosiy tamoyillari quyidagilardan iborat:

1. Mahsulotning me'yordagi tannarxi aniqlanadi, buning uchun normativ kalkulyatsiyasi tuziladi. Mahsulotning normativ tannarxi material, yoqilgi, ish haqi va boshqa asosiy xarajatlarning tasdiqlangan chorakli smetalari asosida aniqlanadi.

2. Hisobot oyi davomida asosiy ishlab chiqarish xarajatlarining (xomashyo va yordamchi materiallar, ish haqi) haqiqiy summasi emas, balki haqiqiy summasi bilan me'yorlashtirilgan summasi o'rtasidagi farq, ya'ni me'yordan chetga chiqish hisob qilinadi.

Materiallar - ishlab chiqarish moddiy sharoitlaridan biri ya'ni mehnat buyumlari. Ishlab chiqarilayotgan mahsulotning asosini materiallar tashkil qiladi. Asosiy vositalardan farq qilib, materiallar bir ishlab chiqarish jarayonida o'zining qiymatini to'la ravishda mahsulot tannarxiga o'tkazadi.

Materiallarni baholash usullari - ishlab chiqarishga yoziladigan ishlab chiqarish zahiralarining haqiqiy tannarxini aniqlash, ularni baholashning quyidagi usullarini qo'llash bilan amalga oshiriladi:

- 1) O'rtacha tannarx bo'yicha.
- 2) O'rtacha chamalangan baholar bo'yicha, birinchi tushum – birinchi xarajat, FIFO.
- 3) O'rtacha chamalangan baholar bo'yicha, oxirgi tushum - oxirgi xarajat, LIFO.

Materiallarni baholashning birinchi usulida, hisobot oyi davomida sarflangan materiallar ishlab chiqarish xarajatlari schetlariga odatdagidek, joriy baho bo'yicha yoziladi, hisobot oyi oxirida haqiqiy tannarx bilan joriy baho o'rtasidagi farqning tegishli ulushi yoziladi.

FIFO va LIFO usullari rivojlangan mamlakatlarda ishlab chiqarish zahiralarini baholash usullari sifatida ishlab chiqilgan.

FIFO usulida birinchi tushum - birinchi xarajat degani shuni bildiradiki, ishlab chiqarishga kaysi materiallar partiyasi berilishidan qat'iy nazar, ishlab chiqarishga birinchi sotib olingan materiallar bahosi bo'yicha baholanadi, so'ngra ikkinchi partiya bahosi bo'yicha va hokazo.

LIFO usulida boshqa qoida qo'llaniladi. Bunda oxirgi tushum - oxirgi xarajat, ya'ni materiallar ishlab chiqarishga avval oxirgi partiya tannarxi bo'yicha yoziladi, so'ngra avvalgi partiya va hokazo.

Mahsulot (ish, xizmat) ishlab chiqarish tannarxi - mahsulot (ish, xizmat)ni ishlab chiqarish yoki qayta ishlash jarayonida ishlatiladigan tabiat resurslari, xomashyo, material, yoqilgi, energiya, asosiy fondlar, mehnat resurslari hamda ishlab chiqarish bilan bog'liq boshqa xarajatlarning puldagi ifodasidir.

Ma'naviy eskirish - yuqori mehnat unumdorligini ta'minlaydigan, tuzilishi jihatidan mukammal bo'lgan yangi ob'ektlarning ishlab

chiqarilishi avval foydalanishda bo`lgan eski ob'ektlarni ularni jismoniy jihatdan to`la eskirguncha ishlab chiqarishdan sikib chiqarilishi.

Mehnat o`lchovi - ma'lum mahsulotni ishlab chiqarish yoki boshqa biron ishni ishni bajarish uchun sarflangan ish vaqtini aniqlash uchun xizmat qiladi. Bu o`lchovga misol qilib kishi-kun va kishi-soatni keltirish mumkin.

Moliyaviy natija - korxona, birlashma, aktsiyadorlik jamiyati, tashkilot, muassasa va hokazolarning ma'ulm hisobot davrida, uning tadbirkorlik faoliyati jarayonida o`ziga qarashli mablag`ning oshishi yoki kamayishi.

Natura o`lchovi - hisobga olinayotgan narsaning harakatini, masalan, material, mahsulot va boshqalarni natura holida ifodalash uchun xizmat qiladi. Turli xil xo`jalik mablag`larini qo`shishda natura o`lchovidan foydalanilmaydi.

Noishlab chiqarish asosiy vositalari - bunga ishlab chiqarishga taalluksiz bo`lgan madaniy-maishiy, soglikni saqlash muassasalari, kommunal xo`jalik korxonalari va shu kabi tarmoqlar xizmat qiladi va ishlab chiqarish jarayonida qatnashmaydi. Ular ishlatish jarayonida asta-sekin eskirib, o`z qiymatini qisman yo`qotib boradi.

Oddiy vaqtbay - ish haqining bu shaklida muhandis-texnik xodimlar, xizmatchilar haqiqatan ishlagan vaqtiga qarab belgilangan maosh asosida haq olishadi. Vaqtbay ish haqi oluvchi ishchilar mehnatiga haq ularning ishlagan vaqti va tarif stavkalari asosida aniqlanadi.

Oddiy ishbay - mehnatga haq to`lashning bu shaklida ishlab chiqarilgan mahsulot sonini ishbay narxiga ko`paytirish yo`li bilan ish miqdori aniqlanadi

Passiv - balansning o`ng qismi, unda xo`jalik mablag`larining tashkil topish manbalari. Balansning passiv qismida majburiyatlar va xususiy kapital aks ettiriladi.

Sanoatga taallukli bo`lmagan ishlab chiqarish va xo`jalik mablag`lari - bo`larga ushbu korxonadagi uy-joy, madaniy-maishiy va soglikni saqlash maqsadlariga xizmat qiluvchi mablag`lar kiradi. Masalan, klub, bolalar bogchasi va yaslisi, dam olish uylari, ambo`latoriya, tibbiy yordam ko`rsatish binolari hamda ulardagi uskunalar. Bu mablag`lar korxona xodimlari va ularning oila a'zolari uchun xizmat qiladi.

Sintetik schetlar - mablag`lar va xo`jalik jarayonlarining umumlashgan hisobi pul ko`rsatkichlarida yuritiladigan schetlar.

Schetlar korrespondentsiyasi - xo`jalik muomalalarini ikki yoqlama yozish natijasida schetlarning bir-biri bilan bog`lanishi.

Tayyor mahsulot - barcha ishlov operatsiyalaridan utib, tayyor holga keltirilgan, belgilangan davlat standarti yoki texnik talablarga javob beradigan, korxona texnik nazorati xodimlari tomonidan qabul qilingan mahsulot. Qisqacha qilib aytadigan bo`lsak, tayyor mahsulot bu, ishlab chiqarish jarayonining natijasidir. Uning tarkibiga buyurtmachi korxonalar uchun bajarilgan ish, xizmatlar hamda ushbu korxonaga qarashli ishlab chiqarishdan tashqari xo`jaliklar uchun bajarilgan ish va xizmatlar kiritiladi.

Tannarx - mahsulot ishlab chiqarish va uni sotish uchun ketgan xarajatlarning puldagi ifodasi.

Tarif stavkasi - ishchining razryadiga muvofiq o`nga ma'lum vaqt birligi (soat, kun) uchun to`lanadigan haq miqdorini aniqlaydi. Odatda tarif stavkasi birinchi razryad uchun belgilanib, qolgan razryadlar uchun esa birinchi razryad tarif stavkasini qolgan razryadlar tarif koeffitsientiga ko`paytirish yo`li bilan aniqlanadi.

Umumishlab chiqarish xarajatlari - bu asosiy va yordamchi ishlab chiqarish tsexlarini boshqarish hamda ular ishlab chiqarishini tashkil qilish bilan bog`liq xarajatlardir. Ularga «Xarajatlar tarkibi to`g`risidagi Nizom»ga muvofiq «Ishlab chiqarish xarakteridagi asosiy fondlar va nomoddiy aktivlar amortizatsiyasi», «Ishlab chiqarish xarakteridagi boshqa xarajatlar» kiradi.

Ustama xarajatlar - har bir birlik mahsulotga taqsimlash bazasi sifatida haqiqatda ko`pincha ishlab chiqarish ishchilari tmonidan ishlangan vaqt yoki asbob-uskuna ishlangan vaqt yoki asosiy ishlab chiqarish ishchilari mehnati xarajatlari olinadi.

FIFO - ishlab chiqarishga saraflanadigan TMZ larni baholash usuli bo`lib, o`nga ko`ra kirim qilingan birinchi partiya birinchi bo`lib chiqimga.

Franko-joyning turlari - mol etkazib beruvchi bilan xaridor o`rtasida tuzilayotgan shartnoma vaqtida franko-joy to`g`risida tuxtalib utiladi, bunda masxulotni ortib-jo`natish bilan bog`liq xarajatlarni mol etkazib beruvchi o`z zimmasiga oladi. Franko-joyning quyidagi turlari mavjud: franko-ombor mol etkazib beruvchi, franko-stantsiya jo`natish, belgilangan stantsiyagacha franko-vagon, belgilangan stantsiyagacha franko, franko-ombor xaridor

Franko-ombor mol etkazib beruvchi - bunda mahsulot ortib-jo`natish bilan bog`liq barcha xarajatlarni mol etkazib beruvchi korxona

to'lov talabnomasiga qo'shadi (ombordagi ortib-tushirish ishlarining qiymati, temiryo'l tarifi va etkazib berish hujjatlari).

Franko-ombor xaridor - bunda mol etkazib beruvchi ko'rsatilgan xarajatlardan tashqari xaridorning stantsiyadagi ortib-tushirish ishlari, uning ombordagi va omboriga etkazib berish ishlari bo'yicha xarajatlarni to'laydi (koplaydi).

Franko-stantsiya jo'natish - bu shunday narxki, u mol etkazib beruvchi to'lov-talabnomasining summasi, temiryo'l tarifi va mahsulotni vagonga ortish xarajatlari yig'indisidan iborat.

Xarajat elementlari - iqtisodiy mazmuniga ko'ra mahsulot ishlab chiqarish tannarxini tashkil qiladigan xarajat turlari. Xarajat elementlari quyidagilardan iborat:

- a) ishlab chiqarish material xarajatlari (qaytariladigan chiqindilar qiymati chiqarib tashlangan holda);
- b) ishlab chiqarish xarakteridagi mehnatga haq to'lash xarajatlari;
- c) ishlab chiqarishga taallukli ijtimoiy sug'urta ajratmalari;
- d) ishlab chiqarish ahamiyatidagi asosiy fondlar va nomoddiy aktivlar amortizatsiyasi; ishlab chiqarish ahamiyatidagi boshqa xarajatlari.

Xarajat moddalarining guruhlanishi - xarajat moddalari quyidagicha guruhlanadi:

1. Mahsulot ishlab chiqarish tannarxi:
 - a) to'g'ri va egri material xarajatlari;
 - b) to'g'ri va egri mehnat xarajatlari;
 - c) ishlab chiqarish ahamiyatidagi ustama xarajatlari qo'shilgan holda boshqa egri va to'g'ri xarajatlari.
2. Davr xarajatlari (ishlab chiqarish tannarxiga qo'shilmaydigan xarajatlari):
 - a) realizatsiya bo'yicha xarajatlari;
 - b) boshqarma (ma'muriy) bo'yicha xarajatlari;
 - c) boshqa operatsion xarajatlari va zararlari;
3. Moliyaviy faoliyat bo'yicha xarajatlari:
 - a) foizlar bo'yicha xarajatlari;
 - b) chet el valutasini bilan bog'liq operatsiyalar bo'yicha salbiy kurs farqlari;
 - c) qimmatli qog'ozlarga sarflangan mablag'larni qayta baholash;
 - d) moliyaviy faoliyat bo'yicha boshqa xarajatlari.

4. Tasodifiy zararlar.

Xarajatlar – bu foydani ko'paytirish maqsadida xo'jalik faoliyatidan kelib chiqadigan aktivlarning kamayishi yoki majburiyalarni o'z zimmasiga olish orqali ro'y beradigan iqtisodiy resurslarning kamayishidir.

Xarajatlarning guruhlanishi - «Xarajatlar tarkibi to'g'risidagi Nizom»ga muvofiq hamma xarajatlar quyidagicha guruhlanadi:

1) mahsulot ishlab chiqarish tannarxiga qo'shiladigan xarajatlar;
2) ishlab chiqarish tannarxiga qo'shilmaydigan, ammo asosiy faoliyatdan olinadigan olinadigan foydada hisobga olinadigan davr xarajatlari;

3) korxona umumxo'jalik faoliyatidan olinadigan foyda yoki zararlarda hisobga olinadigan korxona moliyaviy faoliyati bo'yicha xarajatlar;

4) daromoddan yoki foydadan soliqlar to'langunga kadar foyda yoki zarar hisob-kitobida hisobga olinadigan tasodifiy zararlar.

Xomashyo - kazib chiqaruvchi sanoat va qishloq xujaligi mahsulotlari. Masalan, neft, ruda, paxta, qand lavlagi va boshqalar xomashyoni tashkil qiladi.

Xo'jalik muomalasi (operatsiyasi) - xo'jalik jarayonlarini amalga oshirishdagi korxona mablag'lari va xo'jalik jarayonlarining harakati yoki mablag'larning harakati, ularning bir shakldan ikkinchisiga utishi. Boshqacha qilib aytadigan bo'lsak, xo'jalik muomalasi - bu mablag'lar va ularning tashkil topish manbalarining yozma holda aks ettirilgan harakati.

Shartnoma - yuridik shaxslar tomonidan turli shartlar, majburiyatlar belgilanib, tuzilgan bitim.

Shartnoma bo'yicha tannarx kalkulyatsiyasi - bu tannarxni buyurtmali kalkulyatsiya tizimi bo'lib, u ishlab chiqarish ko'p vaqt talab qilinadigan mahsulotning katta miqdordagi biletarga qo'llaniladi.

Yarim tayyor mahsulotlar - bo'larga shundan mehnat buyumlari kiradiki, ular ba'zi bir qayta ishlash bosqichlarini utagan bo'lsada, xali tayyor mahsulot holiga keltirilmagan bo'ladi. Ularning xususiyatlaridan biri qayta ishlashning texnologik jarayon rejasida ko'rsatiladigan hamma operatsiyalari biron-bir tsex yoki ishlab chiqarish uchastkasida o'tgan bo'lib, keyingi tsex yoki uchastkaga qayta ishlash uchun berishga mo'ljallangan bo'ladi.

Qo'shimcha ish haqi - ishchi va xizmatchilarning ishlamagan vaqti uchun amaldagi qonun-qoidalariga muvofiq to'lanadigan haq. Masalan,

mehnat ta'tili uchun, yoshi 18 ga etmagan usmirlarning ishlamagan soati uchun, davlat, jamoa ishlari bilan band bo'lingani uchun to'lanadigan haq va boshqalar.

ILOVALAR

1-ilova. 1100, 2000, 2300, 2500-schetlar korrespondentsiyasi³.

1100- «Ustirishdagi va bokuvdagi hayvonlar»ni hisobga oluvchi schetlar buyicha korrespondentsiya

№	Xujalik muomalalarining mazmuni	Schetlar korrespondentsiyasi		Ezuvlarni tasdiqlovchi hujjatlar
		Debet	Kredit	
1.	Esh hayvonlarning ichki bo`linmalarga (guruhdan guruhga) o`tkazilishining aks ettirilishi	1120	1110	Hayvonlarni guruhdan guruhga o`tkazish tugrisida dalolatnoma
2.	Boshqa korxona va shaxslardan sotib olingan hayvonlarning kirim qilinishi (15 schet ishlatilganda)	1510	6890	Schet-faktura, hayvonlarni kirim qilish dalolatnomasi, oldi-sotdi shartnomasi
3.	Boshqa korxona va shaxslardan sotib olingan hayvonlarning kirim qilinishi (15 schetsiz)	1110, 1120	6890	Schet-faktura, hayvonlarni kirim qilish dalolatnomasi, oldi-sotdi shartnomasi
4.	Hayvonlarning qo`shilgan va usgan vaznining kirim qilinishi	1110, 1120	2010	Hayvonlarning ulgan kaydnomasi, dalolatnoma
5.	Mol etkazib beruvchilardan kelib tushgan esh hayvonlar uchun to`lovning aktseptlanishi	1110	6010	Schet-faktura, yukxati
6.	Ilgari aks ettirilgan, lekin undirilmasligi ma'lum bo`lgan da'volar summasining hisobdan chiqarilishi	1110, 1120	4210	Tijorat dalolatnomasi va raddiya
7.	Korxonaning mulki tarkibida sotib olinadigan esh hayvonlarning hisobda aks ettirilishi	1110	8511-8513	Oldi-sotdi shartnomasi, kirim qilish dalolatnomasi
8.	Korxonaga podani xaydab keluvchilar uchun mehnat	1110, 1120	6710	Mehnat vaqtini hisobga olish tabeli

³ 21-Buxgalteriya xisobining milliy standarti – «Xujalik yurituvchi sub'ektlarning moliyaviy-xujalik faoliyati buxgalteriya xisobi schetlarining rejasi va uni kullash buyicha kursatma (yuriknoma)»dan olindi.

№	Xujalik muomalalarining mazmuni	Schetlar korrespondentsiyasi		Ezuvlarni tasdiqlovchi hujjatlar
		Debet	Kredit	
	haqining hisoblanishi			va hisoblashish-to'lov kaydnomasi
9.	Hayvonlarni etkazib kelish buyicha hisobdor shaxslar sarflagan xarajatlarning aks ettirilishi	1110, 1120	6870	Bunak hisoboti va ilova qilinadigan tasdiqlovchi hujjatlar
10.	Ustav fondiga badal sifatida ta'sisчилardan olingan esh hayvonlarning kirim qilinishi	1110, 1120	4710	Hayvonlarni kirim qilish dalolatnomasi, yukxati
11.	Yirik shoxli qoramollardan olingan buzoqlarning kirim qilinishi	1110	2010	Kirim qilish tugrisida dalolatnoma
12.	Ishchi otlaridan olingan kulunlarning kirim qilinishi	1110	2310	Kulunlarni kirim qilinishi dalolatnomasi
13.	Boshqa shaxslardan tekinga olingan qoramollarning kirim qilinishi	1120	8523	Hayvonlarni kirim qilinishi tugrisida dalolatnoma
14.	Esh mollarning asosiy podaga o'tkazilishini aks ettirish	0840	1110	Hayvonlarni asosiy podaga o'tkazish dalolatnomasi
15.	Esh hayvonlarning chetga sotilishining aks ettirilishi	9110	1110	Poda kaydnomasi va chikib ketishga yukxat
16.	Esh hayvonlarni berish kurinishida kiska muddatli moliyaviy kuyilmalarning aks ettirilishi	9220	1110	Moliyalashtirish tugrisida shartnoma
17.	Avlod korxonalariga esh hayvonlarni o'tkazishning aks ettirilishi	9220	1110	Hayvonlarning chikib ketishi tugrisida dalolatnomasi, yukxati
18.	Alohida balansga ajratilgan bo'linmalarga esh hayvonlarni o'tkazilishining aks ettirilishi	9220	1110	Hayvonlarni chikib ketishi tugrisida dalolatnoma, yukxati
19.	Inventarizatsiya natijasida esh qoramollar buyicha aniqlangan kamomadlarning aks ettirilishi	9220	1110	Inventarizatsiya ruyxati
20.	Epizootiya (ulat) natijasida	9720	1110	Hayvonlarni chikib

№	Xujalik muomalalarining mazmuni	Schetlar korrespondentsiyasi		Ezuvlarni tasdiqlovchi hujjatlar
		Debet	Kredit	
	ulgan esh hayvonlarning hisobdan chiqarilishi			ketish tugrisida dalolatnomasi veterinar vrach xulosasi
21.	Barter tartibida esh hayvonlarning hisobdan chiqarilishi	9220	1110	Hayvonlarning chikib ketishi tugrisida dalolatnoma va oldi-sotdi shartnomasi

2000- «Asosiy ishlab chiqarish»ni xarajatlarining hisobga oluvchi schetning korrespondentsiyasi

№	Xujalik muomalalarining mazmuni	Schetlar korrespondentsiyasi		Ezuvlarni tasdiqlovchi hujjatlar
		Debet	Kredit	
1.	Bevosita mahsulot ishlab chiqarish (ish va xizmat ko`rsatish)da katnashadigan asosiy vositalar eskirishining aks ettirilishi	2010	0211-0299	Asosiy vositalarning eskirishini hisoblash jadvali
2.	Mahsulot ishlab chiqarish va xizmat ko`rsatishga tegishli NMAarning eskirishi	2010	0510-0590	NMAga amortizatsiyasi hisobi
3.	Mahsulot ishlab chiqarish, ish bajarish va xizmat ko`rsatish buyicha sarflangan material xarajatlarining hisobdan chiqarilishi	2010	1010-1090	Yukxat, hisobdan chiqarish dalolatnomasi, bajarilgan ishlar dalolatnomasi
4.	Chorvachilik mahsulotini olish uchun hayvonlarning suyilishini aks ettirish	2010	1110	Yukxat, hisobdan chiqarish dalolatnomasi
5.	Foydalanishga berishda birligi uchun belgilangan limitgacha qiymatga ega bo`lgan ATB asosiy ishlab chiqarish extiejariga hisobdan chiqarilishi	2010	1210	buxgalteriyaning hisobi
6.	Mahsulotni tayerlash, xizmat ko`rsatish va ishlarni bajarishda bevosita katnashadigan ATB	2010	1310	Buxgalteriyaning hisobi

№	Xujalik muomalalarining mazmuni	Schetlar korrespondentsiyasi		Ezuvlarni tasdiqlovichi hujjatlar
		Debet	Kredit	
	(maxsus asboblari, maxsus jixozlar va xokazo)ning, ijara buyumlarining eskirishini aks ettirish			
7.	Materiallarning qiymatlaridagi farqlarning tegishli xissada asosiy ishlab chiqarishga hisobdan chiqarilishi (storno eki kushimcha ezuvi)	2010	1610	Buxgalteriyani hisobi
8.	Uzi ishlab chiqargan yarim tayyor mahsulotlarning keyinchalik qayta ishlash uchun asosiy ishlab chiqarish tsexlariga yuborilishi	2010	2110	Yukxat, hisobdan chiqarish dalolatnomasi
9.	YOrdamchi tsexlarning xarajatlari asosiy ishlab chiqarish mahsulotlari va xizmatlarining tannarxiga kiritilishi	2010	2310	Tannarxni hisoblash jadvali
10.	Umumiy ishlab chiqarish xarajatlarning asosiy ishlab chiqarish mahsulotlari va xizmatlari tannarxiga kiritilishi; bilvosita xarajatlari (ishlab chiqarish xarajatlari)	2010	2510	Tannarxni hisoblash jadvali
11.	Yaroqsiz mahsulotlardan yo'kotishlar summasining asosiy ishlab chiqarish mahsuloti va xizmatlari tannarxiga kiritilishi; yaroqsiz mahsulot qilingan mahsulotlarning qaytarilishi	2010	2610	Yaroqsiz mahsulotlar haqidagi ma'lumotnoma, buxgalteriyani hisobi
12.	Ilgari kelguvsi davr xarajatlari sifatida aks ettirilgan xarajatlarning tegishli xissasining mahsulot tannarxiga ezib kuyilishi	2010	3110-3190	Buxgalteriyani hisobi
13.	Tayyor mahsulotlarning ishlab chiqarish xarajatlari sarflanishi; kiritilgan tayyor mahsulotning ombordan	2010	2810	Yukxati, hisobdan chiqarish dalolatnomasi

№	Xujalik muomalalarining mazmuni	Schetlar korrespondentsiyasi		Ezuvlarni tasdiqlovchi hujjatlar
		Debet	Kredit	
	tsexlarga qaytarilishi (kushimcha ishlashga va xokazo)			
14.	Xarid qilingan butlovchi buyumlarning asosiy ishlab chiqarish extiejlariga yuborilishi, tovarlarning qayta ishlashga yuborilishi	2010	2810	Yukxati
15.	Bevosita mahsulot (ish, xizmat)lar tannarxiga kiritilgan turli xil nakd pullar bilan to'langan sarflar	2010	5010-5020	Hisobdor shaxslarning hisoboti
16.	Asosiy ishlab chiqarish xarajatlariga kiritilgan hisoblashish eki valuta schetlaridan, shuningdek banklardagi maxsus schetlardan sarflangan turli bevosita xarajatlar	2010	5110 5210-5220 5510-5530	Hisoblashish, valuta va maxsus schetlardan kuchirmalar
17.	Mol etkazib beruvchilarning bevosita tsexlarga ko'rsatilgan xizmatlari va ishlab chiqarish uchun kelib tushgan moddiy boyliklar uchun schetlarning aktseptlanishi	2010	6010	Shartnoma, schet-faktura, yukxat
18.	Kondirilmagan da'volar summasing asosiy ishlab chiqarish mahsulotlari, ish va xizmatlarning tannarxiga kiritilishi	2010	4210	Inkor xati, sudning karori va dalolatnoma
19.	Mulkiy va shaxsiy sug'urta xarajatlari summasining asosiy ishlab chiqarish xarajatlariga ezib kuyilishi (sug'urta tashkilotlariga karz)	2010	6520	Buxgalteriyaning hisobi
20.	Budjetdan tashqari jamgarmalarga kiritilishi lozim bo'lgan, asosiy ishlab chiqarishning mahsulotlari va xizmatlari tannarxiga kiritilgan	2010	6530	Buxgalteriyaning hisobi

№	Xujalik muomalalarining mazmuni	Schetlar korrespondentsiyasi		Ezuvlarni tasdiqlovichi hujjatlar
		Debet	Kredit	
	summalarining aks ettirilishi			
21.	Asosiy ishlab chiqarish xodimlari mehnatiga haq to'lash buyicha ijtimoiy sug'urta va ta'minotiga ajratmalarning amalga oshirilishi	2010	6520	Buxgalteriyaning hisobi
22.	Asosiy ishlab chiqarish xodimlariga mehnatga haq to'lash buyicha summalarining hisoblanishi	2010	6710	Buxgalteriyaning hisobi
23.	Hisobdor shaxslar tomonidan amalga oshirilgan sarflarning ishlab chiqarish xarajatlarida aks ettirilishi	2010	6530	Hisobdor shaxslar hisoboti, buxgalteriyaning hisobi, shartnoma
24.	Asosiy ishlab chiqarish tsexlariga ko'rsatgan xizmatlari uchun turli korxonalarga bo'lgan karzlarining aks ettirilishi	2010	6890	Bajarilgan ish (xizmatlar) solishtirish dalolatnomasi
25.	Alohida balansga ajratilgan ichki bo'linmalarining asosiy ishlab chiqarish xarajatlari summasining aks ettirilishi	2010	6110	Yukxatlari, hisobdan chiqarish dalolatnomasi, buxgalteriyaning hisobi kitobi
26.	Asosiy tsexlarda aniqlangan tugallanmagan ishlab chiqarishning ortiqcha miqdorlarining (kamomadlarga nisbatan ortiqcha bo'lgan summada) kirim qilinishi	2010	9390	Inventarizatsiya dalolatnomasi
27.	Moddiy boyliklar buyicha aniqlangan kamomad qiymatining (shu jumladan, tabiiy zarar) qonunchilikka asosan asosiy ishlab chiqarish xarajatlariga kiritilishi	2010	4030	Inventarizatsiya dalolatnomasi
28.	Tugallanmagan mahsulot (yarim fabrikatlar)ning bir qismi, shuningdek yordamchi tsexlar ko'rsatgan xizmatlarning boshqa korxonalarga uzoq muddatli	9110	2010, 2110	Shartnoma, yukxati, schet-faktura

№	Xujalik muomalalarining mazmuni	Schetlar korrespondentsiyasi		Ezuvlarni tasdiqlovichi hujjatlar
		Debet	Kredit	
	moliyaviy kuyilmalar sarflashlar tartibida berilishi (sotib olingan kimmatli kogoslar qiymati to`langan)			
29.	Materiallarning ishlab chiqarishdan qaytarilishining aks ettirilishi uzi ishlab chiqargan mahsulotlar, shuningdek qaytarilgan chiqindilarning kirim qilinishi	1010-1050	2010	Yukxati, qabul qilish dalolatnomasi
30.	Hayvonlarni ustirish va burdokiga bokishga doir joriy xarajatlarni hayvonlarning tannarxiga (ortgan va usgan vazniga) kiritish; hayvonlarning tugilgan bolalarining aks ettirilishi	1110	2010	Buxgalteriyaning hisobi
31.	Birligi uchun belgilangan me'ergacha qiymatga ega bo`lgan ATBning qaytarilishining aks ettirilishi. (ilgari asosiy ishlab chiqarish xarajatlariga hisobdan chiqarilgan); uzi ishlab chiqargan ATB kirim qilinishi	1210	2010	Yukxati
32.	Tugallanmagan ishlab chiqarishning summalarini kamaytirish (arzonlashtirish) tomoniga qayta baholanishi (asosiy tsexlarda)	9439	2010	Buxgalteriyaning hisobi
33.	Tugallanmagan ishlab chiqarishdan yarim tayyor mahsulotlarning tegishli hujjatlarga asosan omborlarga kirim qilinishi (yarimfabrikatli variant)	2110	2010	Yukxati
34.	Asosiy ishlab chiqarishda aniqlangan yaroqsiz mahsulotdan kurilgan yo`kotishlarning hisobdan	2610	2010	Buxgalteriyaning hisobi

№	Xujalik muomalalarining mazmuni	Schetlar korrespondentsiyasi		Ezuvlarni tasdiqlovchi hujjatlar
		Debet	Kredit	
	chiqarilishi			
35.	Xizmat ko'rsatuvchi ishlab chiqarish va xujaliklarga, uz qurilishiga berib yuborilgan asosiy ishlab chiqarishning mahsulotlari va xizmatlarining tushum sifatida aks ettirilishi	9110-9130, 0810, 2320	2010 9010-9030	Yukxati
36.	Ishlab chiqarishdan olingan mahsulot (ish, xizmat)larning haqiqiy tannarxda aks ettirilishi	2810	2010	Yukxati, buxgalteriyaning hisobi
37.	Savdo va ta'minot tashkilotlari va korxonalaridagi uzi ishlab chiqargan tovarlarning (qayta ishlashdagi va xokazo) kirim qilinishi	2910	2010	Yukxati, buxgalteriyaning hisobi
38.	Asosiy tsexlar bajargan ish va ko'rsatgan xizmatlarning sotilishini aks ettirish; tugallangan va buyurtmachi qabul qilgan ishlarning bosqichlari buyicha xarajatlar summasining hisobdan chiqarilishi	9110-9130	2010	Karor (buyruk), o'tkazish haqidagi, yukxati, schet-faktura
39.	Asosiy ishlab chiqarish tsexlaridan turli xil boyliklar (detallar va xokazo)ning tekinga berilishi	9110-9130	2010	O'tkazish haqidagi buyruk (karor), yukxat, schet-faktura
40.	Tugallanmagan mahsulot (yarim fabrikatlar)ning bir qismi boshqa korxonalarga kiska muddatli moliyaviy kuyilmalar sarf etish tartibida berilishi (kimmatbaho kogoslar qiymatining koplanishi)	9110-9130 5810	2010, 2110 9010-9030	Shartnoma yukxati
41.	Alohida balansga ajratilgan ichki bo'linmalarga bajarilgan ishlar va ko'rsatilgan xizmatlar tannarxining hisobdan chiqarilishi (yarim tayyor mahsulotsiz usulda)	9110-9130 4110	2010 9010-9030	Bajarilgan ishlar dalolatnomasi, schet-faktura, buxgalteriyaning hisobi

№	Xujalik muomalalarining mazmuni	Schetlar korrespondentsiyasi		Ezuvlarni tasdiqlovchi hujjatlar
		Debet	Kredit	
42.	Bekor qilingan ishlab chiqarish buyurtmalari buyicha xarajatlar; mahsulot bermagan ishlab chiqarish xarajatlarning hisobdan chiqarilishi	9439	2010	Buyruk, buxgalteriyaning hisobi
43.	Tabiiy ofatlar, enginlar va shu kabilar tufayli tugallanmagan ishlab chiqarishdagi yo`kotishlar summasining hisobdan chiqarilishi	9720	2010	Yo`kotishlar tugrisidagi dalolatnoma, buxgalteriyaning hisobi
44.	Asosiy ishlab chiqarishda aniqlangan moddiy boyliklarning kamomadi summasining aks ettirilishi	4630	2010	Inventarizatsiya dalolatnomasi

2300- «YOrdamchi va boshqa ishlab chiqarishlar»ni hisobga olish buyicha schetlarning korrespondentsiyasi

№	Xujalik muomalalarining mazmuni	Schetlar korrespondentsiyasi		Ezuvlarni tasdiqlovchi hujjatlar
		Debet	Kredit	
1.	YOrdamchi va boshqa ishlab chiqarish tsexlarida ishlatiladigan asosiy vositalarning eskirishini aks ettirish	2310-2320	0211-0290	Asosiy vositalarning eskirishini hisoblash jadvali
2.	YOrdamchi va boshqa ishlab chiqarishda foydalaniladigan NMA amortizatsiya summasining hisoblanishi	2310-2320	0510-0590	NMA amortizatsiyasiNI hisoblash jadvali
3.	YOrdamchi va boshqa ishlab chiqarishlarning boshlangich extiejlarga material qiymatliklarining sarflanishi	2310-2320	1010-1070-1090	Yukxati, talabnoma
4.	Hayvonlarning mahsulot	2310-	1110	Asosiy vositalarning

№	Xujalik muomalalarining mazmuni	Schetlar korrespondentsiyasi		Ezuvlarni tasdiqlovchi hujjatlar
		Debet	Kredit	
	olish uchun suyilishi xarajatlarining aks ettirish	2320		chiqishini aks ettiruvchi dalolatnoma
5.	YOrdamchi va boshqa ishlab chiqarish extiejlari uchun ATB sarflanishi	2310-2320	1210	Yukxati, talabnoma
6.	YOrdamchi va boshqa ishlab chiqarish tsexlarida ishlatiladigan ATBning eskirishining aks ettirilishi	2310-2320	1310	Amortizatsiya hisoblash jadvali
7.	YOrdamchi va boshqa ishlab chiqarishlar tsexlaridagi tugallanmagan ishlab chiqarishlar summalarining bahosini oshirish tomoniga qayta baholanishi (kushimcha baholash)	2310-2320	9370	Boshqaruv karori, buxgalteriyaning hisobi
8.	Materiallar qiymatidagi farqlar summasining hisoblangan xissada yordamchi va boshqa ishlab chiqarishlar schetlariga hisobdan chiqarilishi (oddiy ezuv bilan eki storno)	2310-2320	1610	Buxgalteriyaning hisobi
9.	Uzida ishlab chiqarilgan yarim tayyor mahsulotlarning yordamchi va boshqa ishlab chiqarishlar extiejlari uchun sarflanishi	2310-2320	2110	Yukxati, talabnoma
10.	Umumiy ishlab chiqarish sarflarining tegishli xissasi yordamchi va boshqa ishlab chiqarishlarning	2310-2320	2510	Buxgalteriyaning hisobi, taqsimot jadvali

№	Xujalik muomalalarining mazmuni	Schetlar korrespondentsiyasi		Ezuvlarni tasdiqlovchi hujjatlar
		Debet	Kredit	
	mahsulotlari, ishlar va xizmatlari tannarxiga kiritilishi			
11	Yaroqsiz mahsulotdan kurilgan yo`kotishlarni yordamchi va boshqa ishlab chiqarishlar mahsulotlarining tannarxiga kiritilishi	2310-2320	2610	Yaroqsiz mahsulotlar tugrisidagi dalolatnoma, buxgalteriyaning hisobi
12	Kelguvsi davrlar xarajatlarining xissasi yordamchi va boshqa ishlab chiqarishlarning mahsulotlari, ishlari va xizmatlari tannarxiga kiritilishi	2310-2320	3110-3190	Buxgalteriyaning hisobi, taqsimot jadvali
13	Asosiy tsexlar mahsulotlarining bir qismini yordamchi va boshqa ishlab chiqarishlarning extiejlari uchun ishlatish	2310-2320	2810	Yukxati, talabnoma
14	YOordamchi va boshqa ishlab chiqarishlarning turli xarajatlariga nakd pullar bilan haq to`lanishi	2310-2320	5010	Xarajatlar yuzasidan javobgar shaxslarning hisoboti
15	Mahsulot etkazib beruvchilarning yordamchi va boshqa ishlab chiqarishlarga kelib tushgan moddiy boyliklar (suv, bug, energiya, aloqa va xokazo) va ularga ko`rsatgan xizmatlar uchun to`lov schetlarining aktseptlanishi	2310-2320	6010, 6890	Shartnoma, schet-faktura
16	YOordamchi tsexlarga	2310-	4210	Sud karori, korxona

№	Xujalik muomalalarining mazmuni	Schetlar korrespondentsiyasi		Ezuvlarni tasdiqlovchi hujjatlar
		Debet	Kredit	
.	tegishli kondirilmagan da'volar summasining ularning mahsulotlari, ishlari va xizmatlari tannarxiga hisobdan chiqarilishi	2320		boshqaruvi karori, buxgalteriyaning hisobi
17.	YOrdamchi tsex va boshqa ishlab chiqarish xodimlarining majburiy sug`urtasiga xarajatlarning aks ettirilishi (sug`urta tashkilotlariga karz)	2310-2320	6510	Buxgalteriyaning hisobi
18.	YOrdamchi ishlab chiqarish tsexlarining ijtimoiy sug`urta xarajatlari va xodimlarning maxnatiga haq to`lash summalariga nisbatan ijtimoiy ta'minotga ajratmalarning aks ettirilishi	2310-2320	6520	Buxgalteriyaning hisobi
19.	Budjetdan tashqari jamgarmalarga badal sifatida to`lanishi lozim bo`lgan summalarining hisoblanishi (yordamchi va boshqa ishlab chiqarishlarning xarajatlari buyicha)	2310-2320	6530	Buxgalteriyaning hisobi
20.	YOrdamchi ishlab chiqarishda band bo`lgan xodimlarning mehnatiga haq to`lash buyicha summalarining hisoblanishi	2310-2320	6710	Bajarilgan ishlar akti, hisobga olish, buxgalteriyaning hisobi
21.	Turli korxonalarning yordamchi va boshqa ishlab chiqarish tsexlariga va	2310-2320	6890	Shartnoma, bajarilgan ish, xizmatlarni qabul

№	Xujalik muomalalarining mazmuni	Schetlar korrespondentsiyasi		Ezuvlarni tasdiqlovchi hujjatlar
		Debet	Kredit	
	ko`rsatgan xizmatlari yuzasidan sodir bo`lgan karz summasining aks ettirilishi			qilish dalolatnomasi
22	Hisobdor shaxslarning olgan summalaridan ortiqcha sarflangan xarajatlari buyicha karzning aks ettirilishi	2310-2320	6870	Hisobdor shaxslarning hisoboti, buxgalteriyaning hisoblari
23	Alohida balansga ajratilgan ichki bo`linmalarning yordamchi va boshqa ishlab chiqarish tsexlariga ko`rsatgan xizmatlari summasining aks ettirilishi	2310-2320	6110	Shartnoma, yukxati, schet-faktura
24	YOrdamchi va boshqa tsexlardagi tugallanmagan ishlab chiqarishning ortiqcha miqdorining kirim qilinishi (kamomadlardan ortiq bo`lgan summada)	2310-2320	9390	Inventarizatsiya dalolatnomasi, buxgalteriyaning hisobi
25	Etishmaydigan moddiy boyliklarning qiymatining yordamchi va boshqa ishlab chiqarish xizmatlari tannarxiga kiritilishi	2310-2320	4630	Inventarizatsiya dalolatnomasi, buxgalteriyaning hisobi
26	YOrdamchi tsex va boshqa tsex ishlari va xizmatlarining bir qismi boshqa korxonalarga uzoq muddatli moliyaviy kuyilmalar tartibida ko`rsatilishi (xarid qilingan kimmatli kogozlar qiymatining uzilishi)	91100610	2310-23209010-9030	Shartnoma, yukxati, schet-faktura, bajarilgan ishlar dalolatnomasi
27	Urnatiladigan uskunani	0710-	2310-	Transport

№	Xujalik muomalalarining mazmuni	Schetlar korrespondentsiyasi		Ezuvlarni tasdiqlovchi hujjatlar
		Debet	Kredit	
.	xarid qilishda yordamchi ishlab chiqarishlar amalga oshirgan xarajatlarining (shu jumladan, transport xizmatlari) uskunalar tannarxiga kiritilishi	0720	2320	tashkilotlarining schetlari, bildirishnoma, bajarilgan ishlarning dalolatnomasi, buxgalteriyaning hisobi
28.	Kapital kuyilmalarni sarflashlarni amalga oshirishda yordamchi va boshqa ishlab chiqarishlarning ish va xizmatlari qiymatining hisobdan chiqarilishi	0810-0890	2310-2320	Bajarilgan ishlarning dalolatnomasi
29.	Ilgari yordamchi va boshqa ishlab chiqarishning extiejlariga hisobdan chiqarilgan materiallarning qaytarilishining aks ettirilishi; yordamchi va boshqa ishlab chiqarishdan materiallarning kirim qilinishi; qaytarilgan chiqindilarning qiymati va xokazo	1010-1070-1090	2310-2320	Buxgalteriyaning hisob. Yukxati
30.	YOrdamchi va boshqa tsexlar xarajatlarining ustirishdagi va burdokiga bokilaetgan hayvonlarning tannarxiga kiritilishi	1110	2310-2320	Tannarxni hisoblash jadvali
31.	Ilgari yordamchi tsexlarning xarajatlariga hisobdan chiqarilgan ATB qaytarilishining aks ettirilishi	1220	2310-2320	Buxgalteriyaning hisobi

№	Xujalik muomalalarining mazmuni	Schetlar korrespondentsiyasi		Ezuylarni tasdiqlovchi hujjatlar
		Debet	Kredit	
32	YOrdamchi tsexlardagi tugallanmagan ishlab chiqarish summalarining kamaytirish tomoniga qayta baholanishi (arzonlashtirish)	9439	2310-2320	Korxona boshqaruvchisi karori, buxgalteriyaning hisobi
33	YOrdamchi tsexlarning materiallarni tayerlash va xarid qilishda ko'rsatgan xizmatlari va xarajatlarining ushbu materiallarning tannarxiga kiritilishi	1510	2310-2320	Yukxati, bajarilgan ish, xizmatlar dalolatnomasi, buxgalteriyaning hisobi
34	Ijaraga olingan asosiy vositalarni kapital ta'mirlash xarajatlarining yordamchi ishlab chiqarishdan hisobdan chiqarilishi (ijarachi hisobidan)	6890	2310-2320	Bajarilgan ishlar, xizmatlar dalolatnomasi, buxgalteriyaning hisobi
35	YOrdamchi va boshqa tsex xarajatlari va xizmatlari summasining ishlab chiqargan yarim tayyor mahsulotlarning tannarxiga kiritilishi	2110	2310-2320	Bajarilgan ish, xizmatlar dalolatnomasi, buxgalteriyaning hisobi
36	Asosiy ishlab chiqarishning yaroqsiz mahsulotlardan kurgan yo'kotishlariga yordamchi tsexlarning ushbu yaroqsiz mahsulotlarni tuzatishga doir xarajatlarining kiritilishi	2610	2310-2320	Yaroqsiz mahsulotlar tugrisidagi dalolatnoma, buxgalteriyaning hisobi
37	YOrdamchi tsexlarning xarajatlari va xizmatlarining xissasi buyicha ularning taqsimlanishi:	2320 9450	2310 2310	Buxgalteriyaning taqsimlash hisobi

№	Xujalik muomalalarining mazmuni	Schetlar korrespondentsiyasi		Ezuvlarni tasdiqlovchi hujjatlar
		Debet	Kredit	
	■ xizmat ko`rsatuvchi ishlab chiqarishga;</li> <li>■ xizmat ko`rsatuvchi xujalikka			
38	YOrdamchi va boshqa ishlab chiqarishning tegishli xarajatlari va xizmatlarning kelguvsi davr xarajatlari tarkibiga kiritilishi	3110-3190	2310-2320	Buxgalteriyaning hisobi
39	YOrdamchi tsex va boshqa ishlab chiqarishlarning tayyor mahsulotlarining kirim qilinishi	2810	2310-2320	Qabul qilish-topshirish dalolatnomasi
40	YOrdamchi va boshqa tsex mahsulotlarining tovar sifatida kirim qilinishi (bu schet savdo qayta ishlash korxonalari va shu kabilarda qo`llanilganda)	2910	2310-2320	Yukxati, qabul qilish-topshirish dalolatnomasi
41	YOrdamchi va boshqa ishlab chiqarishlarning mahsulotlarni etkazish va sotishda ko`rsatgan xizmatlarining hisobdan chiqarilishi	9410	2310-2320	Bajarilgan ish, xizmatlar dalolanomasi, buxgalteriyaning hisobi
42	YOrdamchi va boshqa tsexlarning chetga yuklab junatgan mahsulotlari va buyurtmachilarga ko`rsatgan ish va xizmatlarining haqiqiy tannarxi buyicha aks ettirilishi	9110-9130	2310-2320	Shartnoma, schet-faktura
43	YOrdamchi va boshqa tsexlarning chetga sotgan mahsulotlari va ko`rsatgan	9110-9130	2310, 2320	Shartnoma, schet-faktura

№	Xujalik muomalalarining mazmuni	Schetlar korrespondentsiyasi		Ezuylarni tasdiqlovchi hujjatlar
		Debet	Kredit	
	xizmatlari sotilishining aks ettirilishi			
44.	YOrdamchi va boshqa tsexlarning kuyidagi vositalarni sotishdagi va boshqa chiqarib yuborishdagi xarajatlarining hisobdan chiqarilishi: ■ asosiy vositalar; ■ nomoddiy aktivlar	9210 9220	2310, 2320 2310, 2320	Xizmatlar qiymatini hisoblash
45.	YOrdamchi va boshqa tsexlarning boshqa korxonalarga kiska muddatli moliyaviy kuyilmalar sarflashlar tartibida berilgan xizmatlarning ko`rsatilishi	9110- 9130 (5810	2310- 2320 9010- 9020)	Shartnoma, schet-faktura, yukxati
46.	YOrdamchi va boshqa tsexlarning xodimlarga ko`rsatgan xizmatlari qiymatining ushlab kolinishi	6710	2310- 2320	Shartnoma, xizmatlar qiymatini hisoblash
47.	YOrdamchi tsexlar xarajatlarining bir qismini aybdor shaxslar tomonidan qonunga binoan koplaydigan moddiy zarar summasiga kiritilishi	4630	2310- 2320	Zarar tugrisida dalolatnoma, buxgalteriyaning hisobi
48.	YOrdamchi ishlab chiqarish va boshqa ishlab chiqarishning avlod korxonalariga ko`rsatilgan xizmatlar buyicha xarajatlarning hisobdan chiqarilishi	4890	2310- 2320	Shartnoma, schet-faktura, yukxati
49.	YOrdamchi va boshqa ishlab chiqarishning alohida	4110	2310- 2320	Shartnoma, schet-faktura

№	Xujalik muomalalarining mazmuni	Schetlar korrespondentsiyasi		Ezuvlarni tasdiqlovchi hujjatlar
		Debet	Kredit	
	balanslarga ajratilgan ichki bo`linmalarga ko`rsatgan xizmatlarining hisobdan chiqarilishi eki ularga mahsulotlarning berilishi			
50 .	YOrdamchi ishlab chiqarish bekor qilingan buyurtmalar, mahsulot bermagan xarajatlarga kiritiladigan sarflarning hisobdan chiqarilishi	9239	2310-2320	Korxona boshqaruvchisining karori, buxgalteriyaning hisobi
51 .	Tabiiy ofatlardan, engin va shu kabilardan kurilgan zararlarning yordamchi va boshqa ishlab chiqarish tsexlari hisobiga hisobdan chiqarilishi	9720	2310-2320	Yo`kotishlar tugrisidagi dalolatnoma
52 .	YOrdamchi va boshqa ishlab chiqarish tsexlarida aniqlangan kamomadlar va buzilishlarning aks ettirilishi	4530	2310-2320	Inventarizatsiya dalolatnomasi
53 .	Ijaraga olingan asosiy vositalarni ijaraga beruvchi hisobidan kapital tuzatish uchun sarflangan xarajatlarning aks ettirilishi	4890	2310-2320	Shartnoma, bajarilgan ish, xizmatlar dalolatnomasi
54 .	Qaytariladigan va ko`p marta aylanadigan idishlar buyicha xarajatlar va yo`kotishlarning aks ettirilishi	9439	2310-2320	Idishlarni qabul kilib olish dalolatnomasi, yukxati

2500- «Umumishlab chiqarish sarflari»ni hisobga oluvchi schetlarning korrespondentsiyasi

№	Xujalik muomalalarining mazmuni	Schetlar korrespondentsiyasi		Ezuvlarni tasdiqlovich hujjatlar
		Debet	Kredit	
1.	Ishlab chiqarishga xizmat ko'rsatishda katnashaetgan ishlab chiqarish uskunalari va imoratlariga eskirishning hisoblanishi	2510	0220-0260 0290, 0299	Asosiy vositalarning eskirishini hisoblash kaydnomasi
2.	Ishlab chiqarishga, uskunalariga xizmat ko'rsatish, ishlab chiqarish xonalari va shu kabilarni asrab turish buyicha foydalanilaetgan NMA amortizatsiyasining hisoblanishi	2510	0510, 0530, 0550, 0590	NMA eskirishini hisoblash kaydnomasi
3.	Ishlab chiqarishga, uskunalariga va xonalarga xizmat ko'rsatish maksadida materiallarning sarflanishi	2510	1010-1050 1090	Yukxati
4.	Foydalanishga berishda birligi uchun belgilangan limitgacha qiymatga ega bo'lgan ishlab chiqarishga xizmat ko'rsatish uchun mo'ljallangan ATB hisobdan chiqarilishi	2510	1210, 1230	Yukxati, buxgalteriyaning hisobi
5.	TSexlarga xizmatlar ko'rsatishda foydalanilaetgan ATBga eskirish hisoblanishi	2510	1310	Eskirish hisob kaydnomasi
6.	TSexlarga xizmat ko'rsatish maksadlarida ishlatilgan materiallarning qiymatidagi farqlarning hisobdan chiqarilishi (ijobiy farq eki storno)	2510	1610	Buxgalteriyaning hisobi
7.	Uzi ishlab chiqargan yarim	2510	2110	Yukxati, talabnoma

№	Xujalik muomalalarining mazmuni	Schetlar korrespondentsiyasi		Ezuvlarni tasdiqlovich hujjatlar
		Debet	Kredit	
	tayyor mahsulotlarning tsexlarga xizmat ko'rsatish maksadlari uchun berib yuborilishi (sinovlar, tajribalarning o'tkazilishi)			
8.	YOrdamchi ishlab chiqarishning xizmatlarini tsexlarga xizmat ko'rsatishga doir xarajatlarga hisobdan chiqarilishi (shu jumladan, ijaraga olingan asosiy vositalarning ijarachi hisobidan kapital ta'mirlanishi)	2510	2310	Bajarilgan ish, xizmatlar dalolatnomasi, bildirishnoma
9.	Nosanoat ishlab chiqarish xizmatlarining umumishlab chiqarish xarajatlariga ezib kuyilishi	2510	3110-3190	Buxgalteriyaning hisobi
10.	Kelguvsi davr xarajatlari qiymatining umumishlab chiqarish xarajatlariga ezib kuyilishi (navbatdagi hisobot davri kelishida)	2510	3110-3190	Buxgalteriyaning hisobi
11.	Tayyor mahsulotning bir qismining ishlab chiqarishga xizmat ko'rsatish uchun uz extiejlarga yo'naltirilishi	2510	2310	Yukxati
12.	Ba'zi umumishlab chiqarish xarajatlari qiymatining kassadan nakd pul bilan to'lanishi	2510	5010	Kassaning chiqim orderi
13.	Hisoblashish eki valuta schetidan tsexlarga xizmat ko'rsatishga yo'naltirlgan	2510	5110, 5210	Shartnoma, schet-faktura, bajarilgan ish, xizmat

№	Xujalik muomalalarining mazmuni	Schetlar korrespondentsiyasi		Ezuvlarni tasdiqlovich hujjatlar
		Debet	Kredit	
	xarajat schetlarining to'lanishi			dalolatnomasi
14.	Ishlab chiqarishga xizmat ko'rsatish buyicha (energiya, suv, gaz, aloqa va xokazo) etkazib beruvchilarning schetlarini aktseptlash	2510	6010	Shartnoma, schet-faktura
15.	Ilgari takdim etilgan, lekin kondirilmaydigan da'volar summasining umumishlab chiqarish xarajatlariga hisobdan chiqarilishi	2510	4210	Sud karori, korxona boshqaruvchisi karori, buxgalteriyaning hisobi
16.	Ishlab chiqarishda xizmat ko'rsatishda band bo'lgan xodimlarning shaxsiy sug'urtasi, shuningdek ishlab chiqarishga oid mulkning majburiy sug'urtasiga doir karzlarning aks ettirilishi	2510	6510, 6520	Sug'urta shartnomasi, buxgalteriyaning hisobi
17.	Budjetdan tashqari jamgarmalarga kiritilishi lozim bo'lgan summalarning umumishlab chiqarish xarajatlarida aks ettirilishi	2510	6530	Buxgalteriyaning hisobi
18.	Ishlab chiqarishga xizmat ko'rsatishda band bo'lgan xodimlarning mehnat haqiga nisbatan ijtimoiy sug'urta va pensiya jamgarmasiga ajratmalarning amalga oshirilishi	2510	6520	Buxgalteriyaning hisobi
19.	Ishlab chiqarishga xizmat ko'rsatishda band bo'lgan	2510	6710	Ish vaqtini hisobga olish tabeli,

№	Xujalik muomalalarining mazmuni	Schetlar korrespondentsiyasi		Ezuvlarni tasdiqlovich hujjatlar
		Debet	Kredit	
	xodimlarning mehnat haqi xarajatlarning hisoblanishi			buxgalteriyaning hisobi
20.	Alohida balanslarga ajratilgan ichki bo`linmalar amalga oshirgan ishlab chiqarish va xizmat ko`rsatish buyicha xarajatlarning aks ettirilishi (umumishlab chiqarish extiejlari uchun)	2510	6110	Shartnoma, bajarilgan ish, xizmat dalolatnomasi, yukxati
21.	Ishlab chiqarishga xizmat ko`rsatish uchun mo`ljallangan etmaydigan moddiy boyliklarning qiymati buyicha kamomad summasini (tannarx hisobida) shu jumladan, tabiiy zararlarning qonunga binoan aks ettirilishi	2510	1010, 2810, 2910	Inventarizatsiya dalolatnomasi, bildirish xati, buxgalteriyaning hisobi
22.	Ilgari ishlab chiqarishga xizmat ko`rsatish uchun berib yuborilgan materiallarning ortiqcha miqdorlari va qaytarilishining aks ettirilishi; umumishlab chiqarish xarajatlarning xissasining uzi ishlab chiqargan materiallar qiymatiga hisobdan chiqarilishi	1010	2510	Inventarizatsiya dalolatnomasi
23.	Ilgari umumishlab chiqarish xarajatlariga hisobdan chiqarilgan, birligi uchun belgilangan limitgacha	1210	2510	Bildirishnoma, axborot ezuvi

№	Xujalik muomalalarining mazmuni	Schetlar korrespondentsiyasi		Ezuylarni tasdiqlovich hujjatlar
		Debet	Kredit	
	qiymatga ega bo'lgan ATBning qaytarilishining aks ettirilishi; ATBning ortiqcha qismining kirim qilinishi			
24.	Umumishlab chiqarish xarajatlarining tayyor mahsulotlarning tannarxiga kiritilishi; bilvosita o'zgaruvchan xarajatlarning (ishlab chiqarish ustama xarajatlari) hisobdan chiqarilishi	2010	2510	Tannarxni hisoblash jadvali
25.	Umumishlab chiqarish xarajatlarining tegishli xissasini uzida ishlab chiqarilgan yarim tayyor mahsulotlar tannarxiga hamda, tsexlardagi yarim tayyor mahsulotlarning ortiqcha miqdorlariga taqsimlash	2110	2510	Tannarxni hisoblash jadvali
26.	YOrdamchi tsexlarga xizmat ko'rsatishga doir xarajatlarning ish va xizmatlarning tannarxida aks ettirilishi	2310	2510	Tannarxni hisoblash jadvali
27.	Umumishlab chiqarish xarajatlarining xissasini yaroqsiz mahsulotlarni tuzatishga doir xarajatlarning summasiga kiritilishi	2610	2510	Yaroqsiz mahsulotlar tugrisidagi dalolatnoma
28.	Ishlab chiqarishga, xizmat ko'rsatishga doir tegishli xarajatlarning kelguvsi	3110-3190	2510	Buxgalteriyaning hisobi

№	Xujalik muomalalarining mazmuni	Schetlar korrespondentsiyasi		Ezuvlarni tasdiqlovich hujjatlar
		Debet	Kredit	
	davrlar xarajatlari tarkibida aks ettirilishi			
29.	Ishlab chiqarishga xizmat ko'rsatish va sotuvga tegishli xarajatlarning kelguvsi davr sarflari tarkibiga kiritilishi	3110-3190	2510	Buxgalteriyaning hisobi
30.	Bekor turib kolishlar va shunga uxshash sabablar natijasida ishlab chiqarishdagi yo'kotishlarning bir qismi (ilgari tsex sarflariga olib borilgan) qonun hujjatlariga muvofiq javobgar shaxslarning mehnat haqidan ushlanishi; xodimlarga ko'rsatilgan xizmatlar qiymatining mehnat haqidan ushlanishi	6710	2510	Yo'kotishlar tugrisida dalolatnoma, mehnat shartnomasi, buxgalteriyaning hisobi
31.	Bekor turib kolishlar va shunga uxshash sabablar natijasida kurilgan umumishlab chiqarish sarflarining bir qismining javobgar shaxslar zimmasiga yuklanishi	4630	2510	Bildirishnoma, mehnat shartnomasi, buxgalteriyaning hisobi
32.	Tabiiy ofatlar, yong'inlar va shunga uxshash ofatlar natijasida vujudga kelgan umumishlab chiqarish xarajatlarining bir qismining zararga o'tkazilishi	9720	2510	Tabiiy ofat natijasidagi talafotlar tugrisida dalolatnoma

2-ilova. Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 5 fevraldagi 54-sonli qaroriga ILOVA

Mahsulot (ishlar, xizmatlar)ni ishlab chiqarish va sotish xarajatlarining tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to`g`risida NIZOM

UMUMIY QOIDALAR

Mazkur Nizom xo`jalik yurituvchi sub'ektlar-yuridik shaxslarning, shuningdek, yuridik shaxs bo`lmagan holda tadbirkorlik faoliyati bilan shug`ullanuvchi jismoniy shaxslarning mahsulot (ishlar, xizmatlar)ni ishlab chiqarish va sotish xarajatlarini aniqlashning yagona metodologik asoslarini belgilaydi.

Nizom buxgalteriya hisobi va soliq solish maqsadlarida xarajatlarni hisoblab chiqishda paydo bo`ladigan tafovutlar hisobga olingan holda ishlab chiqilgan. Xo`jalik yurituvchi sub'ektlarning raqobatbardoshligini aniqlash maqsadida ular faoliyatining xarajatlarini hisoblab chiqish va moliyaviy natijalarini aniqlash buxgalteriya hisobining asosiy maqsadi hisoblanadi. Soliq solinadigan daromad (foyda) xo`jalik yurituvchi sub'ektlar xarajatlarining ayrim moddalarini soliq haqidagi qonunlarga muvofiq soliq solinadigan bazaga kiritish yo`li bilan aniqlanadi.

Nizomda xarajatlarni guruhlash va moliyaviy natijalarni shakllantirishning asosiy qoidalari mavjuddir.

1-ilovada hisobot davridagi sof foydani hisoblab chiqishda korxona daromadlaridan chiqarib tashlanadigan, biroq soliq haqidagi qonunlarga muvofiq daromad (foyda)dan olinadigan soliqni hisoblab chiqishda xo`jalik yurituvchi sub'ektning soliq solinadigan bazasiga kiritiladigan xarajatlar moddolari keltirilgan.

2-ilovada ular paydo bo`lgan paytda soliq solinadigan bazadan chiqarib tashlanmaydigan, biroq keyingiyoki ancha keyingi davrlarda (vaqtdagi tafovut) chiqarib tashlanadigan xarajatlar ro`yxati beriladi.

Mazkur Nizom asosida ayrim tarmoqlar xarajatlari tarkibi va ularni hisobga olish xususiyatlari O`zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, Davlat soliq qo`mitasi bilan kelishilgan holda tegishli vazirliklar va

idoralar, xo`jalik birlashmalari (korporatsiyalar, kontsernlr, uyushmalar, kompaniyalari va boshqalar) tomonidan aniqlanadi.

A. MOLIIaVIY NATIJALARNI ShAKLLANTIRISH

Nizomda keltirilgan xarajatlar tasnifi eng avvalo buxgalteriya hisobida xarajatlarni to`g`ri va to`liq aks ettirishga, shuningdek, xo`jalik yurituvchi sub'ektning moliyaviy hisobotini tuzish uchun uning faoliyati moliyaviy natijalarini (foyda yoki zararni) aniqlashga yo`naltirilgandir.

Xo`jalik yurituvchi sub'ekt faoliyatining moliyaviy natijalari foydaning quyidagi ko`rsatkichlari bilan tavsiflanadi:

- mahsulotni sotishdan olingan yalpi foyda, bu sotishdan olingan sof tushum bilan sotilgan mahsulotning ishlab chiqarish tannarxi o`rtasidagi tafovut sifatida aniqlanadi:

$$\mathbf{YaF=SST-IT,}$$

bunda,

YaF - yalpi foyda;

SST - sotishdan olingan sof tushum;

IT - sotilgan mahsulotning ishlab chiqarish tannarxi;

- asosiy faoliyatdan ko`rilgan foyda, bu mahsulotni sotishdan olingan yalpi foyda bilan davr xarajatlari o`rtasidagi tafovut va plus asosiy faoliyatdan ko`rilgan boshqa daromadlar yoki minus boshqa zararlar sifatida aniqlanadi:

$$\mathbf{AFF=YaF-DX+BD-BZ,}$$

bunda,

AFF-asosiy faoliyatdan olingan foyda;

DX-davr xarajatlari;

BD-asosiy faoliyatdan olingan boshqa daromadlar;

BZ-asosiy faoliyatdan ko`rilgan boshqa zararlar;

- xo`jalik faoliyatidan olingan foyda (yoki zarar), bu asosiy faoliyatdan olingan foyda summasi plus moliyaviy faoliyatdan ko`rilgan daromadlar va minus zararlar sifatida hisoblab chiqiladi:

$$\mathbf{UF=AFF+MD-MX,}$$

bunda,

UF - umumxo`jalik faoliyatidan olingan foyda;

MD - moliyaviy faoliyatdan olingan daromadlar;

MX - moliyaviy faoliyat xarajatlari;

- soliq to`langungacha olingan foyda, u umumxo`jalik faoliyatidan olingan foyda plus favqulodda (ko`zda tutilmagan) vaziyatlardan ko`rilgan foyda va minus zarar sifatida aniqlanadi:

$$STF=UF+FP-FZ,$$

bunda,

STF - soliq to`langungacha olingan foyda;

FP - favqulodda vaziyatlardan olingan foyda;

FZ - favqulodda vaziyatlardan ko`rilgan zarar;

- yilning sof foydasi, u soliq to`langandan keyin xo`jalik yurituvchi sub'ekt ixtiyorida qoladi, o`zida daromad (foyda)dan to`lanadigan soliqni va minus qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa soliqlar va to`lovlarni chiqarib tashlagan holda soliqlar to`langunga qadar olingan foydani ifodalaydi:

$$SF=STF-DS-BS,$$

bunda,

SF - sof foyda;

DS - daromad (foyda)dan to`lanadigan soliq;

BS - boshqa soliqlar va to`lovlar.

B. XO`JALIK YURITUVCHI SUB'EKTNING MOLIYA-XO`JALIK FAOLIYATI BILAN BOG`LIQ XARAJATLAR RO`YXATI

Mazkur Nizomga muvofiq mahsulot (ishlar, xizmatlar) tannarxiga kiritiladigan xarajatlar va davr xarajatlari ro`yxati:

- xo`jalik yurituvchi sub'ekt faoliyatining rentabelligini va bozor raqobatbardoshligini aniqlash uchun mahsulot (ishlar, xizmatlar)ni ishlab chiqarish va sotish davomida xo`jalik yurituvchi sub'ektda paydo

bo`ladigan barcha xarajatlar to`g`risida buxgalteriya hisobi schetlarida to`liq va aniq axborot shakllantirilishi;

- soliq solinadigan bazani to`g`ri aniqlash maqsadida belgilanadi.

Mazkur Nizomga muvofiq barcha xarajatlar quyidagilarga guruhlanadi:

- mahsulotning ishlab chiqarish tannarxiga kiritiladigan xarajatlar:

a) bevosita va bilvosita moddiy xarajatlar;

b) bevosita va bilvosita mehnat xarajatlari;

v) boshqa bevosita va bilvosita xarajatlar, shu jumladan, ishlab chiqarish xususiyatlariga ega bo`lgan ustama xarajatlar;

- ishlab chiqarish tannarxiga kiritilmaydigan, biroq asosiy faoliyatdan olingan foydada hisobga olinadigan hamda davr xarajatlariga kiritiladigan xarajatlar:

a) sotish xarajatlari;

b) boshqarish xarajatlari (ma'muriy sarf-xarajatlar);

v) boshqa operatsion xarajatlar va zararlar;

- xo`jalik yurituvchi sub'ektning umumxo`jalik faoliyatidan olingan foyda yoki zararlarni hisoblab chiqishda hisobga olinadigan xo`jalik yurituvchi sub'ektning moliyaviy faoliyati bo`yicha xarajatlari:

a) foizlar bo`yicha xarajatlar;

b) xorijiy valuta bilan operatsiya bo`yicha salbiy kurs tafovutlari;

v) qimmatli qog`ozlarga qo`yilgan mablag`larni qayta baholash;

g) moliyaviy faoliyat bo`yicha boshqa xarajatlar;

Favqulodda zararlar, u daromad (foyda)dan olinadigan soliq to`langunga qadar foyda yoki zararlarni hisoblab chiqishda hisobga olinadi.

1. MAHSULOT (ISHLAR, XIZMATLAR)NING ISHLAB CHIQRISH TANNARXIGA KIRITILADIGAN XARAJATLAR TARKIBI

Mahsulot (ishlar, xizmatlar) ishlab chiqarish tannarxiga bevosita mahsulot (ishlar, xizmatlar)ni ishlab chiqarish bilan bog`liq bo`lgan, ishlab chiqarish texnologiyasi va uni tashkil etish bilan shartlangan xarajatlar kiritiladi. Ularga quyidagilar tegishli bo`ladi: bevosita va bilvosita moddiy xarajatlar, bevosita va bilvosita mehnat xarajatlari, boshqa bevosita va bilvosita xarajatlar, shu jumladan, ishlab chiqarish xususiyatiga ega bo`lgan ustama xarajatlar.

Mahsulot (ishlar, xizmatlar)ning ishlab chiqarish tannarxini hosil qiluvchi xarajatlar ularning iqtisodiy mazmuniga ko`ra quyidagi elementlar bilan guruhlariga ajratiladi:

- ishlab chiqarish moddiy xarajatlar (qaytariladigan chiqitlar qiymati chiqarib tashlangan holda);
- ishlab chiqarish xususiyatiga ega bo`lgan mehnatga haq to`lash xarajatlari;
- ishlab chiqarishga tegishli bo`lgan ijtimoiy sug`urtaga ajratmalar;
- asosiy fondlar va ishlab chiqarish ahamiyatiga ega bo`lgan nomoddiy aktivlar amortizatsiyasi;
- ishlab chiqarish ahamiyatiga ega bo`lgan boshqa xarajatlar.

1.1. ISHLAB CHIQRISH BILAN BOG`LIQ MODDIY XARAJATLAR

Ishlab chiqarish bilan bog`liq moddiy xarajatlarga quyidagilar tegishli bo`ladi:

1.1.1. Ishlab chiqariladigan mahsulotning asosini tashkil etib, uning tarkibiga kiradigan yoki mahsulot tayyorlashda (ishlarni bajarishda, xizmatlar ko`rsatishda) zarur tarkibiy qism hisoblangan chetdan sotib olinadigan xomashyo va materiallar.

1.1.2. Normal texnologiya jarayonini ta'minlash va mahsulotlarni o`rash uchun mahsulot (ishlar, xizmatlar) yoki boshqa ishlab chiqarish ehtiyojlariga sarflanadigan (asbob-uskunalar, binolar, inshootlar va boshqa asosiy vositalar sinovini o`tkazish, nazorat qilish, saqlash, tuzatish va ulardan foydalanish) uchun ishlab chiqarish jarayonida foydalaniladigan xarid qilinadigan materiallar, shuningdek asbob-uskunalarni tuzatish uchun ehtiyot qismlar, inventarlarning, xo`jalik buyumlarining va asosiy vositalarga kirmaydigan boshqa mehnat vositalarining qiymati.

1.1.3. Sotib olinadigan, kelgusida ushbu xo`jalik yurituvchi sub'ektda montaj qilinadigan yoki qo`shimcha ishlov beriladigan butlovchi buyumlar va yarim tayyor mahsulotlar.

1.1.4. Tashqi yuridik va jismoniy shaxslar, shuningdek, xo`jalik yurituvchi sub'ektning ichki tarkibiy bo`linmalari tomonidan bajariladigan faoliyatning asosiy turiga tegishli bo`lmagan ishlab chiqarish xususiyatiga ega bo`lgan ishlar va xizmatlar.

Ishlab chiqarish xarakteriga ega bo'lgan ishlar va xizmatlarga mahsulot tayyorlash bo'yicha ayrim operatsiyalarni bajarish, xomashyo va materiallarga ishlov berish, iste'mol qilinayotgan ashyo va materiallar sifatini aniqlash uchun sinovlar o'tkazish, belgilangan texnologik jarayonlarga rioya etilishi ustidan nazorat qilish, asosiy ishlab chiqarish fondlarini tuzatish va boshqalar tegishli bo'ladi.

Xo'jalik yurituvchi sub'ekt ichida tashqi yuridik shaxslarning transport xizmatlari (xomashyo, materiallar, instrumentlar, detallar, tanavorlar, yuklarning boshqa turlarini bazis (markaziy) ombordan tsexga keltirish va tayyor mahsulotni saqlash uchun omborga keltirish) ham ishlab chiqarish xususiyatiga ega bo'lgan xizmatlarga tegishli bo'ladi.

1.1.5. Tabiiy xomashyo (er rekultivatsiyasiga ajratmalar, ixtisoslashtirilgan yuridik shaxslar tomonidan amalga oshiriladigan erni rekultivatsiya qilish ishlariga haq to'lash), ildizi bilan beriladigan daraxtga haq to'lash, korxonalar tomonidan suv xo'jaligi tizimlaridan beriladigan iste'mol qilinadigan suv uchun haq to'lash. Sanoatning xomashyo tarmoqlari uchun yog'och, taxta materallaridan yoki foydali qazilmalardan (rudadan) foydalanishga huquqlarning amortizatsiya qilinadigan qiymati yoki atrof muhitni tiklash xarajatlari.

1.1.6. Texnologik maqsadlarga, energiyaning barcha turlarini ishlab chiqarishga, binolarni isitishga sarflanadigan yonilg'ining chetdan sotib olinadigan barcha turlari, xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning transporti tomonidan bajariladigan ishlab chiqarishga xizmat ko'rsatish bo'yicha transport ishlari.

1.1.7. Xo'jalik yurituvchi sub'ektning texnologik transport va boshqa ishlab chiqarish va xo'jalik ehtiyojlariga sarflanadigan barcha turdagi xarid qilinadigan energiya. (Xo'jalik yurituvchi sub'ektning o'zi tomonidan ishlab chiqariladigan elektr energiyasiga va energiyaning boshqa turlariga, shuningdek, xarid qilinadigan energiyani iste'mol joyigacha transformatsiya qilish va uzatish xarajatlari xarajatlarning tegishli elementlariga kiritiladi).

1.1.8. Ishlab chiqarish sohasida moddiy boyliklarning yaroqsizlanishi va kam chiqishi.

1.1.9. Xo'jalik yurituvchi sub'ektning transporti va xodimlari tomonidan moddiy resurslarni etkazish bilan bog'liq xarajatlar (yuklash va tushirish ishlari ham shu jumlagi kiradi) ishlab chiqarish xarajatlarning tegishli elementlariga kirishi kerak (mehnatga haq to'lash

xarajatlari, asosiy fondlar amortizatsiyasi, moddiy xarajatlar va boshqalar).

1.1.10. Xo`jalik yurituvchi sub'ektlar tomonidan moddiy resurslarni etkazib beruvchilardan olinadigan idishlar ham moddiy resurslar qiymatiga kiritiladi.

1.1.11. Mahsulot tannarxiga kiritiladigan moddiy resurslar xarajatlaridan qaytariladigan chiqitlar qiymati va idish va o`rash-joylash materiallari qiymati ularning amalda sotilishi, foydalanilishi yoki omborga kirim qilinishi narxi bo`yicha chiqarib tashlanadi.

1.1.12. "Moddiy xarajatlar" elementi bo`yicha aks ettiriladigan moddiy resurslar qiymati sotib olish narxidan, shu jumladan, barter bitishuvlarida, qo`shimcha narx (ustama)dan, ta'minot, tashqi iqtisodiy tashkilotlar tomonidan to`lanadigan vositachilik taqdirlashlaridan, tovar birjalari xizmatlari qiymatidan, shu jumladan, brokerlik xizmatlaridan, bojlar va yig`imlardan, soliqlardan (korxona keyinchalik qarz surishish, masalan, qo`shilgan qiymat solig`i tarzida qaytarib oladiganlardan tashqari), transportda tashishga haq to`lashdan, tashqi yuridik shaxslar tomonidan amalga oshiriladigan saqlash va etkazib berishga haq to`lashdan kelib chiqib shakllanadi.

1.2. ISHLAB CHIQUARISH XUSUSIYATIGA EGA BO`LGAN MEHNATGA HAQ TO`LASH XARAJATLARI

Ishlab chiqarish xususiyatiga ega bo`lgan mehnatga haq to`lash xarajatlari tarkibiga quyidagi moddalar kiritiladi:

1.2.1. Xo`jalik yurituvchi sub'ektda qabul qilingan mehnatga haq to`lash shakllari va tizimlariga muvofiq bajarilgan narxnomalar, tarif stavkalari va lavozim maoshlaridan kelib chiqib hisoblangan amalda bajarilgan ish uchun ishlab chiqarish xususiyatiga ega bo`lgan hisoblangan ish haqi, shu jumladan, bajarilgan ishni hisobga olish bo`yicha dastlabki hujjatlarda nazarda tutilgan rag`batlantiruvchi tusdagi to`lovlar.

1.2.2. Kasb mahorati va murabbiylik uchun tarif stavkalariga va okladlarga ustamalar.

1.2.3. Ish rejimi va mehnat sharoitlari bilan bog`liq bo`lgan kompensatsiya tusidagi to`lovlar, shu jumladan:

1.2.3.1. Texnologik jarayon jadvalida nazarda tutilgan tungi vaqtda, ishdan tashqari vaqtda, dam olish vabayram (ishlanmaydigan)

kunlarda ishlanganlik uchun tarif stavkalari va okladlarga ustamalar va qo`shimcha haq;

1.2.3.2. Ko`p smenali rejimda ishlaganlik, kasblarni birga qo`shib olib borganlik va xizmat ko`rsatish zonalarini kengaytirganlik uchun ustamalar;

1.2.3.3. Hukumat tomonidan tasdiqlangan kasblar va ishlar ro`yxati bo`yicha og`ir, zararli, alohida zararli mehnat va tabiiy-iqlim sharoitlarida ishlaganlik uchun ustamalar, shu jumladan, ushbu sharoitlardagi uzluksiz ish staji uchun ustamalar;

1.2.3.4. Aloqa, temir yo`l, daryo, avtomobil transporti va katta yo`llar xodimlarining va doimiy ishi yo`lda o`tdigan yoki qatnov tusiga ega bo`lgan boshqa xodimlarning ish haqiga, xo`jalik yurituvchi sub'ekt joylashgan joydan jo`nagan paytidan boshlab shu joyga qaytib kelgan paytgacha to`lanadigan yo`lda o`tgan har bir sutka uchun to`lanadigan ustamalar;

1.2.3.5. Qurilishda, rekonstruktsiya qilishda va mukammal ta'mirlashda bevosita band bo`lgan, shuningdek qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda vaxta usuli bilan ishlarni bajarishgan xodimlar uchun ishning ko`chma va qatnov xususiyati uchun ustama;

1.2.3.6. Doimiy ravishda er osti ishlarida band bo`lgan xodimlarga ularning shaxtada (konda) ish joyiga jo`nab ketishlaridan va orqaga qaytishlarigacha o`tdigan normativ vaqt uchun qo`shimcha haq;

1.2.3.7. Mehnatga haq to`lashning rayonlar bo`yicha tartibga solinishiga, shu jumladan, rayon koeffitsientlari va amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq cho`l, suvsiz va yuqori tog` joylarida ishlaganlik uchun koeffitsientlar bilan belgilangan to`lovlar;

1.2.3.8. Xo`jalik yurituvchi sub'ekt joylashgan joydan (yig`ilish punktidan) ish joyiga va orqaga qaytadigan yo`lda o`tdigan kunlar uchun vaxtada ishlash jadvalida nazarda tutilgan, shuningdek, xodimlarning meteorologiya sharoitlariga ko`ra va transport tashkilotlarining aybi bilan yo`lda tutilib qolingun kunlar uchun tarif stavkasi, oklad miqdorida to`lanadigan summalar (vaxta usulida ishni bajarishda).

1.2.4. Ish vaxta usulida tashkil etilganda, ish vaqti jamlanib hisoblanganda va qonun hujjatlari bilan belgilangan boshqa hollarda xodimlarga ularga ish vaqtining normal davom etishidan ortiq ishlaganligi munosabati bilan beriladigan dam olish (ortiqcha ishlangan ish vaqti uchun dam olish) kunlari uchun haq to`lash.

1.2.5. Ishlanmagan vaqt uchun haq to`lash:

1.2.5.1. Amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq navbatdagi (har yilgi) va qo'shimcha ta'tillar, navbatdagi (har yilgi) foydalanilmagan va qo'shimcha ta'tillar uchun kompensatsiyalar, o'smirlarning imtiyozli soatlari, bolani ovqatlantirish uchun onalar ishidagi tanaffuslar, shuningdek, tibbiy ko'riklardan o'tish bilan bog'liq vaqt uchun haq to'lash.

1.2.5.2. Majburiy ta'tilda bo'lgan xodimlarga, asosiy ish haqini qisman saqlab qolgan holda, haq to'lash.

1.2.5.3. Donor xodimlarga qonni tekshirish, topshirish kunlari uchun va qon topshirilgan har bir kundan keyin beriladigan dam olish kunlari uchun haq to'lash.

1.2.5.4. Davlat vazifalarini bajarganlik uchun (harbiy yig'inlar, favqulodda vaziyatlar bo'yicha yig'inlar va boshqalar) mehnat haqi to'lash.

1.2.6. Xo'jalik yurituvchi sub'ekt ro'yxatida turmaydigan xodimlar mehnatiga ular tomonidan fuqarolik-huquqiy tisdagi tuzilgan shartnomalar bo'yicha ishlar bajarilganligi uchun haq to'lash, agar bajarilgan ish uchun xodimlar bilan hisob-kitob xo'jalik yurituvchi sub'ektning o'zi tomonidan amalga oshirilsa pudrat shartnomasi ham shu jumlagi kiradi.

1.2.7. Belgilangan tartibga muvofiq ishlab chiqarish jarayonida qatnashuvchi xodimlar mehnatiga haq to'lash fondiga kiritiladigan to'lovlarning boshqa turlari.

1.3. ISHLAB CHIQRISHGA TEGISHLI BO'LGAN IJTIMOIIY SUG'URTAGA AJRATMALAR

Ijtimoiy sug'urtaga ajratmalarga quyidagilar kiradi:

1.3.1. Qonun hujjatlari bilan belgilangan normalar bo'yicha mehnatga haq to'lash fondiga ijtimoiy tisdagi majburiy ajratmalar.

1.3.2. Nodavlat pensiya jamg'armalariga va ixtiyoriy sug'urtaning boshqa turlariga ajratmalar.

1.4. ASOSIIY VOSITALAR VA ISHLAB CHIQRISH AHAMIYATIGA EGA BO'LGAN NOMODDIY AKTIVLAR AMORTIZATSIYASI

Asosiy vositalar va ishlab chiqarish ahamiyatiga ega bo'lgan nomoddiy aktivlar amortizatsiyasi bo'yicha xarajatlar tarkibiga quyidagilar kiradi:

1.4.1. Asosiy ishlab chiqarish fondlarining dastlabki (tiklash) qiymatidan kelib chiqib hisoblangan amortizatsiya ajratmalari summasi (hisoblangan eskirish), lizing bo'yicha va belgilangan tartibda tasdiqlangan normalar, qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladigan jadallashtirilgan amortizatsiya ham shu jumlagi kiradi.

1.4.2. Ishlab chiqarish ahamiyatiga ega bo'lgan nomoddiy aktivlar (Gudvill (firmaning narxi)dan tashqari) eskirishi har oyda xo'jalik yurituvchi sub'ekt tomonidan dastlabki qiymati va ulardan foydali foydalanish muddatidan (biroq xo'jalik yurituvchi sub'ekt faoliyati muddatidan ortiq emas) kelib chiqib hisoblanadigan mahsulot (ishlar, xizmatlar) tannarxiga tegishli bo'ladi. Foydali foydalanish muddatini aniqlash imkoni bo'lmagan nomoddiy aktivlar bo'yicha eskirish normasi besh yil hisobiga belgilanadi, biroq xo'jalik yurituvchi sub'ekt faoliyati muddatidan ortiq emas.

1.5. ISHLAB CHIQARISH TUSIDAGI BOSHQA XARAJATLAR

Ishlab chiqarish tusidagi boshqa xarajatlarni hisobga olishning navbatdagi kompleks moddalar 1.1, 1.2., 1.3, 1.4-bandlarda keltirilgan xarajatlar elementlari bo'yicha ajratiladi.

1.5.1. Ishlab chiqarish jarayoniga xizmat ko'rsatish xarajatlari.

1.5.1.1. Ishlab chiqarishni xomashyo, materiallar, yonilg'i, energiya, instrument, moslamalar va boshqa mehnat vositalari va buyumlari bilan ta'minlash xarajatlari.

1.5.1.2. Asosiy ishlab chiqarish fondlarini ish holatida saqlash xarajatlari (texnik ko'rik va qarov, o'rtacha, joriy va mukammal tuzatish xarajatlari). Asosiy ishlab chiqarish vositalarini barcha turda (joriy, o'rtacha, mukammal) tuzatishlarni xo'jalik yurituvchi sub'ektning o'z kuchi bilan o'tkazish ishlab chiqarish xarajatlarining tegishli elementlari (moddiy xarajatlar, mehnat haqi to'lash xarajatlari va boshqalar) bo'yicha mahsulot (ishlar, xizmatlar) tannarxiga kiritiladi.

Zarurat bo'lganda, ayrim tarmoqlarning xo'jalik yurituvchi sub'ektlari O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining ruxsati bilan mukammal tuzatish ishlarini o'tkazish uchun mablag'lar zahirasini tashkil qilishlari mumkin. Ushbu zahiraga ajratmalar "Ishlab chiqarish tusidagi boshqa xarajatlar" elementi tarkibida aks ettiriladi va ko'zda

tutilayotgan xarajatlar qiymati hamda asosiy vositalar har bir ob'ektini mukammal tuzatishlarning davriyligidan kelib chiqqan holda aniqlanadi. Zahiraga ajratmalar normasi har bir hisobot yili oxirida qayta ko'rib chiqiladi va zarurat bo'lganda yangi moliya yili uchun ajratmalar miqdori ko'paytirilishi yoki kamaytirilishi mumkin. Agar mukammal tuzatishga zahira mablag'lari summasi ushbu ob'ektni tuzatishga qilingan haqiqiy xarajatlar summasidan oshib ketsa, oshib ketgan summa bo'yicha tuzatish kiritilishi kerak; agar haqiqiy xarajatlar zahiradagidan oshib ketsa, u holda oshib ketgan summa "Ishlab chiqarish tusidagi boshqa xarajatlar" elementi tarkibida aks ettiriladi.

1.5.1.3. YOng'indan saqlash va qo'riqlashni hamda xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning texnikaviy foydalanish qoidolari bilan nazarda tutilgan boshqa maxsus talablarni ta'minlash, ular faoliyatini nazorat qilish xarajatlari.

Idoradan tashqari qo'riqlash xarajatlari bunday qo'riqlash mavjud bo'lishini talab qiluvchi mazkur ishlab chiqarishga maxsus talablar mavjud bo'lgan taqdirda mahsulot (ishlar, xizmatlar) tannarxiga kiritilishi mumkin.

1.5.1.4. Ishlab chiqarish faoliyatiga tegishli bo'lgan asosiy vositalarni joriy ijaraga olish bilan bog'liq xarajatlar.

1.5.1.5. Tabiatni muhofaza qilish maqsadlaridagi fondlarni saqlash va ulardan foydalanish xarajatlari, shu jumladan atrof tabiiy muhit ifloslantirilganligi va chiqindilar joylashtirilganligi uchun kompensatsiya to'lovlari.

1.5.1.6. Ishlab chiqarish xususiyatlari bilan bog'liq bo'lgan va qonun hujjatlarida nazarda tutilgan mehnatning normal sharoitlarini va texnika xavfsizligini ta'minlash xarajatlari.

1.5.1.7. Xodimlarning ishlab chiqarish jarayonida bevosita qatnashishi bilan bog'liq bo'lgan sog'liqni muhofaza qilish tadbirlari.

1.5.1.8. Tekin ko'rsatiladigan kommunal xizmatlar, oziq-ovqat, ayrim tarmoqlar xodimlariga oziq-ovqatlar qiymati, xo'jalik yurituvchi sub'ekt xodimlariga beriladigan tekin uy-joy haqini to'lash xarajatlari (yoki uy-joy, kommunal xizmatlar va boshqalar uchun pul kompensatsiyasi summasi).

1.5.1.9. Amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq tekin beriladigan va shaxsiy foydalanishda qoladigan buyumlar qiymati (shu jumladan, formal kiyim-bosh, maxsus ovqatlar) (yoki ular pasaytirilgan narxlar bo'yicha sotilishi munosabati bilan imtiyozlar summasi);

1.5.1.10. Ishlab chiqarish jarayoniga tegishli bo'lgan boshqaruvning texnik vositalarini, aloqa uzellarini, signalizatsiya vositalarini, boshqaruvning boshqa texnik vositalarini, hisoblash markazlarini saqlash va ularga xizmat ko'rsatish xarajatlari;

1.5.1.11. Qonun hujjatlariga muvofiq ishlab chiqarishda band bo'lgan xodimlarni tabiiy ko'rikdan o'tkazganlik uchun tibbiy muassasalarga haq to'lash.

1.5.2. Ishlab chiqarish xodimlarini ishlab chiqarish jarayoniga tegishli bo'lgan xizmat safarlariga yuborish bo'yicha xarajatlari.

1.5.3. Ishlab chiqarish xodimlarini va ishlab chiqarish aktivlarini majburiy va ixtiyoriy sug'urta qilish xarajatlari.

1.5.4. Yaroqsiz mahsulot tufayli kelib chiqadigan yo'qotishlar.

1.5.5. Ishlab chiqarishning ichki sabablariga ko'ra bekor turishlar tufayli yo'qotishlar.

1.5.6. Kafolatli xizmat muddati belgilangan buyumlarni kafolatli tuzatish va ularga kafolatli xizmat ko'rsatish xarajatlari.

1.5.7. Mahsulot (xizmatlar)ning majburiy sertifikatlash qilish xarajatlari.

1.5.8. Ishlab chiqarish jarohatlari tufayli mehnat qobiliyati yo'qolishi munosabati bilan tegishli vakolatli organlarning qarorlari asosida va qarorlarisiz to'lanadigan nafaqalar.

1.5.9. Umumiy foydalaniladigan yo'lovchilar transporti xizmat ko'rsatmaydigan yo'nalishlarda xodimlarni ish joyiga olib borish va olib kelish bilan bog'liq xarajatlari.

1.5.10. Ob'ektlarni davlat kapital qo'yilmalari hisobiga qurishda qurilish tavakkalchiliklarini sug'urta qilish bilan bog'liq xarajatlari.

1.5.11. Gudvill (firma narxi)ning nomoddiy aktivi summasini hisobdan chiqarish bilan bog'liq xarajatlari, ishlab chiqarish maqsadida bo'lmagan mol-mulk yuzasidan belgilangan tartibda.

1.5.12. Qazib oluvchi tarmoqlarda tayyorgarlik ishlari bo'yicha xarajatlari, agar ular kapital xarajatlarga tegishli bo'lmasa (ya'ni asosiy vositalar sifatida kapitallashtirilmasa). Ushbu xarajatlari "Kelgusi davrlar xarajatlari" sifatida qaraladi va ularni qaytarishning belgilangan muddati mobaynida teng ravishda ishlab chiqarish tannarxiga yoki qazib olingan mahsulotning hajmi va miqdoriga mutanosib ravishda hisobdan chiqariladi. Kelgusi davrlar xarajatlari hisobdan chiqarishning tanlangan metodi xo'jalik yurituvchi sub'ektning hisobga olish siyosatida aks ettirilishi kerak.

2. DAVR XARAJATLARI

Davr xarajatlari deganda bevosita ishlab chiqarish jarayoni bilan bog`liq bo`lmagan xarajatlar va sarflar tushuniladi: boshqaruv xarajatlari, mahsulotni sotish xarajatlari va umumxo`jalik ahamiyatiga ega bo`lgan boshqa xarajatlar.

Quyida 2-band bo`yicha sanab o`tilgan barcha xarajatlar xarajatlarning kompleks moddalari hisoblanadi va ularni hisobga olish mazkur Nizomning 1.5-bandi muqaddimasida ko`rsatilganidek xarajatlar elementlari bo`yicha tashkil etiladi.

"Davr xarajatlari"ga quyidagi moddalar kiradi:

2.1. SOTISH XARAJATLARI

2.1.1. Tovarlarni temir yo`l, havo, avtomobil, dengiz, daryo transportida va ot-ulovda tashish xarajatlari. Ushbu moddaga tashish xarajatlari hamda transport vositalari bekor turib qolganligi uchun to`langan jarimalar kiritiladi.

2.1.2. Savdo va umumiy ovqatlanish korxonalari sotish bo`yicha xarajatlar, shu jumladan:

2.1.2.1. Nizomning 1.2-bandida sanab o`tilgan, mahsulot (ishlar, xizmatlar)ni sotish bilan bog`liq mehnatga haq to`lash xarajatlari, ma'muriy-boshqaruv xodimlaridan tashqari.

2.1.2.2. Nizomning 1.3-bandiga muvofiq, 2.1.2.1. bandga tegishli bo`lgan ijtimoiy sug`urtaga xarajatlar.

2.1.2.3. Savdo ehtiyojlari uchun foydalaniladigan binolar, inshootlar va xonalarni ijaraga olish, saqlash va tuzatish xarajatlari.

2.1.2.4. Nizomning 1.4-bandiga muvofiq asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar amortizatsiyasi.

2.1.2.5. Sanitariya kiyim-boshi, oshxona dasturxon va sochiqlari, arzonbaho, tez eskiradigan buyumlar, oshxona idish-tovog`i va anjomlari eskirishi.

2.1.2.6. Gaz, yoqilg`i, elektr energiyasi xarajatlari.

2.1.2.7. Tovarlarni saqlash, ularga ishlov berish va ularni sortlarga ajratish xarajatlari.

2.1.2.8. Savdo reklamasi xarajatlari.

2.1.2.9. Tashish, saqlash va sotish chog`ida tovarlarning yo`qotilishi.

2.1.2.10. O`rash-joylash materiallari xarajatlari.

2.1.2.11. Mol-mulkni majburiy va ixtiyoriy sug`urta qilish xarajatlari.

2.1.2.12. Mehnatni muhofaza qilish va texnika xavfsizligi xarajatlari.

2.1.2.13. Ventilatorlar, mashinalar va ularning harakatlanuvchi qismlarini o`rnatish va saqlash, tuynuklar, o`yiqalar va boshqalarning atrofini o`rash bo`yicha joriy (nomukammal tusdagi) xarajatlar.

2.1.2.14. Maxsus kiyim-bosh va maxsus poyabzalning eskirishi.

2.1.2.15. Maxsus kiyim-bosh va maxsus poyabzal va yakka tartibdagi himoyaning boshqa vositalari yuvilganligi, tuzatilganligi va dezinfektsiya qilinganligi uchun kir yuvuvchilar, tuzatuvchilar va boshqa yuridik shaxslarga haq to`lash.

2.1.2.16. Maxsus kiyim-bosh va poyabzalni yuvish va tuzatishga sarflangan materiallar qiymati.

2.1.2.17. Umumiy ovqatlanish va savdo xodimlari tibbiy ko`rikdan o`tkazilganligi uchun tibbiyot muassasalariga haq to`lash.

2.1.2.18. Kassa xo`jaligini va tushum inkassatsiyasini yuritish chiqimlari.

2.1.2.19. Umumiy ovqatlanish korxonalarida qog`oz salfetkalar, qog`oz dasturxonlar, qog`oz stakanlar va tarelkalar, bir marta foydalaniladigan anjomlar qiymati.

2.1.3. Sotish bozorlarini o`rganish bo`yicha xarajatlar (marketingga, reklamaga sarflangan xarajatlar).

2.1.4. Yuqorida sanab o`tilmagan sotish bo`yicha boshqa xarajatlar.

2.2. MA'MURIY XARAJATLAR

Ma'muriy xarajatlarga quyidagilar kiradi:

2.2.1. 1.2-bandda sanab o'tilgan boshqaruv xodimlariga tegishli bo'lgan mehnatga haq to'lash xarajatlari.

2.2.2. 1.3-bandda sanab o'tilgan boshqaruv xodimlariga tegishli bo'lgan ijtimoiy sug'urtaga ajratmalar.

2.2.3. Xizmat engil avtotransportiga va xizmat mikroavtobusini saqlash, yollash va ijaraga olish xarajatlari.

2.2.4. Xo'jalik yurituvchi sub'ekt va uning tarkibiy bo'linmalarini tashkil etish va ularni boshqarish xarajatlari.

2.2.5. Boshqaruvning texnik vositalari, aloqa uzellari, signalizatsiya vositalari, hisoblash markazlarini va ishlab chiqarishga tegishli bo'lmagan boshqaruvning boshqa texnik vositalarini saqlash va ularga xizmat ko'rsatish xarajatlari.

2.2.6. Ijara, xizmatlar ko'rsatilganligi, ma'lumotlar berilganligi uchun aloqa uzellariga haq to'lash (ATS, uyali, yo'ldosh, peyjing aloqa, radiochastotalar ijarasi, ajratilgan kanallar, ma'lumotlarni berishning simli va simsiz tarmoqlari, Internet).

2.2.7. Shaharlararo va xalqaro telefon so'zlashuvlari uchun haq to'lash.

2.2.8. Ma'muriy-boshqaruv ehtiyojlari uchun binolar va xonalar ijarasi uchun haq to'lash.

2.2.9. Ma'muriy ahamiyatga ega bo'lgan asosiy vositalarni saqlash va ularni tuzatish, shuningdek, eskirish (amortizatsiya) xarajatlari.

2.2.10. Yuqori tashkilotlar va yuridik shaxslar birlashmalari: vazirliklar, idoralar, uyushmalar, kontsernlar va boshqalar xarajatlariga ajratmalar.

2.2.11. Xodimlarni va ishlab chiqarish jarayoni bilan bog'liq bo'lmagan mol-mulkni majburiy va ixtiyoriy sug'urta qilish xarajatlari.

2.2.12. Boshqaruv xodimlarini xizmat safarlariga yuborish bo'yicha xarajatlar.

2.2.13. Miqdordagi vakillik xarajatlari.

2.2.14. Umumiy ovqatlanish korxonalari va boshqalarga binolarni tekin berish va kommunal xizmatlar qiymatiga haq to'lash xarajatlari.

2.2.15. Bevosita ishlab chiqarish jarayoniga tegishli bo'lmagan, tabiatni muhofaza qilish ahamiyatiga ega bo'lgan jamg'armalarni saqlash va ulardan foydalanish bilan bog'liq joriy xarajatlar, tabiiy atrof

muhitni ifloslantirganlik va chiqindilarni joylashtirganlik uchun kompensatsiya to'lovlari.

2.3. BOSHQA OPERATSIYA XARAJATLARIGA QUYIDAGILAR KIRADI:

2.3.1. Kadrlar tayyorlash va ularni qayta tayyorlash xarajatlari, yangi tashkil etilayotgan xo'jalik yurituvchi sub'ektda ishlash uchun kadrlar tayyorlash va qayta tayyorlash bundan mustasno.

2.3.2. Loyiha va qurilish-montaj ishlarida chala ishlarni bartaraf etish xarajatlarini qoplash, shuningdek, ob'ekt qoshidagi omborgacha transportda tashish chog'idagi shikastlanishlar va buzilishlar, korroziyaga qarshi himoya nuqsonlari tufayli kelib chiqqan taftish xarajatlari (asbob-uskunalarni qismlarga ajratish) va shunga o'xshash boshqa xarajatlar etkazib berish va ishlarni bajarish shartlarini buzgan yuridik shaxslar hisobiga mazkur xarajatlar chala ishlar, shikastlanish yoki zarar ko'rish uchun javobgar bo'lgan etkazib beruvchi yoki boshqa xo'jalik yurituvchi sub'ektlar hisobiga undirilishi mumkin bo'lmagan darajada amalga oshiriladi.

2.3.3. Maslahat va axborot xizmatlariga haq to'lash.

2.3.4. Auditorlik xizmatlariga haq to'lash.

2.3.5. O'zining xizmat ko'rsatuvchi ishlab chiqarishlari va xo'jaliklarni saqlashdan ko'rilgan zararlar.

2.3.6. Salomatlikni muhofaza qilish va xodimlarning ishlab chiqarish jarayonida bevosita qatnashuvi bilan bog'liq bo'lmagan dam olishlarni tashkil etish tadbirlari.

2.3.7. Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar tomonidan mahsulot ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lmagan ishlar (xizmatlar)ni (shahar va shaharchalarni obodonlashtirish ishlari, qishloq xo'jaligiga yordam berish va boshqa xil ishlarni) bajarish xarajatlari.

2.3.8. Kompensatsiya va rag'batlantirish tusidagi to'lovlar:

2.3.8.1. O'zbekiston Respublikasi Hukumatining qarorlariga ko'ra kompensatsiya to'lovlari.

2.3.8.2. Biryo'la to'lanadigan mukofotlar va taqdirlashlar, shu jumladan, xo'jalik yurituvchi sub'ektning o'zining qaroriga ko'ra ko'p yillik xizmati uchun haq to'lash (naturadagi to'lovlar ham shu jumlagi kiradi), shuningdek, ular bo'yicha ijtimoiy jamg'armalarga o'tkazilgan summalar.

2.3.8.3. Qonun hujjatlariga yoki xo`jalik yurituvchi sub'ektning o`zining qaroriga muvofiq majburiy progul vaqti yoki past haq to`lanadigan ishni bajarganlik uchun haq to`lash.

2.3.8.4. Vaqtincha mehnat layoqatini yo`qotgan taqdirda qonun hujjatlari bilan belgilangan haqiqiy ish haqi miqdorigacha qo`shimcha haq.

2.3.8.5. Asosiy ish joyi bo`yicha ishchilarga, xo`jalik yurituvchi sub'ekt ishchi va mutaxassislariga ular ishdanajragan holda malaka oshirish va kadrlarni qayta tayyorlash tizimida o`qigan vaqtda ish haqi to`lash.

2.3.8.7. Xodimlarga tovarlar, mahsulotlar va boshqa narsalarni bepul berish yoki xodimlar uchun ishlar, xizmatlarni bajarish.

2.3.8.8. Xodimlarning (ovqatlanishi, yo`l kirasi, davolanish va dam olishga, ekskursiya va sayohatlarga yo`llanmalari, sport seksiyalarida, to`garaklarda, klublardagi mashg`ulotlari, madaniy-ko`ngilochar va jismoniy tarbiya (sport) tadbirlariga qatnashishi, xodimlarning shaxsiy obunasi va iste'moli hamda boshqa shunga o`xshash to`lovlari) xarajatlarini qoplash.

2.3.9. Ish haqini hisoblashda hisobga olinmaydigan to`lovlar va xarajatlar:

2.3.9.1. Qonunchilikka muvofiq bolani ikki yoshga to`lgungacha parvarish qilish bo`yicha har oylik nafaqani to`lash bo`yicha xarajatlar.

2.3.9.2. Pensiyalarga ustamalar, pensiyaga chiqayotgan mehnat faxriylariga biryo`la to`lanadigan nafaqalar.

2.3.9.3. Amaldagi qonunchilikka muvofiq xo`jalik yurituvchi sub'ektlardan ularning qayta tashkil etilishi, xodimlar va ro`yxatlar sonining qisqarishi munosabati bilan bo`shab qoladigan xodimlarga to`lovlar.

2.3.9.4. Xodimlarga to`lanadigan moddiy yordam.

2.3.10. Sog`liqni saqlash ob'ektlari, qariyalar va nog`ironlar uylari, bolalar maktabgacha tarbiya muassasalari, sog`lomlashtirish lagerlari, madaniyat va sport ob'ektlari, xalq ta'limi muassasalari, shuningdek, uy-joy fondi ob'ektlari ta'minotiga (shu jumladan, barcha turdagi ta'mirlash ishlarini o`tkazishga amortizatsiya ajratmalari va xarajatlarni ham qo`shgan holda) xarajatlar.

2.3.11. Vaqtincha to`xtatib qo`yilgan ishlab chiqarish quvvatlari va ob'ektlarini saqlash xarajatlari (boshqa manbalar hisobiga qoplanadigan xarajatlardan tashqari).

2.3.12. Bank va depozitariy xizmatlariga to`lovlar.

2.3.13. Ekologiya, sog'lomlashtirish va boshqa xayriya jamg'armalariga, madaniyat, xalq ta'limi, sog'liqni saqlash, ijtimoiy ta'minot, jismoniy tarbiya va sport korxonalari, muassasalari va tashkilotlariga badallar.

2.3.14. Amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladigan va xo'jalik yurituvchi sub'ekt xarajatlariga kiritiladigan budjetga majburiy to'lovlar, soliqlar, yig'imlar, davlat maqsadli jamg'armalariga ajratmalar, shuningdek Hukumat qarorlariga binoan xalqaro tashkilotlarga a'zolik badallarini to'lash.

2.3.15. Zararlar, jarimalar, penyalar:

2.3.15.1. Bekor qilingan ishlab chiqarish buyurtmalari bo'yicha yo'qotishlar.

2.3.15.2. Moddiy boyliklarning, bevosita ishlab chiqarish jarayoniga tegishli bo'lmagan yo'qotishlar hamda kamomadlar.

2.3.15.3. Ishlab chiqarish zahiralarini va tayyor mahsulotni eng past baholash usuli yoki sotishning sof qiymati bo'yicha qayta baholash yoki bahosini pasaytirish natijasidagi zararlar.

2.3.15.4. Idishlarga doir ishlar bo'yicha zararlar.

2.3.15.5. Sud xarajatlari.

2.3.15.6. To'lanishi shubhali qarzlar bo'yicha zahiraga ajratmalar.

2.3.15.7. Qonunchilikka muvofiq da'vo bildirish muddati o'tgan va undirish noreal bo'lgan boshqa qarzlar bo'yicha debitorlik qarzlarni hisobdan chiqarishdan ko'rilgan zararlar, shuningdek, qonunchilikka muvofiq yuridik va jismoniy shaxslar bilan hisob-kitoblar bo'yicha to'lanishi shubhali qarzlarni hisobdan chiqarishdan ko'rilgan zararlar.

2.3.15.8. Hisobot yilida aniqlangan o'tgan yillar operatsiyalari bo'yicha ko'rilgan zararlar.

2.3.15.9. Tabiiy ofatlar (ishlab chiqarish zahirolari, tayyor mahsulotlar va boshqa moddiy boyliklarning nobud bo'lishi va buzilishi, ishlab chiqarishning to'xtashi va boshqalar tufayli yo'qotishlar) tufayli ko'rilgan qoplanmaydigan yo'qotishlar va zararlar, shu jumladan, tabiiy ofatlar oqibatlarining oldini olish yoki oqibatlarini bartaraf etish bilan bog'liq xarajatlar.

2.3.15.10. Aybdorlari aniqlanmagan o'g'irliklardan yoki aybdor tomon hisobidan zarur summani undirish mumkin bo'lmagan hollarda ko'rilgan zararlar.

2.3.15.11. Xo'jalik yurituvchi sub'ektning asosiy vositalari va boshqa mol-mulki (aktivlari)ning chiqib ketishi (balansdan chiqarish)dan ko'rilgan zararlar.

2.3.15.12. Xo`jalik shartnomalari shartlarining, shu jumladan, mahsulotni etkazib beruvchilar va debitorlar aybi bilan buzilganligi uchun belgilangan yoki e'tirof etilgan jarimalar, penyalar, vaqtida to`lanmagan to`lovlar va boshqa xil sanksiyalar, shuningdek, etkazilgan zararlarni to`lash bo`yicha xarajatlar.

2.3.15.13. Soliq qonuni va boshqa qonunlarni buzganlik uchun jarima va penyalar.

2.3.15.14. To`langan boshqa jarimalar.

2.3.16. Xodimlarga beriladigan yoki yordamchi xo`jaliklar tomonidan xo`jalik yurituvchi sub'ektning umumiy ovqatlanish korxonasi uchun ishlab chiqariladigan mahsulot (ishlar, xizmatlar) bo`yicha narx tafovutlari.

2.3.17. Gudvill (firma narxi)ning nomoddiy aktivi summasini hisobdan chiqarish bilan bog`liq xarajatlar, ishlab chiqarish jarayoni bilan bog`liq bo`lmagan mol-mulk bo`yicha, belgilangan tartibda.

2.3.18. Yangi texnologiyalar yaratish va qo`llanilayotgan texnologiyalarni takomillashtirish, shuningdek ilmiy-tadqiqot, tajriba-konstruktorlik ishlari olib borish, xomashyo va materiallarning yangi turlarini yaratish, ishlab chiqarishni qayta jihozlash bilan bog`liq mahsulotlar sifatini oshirish xarajatlari.

2.3.19. Ishlab chiqarish tusidagi ixtirochilik, ratsionalizatorlik, tajriba-eksperiment ishlari olib borish, ixtirochilik va ratsionalizatorlik takliflari bo`yicha modellar va namunalarni tayyorlash va sinash, ko`rgazmalar va ko`riklar, tanlovlarni, sertifikatlashni hamda ixtirochilik va ratsionalizatorlik bo`yicha boshqa tadbirlarni tashkil etish, mualliflar haqini to`lash xarajatlari va boshqa xarajatlar.

2.3.20. Ijaraga berilgan asosiy vositalarni ta'minlash xarajatlari.

2.3.21. Boshqa xarajatlar.

2.4. HISOBOT DAVRINING KELGUSIDA SOLIQ SOLINADIGAN BAZADAN CHIQARILADIGAN XARAJATLARI

Ushbu bo`limda sarmoya bilan ta'minlash bilan bog`liq bo`lmagan va sarmoya bilan ta'minlanadigan asosiy vositalar qiymatiga qo`shilmaydigan xarajatlar sanab o`tilgan.

2.4.1. Xo`jalik yurituvchi yangi sub'ektlar, ishlab chiqarishlar, tsexlar, agregatlarni o`zlashtirishga xarajatlar:

2.4.1.1. Mashina va mexanizmlarning ayrim turlarini yakka tartibda sinab ko`rish hamda barcha turdagi asbob-uskunalar va texnik qurilmalarni ularning o`rnatilish sifatini tekshirib ko`rish maqsadida (ishlatilmayotgan holatda) kompleks sinab ko`rish.

2.4.1.2. Asbob-uskunalarni ishlab chiqargan zavodlar yoki ularning topshirig`iga binoan ixtisoslashtirilgan korxonalar tomonidan amalga oshiriladigan shefmontaj.

2.4.1.3. Qurilayotgan korxona direktsiyasining, direktsiya bo`lmagan taqdirda - texnik nazorat guruhining xarajatlari (ma'muriy xarajatlar), shuningdek, xo`jalik yurituvchi yangi sub'ektlar va ob'ektlarni foydalanishga qabul qilib olish bilan bog`liq xarajatlar.

2.4.1.4. Yangi ishga tushiriladigan xo`jalik yurituvchi sub'ektlarda ishlash uchun kadrlar tayyorlashga xarajatlar.

2.4.3. Boshqaruv tizimlari va vositalarini yaratish hamda takomillashtirish bo`yicha xarajatlar.

2.4.4. Seriyali va keng ko`lamda chiqariladigan mahsulotlar yangi turlarini ishlab chiqarishni hamda texnologik jarayonlarni tayyorlash va o`zlashtirish xarajatlari.

2.4.5. Qonunchilikka muvofiq ishchi kuchlari qabul qilish bilan bog`liq xarajatlar.

2.4.8. Xo`jalik yurituvchi sub'ektlarni, ishlab chiqarish liniyalarini rivojlantirish (takomillashtirish) xarajatlari.

3. MOLIYAVIY FAOLIYAT BO`YICHA XARAJATLAR

3.1. Banklar va boshqa moliya-kredit tashkilotlari kreditlari bo`yicha foizlar (investitsiya davrida kapital qo`yilmalar tarkibiga kiruvchi investitsiyalarga olingan bank va boshqa moliya-kredit tashkilotlari kreditlari bo`yicha foizlardan tashqari), shu jumladan, muddati o`tgan va uzaytirilgan ssudalar bo`yicha foizlar.

3.2. Mol-mulkni uzoq muddatli ijaraga olish (lizing) bo`yicha foizlarni to`lash xarajatlari.

3.3. Chet el valutasini bilan operatsiyalar bo`yicha salbiy kurs tafovutlari va zararlar.

3.4. Sarflangan (qimmatli qog`ozlarga, shu'ba korxonalarga va hokazolarga) mablag`larni qayta baholashdan ko`rilgan zararlar.

3.5. O`z qimmatli qog`ozlarini chiqarish va tarqatish bilan bog`liq xarajatlar.

3.6. Moliyaviy faoliyat bo'yicha boshqa xarajatlar, shu jumladan, salbiy diskont.

4. FAVQULODDA ZARARLAR

Favqulodda zararlar - bu xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning odatdagi faoliyatidan chetga chiquvchi hodisalar yoki operatsiyalar natijasida vujudga keladigan va ro'y berishi kutilmagan odatdan tashqari xarajatlar moddalaridir. Bunga favqulodda moddalar va davr xarajatlari tarkibida aks ettirilishi kerak bo'lgan o'tgan davr moddalari kirmaydi.

U yoki bu moddaning favqulodda zararlar moddasi sifatida aks ettirilishi uchun u quyidagi mezonlarga javob berishi kerak:

- korxonaning odatdagi xo'jalik faoliyatiga xos emaslik;
- bir necha yil mobaynida takrorlanmasligi kerak;
- boshqaruv xodimi tomonidan qabul qilinadigan qarorlarga bog'liq emaslik.

Tegishli moddalarni favqulodda xarajatlarga kiritish yoki kiritmaslik to'g'risida qarorlar qabul qilishda ishlar amalga oshiriladigan sharoitlarni ham hisobga olish lozim. Masalan, agar xo'jalik yurituvchi sub'ekt alohida iqlim sharoitlarida joylashgan bo'lsa, u holda - iqlim sharoitlariga bog'liq holdagi ishlamay turib qolishlar favqulodda deb baholanishi mumkin emas, chunki ushbu modda "bir necha yil mobaynida takrorlanmasligi kerak" mezoniga javob bermaydi.

V. XO'JALIK YURITUVCHI SUB'EKTLARNING ISHLAB CHIQRISH - XO'JALIK FAOLIYATI NATIJASIDA OLINADIGAN DAROMADLAR RO'YXATI

Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar tomonidan ularning xo'jalik faoliyatini amalga oshirishi natijasida olinadigan daromadlari hisobotga quyidagi asosiy bo'limlar bo'yicha kiritiladi:

- Sotishdan olingan sof tushum.
- Asosiy faoliyatdan olingan boshqa daromadlar (operatsiya daromadlari).
- Moliyaviy faoliyatdan olingan daromadlar.
- Favqulodda daromadlar.

1. SOTISHDAN OLINADIGAN SOF TUSHUM

1.1. Sotishdan olingan sof tushum mahsulot (ishlar, xizmatlar)ni sotishdan olingan, undan qo`shilgan qiymat, aktsiz solig`i va eksport boj poshlinasi, chegirilgan tushum sifatida aniqlanadi. Unga tovarlarning qaytarilishi, xaridorlar uchun berilgan chegirmalar va boshqalar kiritilmaydi.

1.2. Eksport faoliyatini amalga oshiruvchi xo`jalik yurituvchi sub'ektlar, daromad (foyda)ni amaldagi qonunchilikka muvofiq hisoblab chiqaradilar.

1.3. Mahsulotlar (ishlar, xizmatlar)ni sotishdan tushum buxgalteriya hisobi to`g`risidagi qonunchilikka muvofiq aniqlanadi.

2. ASOSIY ISHLAB CHIQARISH FAOLIYATIDAN OLINADIGAN BOSHQA DAROMADLAR

Asosiy ishlab chiqarish faoliyatidan olinadigan boshqa daromadlarga quyidagilar kiradi:

2.1. Undirilgan yoki qarzdor tomonidan e'tirof etilgan jarimalar, penyalar, vaqtda to`lanmagan qarzlar va xo`jalik shartnomalari shartlarini buzganlik uchun boshqa xil jazo jarimalari, shuningdek, etkazilgan zararlarni undirish bo`yicha daromadlar.

2.2. Hisobot yilida aniqlangan o`tgan yillardagi foyda.

2.3. Ishlab chiqarish va mahsulotlar (ishlar, xizmatlar)ni sotish bilan bevosita bog`liq bo`lmagan operatsiyalardan renta daromadi, xo`jalik yurituvchi sub'ektlar huzuridagi oshxonalardan tushumlar, yordamchi xizmatlardan daromadlar sifatidagi boshqa daromadlar.

2.4. Xo`jalik yurituvchi sub'ektning asosiy fondlarini va boshqa mol-mulklarini sotishdan olingan daromadlar.

2.5. Da'vo bildirish muddati o`tgan kreditorlik va deponent qarzlarni hisobdan chiqarishdan olingan daromadlar.

2.6. Tovar-moddiy boyliklarni puxta baholash. Tovar-moddiy boyliklarni to`liq baholash summasi mahsulot (ishlar, xizmatlar) sotilishiga ko`ra soliq solinadigan daromadga kiritiladi)

2.7. Davlat subsidiyalaridan daromadlar*.

2.8. holisona moliyaviy yordam.

2.9. Boshqa operatsion daromadlar.

3. MOLIYAVIY FAOLIYATDAN OLINADIGAN DAROMADLAR

Moliyaviy faoliyatdan olinadigan daromadlarga quyidagilar kiradi:

3.1. Olingan royaltlar va sarmoya transferti.

3.2. O'zbekiston Respublikasi hududida va uning tashqarisida boshqa xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatida ulush qo'shgan holda qatnashishdan olingan daromad, aksiyalar bo'yicha dividendlar va obligatsiyalar hamda xo'jalik yurituvchi sub'ektga tegishli qimmatli qog'ozlar bo'yicha daromadlar.

3.3. Mol-mulkni uzoq muddatli ijaraga berishdan olingan daromadlar (lizing to'lovini olish).

3.4. Valuta schetlari, shuningdek, chet el valutalaridagi operatsiyalar bo'yicha ijobiy kurs tafovutlari.

3.5. Sarflangan (qimmatli qog'ozlarga, shu'ba korxonalarga va hokazolarga) mablag'larni qayta baholashdan olingan daromadlar.

3.6. Moliyaviy faoliyatdan olingan boshqa daromadlar.

4. FAVQULODDA FOYDA

Favqulodda foyda moddalari - bu ko'zda tutilmagan, tasodifiy tusga ega bo'lgan, hodisa yoki xo'jalik yurituvchi sub'ektning odatdagi faoliyati doirasidan chetga chiqadigan tusdagi operatsiyalar natijasida paydo bo'ladigan va olinishi kutilmagan foydadir. Bunga daromadlarning favqulodda moddalari yoki asosiy faoliyatdan olingan boshqa daromadlar bo'limida aks ettirilishi kerak bo'lgan o'tgan davrlardagi foyda kirmaydi.

G. TOVAR-MODDIY ZAHIRALARNI, TUGALLANMAGAN ISHLAB CHIQARISHLARNI, SHUNINGDEK, KELGUSI DAVRLAR XARAJATLARINI BAHOLASH

Ushbu Nizomga muvofiq ishlab chiqarish xarajatlari hisobot davri mobaynida ishlab chiqarish schetlarida va tayyor mahsulot schetida shakllanishi kerak. Biroq bir turdagi mahsulotni seriyali (keng ko'lamda) ishlab chiqarishda favqulodda holatlar tufayli kelib chiqqan

favqulodda yoki bir galgi xarajatlar tayyor mahsulot tannarxiga kiritilmasligi, balki sotish xarajatlari sifatida to`g`ridan-to`g`ri hisobdan chiqarilishi kerak.

Tovar-moddiy boyliklar zahiralarini, tugallanmagan ishlab chiqarishni, shuningdek, kelgusi davrlar xarajatlarini baholash "Buxgalteriya hisobi to`g`risida" O`zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq amalga oshiriladi.

Kelgusi davrlar xarajatlari xarajatlarning alohida toifasini tashkil qiladi. Ular joriy davrda amalga oshiriladi, biroq keyingi hisobot davrlaridagi ishlab chiqarish xarajatlariga qo`shiladi. Biroq mazkur Nizomga muvofiq ushbu xarajatlardan 2-ilovada keltirilgan ro`yxatdagi xarajatlar chiqarib tashlanadi (ular Hisobot davrining kelgusida soliq solinadigan bazadan chiqarib tashlanadigan xarajatlari sifatida aks ettiriladi).

D. SOLIQ SOLINADIGAN BAZANI ANIQLASH

Xo`jalik yurituvchi sub'ektning daromad (foyda) solig`i bo`yicha soliq solinadigan baza quyidagicha hisoblab chiqariladi:

Daromad (foyda) solig`i to`langungacha bo`lgan daromad (foyda) yoki zarar (Nizomning A-G bo`limlariga muvofiq)

plus 1-ilovada keltirilgan buxgalteriyadagi foyda bilan soliq solinadigan foyda o`rtasidagi doimiy tafovutlar

plus yoki minus 2-ilovada keltirilgan sarflangan xarajatlarni soliq olinadigan bazadan chegirib tashlash vaqtidagi tafovutlar.

minus Qonunchilikka muvofiq soliqlar bo`yicha imtiyozlar

teng bo`ladi - Daromad (foyda) solig`i bo`yicha soliq solinadigan baza.

**Mahsulot (ishlar, xizmatlar)ni ishlab
chiqarish va sotish xarajatlarining
tarkibi hamda moliyaviy natijalarni
shakllantirish tartibi to`g`risida**

**Nizomga
1-ILOVA**

I. SOLIQ SOLINADIGAN BAZAGA KIRITILADIGAN XARAJATLAR MODDALARI (CHEGIRILMAYDIGAN XARAJATLAR YOKI DOIMIY TAFOVUTLAR)

Ishlab chiqarish tannarxi bo'yicha.

Xo'jalik yurituvchi sub'ektning ishlab chiqarish ishchilari
va boshqa xodimlari mehnatiga xarajatlar bo'yicha.

Ishlab chiqarishga tegishli bo'lgan ijtimoiy
sug'urtaga ajratmalar bo'yicha.

Asosiy vositalar va moddiy aktivlar amortizatsiyasi bo'yicha.

Ishlab chiqarish tusidagi boshqa xarajatlar bo'yicha.

Davr xarajatlari bo'yicha.

Moliyaviy faoliyat bo'yicha xarajatlar.

Tovar-moddiy zahiralarini qayta baholash bilan
bog'liq xarajatlar moddalari.

2.1. Ishlab chiqarish xarajatlari bo'yicha:

2.2. Davr xarajatlari bo'yicha:

ISHLAB CHIQARISH TANNARXI BO`YICHA

1.1. Korxonalar tomonidan suv xo`jaligi tizimlaridan belgilangan limitlardan ortiqcha ishlatiladigan suv uchun to`lov.

1.2. Ishlab chiqarish sohasida moddiy boyliklarning tabiiy ishdan chiqish normalaridan ortiqcha nobudgarchiliklar, buzilishlar va kamomadlar.

XO`JALIK YURITUVCHI SUB'EKTNING ISHLAB CHIQARISH ISHCHILARI VA BOSHQA XODIMLARI MEHNATIGA XARAJATLAR BO`YICHA

1.3. Ayrim tarmoqlar xodimlariga bepul ko`rsatiladigan kommunal xizmatlar, beriladigan ovqatlar, mahsulotlar qiymati, xodimlarga bepul beriladigan uy-joy haqini to`lash xarajatlari (bepul berilmagan uy-joy, ko`rsatilmagan kommunal xizmatlar va shu kabilar uchun pul kompensatsiyasi summasi).

1.4. Xo`jalik yurituvchi sub'ekt xodimlariga "Ishlab chiqarish tannarxi" bo`limining 1.2.7-bandida ko`rsatilgan qo`shimcha to`lovlarning boshqa turlari.

1.6. Jamoa shartnomasi bo`yicha xodimlarga qo`shimcha ravishda (qonunchilikda nazarda tutilgandan ortiqcha) berilgan ta'tillar, ular bo`yicha kompensatsiya to`lovlari.

1.7. Xodimlarga beriladigan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) yoki xo`jalik yurituvchi sub'ektning umumiyovqatlanish uchun yordamchi xo`jaliklar tayyorlaydigan mahsulotlar narxlari bo`yicha tafovutlar.

1.8. Xo`jalik yurituvchi sub'ekt rahbari qaroriga ko`ra amalga oshiriladigan, ishlab chiqarish xodimlarining qonunchilikda nazarda tutilgan normalardan ortiqcha xizmat safarlari bilan bog`liq to`lovlar.

ISHLAB CHIQARISHGA TEGISHLI BO`LGAN IJTIMOIIY SUG`URTAGA AJRATMALAR BO`YICHA

1.9. Nodavlat pensiya jamg`armalariga ajratmalar.

1.10. Sug`urtaning ixtiyoriy turlari bo`yicha qonun hujjatlarida belgilangan normalardan ortiqcha ajratmalar.

ISHLAB CHIQUARISH TUSIDAGI BOSHQA XARAJATLAR BO`YICHA

1.11. Tabiiy atrof muhitni ifloslantirganlik va chiqindilarni qonun hujjatlarida belgilangan normalardan ortiqcha joylashtirganlik uchun kompensatsiya to`lovlari.

1.12. Tegishli vakolatli organlar qarorlarisiz to`lanadigan, ishlab chiqarishdagi shikastlanishlar tufayli mehnat qilish layoqatini yo`qotishlar bilan bog`liq nafaqalar.

DAVR XARAJATLARI BO`YICHA

1.13. Reklama uchun belgilangan normalardan ortiqcha xarajatlar.

1.14. Xizmat engil transporti va xizmat mikroavtobusini saqlashga sarflanadigan xarajatlar, ularni yollash va ijaraga olish xarajatlari.

1.15. Ijaraga berganlik, xizmatlar ko`rsatilganligi, ma'lumotlar uzatilganligi uchun aloqa uzellariga to`lov (ko`chma, yo`ldosh, peyjing aloqasi, radiochastotalar ijarasi, ajratilgan kanallar, ma'lumotlarni uzatishning simli va simsiz tarmoqlari), ATS va Internetdan tashqari.

1.16. Shaharlararo va xalqaro telefon so`zlashuvlar uchun belgilangan normativlardan ortiqcha to`lov.

1.17. Yuqori organlar hamda yuridik shaxslar birlashmalari: vazirliklar, idoralar, uyushmalar, kontsernlar va boshqalar xarajatlariga ajratmalar.

1.17-1. Boshqaruv xodimlariga tegishli nodavlat pensiya jamg`armalariga ajratmalar.

1.18. Boshqaruv xodimlarining xizmat safarlari uchun belgilangan normalardan ortiqcha xarajatlar.

1.19. Qonunchilikda belgilangan normativ va normalardan ortiqcha vakillik xarajatlari.

1.20. Umumiy ovqatlanish korxonalari uchun bepul binolar berish xarajatlari, ularga kommunal xizmatlar ko`rsatish qiymatini to`lash va boshqalar.

1.21. Xodimlarni va mol-mulkni ixtiyoriy sug`urta qilishga hamda ixtiyoriy sug`urtaning ishlab chiqarish jarayoni bilan bog`liq bo`lmagan boshqa turlariga qonun hujjatlarida belgilangan normalardan ortiqcha xarajatlar.

1.21-1. Ishlab chiqarish jarayoniga bevosita taalluqli bo'lmagan atrof tabiiy muhitni ifloslantirganlik va unga chiqindilarni joylashtirganlik uchun qonun hujjatlarida belgilangan normalardan ortiqcha kompensatsiya to'lovlari.

1.22. Xo'jalik yurituvchi sub'ekt sohasiga to'g'ri kelmaydigan kasblar bo'yicha kadrlar tayyorlash xarajatlari.

1.23. Loyihalardagi va qurilish-montaj ishlaridagi kamchiliklarni, shuningdek ob'ekt yonidagi omborga tashib keltirilgungacha sodir bo'lgan buzilishlar va deformatsiyalarni bartaraf etish bo'yicha xarajatlar, zanglashdan himoya qilishdagi kamchiliklar oqibatida tekshirib ko'rish (asbob-uskunalarni qismlarga ajratish) bo'yicha xarajatlar va shu kabi boshqa xarajatlar etkazib berish va ishlarni bajarish shartlarini buzgan yuridik shaxslar hisobiga, ushbu xarajatlarni kamchiliklar, buzilishlar yoki nobudgarchiliklar uchun javobgar etkazib beruvchi yoki boshqa xo'jalik yurituvchi sub'ektlar hisobiga undirish mumkin bo'lmagan miqdorda, qoplanadi.

1.24. Xo'jalik yurituvchi sub'ekt qatnashchilaridan (mulkdorlaridan) birining tashabbusi bo'yicha amalga oshirilgan auditorlik xizmatlari uchun to'lov.

1.25. O'z xizmat ko'rsatuvchi ishlab chiqarishlari va xo'jaliklariga sarflangan xarajatlardan ko'rilgan zararlar.

1.26. Xodimlarning ishlab chiqarish jarayonida bevosita qatnashishi bilan bog'liq bo'lmagan salomatlikni muhofaza qilish va dam olishni tashkil qilish tadbirlari xarajatlari.

1.27. Mahsulot ishlab chiqarish (shaharlar va shaharchalarni obodonlashtirish, qishloq xo'jaligiga yordam ko'rsatish va boshqa ish turlari) bilan bog'liq bo'lmagan ishlar (xizmatlar)ni bajarishga xo'jalik yurituvchi sub'ektlar tomonidan sarflangan xarajatlar.

1.28. Xo'jalik yurituvchi sub'ektning o'z qaroriga ko'ra biryo'la to'lanadigan mukofotlar va taqdirlashlar, uzoq yil ishlaganlik uchun to'lovlar, shu jumladan natura to'lovlari, shuningdek ular bo'yicha ijtimoiy jamg'armalarga o'tkazilgan summalar.

1.29. Xodimlarga tovarlar, mahsulotlar va boshqa qimmatbaho buyumlarni bepul berish yoki xodimlar uchun ishlar, xizmatlarni bajarish.

1.30. Xodimlar xarajatlarini to'lash (ovqatlanishga, yo'l haqiga, davolanish va dam olishga, ekskursiyalarga, sayohatlarga yo'llanmalarga, sport sektsiyalarida, to'garaklarda, klublarda mashg'ulotlarga, madaniy-ko'ngilochar tomoshalarga, jismoniy tarbiya

(sport) tadbirlariga, obunaga va xodimlarning shaxsiy iste'mol tovarlariga va boshqa shu kabilarga to'lovlar).

1.31. Pensiyalarga ustamalar, pensiyaga chiqayotgan mehnat faxriylariga biryo'la to'lanadigan nafaqalar.

1.32. Xodimlarga to'lanadigan moddiy yordam, xodimning jarohatlanishi yoki boshqa tarzda sog'lig'iga shikast etkazilishi va xodim oila a'zolarining vafoti munosabati bilan beriladigan moddiy yordamdan tashqari.

1.33. Sog'liqni saqlash ob'ektlari, qariyalar va nog'ironlar uylari, bolalar maktabgacha tarbiya muassasalari, sog'lomlashtirish lagerlari, madaniyat va sport ob'ektlari, xalq ta'limi muassasalari, shuningdek uy-joy fondi ob'ektlari ta'minotiga (shu jumladan barcha turdagi ta'mirlashlarni o'tkazish uchun amortizatsiya ajratmalari va xarajatlarni ham qo'shgan holda) joylardagi davlat hokimiyati organlari tomonidan belgilangan normativlardan ortiqcha xarajatlar.

1.34. Ekologiya, sog'lomlashtirish va boshqa xayriya jamg'armalariga (agar ular yuridik shaxslar sifatida ro'yxatdan o'tkazilgan bo'lsa), madaniyat, xalq ta'limi, sog'liqni saqlash, ijtimoiy ta'minot, jismoniy tarbiya va sport korxonalari, muassasalari va tashkilotlariga badallar.

1.35. Ishlab chiqarish jarayoniga bevosita tegishli bo'lmagan moddiy boyliklarning tabiiy kamayish normalaridan ortiqcha nobudgarchiligi va kamomadi.

1.36. Sud xarajatlari.

1.37. To'lanishi shubhali qarzlar bo'yicha zahiraga ajratmalar.

1.38. Aybdorlari aniqlanmagan o'g'irliklardan yoki aybdor tomon hisobidan zarur summani undirish mumkin bo'lmagan hollarda ko'rilgan zararlar.

1.39. Xo'jalik yurituvchi sub'ektning asosiy vositalari va boshqa mol-mulki (aktivlari)ning chiqib ketishi (balansdan chiqarilishi)dan ko'rilgan zararlar, xo'jalik yurituvchi sub'ekt tomonidan uch yildan ortiq ishlatilgan asosiy vositalarni sotishdan ko'rilgan zarardan tashqari.

1.40. Xo'jalik shartnomalari shartlarining, shu jumladan mahsulot etkazib beruvchilar va debitorlar aybi bilan buzilganligi uchun belgilangan yoki e'tirof etilgan jarimalar, penyalar, neustoykalar va boshqa xil sanksiyalar, shuningdek, etkazilgan zararlarni to'lash bo'yicha xarajatlar.

1.41. Soliq haqidagi qonunlarni va boshqa qonunlarni buzganlik uchun jarima va penyalar.

1.42. To'langan boshqa jarimalar.

1.43. Xo'jalik yurituvchi sub'ektning "Davr xarajatlari" bo'limining 2.3.21-bandida ko'rsatilgan boshqa operatsiya xarajatlari.

MOLIYAVIY FAOLIYAT BO'YICHA XARAJATLAR

1.44. To'lov muddati o'tgan va uzaytirilgan ssudalar bo'yicha foizlar.

1.45. Banklar va boshqa moliya-kredit tashkilotlarining uzoq muddatli kreditlari bo'yicha foizlar (investitsiya davrida kapital qo'yilmalar tarkibiga kiradigan investitsiyalarga olingan bank va boshqa moliya-kredit tashkilotlari kreditlari bo'yicha foizlar, shuningdek lizing ob'ektini sotib olish uchun olingan kreditlar bo'yicha belgilangan boshqa to'lovlar foizlaridan tashqari).

1.46. Qimmatli qog'ozlar chiqarish bilan bog'liq xarajatlar.

1.47. Qimmatli qog'ozlar qiymatini muddatidan oldin to'lash munosabati bilan vujudga kelgan diskont, agar u budjetdan qarzlarni to'lash bilan bog'liq bo'lmasa.

1.48. Qayta baholashni o'tkazish chog'ida paydo bo'ladigan moliyaviy hisobotlarni tayyorlash maqsadida, inflyatsiya jarayonlarini hisobga olish uchun tovar-moddiy zahiralar qiymatining ortishi qayta baholash zahira schetiga kredit qilinadi va xo'jalik yurituvchi sub'ekt foydasi tarkibida ko'rsatilmaydi. Biroq soliq solinadigan bazani baholash maqsadida qiymatning bunday oshirilishi teskari tartibda ushbu ilovaga muvofiq balans foydaga qo'shiladi.

II. Banklar, sug'urta tashkilotlari, videosalonlar, videoko'rsatuv, video va audioga yozish punktlari, kimoshdi savdolari, pulli yutuqlari bo'lgan kazino, o'yin avtomatlari, nodavlat organlari tomonidan o'tkaziladigan lotereya o'yinlari, ommaviy kontsert-tomosha tadbirlari, shuningdek 1995 yil 1 yanvargacha amalda bo'lgan soliq solish tartibini saqlab qolgan xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi ishlab chiqarish korxonalari uchun soliq olinadigan bazadan chiqarilmaydigan xarajatlarning qo'shimcha moddalari

2.1. ISHLAB CHIQARISH XARAJATLARI BO'YICHA:

2.1.1. Amalda bajarilgan ishlar uchun xo`jalik yurituvchi sub'ektda qabul qilingan mehnatga haq to`lash shakllari va tizimlariga, shu jumladan mehnat unumdorligini hisobga olish bo`yicha boshlang`ich hujjatlarda nazarda tutilgan rag`batlantiruvchi tusdagi to`lovlarga muvofiq ishbay baholar, tarif stavkalari va lavozim maoshlaridan kelib chiqqan holda ishlab chiqarish tusidagi hisoblab yozilgan ish haqi.

2.1.2. Kasb mahorati, murabbiylik uchun tarif stavkalariga va maoshlarga ustamalar.

2.1.3. Ish tartibi va mehnat sharoitlari bilan bog`liq bo`lgan kompensatsiya tusidagi to`lovlar, shu jumladan:

2.1.3.1. Texnologik jarayon jadvalida nazarda tutilgan, tungi vaqtda, belgilangan vaqtdan tashqari, dam olish va bayram (ishlanmaydigan) kunlarida ishlaganlik uchun tarif stavkalariga hamda maoshlarga ustama va qo`shimcha haqlar.

2.1.3.2. Ko`p smenali tartibda ishlaganlik, kasblarni qo`shib bajarganlik va xizmat ko`rsatish tegrasini kengaytirganlik uchun ustamalar.

2.1.3.3. Hukumat tomonidan tasdiqlangan kasblar va ishlar ro`yxati bo`yicha og`ir, zararli, o`ta zararli mehnat sharoitlarida va tabiiy-iqlim sharoitlarida ishlaganlik uchun ustamalar, shu jumladan ushbu sharoitlardagi uzluksiz ish staji uchun ish haqiga ustamalar.

2.1.3.4. Aloqa, temir yo`l, daryo, avtomobil transporti va tosh yo`llar xodimlari hamda doimiy ishi yo`lda o`tdigan yoki qatnov tusida bo`lgan boshqa xodimlar ish haqiga, yo`lda o`tdigan har bir sutka uchun, xo`jalik yurituvchi sub'ekt joylashgan joydan jo`nab ketgan vaqtdan u erga qaytib kelgan vaqtigacha to`lanadigan ustamalar.

2.1.3.5. Qurilishda, rekonstruktsiya qilishda va to`liq ta'mirlashda bevosita band bo`lgan xodimlar uchun, shuningdek qonunchilikda nazarda tutilgan hollarda ishlar vaxta usulida bajarilganda, ishlarning ko`chma va qatnov tusidaligi uchun ustamalar.

2.1.3.6. Er osti ishlari bilan doimiy band bo`lgan xodimlarga, ularning shaxtada (konda) ish joyiga jo`nab ketishlaridan va orqaga qaytishlarigacha o`tdigan normativ vaqt uchun qo`shimcha haq.

2.1.3.7. Mehnatga haq to`lashning rayonlar bo`yicha tartibga solinishiga, shu jumladan rayon koeffitsientlari hamda amaldagi qonunchilikka muvofiq cho`l, suvsiz va yuqori tog` joylarida ishlaganlik uchun koeffitsientlar bilan belgilangan to`lovlar.

2.1.3.8. Xo`jalik yurituvchi sub'ekt joylashgan joy (to`planish punkti)dan ish joyiga va orqaga qaytadigan yo`lda o`tdigan kunlar

uchun vaxta usulida ishlash jadvalida nazarda tutilgan yo`lda bo`lingan kunlar uchun, shuningdek xodimlarning meteorologiya sharoitlari bo`yicha va transport tashkilotlarining aybi bilan yo`lda tutilib qolingan kunlar uchun tarif stavkasi, oklad miqdorida to`lanadigan summalar (ishlar vaxta usulida bajarilganda).

2.1.4. Ish vaxta usulida tashkil etilganda, ish vaqti jamlab hisobga olingan taqdirda va qonunchilikda belgilangan boshqa hollarda xodimlarga ish vaqtining normal davom etish muddatidan ortiqcha ishlaganlik munosabati bilan beriladigan dam olish kunlari (ish vaqtdan tashqari ishlaganlik uchun beriladigan dam olish kunlari) uchun haq to`lash.

2.1.5. Ishlanmagan vaqt uchun haq to`lash.

2.1.5.1. Amaldagi qonunchilikka muvofiq navbatdagi (har yilgi) va qo`shimcha ta'tillar, foydalanilmagan navbatdagi (har yilgi) ta'tillar va qo`shimcha ta'tillar uchun kompensatsiya, o`smirlarning imtiyozli soatlari, onalarning chaqaloqni ovqatlantirish uchun ishdagi tanaffuslari, shuningdek tibbiy ko`rikdan o`tish bilan bog`liq vaqt uchun haq to`lash.

2.1.5.2. Asosiy ish haqi qisman saqlanib qolgan holda majburiy ta'tilda bo`lgan xodimlarga to`lovlar.

2.1.6. Davlat vazifalarini (harbiy yig`inlar, favqulodda vaziyatlar bo`yicha yig`inlar va hokazo) bajarganlik uchun mehnat haqi to`lash.

2.1.7. Ishlab chiqarish jarayonida qatnashayotgan xodimlar mehnatiga haq to`lash jamg`armasiga belgilangan tartibga muvofiq kiritiladigan boshqa xil to`lovlar.

2.2. DAVR XARAJATLARI BO`YICHA:

2.2.1. Mazkur Nizomning 1.2-bandida sanab o`tilgan boshqaruv xodimlariga tegishli xodimlar mehnatiga haq to`lash xarajatlari.

2.2.2. Qonunchilikka muvofiq yoki xo`jalik yurituvchi sub'ektning o`zining qaroriga ko`ra majburiy ishga chiqilmagan vaqt yoki past haq to`lanadigan ish bajarilganligi uchun haq to`lash.

2.2.3. Mehnat layoqati vaqtincha yo`qotilgan taqdirda qonunchilikda belgilangan amaldagi ish haqigacha bo`lgan ustama.

2.2.4. Asosiy ish joyi bo`yicha ishchilarga, xo`jalik yurituvchi sub'ekt ishchilari va mutaxassislariga ular ishdan ajralgan holda malaka oshirish va kadrlarni qayta tayyorlash tizimida o`qigan vaqt uchun haq to`lash.

2.2.5. Bolalarni tarbiyalayotgan ayollar ta'tiliga qonunchilikka muvofiq haq to'lash.

*) Izoh. Ushbu ilovaning birinchi qismida (1.1, 1.2, 1.11, 1.12, 1.21, 1.35, 1.36, 1.37, 1.38, 1.40, 1.41, 1.42, 1.47-bandlardan tashqari) nazarda tutilgan xarajatlar smetasi xo'jalik yurituvchi sub'ektning vakolatli boshqaruv organi (qatnashchilar, muassislarning umumiy yig'ilishi, aktsiyadorlik jamiyatlarida esa kuzatuvchi kengash) tomonidan tasdiqlanadi. Xo'jalik yurituvchi sub'ektning ustav jamg'armasidagi davlat ulushi 25 foiz va undan ortiq bo'lgan taqdirda xarajatlar smetasi O'zbekiston Respublikasi Davlat mulki qo'mitasi bilan kelishgan holda tasdiqlanadi.

**Mahsulot (ishlar, xizmatlar)ni ishlab chiqarish va
sotish xarajatlarining tarkibi hamda moliyaviy
natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risida**

**Nizomga
2-ILOVA**

**USHBU DAVRNING SOLIQ SOLINADIGAN
BAZASIDAN CHIQUARILMAYDIGAN, BIROQ
KEYINGI DAVRLARNING SOLIQ SOLINADIGAN
BAZASIDAN CHIQUARILADIGAN XARAJATLAR
(VAQTLAR BO'YICHA TAFOVUTLAR)**

Xarajatlarning ushbu moddalari xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning moliyaviy hisobotlarida davr xarajatlar sifatida hisobga olinadi. Biroq ular soliq olish maqsadlari uchun ularni soliq solinadigan bazaga kiritish uchun foydaga qaytadan hisobga olinadi, shuning uchun esa ushbu xarajatlarning butun foydali muddati davomida yoki 10 yil mobaynida, ushbu muddatlardan qaysi birining (vaqtlar bo'yicha tafovutlarning) qisqa bo'lishiga qarab, keyinchalik chiqarib tashlanadi.

Ushbu davrning soliq solinadigan bazasidan chiqarilmaydigan, biroq keyingi davrlarning soliq solinadigan bazasidan chiqariladigan xarajatlarga quyidagilar kiradi:

1. Xo'jalik yurituvchi yangi sub'ektlar, ishlab chiqarishlar, tsexlar va agregatlarni o'zlashtirish xarajatlari.

2. Mashina va mexanizmlarning ayrim turlarini yakka tartibda sinab ko`rish hamda barcha turdagi asbob-uskunalar va texnik qurilmalarni, ularning o`rnatilish sifatini tekshirib ko`rish maqsadida (ishlatilayotgan holatda), kompleks sinab ko`rish xarajatlari.

3. Asbob-uskunalarni etkazib bergan zavodlar yoki ularning topshirig`iga binoan ixtisoslashtirilgan xo`jalik yurituvchi sub'ektlar tomonidan amalga oshiriladigan shefmontaj xarajatlari.

4. Qurilayotgan xo`jalik yurituvchi sub'ekt direktsiyasining, direktsiya bo`lmagan taqdirda - texnik nazorat guruhining xarajatlari (ma'muriy xarajatlar), shuningdek xo`jalik yurituvchi yangi sub'ektlar va ob'ektlarni foydalanishga qabul qilib olish bilan bog`liq xarajatlar.

5. Yangi ishga tushirilgan xo`jalik yurituvchi sub'ektlarda ishlash uchun kadrlar tayyorlash xarajatlari.

7. Boshqaruv tizimlari va vositalarini yaratish hamda takomillashtirish bo`yicha xarajatlar.

8. Seriyali va keng ko`lamda chiqariladigan mahsulotlarning yangi turlarini ishlab chiqarish hamda texnologik jarayonlarga tayyorgarlik ko`rish va ularni o`zlashtirish xarajatlari.

9. Qonunchilikka muvofiq ishchi kuchlari qabul qilish bilan bog`liq xarajatlar.

12. Xo`jalik yurituvchi sub'ektlarni, ishlab chiqarish liniyalarini rivojlantirish (takomillashtirish) xarajatlari.

13. Jadallashtirilgan metod bilan hisoblangan amortizatsiya summasi va belgilangan normalar bo`yicha hisoblangan amortizatsiya summasi o`rtasidagi farq:

a) asosiy vositalar bo`yicha soliq to`g`risidagi qonun hujjatlariga muvofiq;

b) nomoddiy aktivlar bo`yicha boshlang`ich qiymatidan va foydali ishlatish muddatidan kelib chiqqan holda xo`jalik yurituvchi sub'ekt tomonidan hisoblab chiqilgan normalarga muvofiq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

I. O`zbekiston Respublikasi Qonunlari

1. O`zbekiston Respublikasining Buxgalteriya hisobi to`g`risida Qonuni. Toshkent, 1996.
2. O`zbekiston Respublikasining Milliy buxgalteriya hisobi standartlari (№ 0-21). Toshkent, 1998-2000.
3. O`zbekiston Respublikasining Qonuni. «O`zbekiston Respublikasining Soliq kodeksiga o`zgartish kiritish to`g`risida». O`zbekiston qonun hujjatlari to`plami, 2005 yil 52-son.

II. O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasaning qarorlari

4. Vazirlar mahkamasining 1999 yil 5 fevraldagi 54-sonli qarori «Mahsulot (ish, xizmat)larni ishlab chiqarish va sotish xarajatlarining tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to`g`risida Nizom». Toshkent, 1999.

III. O`zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari

5. «Erishilgan yutuqlarni mustahkamlab, yangi marralar sari izchil harakat qilishimiz lozim» Respublika Prezidenti I.A.Karimovning 2005 yilda mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2006 yilda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishning eng muhim ustivor yo`nalishlariga bag`ishlangan Vazirlar Mahkamasidagi ma'ruzasi. Soliq va bojxona xabarlari. 2006 yil 14 fevral, 7-son.
6. Karimov «O`zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo`lida» O`zbekiston 1995 y.

IV. O`zbekiston Respublikasi Vazirliklari me'yoriy-huquqiy hujjatlari

7. Qishloq xo`jaligida islohotlarni chuqurlashtirish dasturi. 2001-2004 yy. Toshkent, O`zbekiston – 2001 yil.
8. «Mahsulot (ish, xizmat)larni ishlab chiqarish va sotish xarajatlarining tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to`g`risida Nizom» - 1999 yil 5 fevral.

V. Darsliklar

9. O.Bobojonov, K.Jumaniyozov «Boshqaruv hisobi» T.: O`zbekiston YOzuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg`armasi nashriyoti – 2005 y.

10. Sotivoldiev A.S. «Zamonaviy buxgalteriya hisobi» 3 tom, Toshkent O`zBAMA 2004 yil.
11. O.Zokirov, A.Pardaev "Qishloq xo`jaligi iqtisodiyoti" Toshkent «O`AJBNT» markazi 2003 yil.
12. Nidlz B., Anderson X., Kolduell D. Printsipy buxgalterskogo ucheta. Moskva, «Finansy i statistika» - 2003 g.
13. Xorngren Ch., Foster Dj. Buxgalterskiy uchets: Upravlencheskiy aspekt. perevod s angl., Moskva, «Finansy i statistika», 1999 g.
14. O.Bobojonov, K.Jumaniyozov «Moliyaviy hisob» T.: Moliya – 2002 y.
15. O.Bobojonov. «Moliyaviy hisob» Tashkent - 2000 y.
16. S.Vohidov. «Boshqa tarmoqlarda buxgalteriya hisobi». Toshkent-2000 y.
17. A.Abdullaev. «Qishloq xo`jalik korxonalarida buxgalteriya hisobi». Toshkent-1998 y.
18. Sotivoldiev A.S. «Qishloq xo`jaligida buxgalteriya hisobi», Toshkent Mehnat – 1991 yil.

VI. O`quv qo`llanmalari

19. Grey S., Nidlz B. Finansovyy uchets: Globalnyy podxod, tom 1,2 USAID/EDP, Bishkek, Kyrgyzstan – 2005 g.
20. Husanov R.H., Dodoboev Yu.T., Dodoboev D.Yu. «Agrosanoat kompleksi iqtisodiyoti» Toshkent – 2003 yil.
21. Akchurina E.V., Taran E.S., Kazin A.N. Uchet zatrat v buxgalterskom uchete, Moskva, Prospekt, 2003 g.
22. Vrublevskiy N.D., Renduxov I.M. Sbornik zadach po upravlencheskomu uchetu izderjek proizvodstva i kalkulirovaniyu sebestoimosti produktsii, Moskva, Buxgalterskiy uchets, 2004 g.
23. Potapova I.I. Kalkulyatsiya i uchets, Moskva, Akademiya 2004 g.
24. Kondrakov N.P., Ivanova M.A. Buxgalterskiy upravlencheskiy uchets, Moskva, Infra-M, 2004 g.
25. Trubochkina M.I. Upravlenie zatratami predpriyatiya, Moskva, Infra-M, 2004 g.
26. Xamidullina G.R. Upravlenie zatratami: Planirovanie, uchets, kontrol, analiz izderjek obraçeniya, Moskva, Ekzamen 2004 g.
27. Sotivoldiev A.S. "Zamonaviy buxgalteriya hisobi" Toshkent – 2004 yil. I,II,III-Tom.
28. M.Umarova., O`.Eshboev. «Buxgalteriya hisobi». Toshkent – 2005 y.

VII. Ilmiy monografiyalar, maqolalar va boshqa asarlar

29. S.I.Matqulieva, D.M.Matkarimov «Korxonalar moliyaviy barqarorligini modellashtirish», Bozor, pul va kredit, 2005 yil 4-son.
30. S.N. Usmanov. «Qishloq xo'jalik ekonomikasining aktual masalalari». Toshkent «Mehnat» – 1997 y.
31. Sh.K. Gataulin. «Buxgalteriya hisobi: savollar va javoblar» Tashkent-1998 y.
32. O.Bekturdiyev. «Qishloq xo'jaligida ijara munosabatlari va bozor sharoitida mehnatga haq to'lashni tashkil etish» Xorazm-1998y.
33. YO.Abdullaev. «Kredit» Toshkent-1996 y.
34. T.Boboqulov. «Pul». Toshkent-1996 y.

VIII. Doktorlik, nomzodlik va magistrlik dissertatsiyalari

35. Ruzmetov B. «Kompleksnoe razvitie regiona v usloviyax uglubleniya ekonomicheskix reform (na primere Xorezmskoy oblasti). Doktorskaya dissertatsiya na soiskanie uchenoy stepeni doktora ekonomicheskix nauk. Tashkent, 1998 g.
36. Bekturdiyev A. «Xorazm viloyatida paxta etishtirish tannarxining iqtisodi va uning kamaytirish rezervlari». Iqtisod fanlari nomzodi ilmiy darajasini olishga da'vogarlik dissertatsiyasi, Toshkent, 1989 y.

IX. Gazeta va jurnallar

37. Ergashxo'jaeva Sh. Qishloq xo'jalik mahsulotlari raqobatbardoshligini baholash. Bozor, pul va kredit. 2005 y. 7son.
38. Soliq va bojxona xabarlari. 2006 yil 10 yanvar, 1-2-son

X. Statistik ma'lumotlar to'plamlari

39. O'zbekiston iqtisodiyoti. Statistik to'plam 2001-2005 yillar

XI. Internet saytlari

40. www.ursu.uzpak.uz – Urganch Davlat Universiteti
41. www.cer.uz – Iqtisodiy tadqiqotlar markazi (TSentr ekonomicheskix issledovaniy) sayti
42. www.ceep.uz – Samarali iqtisodiy siyosat markazi
43. www.bearingpoint.uz – O'zbekiston iqtisodiyoti jurnali sayti
44. www.review.uz – Sayt jurnala «Ekonomicheskoe obozrenie»

45. www.stat.uz – O`zbekiston Respublikasi Statistika ma'lumotlari, Statistika vazirligi
46. www.uzsci.net, www.aci.uz, www.uzpak.uz, www.gov.uz, va boshqa saytlar ma'lumotlaridan foydalanildi
47. www.iasb.org – Pravleniya Mejdunarodnyx standartov buxgalterskogo ucheta
48. <http://moliyaviyhisob.narod.ru> - Moliyaviy hisob fani bo'yicha ma'lumotlar sayti

XII. Bitiruv malakaviy ishlari (bakalavriat uchun)

49. Abdullaev O., Ishlab chiqarish harajatlari va mahsulot tannarxi kalkulyatsiyasi (Xiva Karpet qo'shma korxonasi misolida), Bitiruv malakaviy ish, Urganch, 2004 yil.
50. Matkarimov D., Ishlab chiqarish xarajatlari hisobi va mahsulot tannarxi kalkulyatsiyasi («Xiva gilami» OTAJ misolida), diplom ishi, Urganch, 1999 yil.

MUALLIFLAR HAQIDA MA'LUMOT

- Ruzmetov Baxtiyar – Urganch Davlat Universiteti Iqtisod fakulteti dekani, «Iqtisodiyot» kafedراسi mudiri, iqtisod fanlari doktori, professor, Nyu-York Fanlar Akademiyasi a'zosi. U Germaniya, Rossiya, Qozog'iston, Qirg'iziston, respublikamiz nashrlarida chop qilingan 150 dan ortiq monografiyalar, o'quv qo'llanmalari, ilmiy maqolalar muallifi, qator xalqaro ilmiy loyihalarda qatnashgan, ilmiy-amaliy anjumanlarda ishtirok etgan.
- Bekturdiev Ortiq – Urganch Davlat Universiteti iqtisod fakulteti dotsenti, iqtisod fanlari nomzodi. Mahsulot tannarxi va xarajatlarni kamaytirish imkoniyatlari mavzusida 15 dan ortiq ilmiy maqolalar muallifi
- Yuldasheva Qutlijon – Toshkent Davlat Pedagogika Universiteti geografiya-iqtisod fakulteti dotsenti. Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti sohasida 10 dan ortiq o'quv qo'llanmalari, ilmiy maqolalar muallifi
- Matqulieva Sanobar – Urganch Davlat Universiteti Iqtisod fakulteti katta o'qituvchisi, buxgalteriya hisobining xalqaro standartlari mavzusida 15 dan ortiq ilmiy maqolalar, o'quv-uslubiy qo'llanmalar muallifi, CAP (Certified Accountant Practitioner) – Sertifikatli amaliyotchi buxgalter maqomiga ega, CIPA dasturida «Moliyaviy hisob-1» o'quv kurslari treneri
- Matkarimov Davronbek – Urganch Davlat Universiteti Iqtisod fakulteti katta o'qituvchisi, buxgalteriya hisobi, moliyaviy menejment, yagona hisob axborot makonini shakllantirish yo'nalishlarida 15 dan ortiq ilmiy maqolalar, o'quv-uslubiy qo'llanmalar muallifi, CAP (Certified Accountant

Practitioner) – Sertifikatli amaliyotchi
buxgalter maqomiga ega

MUNDARIJA

KIRISH	3
I-MAVZU. «TANNARX KALKULYATSIYASI» FANINING PREDMETI, USLUBI VA VAZIFALARI	4
1.1. «Tannarx kalkulyatsiyasi» fanining predmeti	4
1.2. Fanning uslubi va vazifalari	4
1.3. «Tannarx kalkulyatsiyasi» fanini boshqa fanlar bilan aloqasi	6
II-MAVZU. ISHLAB CHIQRISH XARAJATLARI VA MAHSULOT TANNARXI	8
2.1. Ishlab chiqarish xarajatlari to`g`risida tushuncha	8
2.2. Ishlab chiqarish xarajatlari hisobini va mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilishning vazifalari	11
2.3. Xarajatlar guruhi va uning tarkibiy qismi	14
III-MAVZU. XO`JALIK YURITUVCHI SUB'EKTLAR FAOLIYA- TINING XARAJATLARINI TURKUMLASH	19
3.1. Ishlab chiqarish jarayonida xarajatlarni boshqarish	19
3.2. Ishlab chiqarishga sarflangan xarajatlarning umumiy turkumlanishi	20
3.3. Ishlab chiqarilgan mahsulotning tannarxini kalkulyatsiya qilish va baholash maqsadida xarajatlarni turkumlash	25
3.4. Tovar-moddiy zahiralarni ishlab chiqarishga sarflanishini baholash usullari	25
3.5. Mahsulot ishlab chiqarish va sotish xarajatlari tarkibida asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar amortizatsiyasini hisobga olish usullari	29
3.6. Sotish hamda moliyaviy faoliyat bilan bog`lik bo`lgan xarajatlar va ularning turkumlanishi	35
IV-MAVZU. ISHLAB CHIQRISH XARAJATLARINI HISOBGA OLISH VA MAHSULOT TANNARXINI KALKULYATSIYALASH ASOSLARI	38
4.1. Asosiy ishlab chiqarish xarajatlari tarkibi, ularning hisobi va mahsulot tannarxiga o`tkazilish tartibi	38
4.2. Umumishlab chiqarish xarajatlari tarkibi, ularni hisobga olish va mahsulot tannarxiga o`tkazish tartibi	44

4.3.	Ishlab chiqarishda yaroqsiz mahsulot hisobiga nobudgarchiliklar hisobi va ularni mahsulot tannarxiga o'tkazish tartibi	47
4.4.	Tugallanmagan ishlab chiqarishni baholash va hisobga olish	49
4.5.	Ishlab chiqarish xarajatlarini hisobi va mahsulot tannarxini kalkulyatsiyalash usullari	51
V-MAVZU. ISHLAB CHIQARILGAN MAHSULOT, BAJARILGAN ISH VA KO'RSATILGAN XIZMATLARNING TANNARXINI KALKULYATSIYA QILISH TIZIMI		57
5.1.	Xarajatlarni hisobga olish va mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilish tizimini turkumlash	57
5.2.	Ishlab chiqarish xarajatlarini hisobga olish va mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilishning buyurtmali usuli	59
5.3.	Jarayonli usulda xarajatlarni hisobga olish va mahsulotning tannarxini kalkulyatsiya qilish	64
VI-MAVZU. SANOAT ISHLAB CHIQARISH XARAJATLARINI HISOB VA MAHSULOT TANNARXINI KALKULYATSIYA QILISH		71
6.1.	Sanoat korxonalarida ishlab chiqarish xarajatlari hisobini tashkil etish va uning vazifalari	71
6.2.	Elektr ta'minotida ishlab chiqarish xarajatlarini hisobga olish va mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilish	74
6.3.	Neft va gaz qazib olish sanoatida ishlab chiqarish xarajatlarini hisobga olish va mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilish	80
VII-MAVZU. DEHQONCHILIK MAHSULOTLARI TANNARXI KALKULYATSIYASI		87
7.1.	Dehqonchilik tarmoqlari tasnifi	87
7.2.	Dehqonchilik xarajatlari va mahsulotlar olinishining analitik va sintetik hisobi	92
7.3.	G'alla ekinlari mahsulotining tannarxini hisoblash	93
7.4.	Makkajo`xori tannarxini aniqlash	94
7.5.	Kartoshka, sabzovot, poliz va em xashak ekinlari tannarxini hisoblash	95
VIII-MAVZU. PAXTA TANNARXI KALKULYATSIYASI		99

8.1. O`rta tolali paxtani tannarxini aniqlash	99
8.2. Ingichka tolali paxta navlari tannarxini aniqlash	99
IX-MAVZU. CHORVACHILIK MAHSULOTLARI TANNARXINI KALKULYATSIYALASH	103
9.1. Chorvachilik tarmog`ining tasnifi va hisobining vazifalari	103
9.2. Ixtisoslashtirilgan chorvachilik xo`jaliklarida xarajatlar va mahsulotlar hisobini tashkil etishning xususiyatlari	106
9.3. Chorvachilik xarajatlari va olingan mahsulotlarning analitik va sintetik hisobi	107
9.4. Chorvachilik mahsulotlari tannarxi kalkulyatsiyasi	109
X-MAVZU. AGROSANOAT MAJMUIDA MAHSULOT TANNARXI KALKULYATSIYASI	117
10.1. Agrosanoat majmui ishlab chiqarish turlari, xarajatlar hisobining mazmuni va mohiyati	117
10.2. Agrosanoat majmui ishlab chiqarish xarajatlarining analitik va sintetik hisobi	119
10.3. Agrosanoat majmui mahsulotlari tannarxi kalkulyatsiyasi	120
XI-MAVZU. UMUMIY OVQATLANISH VA XIZMAT KO`RSATISH KORXONALARIDA MAHSULOT TANNARXI KALKULYATSIYASI	124
11.1. Umumiy ovqatlanish va xizmat ko`rsatish korxonalarida xarajat va daromadlarining hisobi	124
11.2. Umumiy ovqatlanish korxonalarida mahsulot tannarxini kalkulyatsiyalash	124
11.3. Uy-joy-kommunal xo`jalik xarajatlari hisobi	126
XII-MAVZU. YORDAMCHI ISHLAB CHIQARISH KORXONALARI MAHSULOTLARI TANNARXI KALKULYATSIYASI	129
12.1. Yordamchi ishlab chiqarish sohalarida bajarilgan ish va xizmatlar tannarxini hisoblash	129
12.2. Ta'mirlash ustaxonalari xarajatlarining hisobi	130
12.3. Avtomobil transportidan va ot ulov transportidan foydalanish xarajatlarini hisobga olish	132
12.4. Elektr va issiqlik ta'minoti, suv va gaz ta'minoti xarajatlarini hisobini kalkulyatsiyasi	135
XIII-MAVZU. MAHSULOT TANNARXI KALKULYATSIYASINING «YANGI» TURLARI VA	138

USULLARI

13.1. Standart-kost (Standart costs) tizimi bo'yicha xarajatlarni hisobga olish va mahsulotning tannarxini kalkulyatsiya qilish	138
13.2. Direkt-kosting tizimi bo'yicha xarajatlarni hisobga olish va mahsulotning tannarxini kalkulyatsiya qilish	141
13.3. Xarajatlarni hisobga olish va mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilishning me'yoriy usuli	144

XIV-MAVZU. TANNARX KALKULYATSIYASIDA KOMPYUTER DASTURLARIDAN FOYDALANISH

147

14.1. Tannarx kalkulyatsiyasida 1S:Buxgalteriya tizimidan foydalanish	147
14.2. Tannarx kalkulyatsiyasini ishlab chiqishda Microsoft Excel dasturidan foydalanish	149

MUSTAQIL TA'LIM MAZMUNI

155

GLOSSARIY

157

ILOVALAR

167

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

222

MUALLIFLAR HAQIDA MA'LUMOT

226

**Baxtiyar Ruzmetov
Ortiq Bekturdiev
Sanobar Matqulieva
Davron Matkarimov
Qutlubika Yuldasheva**

TANNARX KALKULYATSIYASI

Kasb-hunar kollejlari uchun o`quv qo`llanma

Toshkent – "Ilm ziyo" – 2006

**Muharrir N.Usmonova
Rassom Sh.Qaxxorov
Texnik muharrir F.Samadov
Musahhih F.Temirxo`jaeva**

**2006 yil 20 sentabrda chop etishga ruxsat berildi. Bichimi 60x90.
"Panda Times Uz" harfida terilib, ofset usulida chop etildi. Bosma
tabog`i 14,5. Nashr tabog`i 16.0 b.t., 4000 nusxa. Buyurtma № 185.
Bahosi shartnoma asosida.**

**"ILM ZIYO" nashriyot uyi, Toshkent, Navoiy ko`chasi, 30-uy.
Shartnoma № 29 – 2006**

**O`zbekiston Matbuot va axborot agentligining G`afur G`ulom
nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyida chop etildi.
Toshkent, U.Yusupov ko`chasi, 86 – uy.**